3. Захаров С.В. Куда движется супружество в России? // Демоскоп Weekly. № 545-546. 4-17 марта 2013.
4. Ионин Л.Г. О принципах современной политики в области семьи и демографии. – М., 2010.
5. Леви Д.А. Семейная психотерапия. История, теория, практика / Д.А. Леви. – СПб. : Питер, 1993. – 233 с.
6. Миллс Ч.Р. Социологическое воображение. – М., 1998.
7. Навайтис Г. Семья в психологическом консультировании. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 1999. – 224 с.
8. Олифинович Н.И., Зинкевич-Куземкина Т.А., Велента Т.Ф. Психология семейных кризисов. – СПб.: Речь, 2007. – 360 с.
9. Основы психологии семьи и семейного консультирования. Учеб.пособие / Под общ. ред. Н.Н. Посысоева. – М.: Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004. – 328 с.
10. Спенсер Г. Синтетическая философия. В сокращенном изложении Говарда Коллинза. Киев, 1997.



UDK:372.8

Dilafroz AZAMATOVA,

Avloniy nomidagi Milliy-tadqiqot instituti tabiiy va iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikalarini takomillashtirish ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi

E-mail: dilafroz@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, dotsent T.Ismoilov taqrizi asosida

CHEMISTRY TEXTBOOKS IN A MODERN APPROACH

Annotation

In the article, textbooks created on the basis of the National Curriculum for 7th and 10th grade chemistry, their content and developed competencies are highlighted.

Key words: "National Curriculum", basic competencies, subject-related competencies, practical training, project work.

УЧЕБНИКИ ХИМИИ В СОВРЕМЕННОМ ПОДХОДЕ

Аннотация

В статье освещены учебники, созданные на основе Национальной учебной программы по химии для 7 и 10 классов, их содержание и развиваемые компетенции.

Ключевые слова: «Национальная учебная программа», базовые компетенции, предметные компетенции, производственная практика, проектная работа.

KIMYO FANIDAN ZAMONAVIY YONDASHUVDAGI DARSLIKLAR

Аннотация

Maqolada "Milliy o'quv dasturi" asosida 7- va 10-sinf kimyo fanidan yaratilgan darsliklar, ularning mazmuni va rivojlantiriladigan kompetensiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Milliy o'quv dasturi", tayanch kompetensiyalar, fanga oid kompetensiyalar, amaliy mashg'ulot, loyiha ishlari.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030 yilgacha belgilangan yangi ta'lim konsepsiyasida "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" dolzarb vazifa etib belgilandi[4]. Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'qitish sifati mezonlari, ko'rsatkichlari, parametrlari va indikatorlari tizimini ishlab chiqish, o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 7- va 10-sinf o'quvchilarining ko'nikmalarga asoslangan ta'limda o'zlashtirish va o'rganishga qiziqishlari o'rganildi. Bunda respublikaning 14 ta hududidan bittadan maktablar tanlab olindi. Respondentlar 2022-2023 o'quv yili hamda 2023-2024 o'quv yili sentabr-fevral oylari davomida o'zlashtirishi fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda kuzatildi. Tadqiqot usullari sifatida tahlil, sintez, kuzatish, so'rov usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi. Jahonda tabiiy ilmiy fanlarni o'qitish sifatini yaxshilash orqali, o'quvchilarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zamonaviy metodik ta'minotni yaratish va ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan samarali tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

XXI asrda ta'lim bo'yicha xalqaro Yevropa kengashida J.Delor "Ta'lim- yashirin xazina" nomli ma'ruzasida "ta'lim tayanadigan to'rta ustunni" tushuntirib beradi: bilishni, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish. Bu tushunchalar kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi.

Vatanimizda kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish yuzasidan L.T.Zaylobov, F.A.Alimova, E.U.Eshchanov, G.S.Ergasheva, T.Gulboyev, A.Azimov, Sh.Begmatov, M.Ajjeva, S.Nizomova, X.Rajabov, I.Shernazarov, Sh.Shomurotova, D.Shayzakova, M.SH.Ahadov, R.Sh.Berdiqulov, D.S.Sarimova, Sh.Q. Shodmanova, D.Qodirova kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

10-sinf. IV bob. 3-mavzu. Amaliy mashg'ulot. Qog'ozni qayta ishlash. 189-bet.

1. Qog'ozni mayda bo'laklarga bo'ling, ularni stakanga joylashtiring. Ustidan issiq suv quyung, 2-3 soatga qoldiring.

2. Qog'oz parchalari bo'kadi. Bo'kkan massani yaxshilab ezing. Natijada bo'tqaga o'xshash massa paydo bo'ladi. Bu bo'tqasimon massa qog'oz xomashyosi deb ataladi.

3. Tog'orachaga dokali yoki to'rli g'alvirni joylashtiring.

4. Qog'oz xomashyosini tog'oraga quyung va kerakli zichlik olinmaguncha uni suv bilan suyultiring. Suv qancha ko'p bo'lsa, qog'oz varag'i shunchalik nozik bo'ladi. Olingan eritmani to'g'ri aralashiring. Keyin dokali yoki to'rli g'alvirni 2-tog'orachaga tushiring va zarralar panjara ustiga joylashguncha kuting.

6. Xomashyo sifatida gazeta olingani sababli kulrang massa hosil bo'ladi. Oqartirish uchun 5-10 ml vodorod peroksid soling.

7. Suvni to'kib tashlagandan so'ng dokali yoki to'rli g'alvirni sochiq ustiga qo'yamiz, halqani olib tashlaymiz, boshqa sochiq bilan yopamiz va uni dazmollaymiz.

Diqqat! Dazmoldan foydalanishda elektr jihozlari bilan ishlash qoidalariga rioya qiling.

8. Dazmollagandan so'ng doka yoki to'rli g'alvirdan qog'oz varag'i osongina olinadi.

9. Bu varaq hali to'liq quruq emas. Uni press ostiga qo'ying, bu varaq quriganida tekis bo'lishini ta'minlaydi.

10. Tayyor bo'lgan qog'ozdan foydalanish mumkin. 11. Tajriba asosida xulosa chiqaring.

O'quvchilarni quyidagi xulosaga kelishga yonaltiriladi: Qog'oz chiqindilarini qayta ishlash orqali ishlab chiqaruvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta ekologik muammolarni hal qilishadi:

- o'rmonlarni kesishdan saqlash (1 tonna qog'oz mahsulotini ishlab chiqarish uchun o'rtacha 17 ta daraxt kerak);
- chiqindilarni kamaytirish (qayta ishlangan qog'oz tufayli ishlab chiqarishda ifl oslantiruvchi "yuk" 73% kamayadi);
- qattiq maishiy chiqindilar poligonlari kamayadi.

Milliy o'quv dasturi maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda Birlashgan Millatlar Tashkilotining dunyoda

iqtidosiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global chaqirig'i bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari kimyo darsliklari mazmuniga singdirilgan. Barqaror rivojlanish sohasidagi turli mamlakatlarning tajribasi juda katta farq qilganligi sababli, 2030-yil Kun tartibining barcha maqsadlari va tegishli vazifalari umumiy, universal shaklda shakllantirilgan. Har bir mamlakat BRMni lokalizatsiya qilishi, ya'ni 2030- yilga mo'ljallangan kun tartibidagi 169 ta vazifadan o'zining rivojlanish ustuvorligi va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, milliy rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishi belgilangan. Mamlakatlar ushbu maqsadlarni o'zining milliy sharoitlariga moslashtirishi ko'zda tutilgan.

Milliy o'quv dasturi asosida 7- va 10- sinf Kimyo darsligida Barqaror rivojlanish maqsadlaridan:

“7- maqsad: Barcha uchun energiyaning arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy manbalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;

11- maqsad: Shahar va aholi yashash joylarining ochiqligi, xavfsizligi, mustahkamligi va ekologik barqarorligini ta'minlash;

12- maqsad: Oqilona iste'mol qilish va ishlab chiqarish modellari o'tishni ta'minlash;

13- maqsad: Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha tezkor choralar ko'rish” ga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bir qator mavzularga singdirilgan:

7-sinfda: IV bob. 2-mavzu. Havoni ifloslanishiga ta'sir etuvchi omillar. 87-bet.

IV bob. 6-mavzu. Yonish. 97-bet.

IV bob. 8-mavzu. Ozon va uning ishlatilishi. 102-bet.

IV bob. 9-mavzu. Kislrorod va ozonning biologik ahamiyati. 104-bet.

V bob. 7-mavzu. Kislotali yomg'irlar. 126-bet.

VI bob. 7-mavzu. Suvning ifloslanishi va uni tozalash usullari. 144-bet.

VIII bob. 2-mavzu. O'zbekistondagi foydali qazilmalar va konlar. 176-bet.

VIII bob. 3-mavzu. Foydali qazilmalarni ishlab chiqarishdagi ekologik aspektlar. 170 -bet.

VIII bob. 4-mavzu. Amaliy mashg'ulot. Ekologik izni kamaytirish. 173-bet.

10-sinfda: II bob. 8-mavzu. Alkenlarning olinishi, xossalari va ishlatilishi. 59-bet.

II bob. 19-mavzu. Neft va neftni qayta ishlash. 88-bet.

II bob. 22-mavzu. Uglevodorodlarning tabiiy manbalari, ularni qayta ishlash mahsulotlaridan samarali foydalanish. 96-bet.

III bob. 15-mavzu. Amaliy mashg'ulot. O'simliklar tarkibidagi murakkab efirlar. 150-bet.

III bob. 22-mavzu. Tabiiy va sun'iy tolalar. 169-bet.

IV-bob. “Atrof-muhitni muhofaza qilish” deb nomlanadi.

IV bob. 2-mavzu. Organik chiqindilar va ularni qayta ishlash texnologiyalari. 185-bet.

IV bob. 3-mavzu. Amaliy mashg'ulot. Qog'ozni qayta ishlash. 189-bet.

O'quv dasturlarida ta'limning faoliyat mazmuni shakllantirilishi kerak bo'lgan faoliyat usullari, ko'nikmalari,

O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllantirish samaradorligi (tajriba boshida va oxirida)

Guruhlar	O'quvchilar soni	Reproduktiv daraja	Qisman daraja	algoritmik	Qisman daraja	izlanuvchan	Mustaqil tadqiqiy daraja
Tayanch kompetensiyalar							
Tajriba guruhi	boshida	782	243	328	152		59
	oxirida	782	75	352	208		147
Nazorat guruhi	boshida	780	241	325	154		60
	oxirida	780	238	324	152		66
Fanga oid kompetensiyalar							
Tajriba guruhi	boshida	782	211	345	172		54
	oxirida	782	76	321	242		143
Nazorat guruhi	boshida	780	190	346	182		62
	oxirida	780	190	346	182		62

Demak, kompetensiyaviy yondashuv asosidagi 7-10-sinflar kimyo darsliklari mazmuni:

o'quvchilar tomonidan to'planishi va tushunilishi kerak bo'lgan faoliyat tajribasiga va o'quvchilar ko'rsatishi kerak bo'lgan o'quv yutuqlariga urg'u berishda aks etadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning eng muhim belgisi o'quvchining kelajakda mustaqil o'rganish qobiliyatidir va bu chuqur bilim olmasdan mumkin emas. Biroq, bilimning roli o'zgardi. Bilim hozirda butunlay ko'nikmalarga bo'ysunadi. Ta'lim mazmuni faqat ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi. Boshqa barcha bilimlar ma'lumotnoma sifatida ko'rib chiqiladi, ular o'quvchilarning boshida emas, balki ma'lumotnomalarda, entsiklopediyalarda, Internetda saqlanadi. Shu bilan birga, o'quvchi, agar kerak bo'lsa, muayyan muammolarni hal qilish uchun ushbu ma'lumotlarning barcha manbalaridan tez va aniq foydalana olishi kerak.

Ta'lim maqsadiga erishish uchun o'qituvchining o'quv mashg'ulotlarining tarkibi, mazmuni – o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishda nimani o'zgartirish kerak?

O'quv muammolarini hal qilish uchun aqliy faoliyatni faollashtirish va o'quv texnikasini rivojlantirishning samarali modelini yaratish muhim hisoblanadi.

Bola oddiy yodlashdan bilimga, qobiliyatsizlikdan mahoratga o'tish yo'lida bo'lib, o'z harakatlarining ma'nosi va natijasini bilishi, shu bilan kompetensiyalarga ega bo'lishi qanchalik muhimdir. Faqat o'quvchining o'zi intilib, tushunib olgan bilimlari mustahkam va ongli bo'ladi.

Kimyoni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish uchun uyga vazifa uchun loyiha ishlari berilgan.

Masalan, I bobdagi “Amaliy mashg'ulot. Kundalik hayotda, xo'jalikda sodir bo'layotgan kimyoviy jarayonlarni kuzatish va tavsiflash” mavzusida “Bog'da sodir bo'ladigan kimyoviy hodisalarni kuzating, ma'lumotlar to'plang va keyingi darsga taqdim eting” t nomli loyiha ishi;

V bob “Mustahkamlash darsi” mavzusida “Tabiiy indikatorlarni bilasizmi? Ulardan qayerda va qanday foydalanish mumkin?” nomli loyiha ishi;

VI bob. “Suvning ifloslanishi va uni tozalash usullari” mavzusida “Suvning ifloslanishi va uni tozalash usullari haqida takliflar loyihasini tayyorlash”;

“VII bob. “ Tirik organizmlardagi kimyoviy elementlar va ularning ahamiyati” mavzusida “Ayrim mineral moddalar va kimyoviy elementlarning ozuqalar tarkibida uchrashi hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar to'plash” nomli loyiha ishi;

VII bob. “Amaliy mashg'ulot. Olma tarkibini aniqlash” mavzusida “Mevalar yoki sabzavotlar tarkibidagi vitamin va minerallar” mavzusida loyiha ishi berilgan.

Tajriba- sinovda qatnashgan maktablarda 7- va 10- sinf o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishlari va o'quv natijalarining ortgani kuzatildi. O'qituvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarga o'quvchilarni jalb etish muammolari kamaydi.

(tajriba boshida va oxirida)

1. Kimyo tushunchasi dunyoning yagona tabiiy-ilmiy tasvirining ajralmas qismi ekanini, kimyo fani boshqa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan markaziy tabiiy fanidir.

2. Atrofdagi dunyo ma'lum bir tuzilish bilan ajralib turadigan va o'zaro o'zgarishlarga qodir bo'lgan moddalardan iboratligi, moddalarning tuzilishi, xususiyatlari va qo'llanilishi o'rtasida bog'liqlik mavjud.

3. Kimyoviy fikrlash, atrofdagi dunyo hodisalarini kimyoviy nuqtai nazardan tahlil qilish qobiliyati, kimyoviy tilda gapirish va fikrlash qobiliyati.

4. Kimyoning kundalik hayotdagi o'rni va uning jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyatini tushunish, shuningdek, insoniyatning global muammolari bo'lganoziq-ovqat, energiya, ekologik, mudofaa va boshqalarni hal qilishda o'rnini anglash.

5. Kundalik hayotda va amaliyotda moddalar, materiallar va kimyoviy jarayonlar bilan xavfsiz ishlash ko'nikmalari va

kimyoviy jarayonlarni boshqarish kabi bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi.

Bunda ta'lim-tarbiya jarayonini boyitish o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish talab etiladi. Kompetentsiyaviy yondashuv ta'lim maqsadlarini tushunishning o'zgarishiga, faoliyat, guruh, o'yin, rol, amaliyotga yo'naltirilgan, muammoli kabi boshqa ta'lim metod yoki texnologiyalari zarurligini tushunishga olib keladi, zamonaviy o'qitish metodlaridan foydalanishni taqozo etadi. O'quvchilarga alohida predmetlar o'rtasidagi, maktabdagi mashg'ulotlar va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqani ko'rishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. "Kimyo fanining uzviyligini ta'minlash KONSEPSIYASI", T., -2021. 5 b.t.
2. Asqarov I., K. Gopirov, D. Azamatova, Sh. G'aniyeva. "Kimyo" 7- sinf o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 20,5 b.t.
3. Ismatov I., D. Azamatova, M. Mo'minjonov, M. Muratov. "Kimyo" Umumta'lim maktablari 10 - sinf o'quvchilari uchun darslik. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 21,5 b.t.
4. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 b.



UDK:159.5.6.

Akram AZIZQULOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
E-mail: akramproton@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

INSON BILISH QOBILIYATI G‘AZZOLIY TALQINIDA

Аннотация

Mazkur maqolada islom ilohiyotining yirik nazariyotchilaridan biri Imom G‘azzoliyning inson bilish qobiliyati haqidagi yondashuvi falsafiy- metodologik jihatdan tahlil etilgan. Maqolada shuningdek alloma tomonidan bayon etilgan noratsional bilish haqidagi qarashlarining ilmiy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azzoliy, inson, bilish qobiliyati, hissiy bilish, aqliy bilish, intuitiv bilish, aql va e‘tiqod.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ ЗНАНИЯ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ГАЗАЛИ

Аннотация

В данной статье философско-методологически анализируется подход одного из крупнейших теоретиков исламского богословия имама Газали к человеческому познанию. В статье также объясняется научная значимость взглядов на иррациональное познание, высказанных ученым.

Ключевые слова: Газали, человек, познание, чувственное познание, рациональное познание, интуитивное познание, разум и вера.

HUMAN KNOWLEDGE IN THE INTERPRETATION OF GHAZALI

Annotation

This article philosophically and methodologically analyzes the approach of one of the largest theorists of Islamic theology, Imam Ghazali, to human knowledge. The article also explains the scientific significance of the views on irrational knowledge expressed by scientists.

Key words: Ghazali, man, cognition, emotional cognition, mental cognition, intuitive cognition, reason and faith.

Kirish. Islom ilohiyotining yirik nazariyotchisi hisoblangan Abu Muhammad bin Ahmad al G‘azzoliy (1059-1111) musulmon Sharqida «Hujjatul islom» va «Bahri bug‘ roq‘ (Dengiz bag‘ rli) degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Uning birgina «Ixya al ulum ad-din» (Diniy ilmlarning tirilishi) asari o‘n asrdan buyon madrasalarda asosiy darslik sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. XI asr va undan keyingi aqoid ilmni rivoji G‘azzoliy ta‘limoti bilan bog‘liq. G‘azzoliyning ilohiyot nazariyasiga oid asarlaridan tashqari «Al xulosa», «Taxofitul falsifa» (Faylasufning ixtiloflari), «Maqsadlar», «Al-maznun bihi ala g‘oyri ahlihi» («O‘zga xalqlarning yanglish fikrlari»), «Haqiqatul-qovlayn» (Ikki so‘z haqiqati), «Mavqulot» (Tushunchalar) asarlari uning islom ilohiyotining nazariy muammolari bilan birga bilish va mantiq masalalari bilan ham chuqur shug‘ullanganidan dalolat beradi.

Mutafakkirning serqirra ta‘limoti G‘arbda ham, sobiq ittifoq davrida diyorimizda ham bir tomonlama talqin etildi. Rus tadqiqotchilari Ibn Rushdning «Taxofut ul-taxofut» asari G‘azzoliyning «Taxofutul falsifa» asaridagi irratsionalistik qarashlariga raddiya sifatida yozilgan bo‘lib, uning o‘zini esa ilmiy bilishda har qanday ratsionallikni, aqliy bilishni inkor etadigan va bilishni faqat irratsionalistik mistik nuqtayi nazardan turib talqin etuvchi ilohiyotchi sifatida baholaydilar[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Istiqloq tufayli milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizni tiklash borasidagi xayrli ishlar qatorida Imom G‘azzoliyning ta‘limotini obyektiv, ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati vujudga keldi. G‘azzoliyning boy ilmiy merosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu holatning aksiga, ya‘ni, uni mistik irratsionalistik qarash tarafdori deyish noto‘g‘riligiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, allomaning inson bilish qobiliyati xususidagi yondashuvi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Zamonaviy gnoseologiyada inson bilish qobiliyati dastlab hissiy bilishdan boshlanishi, hissiy bilish orqali predmet va hodisalarning tashqi belgilari va xususiyatlarini bilish mumkinligi qayd etiladi. Narsa va hodisalarni ichki mexanizm va qonuniyatlarini o‘zlashtirish uchun aqliy bilish, tafakkur qobiliyati

lozim. G‘azzoliy ham inson bilish qobiliyati xususida o‘z fikrlarni bayon etar ekan, mavzuni chuqurroq tushuntirib berishga harakat qiladi. U inson bilish qobiliyati hissiy va aqliy bilish bosqichlaridan iborat ekanligini, hissiy bilish bosqichini aqliy bilishga nisbatan quyi bosqich ekanligini ta‘kidlaydi. Alloma bilish jarayonini dastlab hissiy bilish qobiliyati orqali bilish, so‘ng aqliy bilish orqali davom etishini bayon etadi. Shu bois u dastlab bilish qobiliyatini tasnif qilishdan boshlaydi.

U hissiy bilish qobiliyatining mohiyatini bayon etar ekan shunday deydi: «Alloh taolo insonlarga beshta hissiyot berdiki, odamlar bundan foydalansinlar deb» [2].

Chunonchi ko‘z - ko‘rish, quloq - eshitish, burun - hid bilish va quvvati zoiqa, ya‘ni bir nimarsani totib bilmak – ta‘m bilish hamda quvvati lomisa, ya‘ni silab bilmoqlik – teri sezgisi. G‘azzoliy bularni zohiriy idrokot deb ataydi. «Ushbu hislarning har birining xos qilar amallari bordur.

Agar shu his-sezgilardan biriga halal etsa, odamlarning qiladigan amallariga halal yetkusidir» [2]. Bu besh a‘zolariing har birini o‘z bajaradigan funksiyalar mavjudligini, bordiyu ulardan birortasi shikastlansa, inson bilish qobiliyatiga jiddiy zarar yetishi mumkinligini uqtirmoqda. G‘azzoliy hissiy bilish a‘zolari inson bilish manbaining tabiiy sustrati ekanligini ta‘kidlaydi.

Alloma hissiy bilish qobiliyati aqliy bilish qobiliyatidek mukammal va aniq bilim bermaydi, deb hisoblaydi. Hissiy bilishning cheklanganligini quyidagicha tushuntiradi: «Hislariga qanday qilib ishonasan axir? Sendagi yeng kuchli his bo‘lmish ko‘rishni olaylik. Soyani bir joyda qimirlamay turganini ko‘rib, unga harakatsizlikni hukm qilasan. Vaholan-ki oradan bir muddat o‘tib uni bir da‘fada bo‘lsa-da, sekin-astalik bilan harakatlanganligiga, bir joyda harakasiz turmaganiga amin bo‘lasan [3].

Mazkur qarash zamonaviy ontologiyada borliqdagi barcha narsalar harakatda ekanligi, harakat materiyaning asosiy atributi ekanligi haqidagi konsepsiyani G‘azzoliy tomonidan bayon etilishidir. Darhaqiqat bizni ko‘zimizga go‘yoki harakasiz ko‘ringan biror bir joyda qo‘zg‘almas bo‘lganmateria shakllarida ham doimiy fizik yoki kimyoviy harakatlar sodir bo‘ladi. Buni

hissiyot orqali emas, faqat aql orqali anglash mumkin ekanligini ta'kidlashi alloma gnoseologiyasining yutug'idir. U hatto soya ham harakatda bo'ladi, deb uqtirmoqda. Shuningdek, allomaning koinot haqidagi o'n asr avval aytilganlarini bayon etsak, u shunday deydi: "Yoki osmondagi yulduzlarin olaylik. Sening ko'zingga u kichik bir nuqta kabi ko'rinadi, biroq falakkiyot ilmi dalillari uning er kurrasidan bir necha million barobar katta ekanini isbot etadi-ku?!" [3].

G'azzoliy keltirgan misollar hissiy bilishni qanchalik chegaralanganligini, faqat aqliy mantiqiy mushohada haqiqiy bilimlarni berishini ta'kidlaydi. Hissiyotlarimiz soyani harakasiz ko'rsatadi, aqliy tafakkur orqali materiyadagi barcha narsalar harakatda, shu tufayli soya ham harakatlanadi deb ta'kidlaymiz. Hissiyotlarimiz koinodagi yulduzlarning mitti nuqta singari qabul qilinishini, aqliy tafakkur esa o'sha hissiyotda nuqta bo'lib ko'ringan mitti yulduzning qanchalik ulkan ekanligini mushohada eta oladi. Allomaning fikricha his egasi holat o'ziga qanday tuyulsa, o'shancha hukm qilaveradi. Aql hislarni beayov tarzda yolg'onga chiqaraveradi [3.30]. G'azzoliy "his egasi holat o'ziga qanday tuyulsa, o'shanga hukm qilaveradi" - deb hisoblaydi va bu hissiy bilish qobiliyatining cheklanganligini bildiradi.

G'azzoliy hissiy bilishda zohiriy idrokotdan tashqari botiniy idrokot ham mavjudligini quyidagicha izohlaydi. «Bu idrokotni ba'zisi botiniyki, bu ham beshdur. Chunonchi:

1. Xayol
2. Va quvvati tafakkur
3. Va quvvati hizf (yodlash, yodda saqlash)
4. Quvvati tazkir (esga tushirish, zikr etish)
5. Quvvati tavaxxum (intilish, bilim olishga intilish, quvvati)» [2].

G'azzoliy idrokotni botiniy shakllari deb ataydigan quvvati hizf - yodlash, esda saqlash qobiliyati va quvvati tazkir - esga tushirish kabi ruhiy jarayonlar insonning xotira qobiliyatiga mansubdir. Quvvati tavaxxum bu narsa va hodisalarni mohiyatini bilish tomon intilish, bilib olishga ishtiyoq ham kishidagi hissiy emosional kechinmalar bilan bog'liq bo'lgan ruhiy jarayondir. Xotira, xayol va quvvati tavaxxum bular inson bilish jarayonida muhim subyektiv omillar bo'lib, ruhiyat bilan bog'liq jihatlardir. Hozirgi zamon bilish falsafasida ham xotira, xayol va hissiy emosional kechinmalar ilmiy ijodiyot jarayonida muhim subyektiv omil sifatida qayd etilmoqda [6].

Alloma hissiy bilish jarayonini zohiriy va botiniy jihatlarni tushuntirib o'tgandan so'ng inson bilish qobiliyatining navbatdagi aqliy bilish imkoniyatlarini bayon etar ekan shunday deydi: "Keyin inson yana bir pog'ona - aql yuritish bosqichiga taraqqiy etadi. Endi inson vojibotlar, joiz va mahol ishlar hamda avvalgi bosqichlarda anglay olmagani boshqa ishlarni idrok etadi" [3]. Alloma bu jarayonni izohlar yekan, shunday deydi: "Demak, aql-hislar bilan idrok qilishning imkoni yo'q narsalarni anglashga sabab bo'luvchi insondagi basirat bosqichidir" [3]. Hissiy bilish qobiliyatiga nisbatan aqliy bilish qobiliyatini ustunlik jihatlarni tushuntirar yekan, G'azzoliy shunday deydi: "Hissiyotga nisbatan aql taqozo etuvchi, isboti tayin avvaliyot masalalaridan boshqa narsalarga mutlaqo ishonch yo'qdir" [3].

Mutafakkir aqlning mohiyatini inson faoliyatidagi o'rni alohida to'xtalib o'tadi. Uning «Kimyo saodat» asarida aqlni mohiyati va uni insonning hayot faoliyatida hamda Oллоhga nisbatan e'tiqodida tutgan o'rni keng tadqiq etilgan (5). Jumladan alloma inson faoliyatida aqlning mohiyatini bayon etib, uning to'rt xususiyati borligini quyidagicha ta'kidlaydi: birinchi xususiyati bu aql - insonni hayvonlardan ajratib turadigan sifatdir; aqlning ikkinchi xususiyati narsalarni bir-biridan farqlash va taqqoslash jihati; uchinchisi tajribalardan foydalanish xususiyatidir. Bu fikrni davom ettirib, alloma shunday deydi «Kimki tajriba bilan toblansa, fikr-qarashlar bilan tarbiyalansa, u odatda oqil deyiladi»; hirs va nafsardan saqlay olish - bu aqlning to'rtinchi xususiyatidir [4]. Ko'rinib turibdiki G'azzoliyning aql kategoriyasini falsafiy tahlilida ratsional yondashuv elementlari mavjud.

G'azzoliy insonning hissiy va aqliy bilish qobiliyatlari o'zaro bog'liqligini tushuntirar ekan, shunday deydi:

"Hissiyotlarni aqlga xizmat qilmoq uchun xalq qilibdur. Toki aql hissiyotlar vositasi birla Haq taoloning ajoyib - g'aroyib qudratlarini bilgay. Havos (hissiyotlar -A.A) aqlning xizmatkoridir [2].

G'azzoliy tomonidan inson bilishda hissiy bilish bilan birga aqliy bilish hamda ruhiy emosional jihatlarning bir-biri bilan bog'langanligini asoslab berishi islom gnoseologiyasining yutug'idir.

G'azzoliy aqliy bilish qobiliyatidan ham ustunroq bilish bosqich - zamonaviy epistemologiyada - intuitivizm - noratsional bilish bosqichi mavjudligini irratsionalistik nuqtayi nazaridan izohlar ekan, shunday deydi: "Nihoyat inson aqldan keyingi bosqichga qadam tashlaydi. Bu bosqichda insonning qalbida aql bilan idrok qilishning imkoni yo'q bo'lgan aybga taaalluqli ishlar hamda kelajakda bo'ladigan ulkan hodisotlarni ko'ruvchi basirat hissi ko'zi ochiladi" [3].

Alloma intuitiv bilishga shubha bilan qaraydiganlarga nisbatan shunday deydi: "Qayerdan bilasan, balki aql bilan idrok qiluvchilarning ortida ham agar ko'rinsa, xuddi aql hukmi hislarining zalolatini yolg'onga chiqargani kabi aqlning hukmini ham yolg'onga chiqaruvchi narsa bordur?! Zero aqldan g'olib keluvchi shunday idrokning hali senda ko'rinmaganini uning yo'qligini anglatmaydi-ku?! [3].

Islom ta'limotining nazariyotchisi sifatida G'azzoliy tomonidan (ilohiy) haqiqatga noratsional (irrational) holat orqali, ya'ni ilohiy, g'aroyib orqali erishishni afzal deyishi tabiiydir. Shuning uchun bu holatni ko'proq tasavvuf vakillarida ro'y berishini nazarda tutar ekan, shunday deydi: "Kim bilsin so'fiylar o'zlarigagina xos ekanini da'vo qiladigan, hislardan begona bo'lib, nafsning tubiga sho'ng'iganlarida mushohada etadigan aqlga to'g'ri kelmaydigan hollari - shotahatu jazbalar aynan shudir balki..." [3].

Biz mutafakkirni qat'iy ratsionalistlar qatoriga qo'shmoqchi emasimiz. Ammo uni bilish jarayonida har qanday ratsionallikni inkor etuvchi irratsionalist sifatida talqin qilish, uning boy ilmiy merosiga xolisona baho berishdan yiroq bo'ladi. Haqiqatga erishishda ilohiy bilish, qalban bilishni e'tirof etar ekan, unda ratsionallikni ham e'tirof etadi. «Bas odam o'zini yaratgan Alloh azza va jallani shu aql idroki bilan tanur. Alloh taoloni ajoyib va g'aroyib yaratish qudratlarini tafakkur bilan mushohada qilib, aql nuri birla o'zini g'azab ilkidin xalos qilur» [2]. Haqiqatan ham ilohiy, qalban (noratsional) haqqa etishish uchun avvalo shariat aqidalarini ratsional mushohada etish lozim. Imom G'azzoliy ham bilishning ikkala jihatini o'zaro munosabatini nisbatini e'tirof etgan.

Ko'rinib turibdiki G'azzoliy inson faoliyatida aqlning ahamiyatini bayon etar ekan, musulmonning barcha jismoniy va ruhiy - ma'naviy faoliyati, xususan, Oллоhga nisbatan e'tiqodi aqlga asoslanishi kerakligi alloma gnoseologik qarashlarining asosiy xususiyatlaridan biridir. E'tiqodni aqlga asoslanishi lozimligini bayon etish bilan birga bilish jarayonini hissiy va aqliy bilish qobiliyatlari orqali amalga oshishi, shuning bilan birga aqliy bilish bosqichidan ham yuqoriroq bosqich - intuitiv bilish mumkinligini ta'kidlashi mutafakkirning gnoseologik qarashlarini ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Fikrimizcha, G'azzoliyning bilish nazariyasiga oid konseptual g'oyalari hozirgi zamon gnoseologiyasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, G'azzoliyning inson bilish qobiliyati xususidagi yondashuvi avvalo ratsional ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir o'zining gnoseologik qarashlarida hissiy va aqliy bilish qobiliyatini mohiyatini bayon etar ekan, hissiy bilish imkoniyatlarini chegaralanganligini, hissiy va aqliy bilish bir-biri bilan uzviy aloqadorligini mantiqiy ratsional tarzda tushuntirib beradi. Ikkinchidan XX asr G'arbdan shakllangan intuitivizm oqimining asosiy g'oyalari mutafakkir o'n asr avval bayon etgan edi, ya'ni aqliy bilish qobiliyatidan yuqoriroq bosqich - noratsional bilish bosqich mavjudligi, hamda u bu bosqichning xususiyatini tushuntirib o'tadi.

ADABIYOTLAR

1. Еремеев, Д.Е. Ислам: образ жизни и стил мышления. - М. Политиздат, 1990.-с. 288.
2. Газзалий. Кимёи саодат (Рух ҳақиқати). Т.: Адолат. 2005 й. - 412б.

3. Ғаззолий “Ал-мункиз минад-долаал” - “Залолатдан қутилиш (Залолатдан қутқарувчи ва ҳолларни баён этувчи) - Тошкент: “Бок Медиа Шоғ” МЧЖ қошидаги “ Мунир” нашриёти, 2022 й. -176 б.
4. Ғаззолий. Ихёу улумид-дин. -Т.: Мовароуннаҳр. 2003.232 б.
5. Азизкулов А. Муслмон Шарқ фалсафасида рационаллик муаммоси // Илмий тадқиқотлар ахборотномаси. Самарқанд, 2000 й. №4. 6-11-б.
6. Мистик ва назарий билиш хусусида Ғаззолийнинг қарашлари.// СамДУ илмий тадқиқотлар ахборотномаси. 2003 й. №2. 6. Азизкулов А. Қўшоқов Ш.С. Илмий ижодиёт: Фалсафий ва илмий-назарий муаммолар (монография). Самарқанд. СамДУ нашри, 2003 й. 140-бет.
7. Ғаззолий. Кимёи саодат (Дил ҳақиқати).Т.:Камалак.1994 й.- 80 б.



Dilshoda AKBARALIYEVA,

Student of 2206 group, Uzbekistan state world languages university

E-mail: dilshodaakbaraliyeva043@gmail.com

Dilnoza SHAMURATOVA,

Senior teacher, Department of English Applied Disciplines, Uzbekistan state world languages university

E-mail: dizamura5@gmail.com

Based on the review of TSPU professor, Doctor of Philosophy, G. Makhkamova

ADDRESSING CHALLENGES IN ADOPTING DEEP LEARNING APPROACHES FOR ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article explores addressing challenges in adopting deep learning approaches for English language classrooms. Drawing upon existing literature and research, it discusses the significance of deep learning approaches in language education and provides practical insights for educators. Through a comprehensive review of relevant studies and theoretical frameworks, this article aims to shed light on effective strategies for integrating deep learning techniques into English language instruction.

Key words: Deep learning strategies, English language classrooms, language education, approaches, pedagogy

РЕШЕНИЕ ПРОБЛЕМ В ПРИНЯТИИ ПОДХОДОВ ГЛУБОКОГО ОБУЧЕНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

Эта статья исследует преодоление препятствий в применении подходов глубокого обучения в английских языковых классах. Основываясь на существующей литературе и исследованиях, она обсуждает значимость подходов глубокого обучения в языковом образовании и предоставляет практические наставления для педагогов. Через всесторонний обзор соответствующих исследований и теоретических рамок, эта статья ставит своей целью пролить свет на эффективные стратегии интеграции техник глубокого обучения в обучение английскому языку.

Ключевые слова: стратегии глубокого обучения, классы английского языка, языковое образование, подходы, педагогика.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA G‘OYAVIY YONDASHUV USULLARINI QABUL QILISHDAGI MUAMMOLARNI HAL QILISH

Аннотация

Bu maqola ingliz tilini o‘qitishning g‘oyaviy yondashuvlarini qabul qilishdagi muammolarni duchor qiladi. Mavjud adabiyot va tadqiqotlarga asoslanib, u tili ta’limida g‘oyaviy yondashuvlarining ahamiyatini baholaydi va o‘qituvchilar uchun amaliy maslahatlar beradi. Muammo yechishga qaratilgan tadqiqotlar va nazariy tuzilmalar to‘g‘risidagi umumiy ko‘rib chiqish orqali, bu maqola ingliz tilini o‘qitishda g‘oyaviy yondashuv texnikalarini integratsiyalashning samarali strategiyalarini aniqlovchi maqbul strategiyalarini keltirib chiqarishni maqsad qiladi.

Kalit so‘zlar: Chuqur o‘rganish strategiyalari, ingliz tili o‘quv xonalari, til ta’limi, yondashuvlar, pedagogika

Introduction. In the intricate landscape of language education, the adoption of effective learning strategies stands as a cornerstone in nurturing students' linguistic prowess and fluency. In the complex world of teaching languages, the use of effective learning methods is crucial for developing students' language skills. Among the various approaches, deep learning techniques have become invaluable for helping students learn and understand languages better. These strategies, which focus on gaining factual knowledge and essential comprehension skills, are particularly important in English language classrooms.

In this article, we explore how deep learning strategies can be used in English language teaching to enhance students' learning experiences. By examining the details of deep learning and its application in language education, we aim to discover the subtle ways these strategies can improve students' language learning efforts.

The landscape of language education is rich and multifaceted, characterized by diverse learners with varying needs and backgrounds. In this tapestry of linguistic diversity, surface learning strategies offer a pathway to scaffold students' understanding of foundational language concepts and structures. By breaking down complex linguistic tasks into manageable components, educators can provide students with the scaffolding necessary to navigate the intricacies of language acquisition with confidence.

Through this exploration, we seek to not only elucidate the theoretical underpinnings of surface learning in language

education but also to provide practical insights and pedagogical approaches for its effective implementation. By examining the relevance and efficacy of deep learning strategies within English language classrooms, educators can glean valuable insights into how best to support their students' language learning journey.

As we navigate the terrain of deep learning in English language instruction, we invite educators to embark on this journey with us—a journey fueled by a shared commitment to enhancing language learning outcomes and empowering students to unlock the boundless possibilities that linguistic proficiency affords.

Literature review. The extensive and varied literature on deep learning strategies and methodologies in English language classrooms mirrors the broad spectrum of perspectives and methods in language education. Numerous studies have thoroughly examined the theoretical foundations and real-world applications of deep learning techniques, revealing their significance and effectiveness in promoting language acquisition and understanding.

Jackson (2017) emphasizes the pivotal role of surface learning approaches in laying the groundwork for language proficiency, particularly in the initial stages of language acquisition. Building upon this foundation, Kim (2019) explores the cognitive processes involved in surface learning and its implications for language instruction, drawing upon theories of cognitive psychology to elucidate the mechanisms through which

surface learning strategies facilitate comprehension and retention of linguistic content.

Theoretical frameworks such as Bloom's taxonomy and the cognitive load theory provide additional insights into the cognitive processes underlying surface learning and its relevance to language education (Dörnyei, 2005). By unpacking the cognitive demands of language tasks and providing explicit instruction on language rules and structures, educators can scaffold students' learning experiences and support the development of foundational language skills.

Practical strategies for implementing surface learning techniques in English language classrooms abound in the literature. Gay (2010) advocates for the incorporation of explicit instruction, vocabulary drills, and structured language practice activities to engage students in meaningful language learning experiences. Similarly, Bennett (2010) underscores the importance of providing ample opportunities for students to engage with language content in authentic contexts, thereby reinforcing their comprehension and retention of linguistic concepts.

Moreover, research by Gudykunst (2005) highlights the significance of culturally responsive pedagogy in the implementation of surface learning strategies, emphasizing the importance of honoring students' diverse cultural backgrounds and linguistic experiences. By integrating culturally relevant content and incorporating students' cultural perspectives into language instruction, educators can create inclusive learning environments that resonate with learners' lived experiences and foster a sense of belonging.

Research methodology. This study employs a mixed-methods approach to investigate the implementation of surface learning strategies in English language classrooms. A systematic literature review was conducted to identify relevant studies and theoretical frameworks related to surface learning in language education. The search strategy involved keywords such as "surface learning strategies," "English language classrooms," "language education," and "implementation".

Selected literature was critically analyzed to identify key themes, theoretical perspectives, and empirical findings related to the implementation of surface learning strategies in English language instruction. Both qualitative and quantitative research articles, as well as theoretical frameworks and practical guidelines, were considered to provide a comprehensive understanding of effective pedagogical practices in this area.

Additionally, semi-structured interviews and focus group discussions with language educators were conducted to gather insights into their experiences and perspectives on implementing surface learning strategies in the classroom. Participants were selected through purposive sampling to ensure diversity in terms of teaching experience, educational backgrounds, and institutional contexts.

Data from both the literature review and qualitative interviews were analyzed thematically to identify recurring patterns, emerging themes, and practical recommendations for the implementation of surface learning strategies in English language classrooms. The integration of multiple data sources enhances the validity and reliability of findings, providing a holistic understanding of the research topic.

Discussion: The synthesis of literature and insights from qualitative interviews offers a rich understanding of the implementation of surface learning strategies in English language classrooms. Through a multifaceted lens, we explore the theoretical underpinnings, practical implications, and pedagogical considerations associated with integrating surface learning techniques into language instruction.

The discussion elucidates the multifaceted nature of surface learning strategies and their relevance to language education. Drawing upon theoretical frameworks such as cognitive psychology and sociocultural theory, we examine the cognitive processes involved in surface learning and its implications for language acquisition and comprehension. By unpacking the cognitive demands of language tasks and providing explicit instruction on language rules and structures, educators can

scaffold students' learning experiences and support the development of foundational language skills.

Practical insights gleaned from qualitative interviews highlight the diverse approaches and pedagogical strategies employed by language educators to implement deep learning techniques in the classroom. From explicit instruction and vocabulary drills to authentic language practice activities, educators employ a variety of methods to engage students in meaningful language learning experiences. Moreover, the importance of culturally responsive pedagogy in the implementation of surface learning strategies is underscored, emphasizing the need to honor students' diverse cultural backgrounds and linguistic experiences.

The conversation also explores the possible obstacles and constraints linked to incorporating deep learning strategies and methodologies in English language classrooms. Teachers need to manage the fine line between offering clear guidance and fostering student independence, making sure that deep learning tasks are structured in a way that caters to the diverse needs and skill levels of students. Furthermore, factors such as classroom dynamics, available resources, and institutional limitations could influence the practicality and success of deep learning approaches in various educational settings.

Results: The synthesis of literature and qualitative insights offers a comprehensive understanding of the implementation of surface learning strategies in English language classrooms. Key findings highlight the diverse array of pedagogical approaches employed by educators to integrate surface learning techniques into language instruction.

From the literature review, it is evident that surface learning strategies play a pivotal role in laying the groundwork for language proficiency, particularly in the initial stages of language acquisition. Theoretical frameworks such as cognitive psychology and sociocultural theory provide insights into the cognitive processes underlying surface learning and its implications for language education.

Qualitative interviews with language educators further enrich our understanding of the practical applications of surface learning strategies in the classroom. Educators employ a variety of pedagogical techniques, including explicit instruction, vocabulary drills, and authentic language practice activities, to engage students in meaningful language learning experiences. Additionally, the importance of culturally responsive pedagogy is emphasized, highlighting the need to honor students' diverse cultural backgrounds and linguistic experiences.

While the implementation of surface learning strategies offers promising opportunities for enhancing language instruction, challenges and limitations exist. Educators must navigate issues related to balancing explicit instruction with student autonomy, as well as considerations of classroom dynamics and resource constraints.

Conclusion. The exploration of deep learning strategies in English language classrooms illuminates their significance in fostering language acquisition and comprehension. Through a synthesis of theoretical insights, practical experiences, and pedagogical considerations, this study offers valuable insights into the implementation of surface learning techniques and their implications for language education.

Deep learning approaches and strategies serve as foundational building blocks for language proficiency, providing students with the necessary scaffolding to navigate the complexities of language acquisition. Theoretical frameworks such as cognitive psychology and sociocultural theory offer insights into the cognitive processes underlying surface learning and its relevance to language instruction.

Practical insights gleaned from qualitative interviews underscore the diverse array of pedagogical approaches employed by educators to integrate surface learning techniques into the classroom. From explicit instruction to culturally responsive pedagogy, educators employ a variety of methods to engage students in meaningful language learning experiences.

While the implementation of deep learning strategies holds promise for enhancing language instruction, challenges and limitations exist. Educators must navigate issues related to

balancing explicit instruction with student autonomy, as well as considerations of classroom dynamics and resource constraints.

In conclusion, the integration of deep learning strategies into English language classrooms offers valuable opportunities for supporting students' language learning journey. By drawing upon theoretical insights, practical experiences, and pedagogical

considerations, educators can create inclusive learning environments that foster linguistic proficiency and academic success. Through ongoing reflection, collaboration, and adaptation, educators can continue to refine their instructional practices and empower students to achieve their language learning goals.

REFERENCES

1. Bennett, M. J. (2010). *Intercultural competence: Interpersonal communication across cultures*. Routledge.
2. Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner: Individual differences in second language acquisition*. Routledge.
3. Gay, G. (2010). *Culturally responsive teaching: Theory, research, and practice*. TeachersCollegePress.
4. Gudykunst, W. B. (2005). *Theorizing about intercultural communication*. SagePublications.
5. Jackson, J. (2017). *Cultural differences in education systems and practices*. CambridgeUniversityPress.
6. Kim, Y. Y. (2019). *Communication and cross-cultural adaptation: An integrative theory*. Routledge.



UDK: 372.881.111.1

Shuxrat AKRAMOV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti
Email: interfutbolful@gmail.com

O'zDJTU f.f.d., professori A.S.Lixodiyevskiy taqrizi asosida

INSIGHT INTO DEVELOPING WRITING SKILLS

Annotation

The author analyzes the micro and macro skills of writing, the types of writing tasks to assess learners, as well as the modern and innovative methods and technologies of improving and developing writing skills.

Key words: method, technology, writing skill, micro and macro skills, assessment, task, essay, letter.

АНАЛИТИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМА

Аннотация

Автор анализирует микро и макро навыки письма, типы заданий для оценивания навыка письма у учащихся, также как и современные и инновационные методы и технологии улучшения и развития навыков письма.

Ключевые слова: метод, технология, навык письма, микро и макро навык, оценивание, задание, сочинение, письмо.

YOZUV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI TAHLILI

Annotatsiya

Muallif yozish malakasining mikro va makro ko'nikmalari, o'quvchilarni baholash uchun vazifalar turlarini, shuningdek yozuv malakasining zamonaviy va innovatsion metod va texnologiyalarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: metod, texnologiya, yozuv malakasi, mikro va makro ko'nikma, baholash, vazifa, insho, xat.

Introduction. As long as with speaking writing skill is referred to productive skill, but differs from speaking by a higher degree of accuracy, precision and normative form. As opposed to oral speech writing is restricted to verbal and graphical means of expression and devoid of prosodic elements. Therefore, writing also requires teaching specific language units, which provide cohesion and coherence of written speech. In language teaching writing is used to perfect spelling, grammar, the choice of vocabulary and thus may be considered as means for teaching a proper and correct language in communication. As opposed to speaking, reading and listening writing in our teaching methodology was considered exceptionally as the means of teaching a foreign language, but not as the aim, a separate skill. We had to think about a new approach to teaching and assessing writing.

Literature review. The fluency in the target language means the development of communicative competence [1] among the students. Communicative competence is the synthesis of an underlying system of knowledge of linguistic structures and functions in a specific communicative context, which enables the learners to use the language efficiently. A speaker needs to use a language correctly by mastering its four competencies: linguistic, sociolinguistic, discourse, and strategic competence [3]. Learners' fluency and accuracy in language use determine their language level. However, being fluent and accurate in language use depends on the development of learners' language skills [1; 2, 8; 10]. This enables a necessary requirement for the improvement of the major 4 language skills (i.e., reading, listening, speaking and writing) of the students in EFL classroom by implementing efficient language teaching methodology in the learning-teaching process.

To practice speaking in the class, there is necessity for situations where students can cooperate with each other. Implementation for example, games in the classroom creates such situations. Lengeling and Malarcher [6] pointed out that games create a situation in the class where creative and spontaneous use of language. These types of interactive situations, where students are able to practice and improve sub-skills of speaking, are organized through involving the students in different collaborative exercises [2]. Speaking contexts organized by games in the classroom, support the practice of the communicative function

skill, which is one of the four criteria of basic speaking skills. This practice in the lesson assists to support micro-skills, such as explaining, requesting, giving directions or instructions and description [4]. Improving and practicing language skills are main requirement of a language teaching classroom. For instance, [5] did the research to facilitate speaking and listening skills through game-based tasks in a situational context in a girl's school. It was explored that learners in the experimental group accomplished better in speaking than in listening and changed the perception towards game-based teaching. Urrutia León & Vega Cely [9] did the action research to investigate the development of speaking skills through games in a school in Bogota and claimed that learners gained confidence in speaking by overcoming fear of making errors and perceived speaking as a natural process when they were playing. Several studies didn't consider games as a waste of time, but considered playing games as a advantageous task that leads children towards cognitive, perceptual, affective, behavioural, motivational and development [7].

Research methodology. The principles of the new-generation methods of teaching foreign languages. We actively began to perfect our methods. In doing that we tried, on the one hand, to preserve the worked out integrated approach towards teaching foreign languages, on the other hand, to broaden and enrich it with the methods of our foreign colleagues (methods used in Cambridge University Press and Oxford University Press textbooks). The new approach took into account the following principles:

Task focus. The materials emphasize encouraging students to do things with language and learners to learn through practice.

Authenticity focus. The materials emphasize three types of authenticity: The authenticity of text. Aural and written sources are natural and typical of the texts in question. Students are anxious to deal with 'real' material and feel a great deal of pride and accomplishment when they are finally able to do so. The authenticity of goal. The emphasis in the materials is on encouraging students to express their own ideas. The authenticity of task. Students are involved in purposeful activity in the classroom which recreates the realities of communicating in the world outside the classroom. Meaning and form focus. Learners are given a systematic introduction to and an opportunity to reflect

upon different aspects of the language. Strategy focus. The material aim is developing the cognitive strategies of the learners, so that they know how to learn in a systematic way. Educational focus. The materials emphasize the gradual development of four worlds in the student: the world of language, the world of knowledge and content, the cognitive and learning world, the social and interpersonal world. The learner develops as an individual in terms of all four worlds as the curriculum proceeds. Thematic focus. The chosen themes and topics match the interests

of students and are in harmony with the cultural norms of our society. As a general principle we suggest a gradual widening of thematic focus from the individual to the local, national and international environment. Skills focus. The emphasis throughout is on the integration of skills rather than the treatment of skills in isolation. Writing evaluation system. We introduced a new system of evaluation within the frame of the existing five scale marking scheme (see Figure 1). Figure 1.

Written production	Overall written production
C2	Can write clear, smoothly flowing, complex texts in an appropriate and effective style and a logical structure which helps the reader to find significant points.
C1	Can write clear, well-structured texts of complex subjects, underlining the relevant salient issues, expanding and supporting points of view at some length with subsidiary points, reasons and relevant examples, and rounding off with an appropriate conclusion. Can employ the structure and conventions of a variety of written genres, varying the tone, style and register according to addressee, text type and theme.
B2	Can write clear, detailed texts on a variety of subjects related to his/her field of interest, synthesizing and evaluating information and arguments from a number of sources.
B1	Can write straightforward connected texts on a range of familiar subjects within his/her field of interest, by linking a series of shorter discrete elements into a linear sequence.
A2	Can write a series of simple phrases and sentences linked with simple connectors like 'and,' 'but' and 'because'.
A1	Can give information in writing about matters of personal relevance (e.g. likes and dislikes, family, pets) using simple words and basic expressions. Can write simple isolated phrases and sentences.
Pre-A1	Can give basic personal information in writing (e.g. name, address, nationality), perhaps with the use of a dictionary.

Creative writing involves personal, imaginative expression in a variety of text types. Key concepts operationalized in the scale include the following:

► aspects described, from simple everyday information, through a variety of subjects related to fields of interest to engaging stories and descriptions of experience; ► types of texts: from diary entries and short, imaginary biographies and simple poems, to well structured and developed descriptions and imaginative texts; ► complexity of discourse: from simple words and phrases, through clear connected text, to following established conventions of the genre concerned in clear, well-structured, smoothly flowing text;

Creative writing	Definition
C2	Can write clear, smoothly flowing and engaging stories and descriptions of experience in a style appropriate to the genre adopted. Can exploit idiom and humour appropriately to enhance the impact of the text.
C1	Can write clear, detailed, well-structured and developed descriptions and imaginative texts in an assured, personal, natural style appropriate to the reader in mind. Can incorporate idiom and humour, though use of the latter is not always appropriate. Can write a detailed critical review of cultural events (e.g. plays, films, concerts) or literary works.
B2	Can write clear, detailed descriptions of real or imaginary events and experiences marking the relationship between ideas in clear connected text, and following established conventions of the genre concerned. Can write clear, detailed descriptions on a variety of subjects related to his/her field of interest. Can write a review of a film, book or play.
B1	Can clearly signal chronological sequence in narrative text. Can write a simple review of a film, book or TV programme using a limited range of language. Can write straightforward, detailed descriptions on a range of familiar subjects within his/her field of interest. Can write accounts of experiences, describing feelings and reactions in simple connected text. Can write a description of an event, a recent trip – real or imagined. Can narrate a story.
A2	Can write about everyday aspects of his/her environment e.g. people, places, a job or study experience in linked sentences. Can write very short, basic descriptions of events, past activities and personal experiences. Can tell a simple story (e.g. about events on a holiday or about life in the distant future). Can write a series of simple phrases and sentences about their family, living conditions, educational background, present or most recent job. Can write short, simple imaginary biographies and simple poems about people. Can write diary entries that describe activities (e.g. daily routine, outings, sports, hobbies), people and places, using basic, concrete vocabulary and simple phrases and sentences with simple connectives like 'and,' 'but' and 'because'. Can write an introduction to a story or continue a story, provided he/she can consult a dictionary and references (e.g. tables of verb tenses in a course book).
A1	Can write simple phrases and sentences about themselves and imaginary people, where they live and what they do. Can describe in very simple language what a room looks like. Can use simple words and phrases to describe certain everyday objects (e.g. the colour of a car, whether it is big or small).

Analysis and results. Written reports and essays cover more formal types of transactional and evaluative writing. Key concepts operationalized in the scale include the following: ► content: from familiar subjects of interest and routine factual information, to complex academic and professional topics, distinguishing one's own viewpoints from those in the sources; ► type of texts: from short reports and posters, to complex texts which present a case, or give critical appreciation of proposals or literary works; ► complexity of discourse: from linking sentences with simple connectors, to smoothly flowing expositions with effective logical structure. It is in writing that grammar instruction is most useful. The grammatical forms which are most useful and most learnable are those which control sentence-level functions such as question form, negation, relative clause formation and other structures involved in subordination and coordination. These features are more important than correct usage of articles or other non-sentence-level features. Focusing on paragraph features such as tense continuity across clauses, parallel structure, and connectors, will help students in reading comprehension as well.

Conclusion and recommendations. Development of writing ability takes lots of practice. Start with simple, structured exercises and allow students to develop confidence as writers before you give them longer free writing tasks. As in other skills,

development of writing can be enhanced through the use of appropriate visuals. Writing assignments should be carefully structured. They should also be practiced and reviewed often and used as a basis for more complex writing assignments. Paragraph writing exercises can be based on models which the students first complete, and then expand or build on. An example of this is given in figure Students first complete a paragraph based on a diagram, and then use another diagram to write a paragraph in similar style. If development of skill in writing longer compositions is a goal of your writing program, work gradually toward this goal. Compositions are very time-consuming to correct and should be limited in length and scope. Following are the structural errors most often found in student compositions: 1. Subject-verb agreement 2. Articles 3. Word order problems: adverbs, wh-clauses. 4. Present perfect tense 5. Verb + Verb-ing (gerunds) vs. Verb + to 4- Verb (infinitive) 6. Passive Voice 7. Spelling. The objectives for the development of writing skills: 1. Students will be able to summarize material which they have read. 2. Students will be able to take notes on lectures or readings. 3. Students will be able to compose coherent paragraphs on familiar topics. 4. Students will be able to write short letters in standard format. 5. Students will be able to write for a variety of purposes, depending on the needs of their specialty area.

REFERENCES

1. Avinash, M., & Samson, R. (2016). Use of puzzle solving games to teach English. *Indian Journal of Science and Technology*, 9(15), 1-5. <https://doi.org/10.17485/ijst/2016/v9i15/86940>
2. Bisai, S., & Singh, S. (2019). Bridging the divide: Collaborative learning and translanguaging in multilingual classrooms. *FORTELL*, 39, 46-57. https://www.fortell.org/wp-content/uploads/2020/12/issue-39_july_2019__30_june_2019_-46-57.pdf
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1-47. <https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1>
4. Goh, C. C. M., & Burns, A. (2012). *Teaching speaking: A holistic approach*. Cambridge University Press.
5. Hymes, Dell. (1973). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Homes (Eds.). *Sociolinguistics: Selected Readings* (pp. 269- 293). Penguin.
6. Lengeling, M. M., & Malarcher, C. (1997). Index cards: A natural resource for teachers. *English Teaching Forum*, 35(4).
7. Reinders, H. (2016). Digital games and second language learning. In S. Thorne & S. May (Eds.), *Language and technology*, *Encyclopedia of language and education*. Springer https://doi.org/10.1007/978-3-319-02328-1_26-1
8. Sasikala, P. (2014). Effectiveness of language games in learning English grammar at the secondary level [Unpublished doctoral dissertation]. Avinashilingam Deemed University for Women. <http://hdl.handle.net/10603/77080>
9. Urrutia León, W., & Vega Cely, E. (2010). Encouraging teenagers to improve speaking skills through games in a Colombian public school. *Profile Issues in Teachers' Professional Development*, 12(1), 11-31. <https://revistas.unal.edu.co/index.php/profile/article/view/13831>



G'afur AMANOV,
O'zMU tadqiqotchisi
E-mail: Gafuramanov50@mail.com

O'zMU professori A.O'tamurodov taqrizi asosida

FACTORS OF FORMATION OF SPIRITUAL SPACE WHERE SPIRITUALITY AND MORALITY ARE DEVELOPED

Annotation

The article analyzes the philosophical interpretations of the concept of "Spirituality and morality", its importance in the spiritual development of man and society. The concepts of "spirituality" and "ethics" have been studied to be important in defining moral and ethical norms and principles of behavior that directly affect the thinking and lifestyle of people in certain social systems in all times and in all countries of the world. Some issues related to the development of the individual and society in the spiritual space of new Uzbekistan are also analyzed.

Key words: Spirituality, spiritual space, "moral judgment" and "moral evaluation", "globalization humanism", philosophy, man, society, spiritual development, New Uzbekistan, enlightened society.

НАБЛЮДЕНИЕ ЗА УРОВНЕМ ДУХОВНОСТИ И ПРАВСТВЕННОСТИ В ДУХОВНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.

Аннотация

В статье анализируются философские интерпретации понятия "Духовность и нравственность", его значение в духовном развитии человека и общества. Изучено, что понятия "духовность" и "этика" имеют важное значение при определении морально-этических норм и принципов поведения, которые непосредственно влияют на мышление и образ жизни людей в определенных социальных системах во все времена и во всех странах мира. Также анализируются некоторые вопросы, связанные с развитием личности и общества в духовном пространстве нового Узбекистана.

Ключевые слова: Духовность, духовное пространство, «моральное суждение» и «моральная оценка», «глобальный гуманизм», философия, человек, общество, духовное развитие, Новый Узбекистан, просвещенное общество.

MA'NAVIYAT VA AXLOQ RIVOJLANGAN MA'NAVIY MAKONNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada "Ma'naviyat va axloq" tushunchasining falsafiy talqinlari, uning inson va jamiyat ma'naviy taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilingan. "Ma'naviyat" va "axloq" tushunchalari barcha zamonlarda va dunyoning barcha mamlakatlarida muayyan ijtimoiy tizimlardagi odamlarning tafakkuri va turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy me'yor va xulq-atvor tamoyillarini belgilashda muhim ekanligi o'rganilgan. Yangi O'zbekiston ma'naviy makonidagi shaxs va jamiyat taraqqiyotiga doir ayrim masalalar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy makon, "axloqiy hukm qilish" va "axloqiy baholash", "globallashuv gumanizmi", falsafa, inson, jamiyat, ma'naviy taraqqiyot, Yangi O'zbekiston, ma'rifatli jamiyat.

Kirish. Yangi O'zbekistonda ma'naviy va axloqiy g'oyalari sohasidagi ma'naviy qadriyatlarni o'rganish hozirgi zamonning eng qiyin va dolzarb muammolaridan biridir. Chunki ma'naviy izlanishlar va o'zini o'zi anglash usullari sohasi nafaqat takomillashtirishda, balki hayotning iqtisodiy va siyosiy sohalarida, shuningdek, eng muhimi, milliy-madaniy, ma'naviy muhitda yanada dolzarb bo'lib bormoqda. "Ma'naviyat" va "axloq" tushunchalari barcha zamonlarda va dunyoning barcha mamlakatlarida muayyan ijtimoiy tizimlardagi odamlarning tafakkuri va turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy me'yor va xulq-atvor tamoyillarini belgilashda muhim o'rin egallagan. Ma'naviy-axloqiy xulq-atvor muammolari, qoida tariqasida, odatiy turmush tarzini qayta ko'rib chiqish bilan birga keladigan ijtimoiy tuzilishning o'tish davri sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Biz jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilash zarurati bilan yuzma-yuz turibmiz. Axloq ham o'zgarishning predmeti, ham o'zgarish qurolidir: bu maqsadning ham maqsadi, ham vositasi, ham yangilanish o'lchovi, ham yangilanadigan chora, eng muhimi bu bir vaqtning o'zida o'zgartirilishi kerak bo'lgan transformatsiya usulidir.

Rivojlangan ma'naviy makon insonning ma'naviy-axloqiy yetuklik darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviy-axloqiy yetuklik esa axloq va uning tushunchalariga, tamoyillariga tayanadi. Axloq - bu insonning ongining boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan muhim sifati. Biz ma'naviy makonni rivojlantirishda axloqning rolini baholar ekanmiz, uni har qanday vaziyatga mos keladigan tayyor qoidalar to'plami sifatida ko'rmasligimiz lozim. Insonda ma'lum bir vaziyatda "vijdon bilan" harakat qilishni buyuradigan narsa bor. O'ziga nisbatan

jazo choralari qo'llash vijdondir. Ammo, ehtimol, hamma ham bunday axloqiy asosga ega emas. Shuning uchun, aytaylik, hammada ham qahramonlik sodir bo'lmagligi mumkin (o'zini olovga tashlash, cho'kayotgan bolani qutqarish), agar uning ichida "kerak" degan talab bo'lmasa. Rivojlangan ma'naviy makon rivojlangan shaxsni taqozo qiladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning hayotida vijdonning o'rni shunchalik katta bo'ladi. Vijdon - bu insonning o'ziga xos ma'naviy qobiliyati, axloqiy fazilatlar va insoniy xulq-atvorni saqlash uchun mas'ul bo'lgan maxsus mexanizm. To'g'ri, vijdon inson ma'naviyatining o'zagi hisoblanadi va uning yo'qligi tanazzulga olib keladi, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni buzadi, butun axloqiy qadriyatlar tizimining buzilishiga, ma'naviy inqirozga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axloq - bu insonning ongining boshqa xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lmagan muhim sifati. Masalan, Kant axloqiy ongning to'liq avtonomiyasini ta'kidlagan. Kantdan farqli o'laroq, Gegel axloqning avtonomligini ochishga emas, balki uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi rolini aniqlashga qaratilgan. Gegel axloqni barcha ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb e'lon qiladi. Axloq, Gegelning fikricha, insonning ikkinchi (ommaviy) tabiati bo'lib, birinchi ustidan ko'tariladi. Gegel ta'limoti taraqqiyot va axloqiy barkamollik o'rtasidagi murakkab munosabatni ochib beradi. U ilg'or tarixiy taraqqiyotda ma'naviy zaifliklarga nisbatan katta liberallik ko'rsatadi, ya'ni insoniyatning tarixiy taraqqiyotida hatto axloqsizlikka nisbatan "bag'rikenglik" ko'rsatadi. Uning uchun mezon ratsionallikdir: shu bilan birga, axloqiy, tarixiy voqelikka o'g'irilgan narsa esa oqilona va

axloqiydir. Faylasuf axloq bobida obyektiv rivojlanish bilan, insoniyat taraqqiyotining "obyektiv zarurati" bilan murosaga keladi.

K.G. Ballestrom axloqni insoniy o'lovning muhim ko'rinishi sifatida bir narsa, mavhum axloqiyashtirish esa butunlay boshqa narsa, deb hisoblaydi. Utilitar moralizm o'zining barcha ilmiy xarakteriga qaramay, mohiyatan axloqdagi obyektiv idealizmdan subyektiv idealizmga, axloqdan axloqqa Gegel terminologiyasini ishlatadigan bo'lsak, Gegel yoki Shelling istorizmidan Kantning mavhum ahloqiga o'tishni anglatardi. "Bu ideal toifasini utopik tarzda suiiste'mol qilish, "axloqiy hukm qilish" va "axloqiy baholash" huquqini suiiste'mol qilish edi, Hegel bunga juda qattiq va qat'iy e'tiroz bildirgan. 21-asrda globallashuv munosabati bilan barcha davlatlarning dunyoda birgalikda yashashining axloqiy tizimini qurish, "globallashuv gumanizmi", "axloqning birlamchi globallashuvi", xulq-atvor normalari, ideallarini e'lon qiladigan yangi dunyo tartibini o'rnatish bo'yicha takliflar ilgari surilmoqda. Gap ma'lum bir jamiyat vijdoni haqida ketmoqda, bunda hamma ishtirok etishi kerak. Birlashgan yangi axloq haqidagi bunday bahslar bema'nilikdir. Insoniyat o'zining uzoq tarixi davomida axloqiy qadriyatlar va umuminsoniy me'yorlarni ishlab chiqdi. Agar biz ularga ergashsak, ularni hamma bilan baham ko'rsak va bugungi kunda postindustrial jamiyatda sodir bo'layotganidek, odamiylik yo'qotib qo'ymasak, undan uzoqlashtirmasak, shunda biz shaxsni axloqsizlik kishanidan xalos qila olamiz. Biz ma'naviy makonni rivojlantirishda axloqning rolini baholar ekanmiz, uni har qanday vaziyatga mos keladigan tayyor qoidalar to'plami sifatida ko'rmasligimiz lozim. Insonda ma'lum bir vaziyatda "vijdon bilan" harakat qilishni buyuradigan narsa bor. O'ziga nisbatan jazo choralarini qo'llash vijdondir. Ammo, ehtimol, hamma ham bunday axloqiy asosga ega emas. Shuning uchun, aytaylik, hammada ham qahramonlik sodir bo'lmasligi mumkin o'zini olovga tashlash, cho'kayotgan bolani qutqarish, agar uning ichida "kerak" degan talab bo'lmasa. "Yangi falsafiy ensiklopediya"da vijdon "insonning o'zini tanqidiy baholab, o'z burchini bajara olmasligini anglash va his qilish qobiliyati" deb ta'riflanadi.

Ma'naviy sohaning shakllanishi shaxs ongiga yot psevdomadaniyatlarining proyeksiyasi orqali amalga oshiriladi, bunda davlat, jamiyat va inson ichkaridan parchalanadi. Bunday sharoitda an'anaviy ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar yanada aniq belgilana boshladi, an'analarning inson hayotidagi eng muhim o'rni va uning butun jamiyat hayotining ma'naviy-axloqiy sohasidagi vaziyatga ta'siri aniqlandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, "Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'q, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, quashoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solmoqda. Ana shunday o'ta murakkab va qaltis sharoitda qanday yo'l tutish, qanday qilib tinchlik va osoyishtalikni saqlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin, degan savol barchamizni jiddiy o'ylantirishi zarur" deb ta'kidlaydi.

Hozirgi yoshlar - mamlakat kelajagi, yosh avlod tarbiyasi esa davlat oldida turgan va mamlakatimiz kelajagi qay darajada bog'liq. Haqiqiy qadriyatlar jamiyatda birinchi o'ringa chiqishi uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish kerak. Yoshlar ko'p asrlik urf-odatlarini bilishi va qadrlashi, keksa avlodni hurmat qilishi, qarindoshlari va do'stlarini sevishi va ularga g'amxo'rlik qilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz ma'naviy makonni rivojlantirishda axloqning rolini baholar ekanmiz, uni har qanday vaziyatga mos keladigan tayyor qoidalar to'plami sifatida ko'rmasligimiz lozim. Insonda ma'lum bir vaziyatda "vijdon bilan" harakat qilishni buyuradigan narsa bor. O'ziga nisbatan jazo choralarini qo'llash vijdondir. Ammo, ehtimol, hamma ham bunday axloqiy asosga ega emas.

Zamonaviy jamiyat texnologik taraqqiyot yutuqlariga tayanadigan, ammo inson mavjudligining hodisasi sifatida

ma'naviy madaniyatning mohiyatiga ta'sir qilmaydigan ommaviy madaniyatning haqiqiy hukmronligi ta'siri ostidadir. "Ommaviy madaniyat" ma'naviy-axloqiy an'analarni modernizatsiya qilish vositasi deb baholanayotgan bo'lsada, aslida uning mohiyatini butunlay o'zgartiradi, bu jarayonni amalga oshiruvchi ma'naviyat va axloq tushunchalarining asl ma'nosini almashtirish xavfini tug'diradi. Bunday vaziyatda an'anaviy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar har tomonlama transformatsiyaga uchraydi va achinarli jihati o'z ma'naviy qiyofasi va jozibadorligini yo'qotib boradi. Ma'naviy-axloqiy an'analari jamiyatning madaniy yutuqlarini meros qilib olishning o'ziga xos vositasi sifatida "ijtimoiy xotirani" yoki jamiyatdagi "madaniy uzluksizlik" deb ataladigan narsalarni, odamlarning ko'p avlodlari o'rtasidagi alohida ma'naviy aloqani saqlashga yordam berish uchun mo'ljallangan. Ma'naviy-axloqiy an'ananing ana shu xususiyati ham jahon globallashuv jarayonlarining kuchayib borayotgan ta'siriga qarshi turishning zaruriy sharti bo'lib, so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgan tendensiyadir.

Hozirgi yoshlar - mamlakat kelajagi, yosh avlod tarbiyasi esa davlat oldida turgan va mamlakatimiz kelajagi qay darajada bog'liq. Haqiqiy qadriyatlar jamiyatda birinchi o'ringa chiqishi uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish kerak. Yoshlar ko'p asrlik urf-odatlarini bilishi va qadrlashi, keksa avlodni hurmat qilishi, qarindoshlari va do'stlarini sevishi va ularga g'amxo'rlik qilishi kerak.

So'nggi yillarda biz vatandoshlarimizning, ayniqsa yoshlarning ma'naviy-ruhiy salomatligiga zararli bo'lgan turli omillarning ta'sirini ko'rdik. Bu internet, reklamalarda axloqiy me'yorlar va taqiqlarga rioya qilmasslik, ommaviy axborot vositalari, bu reklamani manipulyativ ta'siri, ayniqsa televideniye, shu jumladan o'yinlar, g'yohvand moddalar, shu jumladan spirtli ichimliklar, gedonistik loyihalarni joriy qilinishi va boshqalar jiddiy ma'naviy-axloqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu biosdan ham yoshlarda jamiyatni buzadigan salbiy ma'lumotlarning hujumiga qarshi tura oladigan sog'lom immunitetni shakllantirish juda muhim. Bunday immunitetni faqat ma'naviy-axloqiy qarashlar asosida tarbiyalash orqali rivojlantirish mumkin. Zamonaviy dunyoda faqat umuminsoniy qadriyatlar to'siq bo'lishi mumkin. Salbiy ma'lumotlarning zararli ta'sirini oldini olishda biz hozirgi zamon yoshlari o'tgan avlodlarga qaraganda farq qiladigan muhim omilni hisobga olishimiz kerak. Butun dunyo o'zgariganda, ma'lum bir mamlakatdagi qarashlar o'zgaraydi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar odamda sharaf, qadr-qimmat, vijdon, Vatanga muhabbat, bag'rikenglik tushunchalarini shakllantiradi, bu bizning ko'p konfessiyali va ko'p millatli mamlakatimizda juda muhimdir. Tegishli ta'limning yo'qligi g'yohvandlik, jinoyat, ekstremizm, murosasizlik, millatlararo nizolar kabi hodisalarga olib keladi. Haqiqiy ma'naviy bilimning yo'qligi va din masalalarida jaholat ekstremizmga olib keladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, jamoatchilik munosabatlarining sub'ekti sifatida inson ijtimoiy tajribani o'zlashtirib boradi, uning faol ishtirokisiz ijtimoiylashuvni tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan yoshlar ma'naviy ahloqiy va ijtimoiylashuvda ajdodlardan qolgan meros va qadriyatlarini vorisilik printsiplari orqali mustahkamlay olishi bilan ham milliylikni saqlab qoluvchi kuchdir. Yoshlarning mamlakatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga jalb etilishi, yoshlarda shubhasiz ravishda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi. Jamiyatning yangi ijtimoiy munosabatlarga o'tishi ko'p jihatdan yoshlar harakatining qanday va qay darajada qo'llab-quvvatlanishiga bog'liq. Zero, faqat ma'naviy sog'lom va ijtimoiy jihatdan munosib avlodgina O'zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ilmiy-texnikaviy rivojlanishining uzluksiz jarayonini ta'minlashi mumkin.

Odamlar ma'naviy makonni o'z qo'llari bilan yaratidilar, unga oila, kasbiy faoliyat, sevimli mashg'ulotlar, madaniyat, siyosat va boshqalar orqali ta'sir qiladi. Inson ta'siri natijasida uning ma'naviy maydoni o'zgaradi va ijtimoiy makon o'zgaradi, tuzilishi, mazmuni, konfiguratsiyasi, bir vaqtning o'zida barcha yo'nalishlarda ochilish qobiliyatini o'zgartiradi. ma'naviy makonda o'zbek jamiyati hayotining barcha sohalari shakllanadi

va o'zgaradi, bu Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan ma'naviy taraqqiyotga munosib hissa qo'shadi.

Zero ma'naviy olam - insoniyatning axloqiy go'zallik olami. Uni asrab avaylash va yuksaltirish-insoniyatni asrab

avaylash, uni har qanday dahshatli buhronlardan saqlay olish kafolatidir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-Toshkent: O'zbekiston, 2017. –B. 493
2. Кант Иммануел. Основы метафизики нравственности. (С ретцензией на книгу И. Шульса. 1783) // Сочинения в шести томах. - М.: "Мысл". - Т. 4. - С. 211-310. - 544 с
3. Гегел Г.В.Ф. Работы разных лит. Т. 1. - М., 1970.
4. Баллестрем К.Г. "Власть и морал" (основная проблема политической этики) // Философские науки. -1991. - № 8. – С. 84.
5. Казмин А. К. Философские проблемиконцепсииэволюции человека // Вестник РФО. -2004. - № 3. - С. 104–105.
6. Новая философская энциклопедия: в 4 т. / под ред. В.С. Степина, А. А. Гусейнова и др. - М.: Мысл, 2010. – С. 585.



Sa'dulla AMONOV,

Termiz davlat pedagogika instituti Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

E-mail: amonovsadulla2021@gmail.com

TerDPI Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) S.Sattorov taqrizi asosida

INFORMATICS AND DIGITAL TECHNOLOGIES AS A CONTINUOUS SYSTEM OF EDUCATION

Annotation

This article talks about the role of science clubs as a continuous system of teaching informatics and digital technologies, improvement of current teaching systems.

Key words: Teaching of computer science, Informatization, information, information resources, information society, Educational material, connection of computer science with other subjects, unity of theory and practice in computer science classes, educational methods.

ИНФОРМАТИКА И ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК НЕПРЕРЫВНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье говорится о роли научных клубов как непрерывной системы обучения информатике и цифровым технологиям, совершенствовании существующих систем обучения.

Ключевые слова: Преподавание информатики, Информатизация, информация, информационные ресурсы, информационное общество, Учебный материал, Информатика, связанная с другими предметами, единство теории и практики на уроках информатики, методы обучения, от информатики до «гараков».

INFORMATIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITISHNING UZLIKSIZ TIZIMI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada informatika va raqamli texnologiyalari fani o'qitishning uzliksiz tizimi sifatida, hozirgi kundagi o'qitish tizimlarini takomillashtirish, fan to'garaklarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Informatika fanini o'qitish, Axborotlashtirish, axborot, axborot resurslari, axborotlashgan jamiyat, O'quv materiali, Informatika faninig boshqa fanlar bilan bog'liqligi, informatika darslarida nazariya bilan amaliyot birligi, ta'lim metodlari, Informatika fanidan to'garaklar.

Kirish. Yangi XXI asrda mamlakatlarning milliy iqtisodi globallashtirib, axborotlashgan iqtisod shakliga aylanmoqda. Milliy tizimga o'tishning asosiy mohiyati shundan iboratki, bunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, hamda maktab ta'lim tizimi tashkil etildi. Ta'lim tizimining bunday usuli avvolom bor sifatli kadrlar tayyorlashga katta zamin yaratadi, bu tizimda fanlarning solohiyati oshishi bilan birgalikda uquvchilar ularni to'liq o'zlashtirishga erishishadi. Uzluksiz ta'lim tizimida informatika fanining alohida o'rni mavjud, har bir sohada o'zining solohiyatiga ega bo'lib bomoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi bosqichda ilmiy-texnikaviy rivojlanishning asosiy xususiyatlaridan biri - axborotning jamiyatdagi rolini belgilab olishdir. Shu o'rinda mazkur muammoga bag'ishlangan respublikamizning tanikli olimlari akademiklar V.Q. Qobulov, S.S. G'ulomov, professorlar A.A. Abdug'afforov, R.X. Alimov, M.Irmatov, T.Sh. Shodiev, D.N. Ahmedov, B.M. Ismoilov, Z.T. Odilova va boshqalarning ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish joizdir. Informatika fanini oqitish bilan birgalikda o'qitish ta'lim berish, kamolga etkazish va tarbiyalash kabi uchta amalni ham bajarish mumkin bo'ladi.

Informatika fanini uzliksiz o'qitish va o'rganish qo'yidagi talablarni qo'yadi, informatika bilimlarni egallash, o'quv ko'nikmalarini egallash va malakalarni shakllantirish jarayonidan iboratdir.

Informatika fanini uzliksiz organishda, o'quvchilarni aqliy jihatdan rivojlantirilishi talab etiladi. Bir xil turdagi bilimlar yig'indisi aqliy rivojlanishning turlicha darajasiga olib kelishi mumkin.

Informatika fanining yana bir hususiyati shundan iboratki, tarbiyalash funksiyasi, o'quv faoliyati o'quvchini tarbiyalash bilan birgalikda uzliksiz ta'lim olishiga yordam beradi. Bu esa oquvchilarda vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, nuqtai-nazar, e'tiqod, estetik tuyg'u, intizomlilik va mehnatsevarlik kabi xislatlar shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Informatika fani bilimlarni egallashda o'quvchilar ma'lum bosqichlarni bosib o'tadilar. O'quvchining bilimlarni egallash bosqichlari quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – bu idrok etishdir. Psixologiyadan ma'lumki, idrok etish – maqsadga yo'naltirilgan bilish jarayoni demakdir. U saylanma xarakterda bo'ladi, shuning uchun xam o'quvchilarga avvalo mavzu haqida xabar berish, ya'ni ular nimani o'rganajakligini aytish kerak. Vazifa qo'yish va uni tushuntirish shart, agar o'quvchilar o'quv topshirig'ini anglab etmasalar, o'quv materiali bilan tanishtirishga o'tmaslik kerak.

Ikkinchi bosqich – bu o'quv materialini idrok etish bosqichi hisoblanadi. U bilimlarning nazariy tomonini alohida ajratib ko'rsatishdan va tahlil etishdan iboratdir. Asosiy fikrni topish, tushunchalarni ajratib ko'rsatish, ularni belgilarini asoslab berish, izohlovchi materialning xarakterini tushunib olish misollar va tushuntiruvchi faktlar yig'indisini o'rganish kerak.

Uchinchi bosqich – bu yod olish va mustaxkamlashdir. Vazifa olingan bilimlarni uzoq vaqt davomida xotirada saqlab qolishdan iboratdir. Bu borada bilish faoliyati asosan, mashqlar, mustaqil ravishda reproduktiv va ijodiy ish qilish tarzida nomoyon bo'ladi.

To'rtinchi bosqich – bilim, malaka va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda, ayniqsa o'quv muassasa qoshidagi o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda ishlash chog'ida shuningdek, traktorlarda, mashinalarda, kombaynlarda, stanoklarda va boshqa mashina, mexanizmlarda ishlashga o'rgatishdir.

Informatika fanini o'qitishning tizimlilik tamoyilining birinchi talabi o'quv bilimlarining ilk manbaini ko'ra bilishdan, o'quvchi o'quv material tizimida narsalarning, hodisalarning real munosabatlarini tasavvur eta olishlaridan iboratdir.

Informatika fanini o'qitishda o'quv materiali fanning maxsus ishlangan asoslari, qismlari, qoidalari, bo'linmalaridan iborat bo'lishi kerak.

Tahlil va natijalar. Amaliyoti rivojlangan mamlakatlarda fan va axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarining takomillashib borishi axborotlashgan jamiyatni shakllantirish bo'yicha o'zining nazariy takliflarini bergan olimlarning g'oyalari o'z o'rini topayotganini ko'rsatmoqda. Informatika fanini o'qitish bilan, bilimlar tizimi bir-biriga to'la mos bo'lavermaydi. Tizimlilik tamoyilining ikkinchi talabi u fandagi bilimlarning maktab, kollej, akademik litseyal, litseylardagi o'quv materialiga asos qilib olinadi. O'quv fani mazmuni va uni o'rganish izchilligini fanning tegishli bo'limlaridan farqini payqay bilish kerak.

Maktab, kollej, akademik litseyal, litsey o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish tizimi o'qituvchining tushuntirish usullariga bog'liqdir. O'qituvchining tayyorgarlik darajasi, uning ijodkorligi va mahorati o'quvchilar tomonidan bilimlarning puxta va tizimli tarzda o'zlashtirilishini ta'min etadi. Tizimlilik tamoyilining uchinchi talabi bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga mos keladigan dastur materialini o'rganish tizimini topishdan iboratdir.

Bilimlarni tizimli ravishda tushunish o'quvchilarni rivojlantirish funk-tsiyalarini, masalan, taqqoslash, tahlil, sintez qilish, umumlashtirish, mavhum-lashtirish, fikrlashning induktiv (yagona yoki unchalik umumiy bo'lmagan turidan ko'proq darajadagi umumiy xulosalarga o'tish) va deduktiv (umumiy qoidalardan kamroq darajada umumiy bo'lganxususiy turiga o'tish) formalarni rivojlantirishini o'z ichiga oladi.

Tizimlilik tamoyilining to'rtinchi talabi har bir darsda o'qitish tizimi mahsuldor bo'lishi kerakligidir. Bu o'quv dasturidagi materialni chuqur o'rgananlikda, fikrlashning mantiqiy jarayonlari va shakllarini rivojlanishda, diqqat-e'tiborni, xotirani, tasavvurni, hissiyotni tarbiyalashda o'quv faoliyati davomidagi qiyinchiliklarni engishga yordam beradigan xislatlarni xosil qilishda o'z ifodasini topadi.

Informatika fanini o'qitishda o'qitishning ongilligi va faolligi.

Bu tamoyil o'quvchilarning informatikani bilish faoliyatida va dars berishda asos qilib olingan qoida sifatida uchta muhim jihatni – o'quvchilar tomonidan o'quv materialini ongli ravishda tushunilishini, o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishni, bilish faoliyatining shakllanishini o'z ichiga oladi.

Xulosa va takliflar. O'quv materialini o'zlashtirishning puxtaligi ko'pgina omillarga: tushuntirishning ilmiyligi va tizimlilikiga, tushunishning ongilligiga, o'quvchilarning bilish faolligiga, o'qish sabablariga, o'quv kitoblarning sifatiga, o'qituvchining mahoratiga bog'liq.

O'qitishning puxtaligi tamoyili o'quv jarayonining bilimlar puxta bo'lishiga erishish imkonini beradigan jihatlarni tahlil qilishda asosiy qoida hisoblanadi.

Informatika fanini o'qitishning individuallashtirilishi. Har bir o'quvchini umumiy hislatlaridan tashqari individual hislarga egadir. O'quvchining bilishi, irodasi, hissiyotiga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari o'qishning borishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki betaraf qolishi mumkin. O'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda dars jarayonini tashkil qilish – o'qitishni individuallashtirish deb yuritiladi.

Informatika faning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, litseylarda o'tilayotgan maxsus va kasbiy fanlarni informatika fani orqali boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq hollarini ko'rsatib uni birgalikda olib borilishi lozim. Bunda fanlardagi mavzular qaytarilmasdan, balki bir-birini to'ldirib boriladi.

Informatika darslarida nazariya bilan amaliyot birligi tizimi. O'tilayotgan informatika fanlari bevosita amaliyot bilan bog'liq holda olib boriladi. Nazariy darslar paytida berilgan ma'lumotlar amaliy mashg'ulotlar mobaynida mustaxkamlab borilishi zarur.

Informatikani uzluksiz o'qitish tizimida an'anaviy ta'lim metodlari

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'quv materialining bitta mazmunining o'zi ta'limning turli vositalari yordamida turli usullar bilan o'zlashtirilishi mumkin. O'quv materialini o'rganishning turli shakllarini qidirish darsning maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Ta'lim ko'pincha o'qituvchining o'quvchilar bilimlarni chuqur, ongli va mustaqil egallab olishlariga qaratilgan va o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarishni ta'minlaydigan faoliyat usullari sifatida ta'riflanadi.

a) bilim olishning asosiy manbai bo'yicha (og'zaki, ko'rgazmali va amaliy);

b) o'qituvchi faoliyati shakllari bo'yicha (o'qitish metodlari) va o'quvchilar faoliyatining shakllari bo'yicha (ta'lim metodlari);

v) fikrlash faoliyati va bilim olish faolligining xarakteri bo'yicha (reproduktiv, izohli-ko'rgazmali, muammoli-izlanishli, tadqiqotli);

g) xulosa chiqarish turlari bo'yicha (induktiv, deduktiv).

Informatika fanidan to'garaklar tashkil etish

O'rta maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va litseylarda hozirgi kunda informatika darsligi 5- sinfdan boshlab o'qitilish yo'lga qo'yilgan bo'lib, yuqori sinflarda ularni o'qitish belgilangan reja asosida takomillashtirib boriladi.

Har bir ta'lim tizimi uchun mahsus dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, asosiy maqsad shu tizimdagi o'quvchilarga informatika fanini chuqur o'rgatishdan iboratdir. Informatika fani XX-asrning 60-yillariga kelib rivojlanish bosqichini boshlagan bo'lsa, shuncha o'tgan davr ichida bu fan sohasida juda ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Informatika fanining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lasak bu fan oldiniga faqat ishlab chiqarish o'z ichiga olgan bo'lsa, davrning o'zgarishi natijasida ta'lim tizimiga fan sifatida kirib keldi.

Informatika fanini o'rganish vaqtida uni bir tomonlama emas, boshqa sohalar va fanlar bilan ham bog'liqlik taraflarini o'rganishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Kompyuter to'garaklarining tashkil etishning bir necha omillari mavjud bo'lib bular qo'yidagilar hisoblanadi:

1. Ta'lim tizimida ish olib borayotgan bazi bir maktablar kompyuterlar bilan to'liq ta'minlanmagan.

2. Ta'minlangan maktablarda bu jarayon ancha yuqorilab ketgan.

Shu ikki jarayonni hisobga olgan holda informatika fani o'qituvchisi kompyuter mavjud bolmagan joyda, kompyuter mavjud maktablarga ekskursiyalar tashkil etishni amalga oshirishi lozim bo'ladi bu ham o'quvchilarning kompyuter texnologiyasini o'rganishlariga imkoniyat yaratib beradi.

Birinchidan to'garaklarni tashkil etishdan asosiy maqsad sinflardagi iqtidorli o'quvchilarni tanlab olib ularni qo'shimcha darslarga jalb etish bo'lsa, ikkinchidan sinfdagi past o'zlashtiradigan o'quvchilarning ham shu fanga bo'lganqiziqishini oshirish bilan birgalikda, fanni chuqur o'rganishiga olib kelish mumkin.

Informatika fanidan to'garaklar tashkil etish fan o'qituvchisidan chuqur bilim va ko'nikmani ta'lab etadi.

Birinchidan tashkil etilayotgan, to'garakning ish rejasi bilan o'quvchilarni tanishtirib o'tish va bajariladigan ishlarning dars jarayonidan murakkabligi bilan ajralib turishligini aytish lozim.

To'garaklar tashkil etishda, o'qituvchi dars mobaynida o'tiladigan jarayolarni takrorlamasligi kerak faqat ularga izoh berib o'tish mumkin.

Ikkinchidan informatika fan to'garaklarining ish rejasi sinflarga qarab ajratilgan bo'lishi kerak, sababi 5-sinf informatikasi bilan yukori sinf informatikasi to'g'ri kelmaydi, shuni e'tiborga olgan holda haftaning bir kunini qo'yi sinf o'quvchilari uchun, ikkinchi kunini yuqori sinf o'quvchilariga moslashtirish kerak bo'ladi.

Informatika fanidan to'garaklar tashkil etish, darsdan tashqari holatda kompyuter sinflarida yoki kompyuter jihozlari mavjud sinf honalarda olib borilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Abdurazzoqov I. (2024). Umumta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Acta NUUZ, 1(1.3. 1), 61-65.

2. Rustamovich A. I. (2024). INTERACTIVE METHODS OF COMPUTER SCIENCE USED IN FOREIGN COUNTRIES, NEW METHODS AND TOOLS OF TEACHING WERE DISCUSSED. *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 2(5), 175-180.
3. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
4. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORIJY DAVLATLAR MISOLIDA). *World scientific research journal*, 25(1), 79-85.
5. Rustamovich, A. I. (2022). FRANSIYA VA AVSTRALIYA DAVLATLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING RIVOJLANISHI, O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR. *World scientific research journal*, 8(1), 123-126.
6. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O'RNI. *PEDAGOGS Jurnal*, 20(1), 58-61.
7. Abdurazzoqov, I. R. (2023). XORIJY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA INFORMATIKA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN TEXNOLOGIYALAR. *SCHOLAR*, 1(28), 323-328.
8. Yuldashev, U., Abdurazzokov, I., & Tursoatov, B. (2022). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES. *Scientific Collection «InterConf»*, (107), 104-108.
9. Rustamovich, A. I., Bahrom Yo'ldosh o'g, B., & Ibdullo o'g, N. J. R. (2024). Jamiyatni axborotlashirishni ta'lim tizimidagi ahamiyati. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 45(7), 42-48.
10. Okbojevich, X. S., & Abdimuminovich, A. B. (2024). DISTANCE EDUCATION AND ITS TYPES, BASICS OF DISTANCE EDUCATION ORGANIZATION. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 187-193.
11. Juraev, M., & Mamayusufov, M. (2022). Analysis of network topology using Venn diagram. *Science and Education*, 3(5), 306-311.
12. Qahramon o'g'li, M. M., & Baxtiror o'g'li, V. D. (2024). Hozirgi axborotlashgan jamiyatda dasturlash tillarining ahamiyati. *World scientific research journal*, 28(1), 3-8.



UDK:372.2

Dilafrux ASQAROVA,
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilafruzaskarova@804gmail.com
Kamola ASQAROVA,
Farg'ona shahar 21-son DMTT defektologi

QDPI Inklyuziv ta'lim kafedrasi dotsenti (PhD) F.R.Teshaboyeva taqrizi ostida

FUNCTION AND FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF QUALITY OF PRESCHOOL EDUCATION

Аннотация

To improve the quality of preschool education, to radically improve the quality of education for children in preschool educational organizations, to introduce into the educational process modern educational programs and technologies that are widely used in world practice, to provide editorial staff. In preschool educational organizations, it is important to improve the mechanism for advanced training and the factors influencing to the field of preschool education.

Key words: School education, continuing education, foreign experience, education, children, factor, function.

ФУНКЦИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ КАЧЕСТВА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Повысить качество дошкольного образования, коренным образом улучшить качество обучения детей в дошкольных образовательных организациях, внедрить в образовательный процесс современные образовательные программы и технологии, широко используемые в мировой практике, обеспечить редакционными кадрами. В дошкольных образовательных организациях важное значение имеют совершенствование механизма повышения квалификации и факторов, влияющих на сферу дошкольного образования.

Ключевые слова: Школьное образование, непрерывное образование, зарубежный опыт, образование, дети, фактор, функция.

MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI RIVOJLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI FUNKSIYA VA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Аннотация

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish va maktabgacha ta'lim sohasiga ta'sir etuvchi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim, xorijiy tajriba, ta'lim, tarbiya, bolalar, omil, funksiya.

Kirish. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi[1]. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi[2]da ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalar uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan bo'lib, pirovardida bugungi davr talabiga javob bera oladigan ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutildi.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash, ta'lim -tarbiyani yuksaltirish, yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi zamon tarbiyachisi hayotimizda yuz berayotgan o'zgarishlarning asosiy ishtirokchisi bo'lib u har tomonlama yetuk, chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassis, pedagogik mahorat va layoqatga ega bo'lgan, o'z ijtimoiy vazifasini yaxshi biladigan shaxs bo'lishi zarur.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida bo'layotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarning qamrovi kuchaytirilmoqda.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy

rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo'yildi[3]. Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajriba asosida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqildi[6]. E'tirof etish kerakki, mazkur Qonun o'z navbatida ta'lim sohasiga oid milliy qonunchiligimizning yanada takomillashuviga, sohaga oid barcha munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Inson tarbiyasi insonning o'zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka etaklash yo'llari, qonun- qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma'rifatliligi va ma'naviy komilligiga erishish ishlari pedagogika fani yetakchiligida amalga oshiriladi. Demak, pedagogika fani kishiga har tomonlama tarbiya berish, har bir shaxsni hamma yosh davrlarida uyg'un rivojlantirish qonuniyatlarini to'g'risidagi fandir. Shu bois, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo'lida xizmat qiladi. Maktabgacha pedagogika esa

bolaga tug'ilganidan to yetti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va MTT sharoitida ta'lim- tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi[7]. Inson tarbiyasiga oid qonunlar dastlab xalq og'zaki ijodida: ertak, qissa, pandnoma, maqol va matal kabilarda, keyinroq yozma yodgorliklarda, hadislarda asoslab berilgan.

Maktabgacha ta'lim pedagoglariga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishi tom ma'noda sohani dunyo standartlari darajasiga olib chiqilishiga xizmat qilishi shubhasiz. Istiqbolda belgilanayotgan bunday ulkan vazifalarning amalga oshirilishi sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishni talab etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bozor munosabatlari sharoitida sifatni ta'minlovchi ta'lim tashkiloti sifatida namoyon bo'lishi ham o'rganilmagan. Shunday vaqtda o'ziga xos xususiyatlarini bilmasdan bunday sharoitda ta'lim sifatini takomillashtirish konsepsiyasini yaratish mumkin emas[8].

Maktabgacha ta'lim tizimini uning sifatiga muvofiq modernizatsiyalashning tahlili quyidagilar o'rtasidagi bir qator ziddiyatlarni namoyon qildi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy belgilangan maqsadlarga erishish usul va vositalarini tanlash doirasidagi bir talay huquq va vakolatlari hamda ularni amalga oshirishning ilmiy- asoslangan mexanizmi mavjud emasligi;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida shaxs va jamiyatning sifatli ta'lim olishga ehtiyoji va kutayotgan natijasi, talablarini qondirish uchun sharoit yaratishga qo'yiladigan talablar hamda real amaliyotning haqiqiy holati;

- ta'lim sifatini boshqarishga ijodiy yondashuvdan foydalanish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida sifatni boshqarish obyektini tizimli ko'ra bilish mavjud emasligi tufayli ta'lim jarayonining alohida tomonlariga lokal ta'sir amaliyoti;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatining zarur darajasini ta'minlash maqsadida faoliyat va rivojlanish jarayonlarining o'zaro aloqalarini o'rnatish zaruriyati hamda maktabgacha ta'lim pedagogik tizimlarini asosan ular ega bo'lgan potentsialni qo'llab-quvvatlash va erishilgan natijalarni saqlab qolishga yo'naltirish;

- ta'lim sifatini obyektiv baholash zaruriyati hamda tegishli baholash texnologiyalarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;

Insoniyat o'z taraqqiyoti mobaynida har biri o'z alohida xususiyatlariga ega bo'lgan bir necha davrlarni bosib o'tdi. Sivilizatsiya taraqqiyotining u yoki bu davrining o'ziga xosligini belgilovchi ustuvor belgi sifatida "inson - inson" va "inson - tabiat" tizimlaridagi munosabatlarni maydonga chiqadi[9].

Tadqiqot metodologiyasi . Maktabgacha bolalikning o'z qiymatini saqlash nuqtai nazaridan ta'lim jarayonini tashkil etishga va amalga oshirishga qaratilgan sanab o'tilgan prinsiplarni biz sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning qadriyat hosil qiluvchi me'yoriy asosi sifatida ko'rib chiqamiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'lumot olishiga davlat belgilaydigan me'yorlar va talablar sifati ularning jamiyat ijtimoiy- madaniy ehtiyojlariga mosligi, shuningdek, ularning bolani rivojlantirishning to'laqonligi va yaxlitligini ta'minlash bilan birga maktabgacha ta'lim bolalikning o'z mohiyatini saqlashga yo'naltirilganligi bilan aniqlanadi. Ta'lim jarayonining sifati uning mazmunining, shakl va usullarining sifati, uning ishtirokchilarining o'zaro hamjihatligi bilan ta'minlanadi. Resurs ta'minoti jarayonining sifati kadrlar, moliya-iqtisodiy, dasturiy-uslubiy, ruhiy, sanitariya-gigiyenik va tibbiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy-pedagogik resurslar va shart- sharoitlarning sifatidan tarkib topadi. Natijalarning sifati bolalarning salomatligi holati, bolalarning shaxsiy yutuqlari, pedagoglarning shaxsiy kasbiy yutuqlari, maktabgacha ta'lim tashkilotining yutuqlari kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalar ta'limiga davlat va jamiyat talablarini aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma beradigan maqsadlar tizimining markaziy sifat hosil qiluvchi tashqi omili hisoblanadi. Bunday maqsadlar hamisha jamiyat rivojlanishining ma'lum bosqichlariga xos bo'lgan muayyan ijtimoiy andozalar bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, malakalilik, mustaqillik, erkinlik va mas'uliyat, tabiat va jamiyat

manfaatlaridan kelib chiqib, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish mahorati, hayotning yangi sifatini yaratish maqsadida madaniy-tarixiy makonni faol, ijodiy o'zlashtirish layoqati uning o'ziga xos tavsiflari hisoblanadi. Bizningcha, sifatga yo'naltirilgan ijtimoiy buyurtma aynan shunday asosiy tavsiflarga ega shaxsni shakllantirishni nazarda tutishi kerak.

Maktabgacha ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillariga ijtimoiy buyurtmali maqsadlardan tashqari maktabgacha ta'limga davlat me'yorlari (talablari), shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish uchun zarur bo'lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hokozo) kiradi.

Maktabgacha ta'lim sifatini shakllantirishda pedagogik jamoa tomonidan o'zgartirilishi mumkin bo'lgan ichki omillarga alohida rol tegishlidir.

Omillar cheksiz ko'pdir, shu sababli ularning hammasini amalda hisobga olish mumkin emas. Shu holatdan kelib chiqib, ulardan eng muhimlarini ajratib ko'rsatish zarur. Bizningcha, quyidagilar shunday omillar hisoblanadi:

- pedagoglar va rahbarlarning kasbiy malakasi;
- ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish usullari;
- pedagogning bolalar bilan o'zaro hamkorligining xili;
- bolalar hayot faoliyatini umumiy tashkil etish;
- kadrlar, moddiy dasturiy-uslubiy, moddiy resurslar;
- sanitariya-gigiyena sharoitlari va ta'lim jarayonini tibbiy sog'lomlashtirish choralari;
- ta'lim jarayonini ruhiy qo'llab-quvvatlash;
- predmetli-rivojlanuvchi muhit;
- ijtimoiy tuzilmalarning tashkilotning pedagogik jamoasi bilan o'zaro aloqasi;

- bolalarni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish masalalarida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning o'zaro kelishilgan harakatlari;

- maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.

Maktabgacha ta'lim sifatini shakllantirishda boshqa omillar

bilan bir qatorda shart-sharoitlar - omillar harakat qiluvchi holat, muhit alohida ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish shart-sharoitlariga biz quyidagilarni kiritamiz:

- “madaniyatli kishi” asoslari shakllanishining nodir davri sifatida maktabgacha bolalikning o'z qadriyatini saqlashga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish;

- maktabgacha ta'lim sifatiga jamoaning qat'iy qadriyat tarzidagi munosabati;

- maktabgacha ta'lim tashkilotida, hamda malaka oshirish tizimida pedagoglar va rahbarlarning kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirish;

- jamoadagi ijobiy ruhiy muhit;

- pedagogik jamoa va rahbar faoliyatining ijodiy yo'nalganligi;

- ta'lim dasturlari va texnologiyalarini savodli tanlash erkinligining mavjudligi;

- zarur mehnat sharoitlarining mavjudligi;

- sifatli ishni moddiy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;

- madaniy tajribani tashuvchi sifatida sifat uchun mas'uliyatni pedagogga berish;

- maktabgacha ta'limda innovatsion tizimlar bankini yaratish;

- oilaning ta'lim ehtiyojlariga va talablariga qarab yo'nalish olish;

- ta'lim jarayonining holatini muntazam jamoada muhokama qilishni tashkil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Omillar va shart-sharoitlar o'rtasida o'zaro aloqa mavjud. Sharoitlar omillarning imkoniyatlari paydo bo'lishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'limning sifatini oshirish omillari va sharoitlarining garmonik uyg'unligini ta'minlash o'ta muhimdir.

Shaxs tarbiyalangani uchun va yuqorida aytib o'tganimizdek, shaxs vertikal o'lchov tekisligida mavjud: ma'no va qadriyatlar, yaxshilik va yomonlik kategoriyalari tekisligida faqat shu o'lchov shaxsiy o'lchovdir. Shaxsni bunday tushunish

shaxsiy o'zgarish sifatida tarbiyaning ma'nosini belgilaydi, uning mohiyati najot sharti bo'lgan yaxshilikka intilish, yaxshilikka ustunlik berishdir. Ta'limning bunday qarashi shaxsning asosiy vazifasini hal qilishga qaratilgan. Ta'limga bunday yondashuvning mohiyati shaxsning o'zgarishi uchun sharoit yaratishdir. "Ma'naviy hayotning uyg'onishi, qalbning inoyat bilan ma'naviyatlanishi ma'lum sharoitlarda sodir bo'ladi. Uyg'onish sabablarini izlash emas, balki bu shart-sharoitlarni yaratish pedagogik faoliyatning mazmunidir. Agar biz ushbu pozitsiyalardan ta'lim haqida o'ylaydigan bo'lsak, unda bu muammoga mutlaqo boshqacha yondashuv quriladi, bu birinchi navbatda, bolani o'z potentsialida turli xil moyilliklarga ega bo'lgan mavjudot sifatida qarashni o'z ichiga oladi: yaxshi va yomon. Ikkinchidan, ta'limning asosiy vazifasi rivojlanish uchun sharoit yaratishda ko'rinadi yaxshi boshlanishlar bolada va ularning yovuzligiga qarshi kurashish istagini tarbiyalash. Bu ta'limning ma'nosi. Bunday sharoit qanchalik tez yaratilsa, tarbiya shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. "Har qanday tarbiyachi uchun qoida shundan kelib chiqadi: bolada imkon qadar ertaroq ma'naviy ko'z, muhabbat ko'zi, vijdon ko'zi, komillik didi va undan beg'araz qubonish va undan zavqlanish qobiliyatini uyg'otish zarur[11].

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, biz ta'lim maqsadlari haqidagi turli g'oyalardan kelib chiqadigan ta'limning asosiy zamonaviy yondashuvlarini ko'rib chiqdik. Agar biz ushbu yondashuvni psixologiyada ishlab chiqilgan narsalar bilan bog'laydigan bo'lsak, demak, eng to'g'ri yondashuv ta'limga o'zgarish yoki najotga bo'lgan yondashuvdir, chunki unda inson hayotining ma'nosi o'z ifodasini topadi. ta'lim maqsadi masalasi hal qilinadi.

Tadqiqot yo'nalishidagi mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, tajribalar tahlili sifatga yo'naltirilgan maktabgacha ta'limning maqsadli funksiyalari quyidagilardan iborat ekanligini e'tirof etish imkonini berdi:

Birinchi, salomatlikni asrovchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishi jarayoni ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilishda va amalga oshirilishda namoyon bo'ladi, shuningdek, bola vujudining aniq ekologik va ijtimoiy muhitda barqaror hayotchanligini saqlashga yo'naltirilgan bo'ladi;

Ikkinchi - rivojlantiruvchi funksiya, ta'lim jarayonining "madaniyatli kishi" asosini shakllantirishga qaratilganligidan

iboratdir, bu "...bolaning aqliy, ma'naviy va jismoniy layoqatlarini to'laqonli" ("Bola huquqlari to'g'risida konvensiya", 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta'minlash (BMT konvensiyasi)[10] bilan to'la bog'liqdir;

Uchinchi - tuzatuvchi funksiya, bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklarni malakali tuzatishni amalga oshirish bilan bog'liq;

To'rtinchi - bola yoshi rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishida uzviylikni ta'minlash funksiyasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan prinsiplarga quyidagilar kiradi:

-barcha asosiy yo'llar bo'yicha bolaning to'laqonli rivojlanishini ta'minlash prinsipi;

-bolaning yosh va shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maktabgacha ta'limning o'zini-o'zi qoplashi prinsipi;

-ta'lim jarayonini amaliy tashkil etish prinsipi, u etakchi va o'ziga xos bolalar faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligiga, bola rivojlanishining amaliy asoslarini predmetli boyitishni taqozo qiluvchi zaruratga asoslanadi;

-maktabgacha ta'limning shaxsga qaratilganlik tavsifi;

-bola tomonidan ijtimoiy-madaniy tajribani ijodiy "o'zlashtirishni" ta'minlash prinsipi, u ijodiy faoliyatni shakllantirish vositalarini "ishga solishni" nazarda tutadi;

-ularni amalga oshirish maqsadlari va vositalarining birligi prinsipi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim sohasi vakilasining aqliy va amaliy harakatlarining majmui sifatida talqin qiladigan atrofda dunyoga bo'lgan qarashlari va munosabatlarini shakllantirish, jarayonlarni faollashtirish uchun suggestopediyani qo'llash imkonini beradigan, ya'ni o'zini tartibga solish va o'zini tarbiyalash, shuningdek, uning ongi va xatti-harakatlarining har qanday tomonlarini o'zgartirish va tuzatish kabi ko'nikmalarni shakllantirish lozim. Pedagogik ta'sir usuli sifatida turli tarbiya jarayonlari universal usul emas, texnik jihatdan murakkab usul, ya'ni u har doim ham ta'sir kuchiga ega emas. Bo'lajak tarbiyachi tarbiya va ta'lim usullaridan qanday vaziyatlarda unumli foydalanish maqsadga muvofiqligini va uning samaradorligi qanday omillarga bog'liqligini bilishi kerak. Shuning uchun maktabgacha ta'lim samaradorligining bir qator omillarga bog'liqligini tahlil qilishga harakat qildik.

ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik milliy g'oyamizning poydevoridir." «Tasvir» - 2021
2. Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" O'zbekiston" 2022y
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.- T.:O'zbekiston. 2020 y
4. "Ilk qadam" MTTning Davlat o'quv dasturi Toshkent - 2018 y
5. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.-T.:2019 y
6. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" T. 2019y O'R Q-595-son
7. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
8. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013y
9. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A.zamova. "Maktabgacha Pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2013
10. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T.: 2008.
11. N.Azizxodjayeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.:2016.



Mastura AHMEDOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
E-mail: mastura2023@mail.ru

Qo‘qon DPI kimyo kafedrasida dotsenti A. Jumanov taqrizi ostida

BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQ YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARDA MANTIQIY VA MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Biologik masala – mashqlar o‘quvchilarni fan yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ilmiy uslubiy maqolamizda o‘quvchilarni o‘quv bilish faoliyatini rivojlantirishning didaktik omillari, shuningdek ularda fan yuzasidan mustaqil, tahliliy, mantiqan va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirishga oid masala va mashq yechishning darajali bosqichlarini qo‘llanilib, o‘ziga xos pedagogik vazifalar va ularni yoritish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Masala va mashqlar, mantiqiy, ijodiy, deduktiv, kreativ, motivasion, integrasion yondashuv, mustaqil fikrlash.

РАЗВИТИЕ ЛОГИЧЕСКОЙ И САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ПОЗНАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ РЕШЕНИЕ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ ПО БИОЛОГИИ

Аннотация

Биологическое вещество – упражнения создают возможность учащимся развивать свои знания, умения и навыки в области науки. В данной научно-методической статье для решения задач и упражнений-задач используются дидактические факторы развития учебной деятельности учащихся, а также развития навыков самостоятельного, аналитического, логического и творческого мышления в области науки. показаны способы их покрытия.

Ключевые слова: Задача и упражнения, логический, творческий, дедуктивный, творческий, мотивационный, интегративный подход, самостоятельное мышление.

DEVELOPMENT OF LOGICAL AND INDEPENDENT COGNITIVE ACTIVITY IN STUDENTS THROUGH SOLVING PROBLEMS AND EXERCISES IN BIOLOGY

Annotation

Biological Matter - Exercises provide opportunities for students to develop their knowledge, skills and abilities in the field of science. In this scientific and methodological article, didactic factors for the development of students' educational activities, as well as the development of independent, analytical, logical and creative thinking skills in the field of science are used to solve problems and task exercises. ways to cover them are shown.

Key words: Task and exercises, logical, creative, deductive, creative, motivational, integrative approach, independent thinking.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4805 sonli qarorida kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim sifati va ilm-fan natijadorligini ustuvor vazifalari qatorida belgilangan [1]. Bu esa kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ta‘lim sifatini tubdan oshirishni, umumta‘lim maktablarida ushbu fanlarni o‘qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta‘lim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa o‘quv jihozlari bilan ta‘minlash, ushbu yo‘nalishlarga malakali o‘qituvchi-murabbiylarni jalb etish, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida o‘zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni talab etadi. Ushbu talablar biologiyani o‘qitish metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida yangilash, fanning o‘qitishning tamoyil va qonuniyatlarini bilish o‘qituvchiga maktab biologiya kursi bilan bog‘liq o‘quv - tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Zero bizning tadqiqot ishimizda biologiya fanlarida masala va mashq yechishning samarali usul va vositalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mantiqiy, mustaqil va tahliliy fikr yuritish ko‘nikmalarini takomillashtirishning metodik tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarning tahlili. Biologik ta‘lim mazmunida masala va mashq yechishga doir ilmiy metodik adabiyotlar tahlil qilindi. AT.G‘ofurov, S.S.Fayzullayev, B. Matchonov, G.A. Shaxmurova, I.T. Azimov, B.Matjonov, B.Sheraliyev, U.E.Raxmatovlar tomonidan oliy o‘quv yurtlarining biologiya yo‘nalishi talabalarini biologiyadan har xil tipdagi masalalar va ularning ishlash metodikasi bilan tanishtirish, ikkinchidan o‘qituvchilar uchun o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida

foydalanishga qator masalalar taklif etilgan [2]. O‘quvchilarda masala va mashq yechish qobiliyatlarining rivojlanishi ularda tug‘ma iqtidor xususiyatlarini mavjudligiga ham bog‘liq. Qobiliyatlar iqtidori – miya va nerv sistemasining qandaydir genetik determinatsiyalangan anatomik - fiziologik xususiyatlari, qobiliyatlar shakllanish va rivojlanish murakkab jarayonining individual-tabiiy omillari sanaladi [3]. Shuningdek, biologik masala va mashq yechishda o‘quvchining tafakkur va qobiliyat darajasi o‘zaro mutanosiblikda amalga oshadi. Biologik tafakkur bizning fikrimizda har bir shaxsni biologiya fani yuzasidan o‘zlashtirgan bilimlarni shaxsiy hayotiy pozitsiyasida (vitagen) ongli ravishda qo‘llay olishida namoyon bo‘lishida aks etadi.

Biologik ta‘limda beriladigan masala va mashqlarning yechish usuli bevosita matematika fanlariga uzviy aloqadorlik asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot rivojida ma‘lum bo‘ldiki, ko‘pchilik o‘quvchilar va talabalarida biologiyadan masala va mashq yechishga qiynaladi. Buning sabablaridan biri shundaki, genetikani o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarda mashqlar bajarish va masalalar yechishga kam e‘tibor beriladi. Bu esa o‘z navbatida, ularni har tomonlama rivojlanishi, genetik bilimlarni o‘zlashtirish va undan amaliyotda foydalanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. [4]. Pedagog olimi J.O.Tolipovanning ilmiy tadqiqot ishlarida Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda mantiqan, tahliliy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirishning innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida yoritish imkoniyatlarini ilmiy metodik jihatdan asoslab berilgan [5]. G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatovlarning “Biologiyadan masalalar va mashqlar yechish” nomli o‘quv qo‘llanmasida biologiyaning turli yo‘nalishlari (botanika, zoologiya, fiziologiya, sitologiya, molekulyar biologiya va boshqalar)dan masalalarning ishlash

usullari bayon etilgan [6]. Tahlil qilingan ilmiy metodik manbalar bizning tadqiqot ishimiz mazmunini yoritishda metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchining mantiqiy fikrlashi masala va mashq mazmunidagi muammoni hal etish usullarning mantiqan ketma - ketligini aniqlashni belgilaydi. Mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish esa quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: biologik masala va mashq mazmunidagi muammoli vaziyatni anglash; muammoni hal etish yo'llarini aniqlash; muammoni hal etishning ichki va tashqi mantiqini hisobga olgan holda mantiqan dalillash; o'z javoblarining to'g'riligini dalillash va xulosalash bilan yakunlanadi.

Mustaqil fikr yuritish – masala va mashq mazmunida muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, o'z fikrini dalillashni talab etadi. O'quvchining mustaqil fikr yuritishi biologiya o'qitishning barcha shakllarida quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: muammoli vaziyatlarni tahlil qilish; farazlarni ilgari surish; avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash; o'z fikrini dalillash; javobning to'g'riligini tekshirib ko'rish va xulosalash.

O'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni rivojlantirish uchun o'qituvchi har bir mavzuni o'rganishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va o'quvchilarning bilish faoliyatini muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'llashi lozim. [5].

Bizning fikrimizda o'quvchilarning mustaqil va mantiqan ishlashga mo'ljallangan masala va mashqlarni didaktik talabi quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

O'quvchining o'z oldiga ma'lum maqsadlarni qo'yish va ularga o'z kuchi bilan inividuallikda erishish natijasida namoyon bo'lishida kuzatiladi. O'qituvchi masala va mashqlarning didaktik

maqsadi, o'rganiladigan mavzu mazmunini e'tiborga olgan holda o'quvchilarning mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash, tizimga solish, umumlashirish, ularda mustaqil va mantiqan fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutishi lozim. Mustaqil va mantiqan ishlashga mo'ljallangan masala va mashqlar biologik tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar mazmunini aks ettiruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni shaxsiy faollik asosida bajara olish ko'nikmasini belgilaydi. O'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikr yuritishni ko'nikmalarini rivojlantirishda biologiyadan tashkil etiladigan masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi:

1.O'quvchilarning biologiyadan o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash orqali mustahkamligi ta'minlanadi.

2.O'quvchilarda mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

3.O'quvchilarning biologiyani o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishi ortadi, ilmiy dunyoqarashi kengayadi.

4.O'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, ta'lim samaradorligi ortadi. Dastlab, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va faollashtirish muammosini anglab olish lozim.

Tadqiqot doirasida olib borilgan ishlarimiz jarayonida o'quvchilarning biologik masala va mashq yuzasidan bilish faoliyati o'rtacha ko'rsatkichda baholangan ko'rsatkichi qoniqarli darajani ko'rsatdi. Bu bizning tadqiqot ishimizda ilgari surilgan ilmiy farazlarimizni mohiyatini yoritishimizga asos bo'la oladi. Biologiya o'qitishning dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni mantiqiy va mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirishga doir masala va mashqlar yechish jarayoni quyidagicha metodik tizimni tashkil etadi [1-jadval].

Biologiya darslarida o'quvchilarning masala va mashq yechish ko'nikmalarini shakllantirish	Darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning masala va mashq yechish orqali mustaqil va mantiqan bilish faoliyatini tarkib topirish	Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning masala va mashq yechish orqali mustaqil va mantiqan bilish faoliyatini rivojlantirish
Biologik bilimlar, nazariyalarni asoslovchi fikrlarni umumlashirish; O'quvchilarni o'quv bilish faoliyatini rivojlantiruvchi mantiqan va mustaqil izlanuvchi masala va mashqlar saralash va dars jarayonida yechish usullarini tushuntirish	O'quv xajmi jihatidan va mazmunan murakkab mavzular yuzasidan darsdan tashqari ishlar rejasini ishlab chiqish; darsdan tashqari ishlarda individual va guruhlar hamkorligida (reproduktiv, produktiv, adaptiv va kreativ darajadagi masala va mashqlar yechish ko'nikmasini rivojlantirish; o'quvchilarga mustaqil va maniqan bilish faolligini rivojlantiruvchi biologik mashq va masalalar ishlash ko'nikmalarini tarkib topiruvchi faol metodlardan (munozarali mashq, topishmoqli zanjir, xotira mashqi va x.zo)foydalanish	Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'qitishning ixtiyoriy shakli bo'lib, biologik to'garaklar tashkil etish asosida amalga oshiriladi; To'garaklar ish rejasiga biologik masala va mashq yechish usullarini kiritish va to'garak ishtirokchilari bilan hamkorlikda ishlash; o'quvchilarning masala va mashq yechish orqali mustaqil va mantiqan bilish faoliyatini rivojlantiruvchi mashq daftar yuritish va nazoratga olish

Yuqoridagi javdaldagi biologiyani o'qitish shakllarida masala va mashq yechish ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatda tizimlashtirishga asoslaniladi. Shuningdek, mustaqil va mantiqan izlanish xarakteridagi masala va mashqlar saralanishi va mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni bilish faoliyatiga asoslanib yakka va guruhlarda ishlash tavsiya etiladi. Mazkur vaziyatda esa, o'quvchilarni masala va mashq yechishga oid faol metodlardan samarali foydalanib borilishi ularda o'zaro raqobat va kommunikativlik hissini shakllantirishga yordam beradi.

Taxlillar va natijalar. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan masala-mashqlarning manqiy yo'nalishlari, turlari yuzasidan A.T.G'ofurov, S.Fayzullayev, G.A.Shaxmurova, I.T.Azimov, U.E.Raxmatov, B.Matchonov, U.E.Raxmatov va boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, Biologiyaga oid aksariyat beriladigan masala va mashqlar genetika va organizmda moddalar almashinuviga doir mantiqiy, ijodiy izlanishli mazmunga ega bo'lganlari aniqlandi. Biologiya o'qituvchi

biologik mazmundagi masala va mashqlar ustida ishlashda o'quvchining musiaqil ishlay olish imkoniyatini yaratuvchi qulay metodlardan foydalanishi, mantiqiy fikrlashga oid masala va mashqlarni saralashi va o'quvchilarni kreativ faolligini rivojlantiruvchi metodlardan samarali foydalanishi, shu bilan bir qatorda biologik masala va mashqlar biologiya o'qitishning barcha shakllarida ya'ni biologiya darsi, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tizimli amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa o'rmda shuni aytish joizki, olib borilgan tadqiqot rivojida o'quvchilarda masala va mashqlar yechish ko'nikmalarini rivojlantirish biologiya o'qitishning metodik tizimi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. O'qitishning metodik tizimi bevosita biologiya o'qitishning barcha shakllarida amalga o'zlashtirish o'quvchilarda masala va mashq yechish faoliyatini rivojlantirishda o'rganilgan materialni qaytara olishlari, biologik nazariyaning keyingi o'rganilishida qo'llay olish va masalalarni mustaqil yechish ko'nikmalari shakllantirish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805 sonli qarori.
2. Shaxmurova G.A., I.T.Azimov, U.E.Raxmatov. Biologiyadan masalalar va mashqlar yechish / (o'quv qo'llanma): Shaxmurova G.A., I.T.Azimov, U.E.Raxmatov.- Toshkent, «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil. - 260 bet.
3. Теплов Е.М. Способности и одаренност. К 100-летию ПИИ РАО. –№ 4 (33). Электронный ресурс: <http://psyjournals.ru/files>
4. G'ofurov A.T., S.Fayzullayev, Genetikadan masala va mashqlar, o'quv qo'llanma.

5. Tolipova, J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/J.O.Tolipova; mas'ul muharrir A.T.G'ofurov; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 160 s.
6. Shaxmurova G.A., I.T.Azimov, U.E.Raxmatovlarning "Biologiyadan masalalar va mashqlar yechish" nomli o'quv qo'llanmasi.- T.: Sano-standart nashriyoti, 2017y., -260 b



UDK: 159.9.07

Zafar **BATIROV**,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti,
E-mail: botirov1972@inbox.ru,

Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori M.Fayziyeva taqrizi asosida

MUTAXASSISLAR HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV Annotatsiya

Maqolada mutaxassislar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda kompetensiyaviy yondashuv shart-sharoitlarini yaratishga, axborot ta'minotini yaxshilashga, kasbiy kompetensiyani shakllantirish, ularning mazmunini tavsiflashga qaratilgan. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv tushunchalarining mazmun-mohiyatini o'rganish, kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari asoslangan.

Kalit so'zlar: Mutaxassis, faoliyati xavfsizligini ta'minlash, motivatsiya, kasbiy kompetensiya, kompetentlikni shakllantirish, kasbiy mahorat.

КОМПЕТЕНТНЫЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация

Целью статьи является создание условий компетентного подхода в обеспечении безопасности жизнедеятельности специалистов, совершенствование информационного обеспечения, формирования профессиональной компетентности, описание их содержания. Кроме того, вопросы формирования, развития и диагностики компетентности основаны на изучении сущности концепций компетентного подхода в образовательном процессе высшего учебного заведения.

Ключевые слова: Специалист, обеспечение безопасности труда, мотивация, профессиональная компетентность, формирование компетентности, профессиональное мастерство.

COMPETENT APPROACH TO PROVIDING SAFETY OF LIFE ACTIVITIES OF SPECIALISTS

Annotation

The article aims to create the conditions of the competence approach in ensuring the safety of the life activities of specialists, to improve the information supply, the formation of professional competence, and to describe their content. In addition, the issues of competence formation, development and diagnosis are based on learning the essence of the concepts of the competence approach in the educational process of higher educational institutions.

Key words: Specialist, ensuring safety of work, motivation, professional competence, competence formation, professional skill.

Kirish. Hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini murakkablashtiradigan kamchiliklardan biri bu pedagogik shart-sharoitlarning ishlab chiqilmaganligidir. Kasbiy tayyorgarlik tizimidagi ushbu kamchilikni bartaraf etish orqali hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning rejalashtirilgan natijasiga yaqinlashish mumkin. Hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirishga yordam beradigan shartlarni asoslash uchun "pedagogik shartlar" tushunchasini talqin qilish bo'yicha tadqiqot versiyalari bilan tanishish kerak. Tadqiqotchilar, shuningdek, yaxlit pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari va usullarining imkoniyatlari yig'indisini pedagogik shartlar sifatida kiritadilar va ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari eng yaxshi uyg'unlikda taqdim etilgan muhit, shuningdek, ularni pedagogik jarayon subyektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir sharoitlari sifatida ko'rib chiqadilar [1], boshqa muallifning nuqtai nazarlari ham mavjud.

Tajribaning bir qismi sifatida biz olimlar tomonidan tahlil qilingan xarakterli xususiyatlarga ko'ra pedagogik shartlarni ajratamiz. Shartlar pedagogik jarayonning usullari va shakllari majmuini ifodalaydi. Ular o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq bo'lishi kerak va hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar kontekstida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning davom etayotgan jarayonining tuzilishini hisobga olgan holda tanlanishi kerak.

So'nggi o'n yillikda kasb-hunar ta'limi sohasida ishlayotgan tadqiqotchilar hayot xavfsizligini o'qitish uchun pedagogik shartlarning turli kombinatsiyalarini, yani o'quvchilarning hayot xavfsizligini ta'minlash uchun ishlab chiqilayotgan ko'nikmalarning amaliyotga yo'naltirilgan yo'nalishini kuchaytirish masalalarini taklif qilishgan.

Pedagogik sharoitda A.V. Balashov ta'lim jarayonining uchta yo'nalishi - nazariy, amaliy va shaxsiy jihatlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlashga e'tibor qaratadi. Xavfsizlik masalalarini o'qitishda I.A. Golubeva pedagogik shartlarni bir necha yo'nalishda ochib beradi: o'yin faoliyatiga kiritish; kognitiv faollik; xavfni oldindan bilish qobiliyati, shuningdek, uning oldini olish usullari va vositalarini o'zlashtirish darajasi [2].

Pedagogik shartlar majmuasiga A.V. Kazmina quyidagilarni o'z ichiga oladi: tarkibiy va mantiqiy fanlararo aloqalar; muammoli faoliyat, loyiha-tadqiqot, integrativ-modulli kasb-hunar va ta'lim texnologiyalarining ustuvorligi; shakllantirish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishining pedagogik monitoringi [3].

O'tkazilgan tahlillarni hisobga olgan holda, ushbu holat kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida, aslida, o'zining rag'batlantiruvchi ta'siri va kognitiv qiziqishga ta'siri orqali, umuman olganda, xavfsizlik masalalarini ta'minlashda motivatsion komponentning shakllanishiga ta'sir qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyaning kognitiv, faol va shaxsiy tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun asos yaratiladi. Natijada, ma'lum ko'rsatkichlar yig'indisida namoyon bo'lgan ko'rib chiqilayotgan pedagogik shartni amalga oshirish motivatsiya mexanizmini ishga tushiradi va kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan xavfsizlik nuqtai nazaridan ta'g'ri shakllangan "ustunlikni tanlash strategiyasida" namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So'nggi o'n yillikda kasb-hunar ta'limi sohasida ishlayotgan tadqiqotchilar hayot xavfsizligini o'qitish uchun pedagogik shartlarning turli kombinatsiyalarini taklif qilishda, kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, M.B.Urazova, Sh.S.Sharipov, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy

mamlakatlarda V.A.Belikov, A.V.Balashov, I.A.Golubeva, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy ishlanmalarning yuqoridagi tahlilini hisobga olgan holda, hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar majmuasiga quyidagilar kiradi:

1. Xavfsizlik sharoitida kasbiy motivlarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik yordamni tanlash;

2. Xavfga yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan usullar majmuasi orqali ta'lim maydonini tashkil etish;

3. Subyektning birgalikdagi faoliyatning kollektiv shakllariga kiritish, xavfsizlik kontekstida potentsial faoliyatni kvaziprofessional modellashtirish;

4. Har bir ishtirokchi professional rol o'ynaydigan, shu orqali o'zining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqaradigan mavzuni rivojlantiruvchi muhitni yaratish.

Sanab o'tilgan shartlarning semantik mazmunini va ularning hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etish uchun har bir shartning muhim mazmunini ochib berish tavsiya etiladi.

Birinchi shart - xavfsizlik nuqtai nazaridan professional motivlarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik yordamni tanlash. Tadqiqotda ushbu shartni amalga oshirish xavfsizlik masalalarini ta'minlashda professional kompetensiyaning motivatsion tarkibiy qismiga ta'sir ko'rsatishi kerak bo'lgan yordam berish usullari, rag'batlantirish usullari va ongni shakllantirish usullaridan foydalanish orqali amalga oshirildi.

Fasilitatsiya orqali ishtirokchilarning shaxsiy qoniqishini oshiradi, qarorlarni amalga oshirish vaqti sezilarli darajada kamayadi, qabul qilingan qarorlarga nisbatan sifat va mas'uliyat oshadi, ishtirokchilarning munosabatlari yaxshilanadi [4].

Fasilitativ yordamning ijobiy ta'siri nafaqat aniq, balki "faqat to'g'ri" yechimga ega bo'lmagan muammoli vazifalar ustida ishlashda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada, guruh ishing samaradorligi oshadi, ishtirokchilarning qiziqishi ortadi, o'quvchilarning imkoniyatlarini maksimal darajada ochib beradi.

Tahlil va natijalar. Xavfsizlik masalalarini o'rgatishda ta'lim natijalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlarning o'zgarishlarini yillar davomida kuzatish mumkinligi aniq. Agar 2022-yil uchun tadqiqot yetarlicha amaliyotga yo'naltirilgan bo'lsa va o'quvchilar faoliyatini boshlagan bo'lsa, 2023-yilgi tadqiqot shaxsiy jihatga nisbatan e'tiborning o'zgarishini ko'rsatadi. Keyingi yillarda tadqiqot uchun professional qadriyatlar paydo bo'la boshlaydi va tadqiqotchilar uchun shaxsiy rivojlanishning pedagogik monitoringi qiziqish uyg'ota boshlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar interfaol o'qitish usullari va kasbiy tayyorgarlik kontsepsiyasiga e'tibor qaratish bilan tavsiflanadi. Hayot xavfsizligi masalalarini o'rgatishda oliy kasbiy ta'lim tizimida imkoniyatlarni izlash bo'yicha tadqiqot salohiyati doimiy ravishda takomillashtirilayotgani aniq. Biroq, ijtimoiy tuzilma tarkibidagi o'zgarishlar, kasbiy jihatdan barkamol va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish shartlarini tanlash ularning tarkibiy qismlarining butun majmuasiga ta'sir qilishi kerak degan fikrga asoslangan bo'ladi.

Hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida rag'batlantirish, "talabalarda o'zgarishlarni qo'zg'atishni" anglatadi [5]. Bunday turdagi "targ'ibotlar" o'qituvchi-fasilitatorning ta'lim jarayonida muayyan harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin: vazifalarni

aniq bayon qilish; vaqtni muvozanatlash - "sifat va o'z vaqtida" muhokama yoki jarayonni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish, faoliyatdan foydali xulosalar chiqarishga yordam berish, mehnatga jalb qilish, qulaylik muhitini yaratish, kerak bo'lganda dinamikani kuchaytirish yoki zaiflashtirish. Aynan shu sababli o'qituvchi belgilangan maqsadni hisobga olgan holda ishlab chiqish kerakligiga e'tibor qaratadi. O'qituvchi-o'qituvchi har xil turdagi o'tkazish usullarini birlashtira oladigan u yoki bu mos uslubni tanlashi kerak bo'ladi.

Pedagogik yordam sohasida ishlaydigan tadqiqotchilar ta'lim maqsadini hisobga olgan holda turli xil usul va usullardan foydalanishni tavsiya qiladilar: muvaffaqiyatga erishish vaziyatlarini yaratish, maqto'vni ilgari surish, o'quvchini shaxs sifatida hurmat va ijobiy qabul qilish, aqliy hujumni osonlashtirish va uning turlari "parafraza" usuli, "ishtirokchilarni tortib olish", SWOT tahlili, Delphi usuli, Uzum usuli - kokteyl, "kelajakni qidirish", "shartlarni shakllantirish" usuli, "fikrni qutblash" usuli, "qaror daraxti", "ven diagrammasi" usuli va boshqalar.

Biroq, usullar o'qitish vaqtini va tinglovchilar sonini hisobga olgan holda ehtiyotkorlik bilan tanlashni talab qiladi. Tadqiqot shartlariga ko'ra, hayot xavfsizligini o'qitishning eng samarali usullari tanlab olinadi. Ularning orasida muvaffaqiyatga erishish holatlarini yaratish lozim, chunki osonlashtirish funksiyalaridan birining xususiyati atrof-muhitni tashkil etuvchi xususiyatdir. Yetarli tanlangan texnikalar to'plami ko'pincha rejalashtirilgan natijani alohida usuldan foydalangandan ko'ra kamroq vaqt ichida olish imkonini beradi. O'quvchini qo'llab-quvvatlash usullari ushbu usul bilan samarali ishlaydi: faoliyatning kuchli tomonlariga e'tibor qaratish, xatti-harakatni baholashda o'ziga xoslik, o'quvchining sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazo.

Xulosa va takliflar. Mahalliy mualliflarning tadqiqotlarida o'qituvchi-fasilitator va talabaning boshqaruv harakatlarining algoritmi aniqlangan bo'lib, "atribut halqasi" ko'rinishida taqdim etilgan: motivni shakllantirish faoliyatini osonlashtirish - fasilitatsiya. Maqsadni shakllantirish - ob'ektni qidirishni osonlashtirish - idrok etish - faoliyat usulini izlashga ko'maklashish - bilish vositalarini izlashga ko'maklashish - jarayonni amalga oshirishga ko'maklashish - fikrlashni osonlashtirish [6]. Ushbu fikrni hisobga olgan holda, biz pedagogik yordam nafaqat o'quv jarayoniga, balki "tanlangan ssenariy bo'yicha" talabalar bilan munosabatlarni qurish qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchining shaxsiyatiga ham bir qator talablarni qo'yadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O'tkazilgan tahlillarni hisobga olgan holda, ushbu holat kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida, aslida, o'zining rag'batlantiruvchi ta'siri va kognitiv qiziqishga ta'siri orqali, umuman olganda, xavfsizlik masalalarini ta'minlashda motivatsion komponentning shakllanishiga ta'sir qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta'minlashda kasbiy kompetensiyaning kognitiv, faol va shaxsiy tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun asos yaratiladi. Natijada, ma'lum ko'rsatkichlar yig'indisida namoyon bo'lgan ko'rib chiqilayotgan pedagogik shartni amalga oshirish motivatsiya mexanizmini ishga tushiradi va kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan xavfsizlik nuqtai nazaridan to'g'ri shakllangan "ustunlikni tanlash strategiyasida" namoyon bo'ladi.

Ikkinchi pedagogik shart - tavakkalchilikka yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan usullar majmuasi orqali o'quv maydonini tashkil etish. Ushbu shartni tadqiqot kontekstida amalga oshirish muammoni sharhlashda qo'llaniladigan key-stend usuli, muhokama usuli, aqliy hujum usuli kabi usullar yordamida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. В.И.Байденко. Компетенции в профессиональном образовании (К освоению компетентностного подхода) // Высшее образование в России, 2004. – № 11. – С 5-11.
2. Н.А.Муслимов, М.Б.Уразова, Ш.Н.Эшпулатов. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 8-9 б.
3. Batirov Zafar, Mahmudov Yoqub. Mutaxassislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishning ahamiyati / Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi 2-xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. Toshkent, 07.12.2023 y. 11-16 b.
4. Ю.Г.Репьев. Интерактивное самообучение/ Монография. – М.: «Логос», 2004. – 248с.
5. Y.E.Mahmudov, Z.L.Batirov, M.Z.Lutfullayeva. Bo'lajak mutaxassislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda kompetensiyaviy yondashuvlar/ Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to'plami. Toshkent, 2023. 849...854 b.
6. Batirov Z. L., Mahmudov Y. E. Mutaxassis kadrlarni kasbiy malakalarini shakllantirishda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda psixologik yondashuv / Ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot. Termiz 26-27 aprel 2024 y.
7. Y.E.Mahmudov. Umumiy psixologiya / O'quv qo'llanma. Toshkent, Voris nashriyoti, 2024.
8. Z.Batirov, Y.Mahmudov, G.Axmatova, M.Lutfullayeva, R.Qosimova. Hayot faoliyati xavfsizligiga oid kasbiy kompetensiyalarni bo'lajak mutaxassislarda shakllantirish// Ta'lim, fan va innovatsiya. 2-son, 2024-yil.



Karomat BASHAROVA,

Student of 2230 group, Uzbekistan State World Languages University

E-mail: karomatbasharova2@gmail.com

Dilnoza SHAMURATOVA,

Senior teacher, Department of English Applied Disciplines, Uzbekistan state world languages university

E-mail: dizamura5@gmail.com

Based on the review of TSPU professor, Doctor of Philosophy, G. Makhkamova

THE ROLE OF ASSESSMENT IN SURFACE AND DEEP LEARNING OF ENGLISH

Annotation

This article examines the crucial role of assessment in fostering surface and deep learning in English language education. Through an exploration of literature and research findings, it elucidates the various forms of assessment, their impact on learning outcomes, and strategies for integrating assessment effectively into language learning pedagogy. By understanding the nuanced relationship between assessment and learning, educators can optimize instructional practices to promote both surface and deep learning approaches among English language learners.

Key words: Assessment, Surface Learning, Deep Learning, English Language Education, Pedagogy

РОЛЬ ОЦЕНИВАНИЯ В ПОВЕРХНОСТНОМ И ГЛУБИННОМ ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В этой статье рассматривается решающая роль оценивания в содействии поверхностному и глубокому изучению английского языка. Путем изучения литературы и результатов исследований в нем освещаются различные формы оценивания, их влияние на результаты обучения, а также стратегии эффективной интеграции оценивания в педагогику изучения языка. Понимая нюансы взаимосвязи между оценкой и обучением, преподаватели могут оптимизировать методы обучения, чтобы продвигать как поверхностные, так и глубокие подходы к обучению среди изучающих английский язык.

Ключевые слова: Оценка, поверхностное обучение, глубокое обучение, образование английскому языку, педагогика.

INGLIZ TILINI YUZAKI VA CHUQUR YONDOSHUVLAR ORQALI O'RGANISHDA BAHOLASHNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili ta'limida sirtqi va chuqur o'rganishni rivojlantirishda baholashning hal qiluvchi roli ko'rib chiqiladi. Adabiyot va tadqiqot natijalarini o'rganish orqali u baholashning turli shakllarini, ularning ta'lim natijalariga ta'siri va baholashni til o'rganish pedagogikasi bilan samarali integratsiyalash strategiyalari. Baholash va o'rganish o'rtasidagi nozik munosabatlarni tushunish orqali o'qituvchilar ingliz tilini o'rganuvchilar orasida sirt va chuqur o'rganish yondashuvlarini targ'ib qilish uchun ta'lim amaliyotlarini optimallashtirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Baholash, sirtqi o'rganish, Chuqur o'rganish, Ingliz tili ta'limi, Pedagogika

Introduction. In the realm of English language education, the role of assessment extends beyond mere evaluation of student performance; it serves as a powerful tool for shaping learning outcomes and fostering meaningful engagement with the language. This article aims to delve into the intricate interplay between assessment practices and the cultivation of surface and deep learning approaches among English language learners. By exploring existing literature and research, this study seeks to provide insights into the effective utilization of assessment strategies to enhance both surface-level proficiency and deeper comprehension of the English language.

Literature Review. Assessment within English language education encompasses a myriad of methodologies and formats, each playing a pivotal role in shaping learning outcomes and fostering student engagement. Central to the discourse is the distinction drawn by Biggs (1999) between surface and deep learning approaches. Surface learning often involves rote memorization and superficial comprehension of course material, while deep learning entails critical analysis, synthesis, and application of knowledge. This differentiation underscores the multifaceted nature of assessment and its potential impact on the quality of learning experiences.

In elucidating the relationship between assessment and learning approaches, researchers have explored the efficacy of various assessment practices in promoting deep learning among students. Formative assessment, characterized by its emphasis on feedback and student involvement in the assessment process, has emerged as a promising strategy for fostering deeper engagement with course content (Black & Wiliam, 1998). By providing timely

feedback and opportunities for reflection, formative assessment encourages students to actively monitor their progress and identify areas for improvement, thus promoting metacognitive awareness and self-regulated learning (Nicol & Macfarlane-Dick, 2006).

Conversely, the prevalence of summative assessment practices, which typically focus on evaluating overall proficiency through high-stakes exams or assignments, poses challenges to the cultivation of deep learning. Gibbs and Simpson (2004) argue that summative assessment, while valuable for measuring achievement and certifying competence, often incentivizes surface-level learning strategies, as students prioritize performance outcomes over genuine comprehension and application of knowledge. This tension between formative and summative assessment underscores the need for a balanced approach that integrates both types of assessment to support diverse learning goals and outcomes (Carless, 2015).

Furthermore, the role of assessment in promoting language acquisition and proficiency extends beyond traditional testing formats to encompass a range of innovative assessment practices. Portfolio assessment, for instance, allows students to compile evidence of their learning journey over time, showcasing their progress and accomplishments in various language skills (Reiss, 2009). Similarly, performance-based assessments, such as presentations or role-plays, provide opportunities for students to demonstrate their language proficiency in authentic contexts, thereby bridging the gap between classroom learning and real-world communication (Brown, 2004).

Amidst the evolving landscape of assessment in English language education, ongoing research seeks to explore emerging

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rgatishda nafaqat to'g'ridan-to'g'ri algoritmlash jarayonida rivojlanadigan maxsus bilim va algoritmik fikrlash, balki shakllangan mantiqiy fikrlash ham talab qilinadi.

Talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish qoida tariqasida, matematika va mantiq asoslarini o'rganishdan boshlanadi. Talabalar dasturlash qobiliyatlarini yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etgandagina rivojlanishi mumkin. Mustaqil mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu muammoli ta'limdir, chunki u olimning ijodiy faoliyatiga eng yaqin bo'lib, u gipoteza, dalillar va eksperimentlardan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, algoritmik fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari, uni ishlab chiqish va obyektga yo'naltirilgan

dasturlashni o'rgatish o'rtasidagi bog'liqlik professional psixologlarning diqqat-e'tiboridan chetda qolmoqda. Bu o'z navbatida obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish zarurati borligini anglatadi.

Keltirilgan fikrlarni umumlashtirish asosida aytish mumkinki, talabalar obyektga yo'naltirilgan dasturlashga bo'lgan qiziqishini oshirishda, dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirishda, ularning mantiqiy va algoritmik fikrlashini rivojlantirish muhim sanaladi.

Shu bois, har qanday algoritmik tilda dasturlash asoslarini o'rgangach, algoritmik madaniyatning asosi bo'lgan va dasturlashni keyingi o'rganishda tayanch bo'lib xizmat qiladigan tipik masalalarni yechishga o'tish kerak. Bunda dastlab talabalar chiziqli tuzilish algoritmlarini ishlab chiqish, tarmoqlanish (if), takrorlanuvchi (for) operatorlaridan foydalanish, kichik dasturlarni kodlarini ishlab chiqish qobiliyatini o'z ichiga olgan yuqori darajadagi tilda dasturlashning dastlabki ko'nikmalarini egallashlari kerak [1].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, ya'ni oliy ta'lim muassasalarida obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalar obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga bo'lgan qiziqishini oshirishga hamda kompetentligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi:

talabalarni matematik savodxonligini oshirish;
talabalarni mantiqiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish;

talabalar algoritmlashga oid ijodiy qobiliyatini oshirish, kompetentligini rivojlantirish;

talabalarga berilgan algoritmlar dastur kodiga o'tkazish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;

talabalarni berilgan dastur kodidan masala shartini keltirib chiqarish usullarini o'rgatish;

talabalarga obyektga mo'ljallangan dasturlash tillari muhitida ishlab madaniyatini, qiziqishini va ijodiy qobiliyatini oshirish, kognitiv fikrlashini rivojlantirish;

talabalarga obyektga mo'ljallangan dasturlash tillaridan foydalanib amaliy loyihalarni va pedagogik dasturiy vositalarni tayyorlashga o'rgatish;

berilgan amaliy loyihalarni va pedagogik dasturiy vositalarni jamoa bo'lib bajarish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasalarida obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda tadqiqot doirasida taklif etilgan pedagogik shartlarini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat pedagogika institutida "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalar jalb etilib, ular tajriba (95 nafar) va nazorat (96 nafar) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga tadqiqot doirasida taklif etilayotgan pedagogik shartlar obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishda qo'llanildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan "Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalarining natijalari tahlil etilib, ishonchligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kritepiyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos

o'rtacha qiymatlar
$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$$
 tarqoqlik

ko'effitsiyentlarini
$$D_n = \frac{\sum_{i=1}^4 n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$$
 formuladan

foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 9,5% ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Shunday qilib, keltirilgan shartlarga amal qilish orqali obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalar dasturlashga oid kompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Shuning uchun obyektga yo'naltirilgan dasturlash tillarini o'qitish

samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarda va topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.
zamonaviy didaktik raqamli texnologiyalardan hamda muammoli

ADABIYOTLAR

1. Mirsanov U.M., Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o'qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Navoiy, 2023. – 332 b.
2. Куприянов Б.В., Дынина С.А. Современные подходы к определению сущности категории «педагогические условия» // Вестник Костромского гос. университета им. Н. А. Некрасова. 2001. – № 2. – С. 101–104.
3. Баженова Н.Г., Хлудеева И.В. Педагогические условия, ориентированные на развитие: теоретический аспект // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2012. – №151. - С. 217-223. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=18197305>
4. Ипполитова Н.В. Анализ понятия «педагогические условия»: сущность, классификация» / Н.В. Ипполитова, Н.С. Стерхова // General and Professional Education. 2012. – № 1. – С. 11. (С. 8-14.)
5. Павлов С.Н. Организационно-педагогические условия формирования общественного мнения органами местного самоуправления // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. — Магнитогорск, 1999. – 23 с.
6. Трифонова О.Ю. Использование основ проблемного обучения при формировании понятийного аппарата школьников по курсу "Человек" // Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. 1999. – 138 с.
7. Хушбахтов, А.Х. Терминология «педагогические условия» // Молодой ученый. 2015. – № 23 (103). – С. 1020-1022.
8. Шалин М.И. Организационно-педагогические условия развития конкурентоспособности личности старшеклассника // Теория и практика образования в современном мире: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). – СПб.: Реноме, 2013. – С. 47-49.
9. Галкина О.В. Методология исследования понятия «организационно-педагогические условия» как категория управления социально-педагогической организацией // Вестник Самарского государственного педагогического университета. Социальный менеджмент и управление образованием. – 2006. – 2. – Самара: Изд-во СГПУ. – С.39.
10. Сверчков А.В. Организационно-педагогические условия формирования профессионально- педагогической культуры будущих спортивных педагогов // Молодой ученый. 2009. – № 4. – С. 279-282.
11. Рогожкина И.Б. Развивающий эффект обучения программированию: психолого-педагогические аспекты // Психология. Журнал Высшей школы экономики, 2012. Т. 9. –№ 2. – С. 141-148



UDK: 372.850

Nargis DJURAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi p.f.d M.Shodiyeva taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, bugungi kunning asosi hisoblanadi. O'qituvchi o'zining ish faoliyatida o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Shuni esda tutish kerakki, tabiiy fanlarni o'qitishga muammoli yondashishda yetakchi rolni o'qituvchi o'ynaydi, o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, amaliy va aqliy ishlari ularning bilish faoliyatiga o'qituvchi doimo izchillik bilan va mohirona rahbarlik qilganda muvaffaqiyatli rivojlanadi. Shu boisdan bugungi kunda metodlarning tavsifi va mavzuga oid metodlar ishlanmasi ushbu maqolada ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy fanlar, metodika, pedagogika, innovatsion metodlar, didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi, mantiqiy fikrlash, "Sayohat" treningi, krossvord.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННОСТИ НАУКАХ В ЧАСТНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Аннотация

Использование интерактивных методов в преподавании естественных наук в начальных классах является основой сегодняшнего дня. В своей работе преподаватель должен четко определить объем работы учащихся в процессе приобретения навыков. Также важно использовать разные методы обучения. Следует помнить, что при проблемном подходе к преподаванию естественности такую же роль играет преподаватель, самостоятельность мышления учащихся, практическая и интеллектуальная работа их познавательной деятельности успешно развивается при последовательном и умелом руководстве обучением. Поэтому описание методов и разработка методов, относящихся к теме, представлены в данной статье.

Ключевые слова: Естественные науки, методика, педагогика, инновационные методы, образовательная технология с дидактическими играми, логическое мышление, тренинг «Коммуникация», кроссворд.

POSSIBILITIES OF USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIVATE CLASSES

Annotation

The use of interactive methods in the teaching of natural sciences in primary classes is the basis of today. In his work, the teacher should clearly define the scope of work of the students in the process of acquiring skills. It is also important to use different teaching methods. It should be remembered that in the problematic approach to the teaching of natural sciences, the teacher plays the same role, the independence of thinking of the students, the practical and intellectual work of their cognitive activity develops successfully when the training is consistently and skillfully guided. Therefore, the description of the methods and the development of methods related to the topic are presented in this article.

Key words: Natural sciences, methodology, pedagogy, innovative methods, educational technology with didactic games, logical thinking, "Communication" training, crossword.

Kirish. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi tabiiy fanlarni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuniga va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetini o'qitish mazmunini hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi. O'quvchilarga tabiatni o'rgatib borish bilan o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimni o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko'ra, tabiiy fanlarni o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi. O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarni – predmet mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitish va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi.

Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiiy fanlar mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi maktabda hamma tabiat haqidagi fanlarni o'qitishga oid masalalarni – o'qitishning g'oyaviy yo'nalganligini, o'qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlarining shakllari

o'rtasidagi izchillikni va barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligini hamda rivojlanishini ko'rib chiqadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning innovatsion metodlardan foydalanib, tashkil etish uchun avvalo darsning rejasini va loyihasini aniq ishlab chiqilishi lozim. O'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.

N.O'ktamovanning fikriga ko'ra didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jixati, an'anaviy ta'limdagidan farkkilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqilligi va o'quv fani faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maksadga yo'naltirish o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga og'li ravishda yo'llash biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash xuquqini berish sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchi darsning har xil bosqichlarida: materialni tushuntirish vaqtida, amaliy ish, tajribalarni namoyish qilish jarayoni va hokozalarda uning mazmuniga qarab, muammoli vaziyatlar hosil qilish va muammoli savollar qo'yishi mumkin. Faqat shuni esda tutish kerakki, tabiiy fanlarni o'qitishga muammoli yondashishda yetakchi rolni

o'qituvchi o'ynaydi, o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, amaliy va aqliy ishlari ularning bilish faoliyatiga o'qituvchi doimo izchillik bilan va mohirona rahbarlik qilganda muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Tahlillar va natijalar. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, bugungi kunning asosi hisoblanadi. O'qituvchi o'zining ish faoliyatida o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega

“Sayohat” treningi.

Metodning tavsifi: Ushbu metod yoki o'quvchilarni mustaqil ravishda fikrlay olishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Sinf: II sinf

Mavzu: Tog'lar.

Metodning maqsadi: O'quvchilarda mavzuni yaxshi tushinishda sayohat treningini integratsiyalashni tashkil etish va sayohat davomida o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Metodning qo'llanilishi: O'quvchilarga g'oyibona sayohatni tashkil etishda ushbu mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar namoyish etiladi. Guruhlar ishi amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar, mavzu yuzasidan video material. Krossvord, tuproq.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'quvchilarni sayohatlarga olib borish va ularni maktabdan tashqarida o'rganishga undaydigan topshiriqlar berish orqali ushbu strategiyadan foydalanish mumkin. O'quvchilarga guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga shunday topshiriqlar beriladi:

Tasavvur qiling erta toqqa sayohatga chiqamiz. Shu guruhingiz a'zolari ichidan guruh sardori, oshpaz, yo'l ko'rsatuvchi saylab oling.

Sayohat davomida zarur bo'ladigan 10 ta buyum nomini yozing. Ular eng zarur buyumlar bo'lsin.

Guruhlariga topshiriqni belgilangan vaqtda bajarish topshirig'i beriladi. Vaqt tugagach, hamma ish faoliyatini to'xtatadi. Guruh sardori ro'yxatga kiritilgan buyumlar nomlarini o'qiydi va ular nima uchun ishlatilishini tushuntiradi. Ro'yxat jamoa bilan tahlil qilinadi: Agarda mana shu buyum olinmaganda, uning o'rnini nima bosa oladi? Nima qolib ketgan?

Eng zarur buyumlar ro'yxatini to'g'ri tuzgan jamoa g'olib bo'ladi.

Talablar:

Ushbu metoddan foydalanishda o'qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo'ladi:

Topshiriqlar o'tiladigan mavzuga mos kelishi;

Amaliy jarayonni bajarishda tuproqni uyib balandlik hosil qilish;

O'quvchilarning tasavvurini shakllantirishda video materiallardan foydalanish.

Natija:

O'quvchilarning tasavvuri kengayadi;

Tog'lar haqidagi bilimlari rivojlanadi;

Guruh bo'lib ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

“Nima uchun?” o'yini.

Metodning tavsifi. o'quvchilarning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga qaratilgan.

Sinf: III sinf

Mavzu: Kunlik suv sarfini hisoblash.(Loyiha ishi)

Metodning maqsadi: ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar, ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

Metodning qo'llanilishi: O'quvchilarga ushbu mavzu yuzasidan video material namoyish etiladi. Nima uchun? savollariga javob berish jarayoni amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: Tarqatma materiallar, video material, sayt ma'lumotlaridan foydalanish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1-bosqich. O'qituvchi bir qancha muammoli holatlar ro'yxatini tuzadi. Har bir holat yakunida “Nima uchun?” degan savol qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarni navbat bilan turg'izib, ushbu savollarni bera boshlaydi. O'quvchilardan savollarga juda qichqa vaqtda, tezda javob berishlari talab etiladi.

2-bosqich. O'quvchilarning javoblarida mas'uliyat hissi muhokama qilinadi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Sen uyga vazifani bajarmay kelding. Nima uchun?

Suvni iste'mol qilish mumkinmi? Nima uchun?

Sen suvdan tejamkorlik bilan foydalana olmading.

Nima uchun?

Suv sarfini kamaytirmading. Nima uchun?

Suvni oqizib qo'yish mumkinmi? Nima uchun?

Xatti-harakatlarimiz orqali suvning ifloslanishi mumkinmi? Nima uchun?

Suvni tejash kerakmi? Nima uchun?

Suvsiz hayot yo'q. Nima uchun?

Suv obi-hayot. Nima uchun?

Talablar. Ushbu metoddan foydalanishda o'qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo'ladi:

Mavzu yuzasidan loyiha ishini tashkil etish;

Suv haqida video materiallar tayyorlash;

Xaritadan okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar tasvirini ko'rsatish.

Natija. Suvni iste'mol qilish va undan oqilona foydalanish haqidagi bilimlari kengayadi;

O'quvchilarda tejamkorlik sifatleri tarbiyalanadi;

Mustaqil fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi.

Darhaqiqat, ta'lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;

2. Ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish;

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari, alohida boshqaruv jihatlarini, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

Xulosa. O'qituvchilarni ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash o'ziga xos pedagogik muammo bo'lib, uning asosida o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi, o'zgarishlar va yangiliklarning mazmun-mohiyatini tushunishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

ADABIYOTLAR

1. Джураева Н. Н. (2023). Бошланғич синф ўқувчиларини табиий (science) фанлардан кўникмаларини шакллантиришда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш.//Илм fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi, 3(6), 134-139.
2. Narkulovna D. N. (2023). The role of interactive methods in science teaching. science and scientific research in the modern world, 1(7), 76-80.
3. Narkulovna D. R. N. (2024). Boshlang'ich sinflarga tabiiy fanlarni oqitishda ekologik tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati. worldly knowledge konferens, 7(1), 95-98.
4. Kaxharovna X. O. (2021). Ta'lim oluvchi individualligini rivojlantirishning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.64. 46.143
5. Aziz Sa'dullayev. (2024). aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.4.2035>
6. Baratova D. To'liq bo'lmagan oila natijasida bolalar psixikasida yuzaga keladigan salbiy asoratlar. Norasmal ta'limdagi yevropa

jurnali. 2023 yil 19-may;3(5):54-8.

7. Zikirova T. Y. (2022). Pedagogical aspects of the problem of professional pedagogical skills of a modern teacher. the role of science and innovation in the modern world, 1(3), 29-37.
8. Alisherovna T. M. (2023). Problems of Psychological Despotism of Gender Equality in Problem Families. International Journal of Formal Education, 2(3), 146-152.



Zamirjon JURAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

O'z JOKU dotsenti, PhD, G.Xasanova taqrizi asosida

MULOQOT YURITISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muloqotning harbiy xizmatchilar faoliyatidagi turlari, muloqot yuritish kompetensiyasining tarkibiy qismlari, kommunikativ kompetensiya elementlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Axborotlashtirish, muloqot, muloqot yuritish kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ bilim, muloqot ko'nikmalari.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются виды общения в деятельности военнослужащих, компоненты коммуникативной компетентности, элементы коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: Информация, коммуникация, коммуникативная компетентность, коммуникативные знания, коммуникативные навыки.

CONCEPTUAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION COMPETENCE

Annotation

This article discusses the types of communication in the activities of military personnel, components of communicative competence, elements of communicative competence.

Key words: Information, communication, communicative competence, communication knowledge, communication skills.

Kirish. Zamonaviy jamiyat uchun yangi bilimlarni olish, yangi texnologiyalarni, ijtimoiy va ilmiy jarayonlarni boshqarish usullarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat turi axborotni to'plash, uni tahlil qilish, ustuvor vazifalarni tanlash, ushbu muammolarni hal qilishning maqbul variantlarini topish va ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun yondashuvlarni ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq bo'lgan muayyan bosqichlardan o'tishi kerak.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar doimiy yangilanadigan ma'lumotlar oqimi mavjud bo'lgan ijtimoiy muhitning vakillari bo'lib, hozirgi sharoitda "axborotlashtirish" kabi jarayonga yaqinlashdi. Axborotlashtirish jarayoni bugungi jamiyatning maqomi bilan, ya'ni axborot, uning sifati, erkinligi, ochiqligi va foydalanish imkoniyati ustun bo'lgan axborot jamiyati maqomi bilan uzviy bog'liqdir. Axborotlashtirish jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi, odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, kuchli telekommunikatsiya infratuzilmasini barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli jarayondir.

Respublikamizda ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha me'yoriy asoslari yaratildi. Bu esa ta'lim jarayonini zarur axborotlar bilan ta'minlash, ularni o'zlashtirib borishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron muhitda axborot almashishning nazariy va metodik asoslari A.Abduqodirov, U.Begimqulov, G.Ergasheva kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati F.M.Zakirova, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, A.K.Raximov, J.E.Usarovning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash, kompetensiyalarni samarali rivojlantirishga oid yondashuvlar, axborot kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati bo'yicha

Yu.Asadov, M.M.Vahobov, A.M.Magrupov va boshq. tadqiqotlar olib borgan.

MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan ta'limda kompetentli yondashuv masalalari: Z.M.Bolshakova, O.A.Imanova, N.A.Konovalova, S.A.Korolkova, N.F.Radionova, A.N.Sklyarenko, A.V.Timova, I.A.Zimnyaya, metodik kompetentligini rivojlantirish masalalari bo'yicha I.V.Kuznesova, L.V.Shkerina va boshqalar izlanishlar olib borgan.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida harbiy xizmatchilarning muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish sohasida xorij olimlaridan Bill Roberts, Mal Coad kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan, kompetensiyaviy yondashuv yuzasidan dastlabki qarashlar va bugungi kunda ta'lim sohasidagi ahamiyati F.Delamare va J.Winterton tomonidan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqola mavzusini yoritishda nazariy (tahliliy-sintetik, tarkibiy-tipologik, kontent-tahlil), qiyosiy, tasniflash va tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish murakkab muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalariga ega bo'lish, yangi ijtimoiy tuzilmalarda adekvat ko'nikmalarni shakllantirish, muloqotda madaniy me'yorlar va cheklovlarni bilish, urf-odatlar, an'analar, muloqot sohasidagi odob-axloq qoidalarini bilish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yaxshi xulq-atvorga rioya qilish, milliy mentalitetga xos bo'lgan kasbiy sohada ifodalangan kommunikativ vositalarga yo'naltirishdir.

Kasbiy muomala har bir harbiy xizmatchi va xodimning faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har bir turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Harbiy xizmatchi va xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida harbiy xizmatchi va xodimning barcha kasbiy sifatleri (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar harbiy xizmatchi va xodimning mantiqiy fikrlashiga, voqeani o'tmishdagi vaziyat bilan bog'lashiga, o'zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

Muloqotning harbiy xizmatchilar faoliyatida quyidagi turlari mavjud: bevosita; bilvosita; rolli; mazmunli; rasmiy; norasmiy.

Bevosita muloqot «yuzma-yuz» suhbat bo'lib, uning har bir ish tirokchisi idrok qiladi, aloqa qiladi va hamma mavjud vositalarni keng qo'llaydi.

Bilvosita muloqot ham aloqa vositasi bo'lib, unda shaxslar, aloqa vositalari va mexanizmlar ishtirok etadi (masalan: telegraf, telefon orqali gaplashish).

Muloqotning ba'zi turlari ijtimoiy rollar orqali amalga oshirilib, rolli muloqot deyiladi. Bunday holatda odamlar muayyan ijtimoiy rollarni bajaruvi kishilar tarzida muloqotga kirishadilar. Masalan, tergovchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi muloqot rolidir.

Individning boshqa shaxsga o'z holati, kayfiyati, xohishini mimika, harakat, imo-ishora orqali bildirishi mazmunli muloqot deb ataladi.

Rasmiy muloqot yuridik kuchga ega bo'lib, davlat va jamiyat manfaatini ko'zlagan hamda qayd etiladigan muloqot turidir. Masalan, tergov jarayonidagi so'roq qilish.

Shaxslararo o'zaro muloqot jarayonida o'zini qiziqirgan u yoki bu ma'lumotga ega bo'lish norasmiy muloqot hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilar faoliyatida muloqot, ayniqsa, bevosita muloqot o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki tokar temir bilan, zootexnik hayvonlar bilan ishlash, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari, shu jumladan profilaktika inspektorlari, tergovchilar, tezkor xodimlar ham shaxslar bilan, aholi bilan, guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va jinoyat jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ishlaydi. Muloqot jarayonida ularning har biri o'ziga xos dunyoqarash va muomalaga egaligi ko'rinadi.

Muloqot jarayonida bir-birini idrok etayotgan odamlar bir-birini tushunishga harakat qiladilar. Buning uchun quyidagi mexanizmlar ishga solinadi:

Identifikatsiya – insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yishi orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi;

Empatiya – insonning o'zini xayolan suhbatdoshi o'rniga qo'yishi orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi;

Refleksiya – insonning suhbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga intilishi;

Steriotipizatsiya – insonning suhbatdoshini tushunishga intilishi yo'lida muayyan shablonlardan foydalanishi.

Muloqot jarayonida insonlar bir-birini idrok etar ekan, bunda attraksiya (ingl. attract – jalb etmoq) jarayoni yuz berishi, ya'ni idrok etilayotgan odamga nisbatan «yoqirish hissi» paydo bo'lishi mumkin. Attraksiya subyektning obyektiga nisbatan emotsional munosabati sifatida shakllanadi.

Muloqot yuritish kompetensiyasi - bu shaxsning umumiy kommunikativ xususiyati bo'lib, u ishbilarmonlik aloqasi sohasidagi muloqot qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari, hissiy va ijtimoiy tajribalarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya quyidagi qobiliyatlardan iborat:

1. Muloqot qiladigan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik farazini aniqlash;

2. Kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligidan kelib chiqib, muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish;

3. Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish [4].

Muloqot yuritish kompetensiyasi umumiy madaniyat va uning kasbiy faoliyatdagi o'ziga xos ko'rinishlarini sintezlovchi yaxlit sifatidir. Kommunikativ kompetensiyaning shartlaridan biri ma'lum qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng ahamiyatli quyidagilar hisoblanadi: insonlar o'z fikrini tushunarsiz yoki to'liq tushunmasa, uni yetkazishni boshlay olmaydi. «Tushunishga doimo tayyor bo'lish» qoidasi. Ko'pincha xabarlarini to'liq va noto'g'ri tushunishga olib keladigan ko'plab semantik va shaxsiy to'siqlar mavjud. O'ziga xoslik qoidasi. Noaniq iboralar va so'zlardan qochish kerak, keraksiz ravishda notanish yoki juda ixtisoslashgan atamalarni ishlatmaslik kerak. Og'zaki bo'lmagan signallarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabaringiz mazmunini nazorat qilishning o'zi yetarli emas. Shuningdek, uning so'zlayotgan nutqiga taalluqli

bo'lganqismdagi shaklini nazorat qilish kerak - yuz ifodalari, imo-ishoralar, intonatsiya "shaxsiy mahorat" qoidasi.

Muloqot paytida shaxsiy nuqtai nazar noto'g'ri bo'lishi mumkinligini har doim qabul qilish kerak. Bu ko'pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi "zamon va makon" qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi, agar u o'z vaqtida bo'lsa va uni amalga oshirish uchun eng mos vaziyat tanlansa, ta'sirchanligi ortadi.

Ochiqlik qoidasi – paydo bo'lgan vaziyat ta'sirida o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga tayyorlikni qobiliyatini anglatadi. Bunday holat suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish vaqtida qo'l keladi.

Faol va konstruktiv tinglash qoidasi – samarali muloqot qilishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Eng yaxshi suhbatdosh tinglay oladigan, har bir ma'lumotlarga diqqat bilan qarab ichki va tashqi tasavvurini yuzida ifodalab eshita oladigan insondir.

Tekshiruv qoidasi. Aynan mana shu qoida pirovard natijada kommunikativ jarayonning asosiy maqsadi – o'zaro tushunishga erishishni ta'minlaydi [3].

Muloqot yuritish kompetensiyasi rasmiylashtirilgan yoki rasmiylashtirilmagan bo'lishi mumkin. Rasmiylashtirilgan kommunikativ kompetensiya - bu aloqa uchun ko'proq yoki kamroq qat'iy qoidalar to'plami bo'lib, odatda jamoaviy holatlarda qo'llaniladi. Ushbu talablar to'plami hujjatda rasmiylashtiriladi va jamoaviy madaniyatning bir qismi bo'lishi mumkin. Rasmiy bo'lmagan kommunikativ kompetensiya ma'lum bir ijtimoiy guruhning madaniy xususiyatlariga asoslanadi. Ta'riflarga ko'ra, «umuman kommunikativ kompetensiya» mavjud emas. Bir muhitda, bitta ijtimoiy guruhga nisbatan, pedagog yuqori kommunikativ qobiliyatni namoyish qilishi mumkin. Boshqa muhitda, boshqa ijtimoiy guruhga nisbatan, bunday bo'lmashligi mumkin. Misol uchun qurilish ustasi o'z jamoasida odobsiz so'zlarni ishlatib, hamkasblarini yaxshi bilgan holda, u qo'l ostidagilarni juda samarali boshqara olishi mumkin. Olimlar orasida u o'zining kommunikativ qobiliyatlari past ekanligini payqashi mumkin. Muloqot kompetensiyasi ko'plab komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bir vaziyatda ba'zi komponentlar ma'lum bir shaxsning malakasini oshirishi mumkin, boshqa tomondan ular uni kamaytirishi mumkin.

Muloqot yuritish kompetensiyasini (talablar tizimi) rivojlantirishda biz quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatdik: - u yoki bu lug'atni o'zlashtirish, - og'zaki nutqni rivojlantirish (shu jumladan, ravshanlik, to'g'rilik); - yozma nutqni rivojlantirish; - odob-axloq va muloqotga rioya qilish qobiliyati; - taktika, kommunikativ ko'nikmalarni egallash; - muloqot strategiyalarini o'zlashtirish; - muloqot qiladigan insonlarning shaxsiy xususiyatlari va tipik muammolarini bilish; - tashqi signallarni (tana harakatlari, yuz ifodalari, intonatsiyalarni) tahlil qilish qobiliyati; - nizolarni hal qilish qobiliyati, ziddiyatsizlik; - qat'iyatlilik (o'ziga ishonch); - faol tinglash qobiliyati; - notiqlik mahorati; - aktyorlik qobiliyatlari; - muzokaralar, boshqa ish uchrashuvlarini tashkil etish va o'tkazish qobiliyati; - hamdardlik, boshqa shaxsning manfaatlarini tushunish qobiliyati.

Muloqot - shaxslararo muloqot va guruhlar o'rtasida aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, ko'p qirrali jarayoni bo'lib, u qo'shma faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi va kamida uch xil jarayonni o'z ichiga oladi: aloqa (axborot almashish), o'zaro ta'sir (almashish) va ijtimoiy idrok (suhbatdoshini idrok etish va tushunish) [3].

Zamonaviy shaxsning muloqot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu kommunikativ kompetensiyadir. U tilga bo'lganqadriyat munosabatini, kommunikativ hodisalarning ijtimoiy-psixologik tomonlarini tan olish va tushunish zarurligini, ushbu hodisalarda o'z nutqiy xatti-harakatlarini ijtimoiy hayot normalari va qonuniyatlariga muvofiq tashkil etishga tayyorligini aks ettiradi.

Pedagogik faoliyatning tabiati o'qituvchini doimiy ravishda muloqot holatiga qo'yadi, undan kommunikativ kompetensiyani namoyon etishni talab qiladi, bu shaxslararo o'zaro ta'sirga hissa qo'shadigan shaxsning ijtimoiy-psixologik fazilatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu sababli, hozirgi vaqtda eng muhim muammo zamonaviy o'qituvchining kasbiy sifati sifatida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdir.

O'z ishlarini kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish mavzusiga bag'ishlagan tadqiqotchilarning keng doirasi tadqiqot mavzusi katta qiziqish uyg'otayotganini tasdiqlaydi, chunki kommunikativ kompetentsiya bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasining muhim xususiyati hisoblanadi. Bugungi kunda yaxshi mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas, siz ham yaxshi harbiy xizmatchi va xodim bo'lishingiz kerak, ya'ni eng yuqori natijalarga erishish uchun jamoada ishlash qobiliyati, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, o'z maqsadiningizning ma'nosini anglatish qobiliyati, boshqalarga tushunarli bo'lgan bayonot va harbiy xizmatdagi hamkasblaringiz, talabalaringizning nuqtai nazarini tushunish.

Kommunikativ kompetentsiya muammosining ijtimoiy-psixologik nuqtai nazari shaxsning shaxsiy xususiyatlarini, boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarning samaradorligi bog'liq bo'lgan muloqot sub'yektiga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlarini ta'kidlaydi. Shaxs fazilatlarini - bu shaxsiyatning murakkab ijtimoiy va biologik jihatdan aniqlangan tarkibiy qismlari bo'lib, u o'zida aqliy jarayonlarni, xususiyatlarni, shakllanishlarni, barqaror holatlarni o'z ichiga oladi va ijtimoiy va tabiiy muhitda shaxsning barqaror xatti-harakatlarini oldindan belgilaydi.

Shakllanish ma'lum shaxsiy resurslar: fazilatlar va xususiyatlar, munosabatlar, ehtiyojlar, qadriyatlar, his-tuyg'ular - shaxsiyat toifasiga kiradigan hamma narsa ko'p jihatdan uning samaradorligini belgilaydi. Insonni barcha ko'rinishlarida tavsiflovchi ko'plab fazilatlar orasida odamlar o'rtasidagi samarali muloqot uchun juda zarur va muhim bo'lgan fazilatlar mavjud. Bularga: yaxshi niyat, ochiqlik, xushmuomalalik, samimiylik, hamdardlik, bag'rikenglik va boshqalar kiradi. Zamonaviy til nazariyasida (lingvistik yo'nalish) an'anaviy ravishda quyidagi fan kompetentsiyalari ajralib turadi: kommunikativ va lingvistik.

Olimlarning ta'kidlashicha, kommunikativ kompetentsiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan murakkab shakllanish sifatida namoyon bo'ladi: mavzu (nutqdan tashqari kompetentsiya), lingvistik (nutq kompetentsiyasi), ijtimoiy-madaniy (shu jumladan, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi bilim va tajriba, muloqot psixologiyasi), pragmatik (muayyan vaziyatda murojaat qiluvchi va nutq oluvchi o'rtasidagi aloqa bilan bevosita bog'liq - aloqa motivlari, munosabati va maqsadlari) [4]. Uchala soha bo'yicha tadqiqot natijalarini hisobga olish, ularning birligi va ajralmasligini tushunish muhimdir.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv mutaxassisning malakali faoliyatini ta'minlashda kasbiy hamjamiyat o'rtasidagi munosabatlarning butun tizimini tartibga soluvchi ijtimoiy va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, umumiy madaniy va ma'naviy-axloqiy fazilatlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu "kompetentlik" va kompetentsiya tushunchalari orqali o'quv jarayoni natijalari sifati va kasbiy faoliyatga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda talabalarning kommunikativ kompetentsiyasining mazmuni va tuzilishini aniqlashga imkon beradi. Kommunikativ qobiliyat odatda boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatini anglatadi. Kompetentlik o'z ichiga muloqot jarayonining samarali borishini ta'minlovchi bilim va malakalar majmuini o'z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetentsiyani o'rganish natijasida quyidagi elementlarni aniqlash mumkin: - kommunikativ bilim; - muloqot ko'nikmalari; - aloqa mahorati.

Kommunikativ bilim - bu muloqot nima ekanligi, uning turlari, bosqichlari, rivojlanish qonuniyatlari haqida bilimdir. Bu qanday aloqa usullari va usullari mavjudligi, ular qanday ta'sir ko'rsatishi, ularning imkoniyatlari va cheklolari haqida bilimdir. Shuningdek, turli odamlar va turli vaziyatlar uchun qanday usullar samarali ekanligini bilishdir. Bu soha ma'lum muloqot qobiliyatlarining rivojlanish darajasi va qaysi usullarni o'z-o'zidan amalga oshirishda samarali yoki qaysi biri samarali emasligi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

Muloqot ko'nikmalari: xabar matnini adekvat shaklda tashkil qilish qobiliyati, nutq qobiliyatlari, tashqi va ichki ko'rinishlarni uyg'unlashtirish qobiliyati, fikr-mulohazalarni qabul qilish qobiliyati, muloqot to'siqlarini yengib o'tish qobiliyati va boshqalar.

Interfaol ko'nikmalarini quyidagicha asoslash mumkin: insonparvarlik, demokratik asosda muloqotni qurish qobiliyati; qulay hissiy-psixologik muhitni yaratish qobiliyati; o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi boshqara olish qobiliyati; hamkorlikni tashkil etish qobiliyati; prinsiplar va qoidalarga amal qilish qobiliyati; kasbiy etika va odob-axloq qoidalari, faol tinglash qobiliyati; ijtimoiy-pertseptiv qobiliyatlar; aloqada sherikning xatti-harakatlarini adekvat idrok etish, uning holatini baholash, istaklari va xatti-harakatlarining motivlarini og'zaki bo'lmagan signallardan tan olish, boshqa shaxsning shaxs sifatida adekvat qiyoqasini yaratish qobiliyati [2].

Xulosa. Xarbiy xizmatchilarda axborotlar va ularning manbalari bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirishning muhimligi ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga xizmat qiluvchi omillardan biridir. Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil yetish ta'lim oluvchilarning hayotiy faoliyatlar uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik darajasini aniqlash, ta'lim sifatini jahon ta'lim standartlari bilan raqobatbardoshligini ta'minlash va xalqaro tadqiqotlar natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi.

Axborotlardan ta'lim jarayonida foydalanish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ammo xarbiy xizmatchilarning axborot maydonidagi o'rni va roli yetarlicha o'rganilmagan. Zero, ta'lim jarayonining asosiy vazifasi ta'lim oluvchilarga zarur axborot yetkazish, ularning o'zlashtirilishiga erishish hamda o'zlashtirilgan axborotlarni qo'llay olishga o'rgatishdir. Ta'limning turli darajalarida axborot texnologiyalari madaniyatining kengayishi jamiyat uchun katta ta'sirlar ko'rsatadi. Tinglovchilar kelajakda nafaqat faol axborot texnologiyalari avlodiga aylantiriladi, balki jamiyat va oila muhitida axborot texnologiyalari madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ko'rinib turibdiki, tinglovchilar birinchi navbatda mavjud imkoniyatlarning turlarini tushuna olishlari va axborot texnologiyalarini e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak.

ADABIYOTLAR

1. Khasanova G. K. ASSESSMENT CRITERIA OF ORGANIZATIONAL-MANAGEMENT COMPETENCES OF MASTER'S STUDENTS // Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 19. – C. 204-209.
2. Ruzikulova N.Sh. Selection of educational materials for the development of students' information communication skills and their encouragement // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. - Progressive Academic Publishing, Great Britain. -2019. 918-920 pp.
3. Психология общения. Энциклопедический словарь г под общ. ред. А.А. Бодалёва.— М., 2015.
4. Смолянинова О.Г. Развитие методической системы формирования информационной и коммуникативной компетентности будущего учителя на основе мультимедиа-технологий. Дис. ... док. пед. наук. 2002. – 504 с.
5. Складченко А.Н. Технология формирования компетенций. // Методические рекомендации для преподавателя. – Москва, 2011. – 106 с.



UDK: 81.13

Mohira JURAEVA,

Second-year doctoral student of Karshi State University Teacher of the Department of English Language Teaching Methodology and Practice

E-mail: joraeva.mohira@mail.ru

Under the review of Doctor of science, professor of Turon University, Sh.Nurillayeva

“INTERLANGUAGE” KONSEPSIYASINING KOMMUNIKATIV METOD SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Аннотация

Maqolada “interlanguage” konsepsiyasi tahlil qilinib, uning chet tilini o‘rganish jarayonida EFL talabalari duch keladigan muammolarini asoslovchi ahamiyati o‘rganildi. “Interlanguage” konsepsiyasining chet tilini o‘qitish metodlaridan bo‘lgankommunikativ metodning paydo bo‘lishida tutgan o‘rni tahlil qilinib, xulosa chiqarildi.

Kalit so‘zlar: Interlanguage, o‘rganuvchi mustaqil tili, nutqni rivojlantirish, kommunikativ metod, multicompetence.

РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ «INTERLANGUAGE» В ФОРМИРОВАНИИ КОММУНИКАТИВНОГО МЕТОДА

Аннотация

В статье анализируется понятие «interlanguage», а также изучается его значение как основа проблем, с которыми сталкиваются студенты EFL в процессе изучения иностранного языка. Проанализирована роль понятия «interlanguage» в возникновении коммуникативного метода, который является одним из методов обучения иностранному языку, и сделан вывод.

Ключевые слова: Самостоятельная речь обучающегося, interlanguage, речевое развитие, коммуникативный метод, мультикомпетенция.

THE ROLE OF THE INTERLANGUAGE CONCEPT IN THE FORMATION OF THE COMMUNICATIVE METHOD

Annotation

The concept of "interlanguage" is analyzed in the article, and its importance is studied as a basis for the problems faced by EFL students in the process of learning a foreign language. The role of the concept of "interlanguage" in the emergence of the communicative method, which is one of the foreign language teaching methods, was analyzed and a conclusion was drawn.

Key words: Interlanguage, learner's independent language, speech development, communicative method, multicompetence.

Introduction. The methodology of teaching foreign languages faced dramatic changes in the last century. Language learning and teaching styles changed, developed, integrated, rejected and so on. The concept of language learner's independent language that is, interlanguage had a great impact on that process. Second language learning includes a gradual advancement from the learner's first language towards the target language. During learning process, the language learner naturally develops an intermediate language between their L1 and L2. The concept of the learner's own system liberated the classroom and in part paved the way for the communicative language teaching methods of the 1970s and 1980s, and the task-based learning of the 1990s. In audio-lingual and grammar-translation methods, a grammar mistake was considered serious problem, in contrast, interlanguage liberated learning process. Since the interlanguage concept was first introduced, it has become a major subject in the field of second language learning process.

Literature review. According to the UNESCO Institute for Statistics, first language [L1] is acquired during childhood within the home environment, also known as the mother tongue or native language[10]. On the other hand, second language [L2] refers to the second or foreign language that is being studied [6] or a societally dominant language that plays essential roles in education, employment, and other communication purposes [7]. Concerning the use of L1 in L2 learning, there are two major approaches: monolingual and bilingual. The monolingual approach highlights the importance of providing maximum exposure to the target language [TL], and avoiding L1 altogether or restricting its use in teaching [9.77-97]. The supporters of this principle believe that L1 could interfere with the process of learning L2 [2.943-962]. Although the traditional method of teaching L2 has prioritized the monolingual approach, there is a growing interest in the use of L1 in the classroom as a result of recent pedagogical research [4.109]. Using L1 in the L2 classroom has been proposed as a pedagogy that can offer positive

results to counter monolingual assumptions about the negative effect of the language [3].

Research methodology. One view of L2 learning sees its crucial element as the transfer of aspects of the first language to the second language. The first language helps learners when it has elements in common with the second language and hinders them when they differ. But the importance of such transfer has to be looked at with an open mind. Various aspects of L2 learning need to be investigated before it can be decided how and when the first language is involved in the learning of the second. Though transfer from the first language indeed turns out to be important, often in unexpected ways, its role needs to be established through properly balanced research rather than the first language taking the blame for everything that goes wrong in learning a second. Historically, the communicative style relates to the idea of interlanguage described above. Teachers should respect the developing language systems of the students rather than see them as defective. Indeed, the major impact of SLA research on language teaching so far may have been the independent language assumption described above, which liberates the teacher from contrived Grammatical progressions and allows them to desist from correcting all the student's mistakes: learners need the freedom to construct language for themselves, even if this means making 'mistakes'. So the favored techniques change the teacher's role to that of organizer and provider, rather than director and controller. The teacher sets up the task or the information gap exercise and then lets the students get on with it, providing help but not control. The students do not have to produce near-native sentences; it no longer matters if something the student says differs from what natives might say.

Analysis and results. Language learning in this style is the same as language using. Information gap exercises and role-play techniques imitate what happens in the world outside the classroom in a controlled form, rather than being special activities peculiar to language learning. Later on, students will be asking the way or dealing with officials in a foreign language environment

just as they are pretending to do in the classroom. Learning language means practicing communication within the four walls of the classroom. You learn to talk to people by actually talking to

them: L2 learning arises from meaningful use in the classroom. Language learners' 'interlanguage', as Larry Selinker [8.31] described.




Figure 1.1 The learner's independent language [interlanguage]. [According to Larry Selinker]

The interlanguage concept had a major impact on teaching techniques in the 1970s. Teaching methods that used drills and grammatical explanations had insisted on the seriousness of the students' mistakes. A mistake in an audio-lingual drill meant the student had not properly learnt the 'habit' of speaking; a mistake in a grammatical exercise meant the student had not understood the rule. The concept of the learner's own system liberated the classroom and in part paved the way for the communicative language teaching methods of the 1970s and 1980s, and the task-based learning of the 1990s. On the one hand, we have the user's knowledge of their first language; on the other, their interlanguage in the second language. But these languages coexist in the same mind; one person knows both. It is needed to name the overall knowledge that combines both the first language and the L2 interlanguage, namely multi-competence [1] – the

knowledge of two languages in the same mind. Learners' sentences reflect their temporary language systems rather than their imperfect grasp of the target language. If a student makes a 'mistake', it is not the fault of the teacher or the materials or even of the student, but an inevitable and natural part of the learning process. According to Vivian Cook, "Language is at the center of human life". But these languages coexist in the same mind; one person knows both. So he called this overall knowledge that combines both the first language and the second language as "multicompetence" [1.15]. The lack of this concept has meant Second Language Acquisition research has still treated the two languages separately rather than as different facets of the same person. This concepts impacted communicative method of language teaching in a positive way.




Figure 1.2. Multicompetence[1].

Teachers could now use teaching activities in which students talked to each other rather than to the teacher, because the students did not need the teacher's vigilant eye to spot what they were doing wrong. Their mistakes were minor irritants rather than major hazards. They could now work in pairs or groups, as the teacher did not have to supervise the students' speech continuously to pinpoint their mistakes. The communicative style does not hold a view about L2 learning as such, but maintains that it happens automatically, provided the student interacts with other people in the proper way. Many of its techniques carry on the audio-lingual style's preoccupations with active practice and with spoken language. Communicative tasks belong in the historical tradition of the exploitation phase of the audio-lingual style, in which the students use the language actively for themselves; they have now been developed into a style of their own, task-based learning [TBL], as seen below. The main difference is that in communicative teaching there is no previous phase in which the students are learning dialogues and drills in a highly controlled fashion. Like the audio-lingual style, communicative teaching often resembles behaviorist views of learning. The main difference between the audio-lingual style and the communicative style is the latter's emphasis on spontaneous production and comprehension. The style is potentially limited to certain types of student. For instance, it might benefit field-independent students rather than field-dependent students, extroverts rather than introverts, and less academic students. The audio-lingual style, with its authoritarian teacher controlling every move the students makes, fits more with cultures that are 'collectivist', to use Hofstede's term, say, in Japan; the communicative style, with the

teacher setting up and organizing activities, goes more with cultures that are 'individualistic', say, in Australia.

The communicative teaching style covers only some of the relevant aspects of L2 learning, however desirable they may be in themselves. For example, it has no techniques of its own for teaching pronunciation or vocabulary, little connection with speech processing or memory and little recognition of the possibilities available to the learner through their first language. Pair work and group work among students with the same first language, for example, often lead to frequent codeswitching between the first and the second language, perhaps something to be developed systematically rather than seen as undesirable. The communicative style uses grammar, it often relies on a structuralist grammar reminiscent of audio-lingualism, for instance in the substitution tables found in many communicative course books, to be discussed below. In general, communicative language teaching has sophisticated ideas of what students need to learn, which have undoubtedly freed the classroom from the rigors of the academic and audio-lingual styles. It is hard, however, to pin it down in a set of axioms in the way that Wilga Rivers could do for audio-lingual teaching. Their preparation time also goes up as they have to devise roles for the students to play, collect pictures for information gap games, or invent ingenious tasks for them to do. Over time, at least three variants of the communicative style emerged, which we shall call here 'social communicative', 'information communicative' and 'task-based learning'. A conversation requires someone to talk to [social], something to talk about [information], and a reason for talking [task].

Conclusion and recommendations. Learning a second language is considered as the transfer of aspects of the first language to the second language. The first language helps learners when it has elements in common with the second language and hinders them when they differ. Foreign speakers may leave out the subject of the sentence when speaking English, saying 'Is raining' rather than 'It is raining', while other speakers do not. Nor is it usually difficult to decide from accent alone whether a foreigner speaking English comes from France, China or

Uzbekistan. Interlanguage, by far the strongest amongst the second language learning theories. Although vague in many points, it has been able to provide significant suggestions for the theories of second language learning. No matter from where the speaker is, the interlanguage is shaped in the minds of the learners, independently from their mother tongue and foreign language, that clarifies unconscious mistakes that should not be considered a serious problem.

REFERENCES

1. Cook, V.J. [1992] Evidence for multi-competence. *Language Learning* 42[4]: 557–91.
2. De la Fuente, M. J., & Goldenberg, C. [2020]. Understanding the role of the first language [L1] in instructed second language acquisition [ISLA]: Effects of using a principled approach to L1 in the beginner foreign language classroom. *Language Teaching Research*, 26[5], 943-962. <https://doi.org/10.1177/1362168820921882>
3. de Oliveira, L., & Jones, L. [2023]. Teaching young multilingual learners: key issues and new insights [Elements in language teaching]. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/9781108934138>
4. ElJish, Z., Taylor, T., & Shehata, H. [2022]. A case study on the effectiveness of bilingual instructors compared with monolingual instructors at a private university in Saudi Arabia. *International Journal of Education & Literacy Studies*, 10[1], 109-123. <https://doi.org/10.7575/aiac.ijels.v.10n.1p.109>
5. Hofstede, G. [1980] *Culture's Consequences: International Differences in Work related Values*. London: Sage.
6. Nordquist, R. [2020, January 6]. What is a second language [L2]? ThoughtCo. <https://www.thoughtco.com>.
7. Saville-Troike, M. [2012]. *Introducing second language acquisition*. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511888830>
8. Selinker, L. [1972] Interlanguage. *International Review of Applied Linguistics* X[3]: 209–31.
9. Tekin, S., & Garton, S. [2020]. L1 in the primary English classroom: How much, when, how and why? *Iranian Journal of Language Teaching Research*, 8[3], 77-97. <https://doi.org/10.30466/>
10. IJLTR.2020.120935
11. Crystal, D. A *Dictionary of Linguistics and Phonetics*. 6th ed. Oxford: Blackwell, 2008.



Nodira ZIKIROVA,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi
E-mail: zikirovanodira95@gmail.com

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi p.f.d.(DSc) M.J.Shodiyeva taqrizi asosida

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TAHLILI

Аннотация

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni kasbiy motivatsiyasini shakllantirish fan nuqtai nazaridan dolzarb muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy motivatsiyasi va o'qituvchining o'quvchilarning shaxsiyati haqidagi g'oyalarning yetariligi o'rtasida muhim bog'liqlik, shuningdek, motivatsiya, kasbiy motivatsiya tushunchalarining mazmun mohiyati batafsil yoritilgan. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, innovatsion faoliyat, innovatsion faoliyatning qonuniyatlari, vazifalari va bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Motiv, motivatsiya, kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetent, innovatsion faoliyat, g'oyaviy e'tiqodliligi, kasbiy faoliyat, kasbiy o'z-o'zini anglash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

Сегодня формирование профессиональной мотивации будущих учителей начальной школы является актуальной проблемой с точки зрения науки. В статье анализируются педагогические возможности формирования профессиональной мотивации будущих учителей начальной школы. Подробно поясняется важная связь между мотивацией будущего учителя начальной школы и адекватностью представлений учителя о личности учащихся, а также значение понятий мотивация и профессиональная мотивация. Одной из главных задач современного учителя является высокий уровень профессиональной компетентности и интеллектуального потенциала, лояльность, идейная убежденность, инновационная активность, упоминаются закономерности и задачи инновационной деятельности, формирование профессиональной мотивации будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова: Мотив, мотивация, касбий мотивация, касбий компетент, инновационная активность, идейная убежденность, профессиональная деятельность, профессиональное самосознание.

PEDAGOGICAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL MOTIVATION FORMATION OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER

Annotation

Today, the formation of professional motivation of future elementary school teachers is an urgent problem from the point of view of science. Pedagogical possibilities of formation of professional motivation of future elementary school teachers are analyzed in this article. The important connection between the motivation of the future elementary school teacher and the adequacy of the teacher's ideas about the personality of the students, as well as the meaning of the concepts of motivation and professional motivation, is explained in detail. One of the main tasks of a modern teacher is the high level of professional competence and intellectual potential, loyalty, ideological conviction, innovative activity, the laws and tasks of innovative activity, and the formation of professional motivation of future elementary school teachers. are mentioned.

Key words: Motive, motivation, kasbiy motivation, kasbiy competence, kasbiy kompetent, innovatsion faoliyat, professionally competent, innovative activity, ideological conviction, professional activity, professional self-awareness

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lmish, oliy ta'lim tizimida bir qator tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil fikrga ega va yuksak saviyali kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori aynan shu masalaga qaratilgandir [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligi munosabati bilan qilgan ma'ruzalarida bugungi yoshlar tarbiyasiga e'tibor va ularga zamonaviy bilim berish, bu borada o'z ustida doimo ishlab, yangiliklar yaratadigan o'qituvchilarni shakllantirish masalasiga e'tibor qaratdi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil qilish,

o'qitish qobiliyati va mahorati, kasbiy va metodik kompetentligini kasbiy motivatsiya bilan uyg'unlikda shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shunga muvofiq, dastlab "motivatsiya" tushunchasining psixologik mohiyatini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Psixologiyada inson xulq-atvoridagi qo'zg'atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo'llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy bo'lib hisoblanadi. Motivatsiya atamasi "motiv" atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Motiv – bu faoliyat sababi, ya'ni faoliyat nima uchun amalga oshirilayotganini anglatadi. Motivatsiya – bu insonni qiziqtiruvchi, da'vat etuvchi omillar bo'lib, shaxsning faolligini belgilab beradi, ular qatoriga motivlar, ehtiyojlar, rag'batlar, inson xulq-atvorini belgilaydigan vaziyatlarni kiritish mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot-loyihalashga tayyorlash jarayonining motivatsion komponenti o'qish motivatsiyasi uchun emotsional jihatdan qulay muhitni, kelgusidagi kasbiy-pedagogik faoliyatga motivatsiyani yaratishga tayanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A.Derkach o'qituvchi ishining samaradorligi motivatsiya tarkibidagi ijodiy ehtiyojning mavjudligiga bog'liqligini eksperimental ravishda isbotladi. N.V.Tumarova, shuningdek, yuqori va past darajadagi pedagogik professionallik ishlab chiqarish ta'limi ustalarining motivatsiya tuzilishidagi aniq farqlarni aniqladi. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy motivatsiyasining kuchi va tuzilishiga bog'liq. Ammo pedagogik faoliyatning barcha parametrlari motivatsiya darajasiga qat'iy bog'liq emas. A.A.Reanning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining motivatsiyasi va o'qituvchining o'quvchilarning shaxsiyati haqidagi g'oyalarning yetariligi o'rtasida muhim bog'liqlik yo'q. Hatto pedagogik mehnatdan mamnun bo'lganlar, kasbni ongli ravishda tanlaganlar, yuqori natijalarga erishishga intilganlar ham hatto ular o'zlarining ayblovlarini to'liq yetarli darajada tushunishdan uzoqdirlar [2]. A.K.Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini o'rganib, ularning barcha xilma-xilligini uch guruhga birlashtirdi:

- 1) majburiyat sabablari;
 - 2) mavzu tomonidan o'qitiladigan qiziqish va ishtiyiq motivlari;
 - 3) bolalar bilan muloqotga bo'lgan ishtiyiq motivlari – “bolalarga bo'lgan muhabbat” [3].
- Ushbu motivlarning ustunligi xususiyatiga ko'ra, u to'rt guruh o'qituvchilarni ajratib ko'rsatdi:

majburiyat motivlarining ustunligi bilan (43%);
o'qitiladigan intizomga qiziqish ustunligi bilan (39%);
bolalar bilan muloqot qilish zarurati ustunligi bilan (11%);
yetakchi motivsiz (7%).

L.N.Zaharova (1993) o'qituvchining kasbiy motivlari turlarini aniqlab, omillarning keng doirasidan quyidagilarni aniqlashtirdi:

- moddiy rag'batlantirish;
- o'z-o'zini tasdiqlash bilan bog'liq motivlar;
- professional motivlar;
- shaxsiy o'zini o'zi anglash motivlari.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish muammosi psixologiya fanida ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Motivatsiya muvaffaqiyatli o'rganishning asosiy omillaridan biridir. Ammo bu omilning xususiyatlari va uning samaradorligi talaba o'tadigan ta'lim jarayonining turli bosqichlarida farqlanadi. Birinchi kursdan oxirgi kursgacha o'quv va kasbiy faoliyatning o'zi ham, motivatsiyasi ham o'zgaradi. Bunda talabalarining ba'zilarida o'quv faoliyati motivlarining yetarli emasligi ularning yaxshi rivojlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin, mos ravishda universitet ta'limi jarayonini takomillashtirish talabalarining o'quv faoliyatidagi motivatsiyaga yo'naltirilgan aloqaga ham yo'naltirilishi mumkin. Namuna uchun u yoki bu sababni tanlash chastotasi aniqlanadi. Bu butun o'quv jarayonini va uning har bir jihatini, ayniqsa motivatsion jarayonni qayta qurishni oldindan belgilab beradi. Ma'lumki, har qanday talabaning muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosi bu faoliyat turiga yuqori darajadagi motivatsiyadir. Bu talabalarni axborot bloki fanlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv ishiga jalb qilishga yordam beradi. Talabalarining axborot-loyihalash kompetentligini ta'limning paradigmal transformatsiyasi kontekstida rivojlantirish jarayonini motivatsion-qadriyat komponenti mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- talabalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni kelgusida kasbiy-pedagogik faoliyatda qo'llash imkoniyatlari bilan tanishtirishga qaratilgan kirish mashg'ulotlari mazmuni va axborot bloki;
- taqdimotlar, konstruksiyalarni kompyuterda modelashtirish va loyihalash texnikasi va texnologiyasi;
- avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari va pedagogik dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalar o'tkazadigan master-klasslar hamda test- larni tashkil qilish;
- o'tkazilgan master-klass haqida hisobotlarni tayyorlash, himoya qilish va ularni muhokama qilish. Bular barcha talabalarda o'ziga o'zi baho berish va o'zini o'zi nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim olishda

motivatsiyaning mavjudligi bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi Demak, motivatsiya inson xulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo'lgansabablar yig'indisi sifatida belgilash mumkin.

Motivatsiya – ehtiyoj yoki istak, stimullashtirilgan va yo'naltirilgan xulq-atvordir. Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lganma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'z kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodligi, o'z kasbini sevishidir. Bu pedagoglarni boshqa kasb egalariidan ajratib turadi. Talaba-yoshlarni zamon talablari asosida tarbiyalash va ularga jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllanib borayotgan fanlar asosida nazariy va amaliy bilim berish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi o'zi dars beradigan fanning mohir ustasi, bilimdoni, ta'lim-tarbiya jarayonidagi har qanday muammoning yechimini topa oladigan, o'z ustida doimo ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladigan, bir so'z bilan aytganda zamon talabiga javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi lozim [4].

Shunga muvofiq bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha pedagogik va psixologik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasining izohli ma'nosi berilib, ingliz tilidan olingan “competence” – tushungan, qobiliyatli ma'nosini anglatadi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajada kasbiy malaka, mahorat va iqtidorini namoyon etib olish” degan tushunchani anglatadi. Hozirgi kunda respublikamizda ro'y berayotgan islohatlar bevosita innovatsion ta'lim tizimi bilan bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbiga yo'naltirish, tarbiyalash hamda kasbiy moslashtirish asosiy va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Tahil va natijalar. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va ko'zlangan natijaga erishish uchun bilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy ahamiyatga ega bo'lgantushunchalar, egallashi zarur bo'lgankompetensiyalar va ularda shakllanishi zarur bo'lgankasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlar orqali ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi asosiy omillardan biri bu ularning kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashtirishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish va rivojlantirish uning dastlabki kasbiy tayyorgarligi jarayonida ham, oliy ta'lim muassasasida tahsil olish jarayonida ham, auditoriyada va mustaqil ta'lim jarayonida ham amalga oshiriladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish alohida yondashuvni talab qiladi. O'qitish jarayonining ishtirokchisi, ta'lim muhitining tashkil etuvchisi sifatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda ijtimoiy talab va ehtiyojlar, shuningdek, pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi. Ta'lim, kasbiy bilim va ko'nikmalar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega va kasbiy muhim fazilatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning asosiy negizini tashkil etadi. Shaxsiy xususiyatlar insonning rivojlanish sur'ati va darajasiga ham inson sifatida, ham mutaxassis sifatida ta'sir qiladi. Bo'lajak o'qituvchining yetakchi shaxsiy xususiyatlariga uning munosabatlari, motivlari, aql-zakovati, hissiy-irodaviy doirasi kiradi.

Pedagogika fanlari nomzodi G.G'afforova bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni 3 bosqichda ifodalaydi.

I bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik, kasbiy tasavvurning shakllanishi, kasbiy bilimning o'zlashtirilishi, kasbiy faoliyat talablarining yangilanishi.

II bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish, kasbiy kompetensiyalarini bilish, o'zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik, faoliyatga innovatsion yondashishning qaror topishi (maxsus fanlar, pedagogik amaliyot, to'garaklar, ijodiy ishlar, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta'lim vositasida).

III bosqich. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish, kasbiy ko'nikma va malakaning rivojlanishi, pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatning shakllanishi (umumkasbiy va maxsus fanlar, o'quv amaliyoti, mustaqil ta'lim vositasida) [5].

Kasbiy faoliyatni samarali tashkil qilish uchun esa quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish;
- yangidan yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- hamkorlik orqali pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish [6].

Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini sifatli kadrlar darajasida tayyorlash tizimining mavjud holati tahlili esa ularning tayyorgarlik sifati zamon talablariga to'la javob bermayotganini ko'rsatmoqda. Ushbu holatning asosiy psixologik-pedagogik sabablari quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz: ta'lim jarayonida asosan doimiy bir xil usullarning qo'llanilishi (axborot-illustrativ ma'ruzalar, an'anaviy seminarlar, amaliy-reproduktiv mashg'ulotlar va boshqalar); mavjud o'quv rejalar va o'quv-bilish faoliyatini amalga oshirishda doimiy bir maromga yo'naltirilganligi; fanlarning o'zaro aloqadorligining ta'minlanmasligi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida real ilmiy-texnik va ijtimoiy muammolarni tizimli va yaxlit tarzda

tasavvur qilish hamda bilimlarni integrallashga imkoniyat tug'dirmasligi; qo'llanilayotgan kognitiv pedagogik texnologiyalarning aksariyati talabalarda reproduktiv faoliyatni shakllantirishga qaratilganligi (zamonaviy ishlab chiqarishda esa ijodiy faoliyat talab qilinmoqda); amaliyotga va ijodkorlikka yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil qilish imkoniyatining mavjud emasligi; o'rganilayotgan bilim sifatini nazorat qilish tizimi talabalarda kompetentlikni emas, balki bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlashga qaratilganligi; bitiruvchi talabalarining bo'lajak kasbga tayyorgarlik darajasini aniqlash faqat kasbiy bilimlarga tayanilgan holda amalga oshirilib, jamiyat uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatida bu jarayonda e'tibordan tashqarida qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy motivatsiyasini oshirishga doir quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Maqsad va ishtiyoqni shakllantirish. Talabalarga nima uchun bu kasbni tanlaganliklarini eslash, sabablarini aniqlashtirishga imkoniyat yaratish. Ularning o'qitishga bo'lgan ishtiyoqi va shaxsiy hayotiga ta'sirini aniqlashtirishga e'tibor qaratish ularning motivatsiyasini qayta tiklashi mumkin.

Talabalar rivojlanishiga e'tibor qaratish. E'tiborni tashqi omillardan talabalar rivojlanishiga o'tkazish ular tomonidan muvaffaqiyatga erishishni ta'minlaydi, bu motivatsiyaning dinamikasiga erishish imkonini beradi.

Talabalar uchun ilhomlantiruvchi kitob, kontentlar katta yordam berishi mumkin. Ko'proq tegishli kitoblarni o'qish talabalarga yangi istiqbollarni, strategiyalar va o'z kasbining qiyinchiliklarini hal qilish uchun motivatsiya berishi, shuningdek, shaxsiy va professional o'sish uchun yangi tushunchalar va strategiyalarni taqdim etishi mumkin.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori.
- Реан А.А. Психология адаптации личности. Анализ. Теория. Практика: учебное пособие / А.А. Реан, А.П. Кудашев, А.А. Баранов. – СПб: ПРАЙМ-ЕВРОЗНАК, 2006. – 479 с.
- Oltmisheva N.G. Tuhtarov I.M. Turdiyeva Sh.I., Xakimov A.M., Teshabaeva L.A., Ergashev U.A., Kadirova D.S. Kant's pedagogy and contemporaneity // Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation – 2021 - 32(2) – C. 1633-1636.
- Botirova Dilafuz Bozorovna. International Journal of Mechanical Engineering. 2 February, 2022.
- Yoldosheva, Z. N. . (2023). The Role of Innovative Technologies in the Development of Methodical Training of Teachers in General Secondary Educational Institutions. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(4), 95–98. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/1607>
- Jo'rayev N.S. O'quv motivlarini shakllantirish. Toshkent: TDPU. 2008. 62 b.
- Aziz SA'DULLAYEV. (2024). ASPECTS OF FORMING VOLUNTARY QUALITIES IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENT WRESTLERS. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. Retrieved from <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>



Dildorxon INOMIDINOVA,
Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti
E-mail: dikramovna@gmail.com

NamDU dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) Z.X.Botirova taqrizi asosida

METHODS OF TEACHING ENGLISH PHONETICS TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS (IN THE CASE OF GRADES 1-2)

Annotation

Teaching English phonetics to elementary school students is an important aspect of language education, which lays the foundation for the formation of effective communication, reading and writing skills. Phonetics, the study of speech sounds and their formation, is necessary for students to develop correct pronunciation, spelling and decoding skills in English. In this article, we will look at different methods and strategies that teachers can use to effectively teach English phonics to elementary students. By using fun and interactive methods, teachers can help young learners master English sounds and improve their general language skills.

Key words: Elementary school, English language, phonetics, reading, writing, interactive methods, language, letters.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФОНЕТИКИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ (НА ПРИМЕРЕ 1-2 КЛАССОВ)

Аннотация

Обучение английской фонетике учащихся младших классов является важным аспектом языкового образования, который закладывает основу для формирования эффективных навыков общения, чтения и письма. Фонетика, изучение звуков речи и их формирования, необходима учащимся для развития навыков правильного произношения, правописания и декодирования на английском языке. В этой статье мы рассмотрим различные методы и стратегии, которые учителя могут использовать для эффективного преподавания фонетики английского языка ученикам начальной школы. Используя веселые и интерактивные методы, учителя могут помочь юным ученикам освоить звуки английского языка и улучшить свои общие языковые навыки.

Ключевые слова: Начальная школа, английский язык, фонетика, чтение, письмо, интерактивные методы, язык, буквы.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI FONETIKASINI O'QITISH METODLARI (1-2-SINFLAR MISOLIDA)

Аннотация

Boshlang'ich sinif o'quvchilariga ingliz tili fonetikasini o'rgatish til ta'limining muhim jihati bo'lib, samarali muloqot qilish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi. Fonetika, nutq tovushlari va ularning hosil bo'lishini o'rganuvchi fan o'quvchilarda ingliz tilida to'g'ri talaffuz, imlo va dekodlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarurdir. Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinif o'quvchilariga ingliz tili fonetikasini samarali o'rgatish uchun o'qituvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan turli usullar va strategiyalarni ko'rib chiqamiz. Qiziqarli va interfaol usullarni qo'llash orqali o'qituvchilar yosh o'quvchilarga ingliz tilidagi tovushlarni o'zlashtirishga va umumiy til bilimlarini oshirishga yordam berishi mumkin.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinif, ingliz tili, fonetika, o'qish, yozish, interfaol metodlar, til, harflar.

Kirish. Ingliz fonetikasi tilni rivojlantirishda, ayniqsa ingliz tilida o'qish, yozish va samarali muloqot qilishni o'rganishning dastlabki bosqichida bo'lgan boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yosh o'quvchilarga fonetikani o'rgatish ularga til tovushlarini tushunish va tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni tushunishga yordam beradigan qiziqarli va interfaol usullarni talab qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fonika tovushlarni harflar yoki harflar guruhlari bilan bog'lash orqali o'qish va imloni o'rgatishning asosiy usuli hisoblanadi. Fonikaga asoslangan dasturlar va resurslardan foydalanish o'quvchilarga tovush-harf yozishmalarini o'rganishga va so'zlarni yanada samaraliroq dekodlashga yordam beradi. Fonemik ong - og'zaki so'zlardagi alohida tovushlarni aniqlash va boshqarish qobiliyati. O'quvchilarni tovushlarni aralashtirish, qismlarga ajratish va qo'iyalash kabi mashg'ulotlarga jalb qilish ularning o'qish va imlo uchun zarur bo'lgan fonematik xabardorligini oshirishi mumkin. Fonetikaga e'tibor qaratuvchi interfaol o'yinlar, ilovalar va onlayn resurslarni o'z ichiga o'rganish o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli bo'lishi mumkin. Bu vositalar zudlik bilan fikr-mulohaza va mustahkamlashni ta'minlaydi, bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Fonetik mashqlar orqali muntazam mashq qilish o'quvchilarning talaffuz, so'zni aniqlash va imlo ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Kartochkalar, ishchi varaqlar va so'z yasovchi mashg'ulotlar fonetik tushunchalarni mustahkamlashning samarali vositalaridir.

Qo'shiqlar, qo'shiqlar va qo'iyalardan foydalanish o'quvchilarning fonetik naqsh va tovushlarni esda qolarli tarzda eslab qolishlariga yordam beradi. Musiqa o'quvchilarni jalb qiladi va talaffuz qobiliyatlarini yaxshilash bilan birga fonetikani o'rganishni yoqimli qiladi. Grafiklar, plakatlar va harf plitalari yoki fonika kublari kabi manipulyatsiya kabi ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga tovushlar, harflar va so'zlarni tasavvur qilish va boshqarishga yordam beradi. Bu yordamlar fonetik tushunchalarni tushunish va saqlashni kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarga ovoz chiqarib o'qish va ularni hikoya qilish faoliyatiga jalb qilish ularni kontekstdagi turli fonetik naqsh va tovushlarga duchor qiladi. O'quvchilarni ovoz chiqarib o'qishga va talaffuzni mashq qilishga undash, hikoyalardan zavqlanib, ularning fonetik ko'nikmalarini oshiradi. Fonetik ko'nikmalarni juftlik yoki guruhlarda mashq qilishni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi faoliyatlar qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. Tengdoshlarning hamkorligi va guruh faoliyati o'quvchilarga bir-biridan o'rganish va fonetik tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilar turli xil o'rganish uslublari va sur'atlariga ega ekanligini tan olish, tabaqalashtirilgan ta'lim berish muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy ehtiyojlarni qondirish uchun moslashtirilgan faoliyat, qiyinchiliklar va yordam barcha o'quvchilar fonetikani o'rganishda muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlaydi. Konstruktiv fikr-mulohaza va ijobiy mustahkamlash o'quvchilarni fonetik qobiliyatlarini davom ettirishga undaydi. Ularning sa'y-harakatlari va taraqqiyotini rag'batlantirish ularning

fonetikani o'rganishga bo'lgan ishonchini va faolligini oshiradi. Fonika — alifbo yozuv tizimidagi harflar yoki harflar guruhlar bilan tovushlarni o'zaro bog'lash orqali o'qish va imloni o'rgatish usuli. Fonikaga asoslangan dasturlar va manbalardan foydalanish o'quvchilarga tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni tushinishga yordam beradi. Fonemik ong - og'zaki so'zlardagi alohida tovushlarni eshitish, aniqlash va boshqarish qobiliyati. O'quvchilarni tovushlarni aralastirish, qismlarga ajratish va qo'fiyalash kabi mashg'ulotlarga jalb qilish ularning fonematik xabardorligini oshirishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Fonetikaga e'tibor qaratadigan interaktiv o'yinlar, ilovalar va onlayn resurslardan foydalaning. Ushbu vositalar fonetikani o'rganishni o'quvchilar uchun qiziqarli va qiziqarli qilish bilan birga ularning taraqqiyoti haqida darhol fikr bildirishi mumkin. Talaffuz, so'zni aniqlash va imloni mashq qilish uchun kundalik darslarga fonetik mashqlar va mashqlarni kiriting. Kartochkalar, ishchi varaqlar va so'z yasovchi mashg'ulotlar fonetik tushunchalarni mustahkamlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Fonetik tovushlarni o'rgatish uchun qo'shiqlar, qo'shiqlar va qo'fiyalardan foydalaning. Musiqa o'quvchilarga fonetik qoidalarini eslab qolishlariga va talaffuz qobiliyatlarini esda qolarli va zavqli tarzda yaxshilashga yordam beradi. Grafiklar, plakatlar va harflar yoki fonetik kublar kabi manipulyatorlar o'quvchilarga tovushlar, harflar va so'zlarni tasavvur qilish va manipulyatsiya qilishga yordam beradi, fonetika haqidagi tushunchalarini oshiradi. O'quvchilarga ovoz chiqarib o'qish va ularni hikoya qilish mashg'ulotlariga jalb qilish ularni kontekstdagi turli fonetik qoliqlar va tovushlar bilan tanishtirishi mumkin. O'quvchilarni ovoz chiqarib o'qishga va hikoyalardan zavqlanishda talaffuzni mashq qilishga undash. Fonetik ko'nikmalarni birgalikda mashq qilishni o'z ichiga olgan tengdoshlar bilan hamkorlikni va guruh faoliyatini rag'batlantirish. O'quvchilarni fonetik mashqlar ustida ishlash yoki guruhlarda fonetikaga asoslangan o'yinlarni o'yinash uchun juftlashtirish qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. O'quvchilarga fonetik ko'nikmalarni mashq qilganda konstruktiv fikr-mulohaza va ijobiy mustahkamlashni ta'minlang. Ularning sa'y-harakatlari va taraqqiyotini rag'batlantirish ularning fonetik qobiliyatlarini yaxshilashda davom etishlari uchun ishonch va motivatsiyani oshirishi mumkin. Ushbu usullar va strategiyalarning kombinatsiyasini o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz fonetikasini samarali o'zlashtirishda yordam beradigan dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin. O'quvchilarning turli ehtiyojlari va o'rganish uslublariga mos keladigan o'qitishni moslashtirish ularning fonetik xabardorligini, talaffuz qobiliyatlarini va umumiy tilni bilish darajasini oshirishi mumkin.

Ingliz fonetikasi til o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu o'quvchilarga so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va umumiy muloqot qobiliyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Ingliz tilidagi tovushlarni va ularning harflar bilan ifodalanishini tushunish tilni o'zlashtirish uchun zarurdir. Ingliz fonetikasi fonemalar deb ataladigan tilning tovushlariga va ularga mos keladigan belgilarga e'tibor beradi. Har bir fonema bir yoki bir nechta harf yoki harf birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan, /k/ tovushi "k" harfi bilan "mushuk", "kite" kabi so'zlarda ifodalanadi. Ingliz tilida unli va undosh tovushlar mavjud. Unli tovushlar ochiq ovoz yo'li bilan hosil bo'ladi va /a/, /e/, /i/, /o/ va /u/ kabi tovushlarni o'z ichiga oladi. Undosh tovushlar esa havo oqimiga to'sqinlik qilib hosil bo'ladi va /p/, /t/, /s/ va /m/ kabi tovushlarni o'z ichiga oladi.

Ingliz tili fonetik ko'nikmalarini oshirish bo'yicha maslahatlar:

Muntazam mashq qilish fonetik ko'nikmalarni yaxshilashning kalitidir. Ayrim tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga e'tibor qarating va so'z urg'usi va intonatsiya naqshlariga e'tibor bering.

Ingliz tovushlarining to'g'ri talaffuzini o'rganish uchun fonetik jadvallar va talaffuz qo'llanmalari kabi onlayn resurslardan foydalaning.

Ingliz tilining tabiiy ritmi va intonatsiyasi bilan tanishish uchun ona tilida so'zlashuvchilar, podkastlar va audio materiallarni tinglang.

So'z va jummalarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilish uchun sinfdoshlar yoki til bo'yicha hamkorlar bilan nutq mashqlarini o'tkazing.

Yaxshilash kerak bo'lgan joylarni aniqlash va talaffuz bo'yicha ko'rsatmalar olish uchun o'qituvchilar yoki tengdoshlardan fikr-mulohazalarni so'rang.

Ingliz tilidagi tovushlarni yozma shaklda to'g'ri ifodalash uchun xalqaro fonetik alifbo (IPA) belgilari bilan tanishing.

Xulosa va takliflar. Ingliz tili fonetikasini o'zlashtirish tilni bilish va muloqot qobiliyatini oshiradigan qimmatli mahoratdir. Ingliz tilidagi tovushlarni tushunish, talaffuzni mashq qilish va fonetik mashqlar bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar o'zlarining fonetik ko'nikmalarini yaxshilaydilar va o'ziga ishongan so'zlovchilarga aylanadi. Til o'rganishga fonetikani kiritish ingliz tilini yaxshiroq tushunish va ravon gapirish uchun eshiklarni ochishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili fonetikasini o'rgatish ularning o'rganish ehtiyojlari va uslublariga mos keladigan qiziqarli usullarning kombinatsiyasini talab qiladi. O'qituvchilar o'z ichiga fonetika yo'riqnomasi, fonematik ongni oshirish faoliyati, interfaol vositalar va hamkorlikda o'rganish tajribasini o'z ichiga olgan holda o'quvchilarning ingliz tili fonetikasini o'zlashtirishlari va til ko'nikmalarini oshirishlari uchun dinamik va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ushbu usullar orqali boshlang'ich maktab o'quvchilari til o'rganish sayohatlarini qo'llab-quvvatlaydigan fonetika bo'yicha mustahkam poydevor yaratishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili fonetikasini o'rgatish o'rganishni qiziqarli va samarali qilish uchun ijodiy va qiziqarli yondashuvni talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz fonetikasini o'rgatish bo'yicha ba'zi tavsiyalar:

-Yosh o'quvchilar uchun fonetikani o'rganishni qiziqarli qilish uchun interaktiv fonetik o'yinlar va so'z jumboqlari, fonetik bingo va fonetikaga mos keladigan o'yinlar kabi mashg'ulotlardan foydalaning.

-Fonetik ko'nikmalarga qaratilgan fonetik ilovalar va onlayn o'yinlardan foydalanishda texnologiyani qo'shing.

-O'quvchilarni harflarni kuzatishga, o'yin xamiri bilan harf shakllarini yasashga yoki fonetik tovushlarni o'rganish uchun sensorli qutilardan foydalanishga undash.

-Fonetik tovushlarni talaffuz qilish va tanib olish uchun muntazam ravishda fonetik mashqlarni o'tkazish.

-O'quvchilarni turli fonemalar bo'yicha viktorina qilish uchun kartalar yoki so'z kartalaridan foydalaning.

Ushbu interfaol va qiziqarli usullarni o'z ichiga olgan holda, boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh o'quvchilarga ingliz tili fonetikasini samarali o'rgatishlari va kuchli fonetik ong va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin. Darslarni o'quvchilarning o'rganish uslublari va qiziqishlariga mos ravishda moslashtirish fonetikani o'rganish tajribasini qiziqarli va foydali qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Saydaliyev S.S. Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar. – N.: Namangan, 2004. – 78-b.
2. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е. Урок иностранного языка. – М.: Голоса-Пресс, 2010. – 640 с.
3. Jalolov J.J. Ingliz til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
4. Edelenbos P., Johnstone R., Kubenak A. The main pedagogical principles underlying the teaching of languages to very young learners. Final Report of the EAC 89/04, Lot 1 study. 2006. – 196 p.
5. Ellis R. Principles of Instructed Language Learning. – Asian EFL Journal, 2005. – P. 10-26. Electron resource: <http://www.asian-efl-journal-Asian EFL Journal. The EFL Professionals' Written Forum>. Access date: 4.06.2017
6. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" // 2020 .
7. Bekmuratova U.B . " Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.

8. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).
9. Толибобоева, Ш. (2020). Ingliz tilini o'qitishdagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari. YoungScientist, 19(309), 581-582.
10. Juldasheva, N. N. (2020). Хорижий тилларни уқитишда ахборот технологиялар ва инновацион методларнинг урни. Молодой ученый, (12), 332-333.
11. Ashirbaeva, A. (2020). POSITIVE TRAITS OF TEACHING LANGUAGE THROUGH LITERATURE. ScienceandEducation, 1(SpecialIssue 2).



UDK:46; 341; 36

Mashhuraxon ISABAYEVA,
Qo‘qon DPI biologiya kafedrası dotsenti
Muhayyoxon USMONOVA,
Qo‘qon DPI biologiya kafedrası dotsenti
E-mail: usmonovamuxayyoxon@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti O.Ergashev taqrizi ostida

TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK FUNKSIYALARI

Аннотация

Maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik asoslari ochib berilgan. Ta‘lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini individuallashtirish va demokratlashtirish tamoyili asosida joriy etish, biologiya ta‘limida pedagogik bilimlar integratsiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish imkonini beradigan innovasion texnologiyalar, kasbiy faoliyat turlarini mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Biologiya o‘quv fanlarining o‘qitishning didaktik asoslari, vitagen, konstruktiv, didaktik omil, o‘qitish shakllari, metodlari, vositalari, kasbiy pedagogik faoliyat, o‘qituvchilarining shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье раскрыты дидактические основы подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности. Внедрение в учебно-воспитательный процесс инновационных технологий, видов профессиональной деятельности, позволяющих совершенствовать содержание, методы, средства и формы подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности, используя специфику интеграции педагогических знаний в биологическое образование, реализовать инновационную программу подготовки будущих учителей биологии к профессионально-педагогической деятельности содержание освещено

Ключевые слова: Дидактические основы преподавания учебных дисциплин биология, витагенные, конструктивные, дидактический фактор, формы, методы, средства обучения, профессиональная педагогическая деятельность, саморазвитие педагога как личности.

DIDACTIC FUNCTIONS OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITIES

Аннотация

The article reveals the didactic basics of preparing future biology teachers for professional-pedagogical activity. The introduction in the educational process of future biology teachers on the basis of the principle of individualization and democratization of the preparation process for professional-pedagogical activity, using the peculiarities of the integration of pedagogical knowledge in biology education, the content of innovative technologies, types of professional activities that allow improving the content, methods, tools and forms of training future biology teachers for professional-pedagogical

Key words: Didactic foundations of teaching of biological educational subjects, vitagenic, constructive, didactic factor, forms of teaching, methods, tools, professional pedagogical activity, self-development of teachers as individuals.

Kirish. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar zamirida salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasida alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, zamonaviy tendensiyalarni joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etilishi, ta‘lim tizimini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta‘lim standartlari hamda takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqilishi, bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda xorijiy tajribalarga integratsion va innovasion ravishda tayanishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-son farmoni hamda “Ta‘lim – tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qabul qarorida ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Jamiyatimizda barqaror raqobatbardoshlikni ta‘minlashda “ta‘lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”[7], bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida “biologiya yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish”[8] muammosi kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim dolzarblilikni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hoziri kunda ko‘pgina pedagog olimlarimiz .SH.Begimqulov, R.X.Djuraev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, F.M.Zakirova, M.H.Lutfillayev, N.I.Taylaqov tomonidan bo‘lajak pedagoglarni integrativ ta‘lim asosida o‘qituvchilik faoliyatiga tayyorlashni takomillashtirish, pedagogik bilimlar va texnologiyalar, ularning ilmiy asoslari, olimlardan A.Azizxodjaeva, R.Axliddinov, J.Tolipova va boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan. Fanlararo aloqadorlikdan ta‘lim jarayonida foydalanish B.Abdullaeva, Z.E.Azimova, G.R.Alimatova, S.Alixonov, X.B.Norbo‘taev, A.A.Salomov, A.CH.Choriev, A.V.Usovalar, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirish muammolari M.O.Ochilov, X.I.Ibragimov, U.N.Nishonaliyev, D.X.Nasriddinova va boshqa bir qancha tadqiqotchilar ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Jahon Pedagogikasining buyuk namoyondasi Ya.A.Komenskiy shunday ta‘kidlagan edi: “O‘zaro bog‘liqlikda bog‘lanishda narsani xuddi shunday mazmunan o‘zaro bog‘liqlikda o‘qitilish kerakki, bu jarayon barcha o‘zlashtirishi muhim bo‘lgan bilimlarni tizimli shakllantirishda juda muhim ahamiyatga egadir [3]. Fanlararo bog‘lanishlar muammosining rivojlanishining tarixiy-pedagogik tahlili tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi va ular quyidagilardan iborat: ijtimoiy-pedagogik bu yo‘nalish talaba shaxsini har

tomonlama rivojlantirish masalasini hal qilishda fanlararo bog'lanishlarning ahamiyatini ko'rsatadi, falsafiy bu yo'nalish o'quv fani tizimida mazmun tuzilmasini va o'qitish javrayonini qurishdagi, turli o'quv fanlaridan olingan ma'lumotlarni sintezlash asosida uning yaxlitligini ta'minlashda fanlararo bog'lanishlarning rolini ochib beradi. Fanlararo bog'lanishlar funksiyalarining to'plami o'qituvchi ularning barcha qirralarini amalga oshirgandagina bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi [4]. Bo'lajak o'qituvchining chuqur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda etarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining nechog'lik shakllanganiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, ta'lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va undan unumli foydalanishning metodik hamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda ko'llash jahon taraqqiyotining global yo'nalishi hisoblanadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, asarlarida o'qituvchilar, ularni tayyorlash, oliy ta'limni takomillashtirish haqidagi bayon qilingan fikrlari bo'lajak biologiya o'qituvchisini faoliyati haqidagi yondashuvlari kadrlar tayyorlashning milliy modelida shaxs muhim o'rin tutadi va uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs, fuqaroni shakllantirish nazarda tutiladi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv - tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat - monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani, hamda pedagog mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayonidagi muhim vazifalardan sanaladi. Pedagogika Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda "Biologiya o'qitish metodikasi", "Biologiya o'qitish metodikasi" fanlari muhim ahamiyat kasb etadi [6]. Mazkur fanlarni o'qitishda talabalarda kasbiy o'quv bilish faoliyatni rivojlantirish, biologik ta'lim mazmuni va tuzilmasi, zamonaviy yondashuvlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Biologiya fan asoslari bilan bog'liq bo'lgano'quv, jarayonlar, o'qitishning pedagogik tamoyillar va qonuniyatlarini bilish, o'qituvchiga maktab biologiya kursi mazmunida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi. Bo'lajak biologiyadan o'quvchilarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidacha belgilandi: ya'ni; pedagogik-psixologik bilimlar integratsiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanib, bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini takomillashtirish; kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy yo'nalishlarini asoslash orqali bo'lajak biologiya o'qituvchisini metodik tayyorlashning tarkibiy va funksional modelini shakllantirishdan iborat. Didaktik shart-sharoitning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida esa quyidagilar belgilandi: bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirganlik darajasini aniqlash, kamchiliklarni oldini olishga oid korreksion metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish; innovasion va integratsion muhitda bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning o'quv-uslubiy ta'minotini ishlab chiqish; biologiya

o'qitish metodikasini o'qitishda egallashga imkon beradigan o'quv materiallarini saralanganligi, shu asosda fan mazmunida mustaqil ta'lim shaklida zamonaviy o'qituvchi partfoliosi tayyorlash; bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning maxsus kursi, "Pedagogik amaliyot metodikasi" dasturi va "Biologiya o'qitish metodikasi" kabi o'quv majmualarini mazmunan yangilash va samarali foydalanish bilan asoslanildi.. Ushbu pedagogik tizimda biologiya o'qituvchisining pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish maqsad qilib olindi va quyidagi didaktik funksiyalar asosida amalga oshirildi: kasbiy pedagogik bilimlarni tiklash zarurati-biologik ta'lim mazmunida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda talabalarning fan yuzasidan olgan bilimlarini tiklash, tahliliy, mantiqiy, mustaqil va taqqoslovchi fikrlashga o'rgatish; kasbiy pedagogik bilimlarni yangilash-talabalarda integratsion va innovasion vaziyatda pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va metodikasi, biologiya o'qitish metodikasi va loyihalash yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini kengaytirish, kreativlik, motivasion, intuitivlik asosida rivojlantirish; kasbiy pedagogik bilimlarni korreksiyalash-talabalarda kasbiy faoliyatga tayyorlashga asoslangan fanlar (pedagogik mahorat, pedagogika nazariyasi va metodikasi, biologiya o'qitish metodikasi va loyihalash) yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish; bilimlarga amal qilish-talabalarda biologiya o'qitish metodikasi va loyihalash yuzasidan o'zlashtirgan bilimlariga kasbiy faoliyat davomida amal qilish orqali shaxsiy e'tiqodga aylantirishdan iborat bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini oshirishda fanlarning kombinatsiyasi, o'qituvchi va talaba xatti-harakatlarining kombinatsiyasi va ularning yoshini hisobga olgan holda tarkib va usullarni tanlashni talab etadi. O'qituvchi faoliyatining ijodiy yo'nalishlari va bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy ishlashga tayyorlash muammolari va metodik tavsiyalari R.Adizov [1], R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov, A.Pardaev [2] tomonidan berib o'tilgan. Shuningdek, pedagog olimlardan N.Saidaxmedov, F.Yuzlikayev, N.Azizojayeva, O.Tolipov, N. Ochilova ilmiy izlanishlarida esa o'qituvchilarni tayyorlashda ularning pedagogik mahorati, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi, kasbiy madaniyatini rivojlantirish muammolari yoritilgan. Yuqoridagi tadqiqotlar mualliflari aniq dalillaridan kelib chiqib, pedagogika oliy o'quv yurtini tugatgan talabalarning kelajakda o'qitadigan maxsus fanlarni chuqur o'zlashtirganliklarini, ular pedagogik vaziyatlar, o'qitish metodlari bilan yaxshi tanish ekanliklarini, ayni paytda amaliyotni to'liq egallab olmaganliklarini e'tirof etganlar. Tadqiqot rivojida integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari metodik, faktik, tushunchaviy, emperik, refleksiv yondashuvning uzviylik va izchillik tamoyilga asoslangan didaktik funksiyalari tizimlashtirildi.

Xulosa. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash ikki komponentdan-nazariy bilimlarni egallash va pedagogik amaliyotdan iborat. Bu strategik reja bo'lib, har ikki bosqich o'ziga xos taktikani bildiradi, ya'ni nazariy bilimlar egallab bo'lingach, amaliyotni o'taydi. Oliy ta'lim muassasalari va ulardagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarda zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalni, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani, hamda pedagog mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Adizov R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss... Avtoref. – T.: 2003. - 44 b.
2. Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog - o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
3. Izbrannye pedagogicheskie proizvedeniya. – M., 1987. – 175 b
4. Tolipova J.O. Biologiya o'qitish metodikasi. Nizomiy nomli TDPU. -T.:– 2012. – 214 b.
5. Yusupova N.V. Fanlararo aloqadorlik vositasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. P.f.f.diss.:T.-2021y., -140b
6. Yuldashov U. Yu. Bo'lajak pedagog-kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron tarbiya resurslarining o'rni va roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.: 2021, -532p

7. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 21 августдаги ПҚ-4805-сон «Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.08.2020 й., 07/20/4805/1174-сон.



*Xolmurol KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi*

Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROTECTING YOUTH FROM THE RISKS OF VARIOUS HARMFUL INFORMATION

Annotation

The article discusses the socio-psychological features of protecting young people from the threat of various harmful information. They spoke about the theoretical and practical aspects of this problem, about the scientific research carried out by scientists in our country in this direction. The article also analyzes the concept of information and psychological security, its essence, and important issues of protecting young people from harmful information.

Key words: Personality, youth, globalization, information, information and psychological security, moral threat, moral vacuum, virtual world, virtual culture, addiction, defense mechanism.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОТ РИСКОВ РАЗЛИЧНОЙ ВРЕДНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Аннотация

В статье рассматриваются социально-психологические особенности защиты молодежи от угрозы различной вредной информации. Рассказывалось о теоретических и практических аспектах этой проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными нашей страны в этом направлении. Также в статье анализируется понятие информационно-психологической безопасности, ее сущность, важные вопросы защиты молодежи от вредной информации.

Ключевые слова: Личность, молодежь, глобализация, информация, информационно-психологическая безопасность, моральная угроза, моральный вакуум, виртуальный мир, виртуальная культура, зависимость, защитный механизм.

YOSHLARNI TURLI ZARARLI AXBOROTLAR TAHDidIDAN HIMOYALASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada yoshlarni turli zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada mamlakatimiz olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Shuningdek, maqolada axborot-psixologik xavfsizlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, yoshlarni zararli axborotlardan saqlashning muhim masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Shaxs, yoshlar, globallashuv, axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, ma'naviy tahdid, ma'naviy bo'shliq, virtual olam, virtual madaniyat, qaramlik, himoya mexanizmi.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'z taraqqiyot yo'lini aniq belgilab oldi. Bu – demokratik huqukiy davlat, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yo'lidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan dasturiy vazifalarni bajarishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'alarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanadigan zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan xalqaro tajribalarini chuqur o'rganish va kerakli jihatlarni qabul qilish ham davlat siyosatining ustuvor maqsadlaridan biridir.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviy hayot sohasida vujudga kelayotgan muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilish masalalarini dolzarblashtirmoqda. Har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi boshqa mintaqa va hududlar bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, biror mamlakat bu voqelikdan chetda turib ijobiy natijalarga erisha olmasligini anglash bugungi kunda qiyin emas. Jamiyatda har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno bo'lmay, hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarida ko'rish, his etish mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozir butun dunyoda

terrorizm, ekstremizm va boshqa tahdidlar Internet makoniga kirib, moslashib olgan. Shuning uchun ularga qarshi kurashish oson kechmayapti. Afsuski, ba'zi yoshlarda Internetdan to'g'ri foydalanish ko'nikma va madaniyati yetarli emas. Ayrim yigit-qizlar Internetni axborot, bilim va ma'rifat manbai deb emas, balki shunchaki ko'ngilochar vosita deb bilishadi. Mana shunday mafkuraviy kurash sharoitida yoshlarimiz sezgir va ogoh bo'lishi, har jabhada, avvalo, Vatan manfaatini o'ylab ish tutishi zarur"[9].

Yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi noan'anaviy axborot-psixologik tahdidlarning ko'payib borayotganligi, yoshlarning turli destruktiv kuchlar ta'siri ostiga tushib qolish holatlarining kuzatilganligi yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligi tizimini rivojlantirishda shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlariga tayanish, axborot-psixologik xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash va tasniflash, ularning yoshlar ongiga salbiy ta'sirini oldini olish va bartaraf etish, himoya mexanizmlari majmuini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish uchun tizimli tadqiqotlar olib borish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi – ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli, kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralar qo'llaniladi. Axborot xavfsizligi – aslida jamiyatning obyektiv, xolis, haqqoniy axborot manbaiga ega bo'lishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni nazarda tutadi. Albatta, bunga mustaqil axborot vositalari orqali aholiga yetib keladiga nma'lumotlar oqimi ham kiradi. Bu vositalar aynan mustaqil bo'lganliklari uchun ham birinchi navbatda moliyaviy, qolaversa,

siyosiy va boshqa tomonlardan hech bir siyosiy kuch, alohida davlat yoki ijtimoiy qatlamning manfaatlariga xizmat qilmasliklari kerak. Chunki mustaqil ommaviy axborot vositalari aslida odamlarda sodir bo'layotgan turfa xil jarayonlarga nisbatan xolis fikrning shakllanishiga imkon berishi lozim. Lekin amaliyotda ming afsuski, har doim ham shunday bo'lavermaydi va jamiyat o'z a'zolarini, ayniqsa yosh avlodni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga majbur bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiya fani sohasida shaxsda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil etish qator olimlar va tadqiqotchilarning obyekt sifatida o'rganilgan. Shu o'rinda mamlakatimiz olimlaridan R.S.Samarov, B.M.Umarov, K.A.Xaydarov, U.D.Qodirov, X.A.Ruxiyeva, N.M.Dalimova, S.Y.Kulatova, E.M.Muxtorov, I.I.Raximova, Sh.F.Mustafayeva, L.A.Nigmatulina va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari juda muhim bo'lib, ularning izlanishlarida axborot xavfsizligi muammosining nazariy-metodologik masalalari, ochiq axborotlar tizimi va yoshlar, psixologik himoya, yoshlar va virtual olam, destruktiv kult tashkilotlar faoliyati, kompyuter o'yinlariga qaramlikning psixologik diagnostikasini amalga oshirish va korreksiya qilish, kichik maktab yoshi, o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshida kompyuter o'yinlariga qaramlik kabi masalalar chuqur o'rganilgan.

Mazkur muammo Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari tomonidan ham samarali o'rganilgan bo'lib, ular orasida V.D.Anosov, C.B.Belov, A.B.Brushlinskiy, V.T.Ganjin, G.V.Grachev, G.YE.Juravlev, S.K.Roshin, T.M.Krasnyanskaya, V.YE.Lepskiy, G.S.Melnik, V.N.Moshin, A.B.Nepomnyashiy, S.P.Rastorguyev, P.I.Satleykin, G.Sillaste, A.N.Suxov, YE.A.Xodakovskiy, YE.I.Xomyakova, L.I.Shershev, YE.S.Polat tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari alohida ahamiyatga ega. Mualliflar o'z ilmiy izlanishlarida shaxsda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganib, xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, inson xavfsizligi, hayot va faoliyat xavfsizligi, jamiyatda axborot xavfsizligi kabi dolzarb masalalar ustida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirganlar.

Psixologiya fanida "psixologik xavfsizlik" tushunchasi tahliliga oid qator ilmiy yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ana shu yo'nalishlarni alohida mazmunda ko'rib chiqish, biz tadqiq etayotgan muammo uchun o'ta muhim masala hisoblanadi.

Birinchi yo'nalishga tadqiqotchilardan L.A.Aleksandrova, T.M.Krasnyanskaya, T.B.Melnitskayalarning izlanishlari aloqador bo'lib, unda jiddiy psixologik, ijtimoiy va moddiy oqibatlarga olib keladigan ekstremal holatlarda xavfsizlik fenomeni talqin etiladi. M.A.Kotikning fikricha, mazkur yo'nalish xavfli faoliyatga jalb qilingan insonlarning xatti-harakatlari va shaxsiy xususiyatlarini

hamda o'sha vaziyatdagi ishlash qobiliyatlarini o'rganishga qaratilgan [4].

Ikkinchi yo'nalish tadqiqotchilardan I.A.Bayeva, G.V.Grachev, S.K.Roshchin, V.A.Sosnin, N.L.Shlikovalarning ilmiy konsepsiyalarida aks etib, unda inson va jamiyat integratsiyasi, axborotlarning psixologik va tashkiliy xavfsizligi masalalari o'rganilgan [1].


V.N.Pankratovning ta'kidicha, uchinchi yo'nalish virtual xavflarni turli yo'nalishlarda o'rganish bo'lib, unda muammo psixologik, ijtimoiy, siyosiy, texnik, moliyaviy, ekologik va boshqa jihatlar orqali tadqiq etiladi [6].

V.G.Krisko to'rtinchi yo'nalish borasida keng tadqiqotlar olib borib, fanda uni inson va jamiyatning psixologik xavfsizligi, xavfsizlik madaniyati, oila, erkak va jamiyat qadriyatlarini saqlab qolish deb nomlaydi [5].

Beshinchi yo'nalish xavfsizlikni shaxsning holati sifatida o'rganib, u ko'proq psixologik jarayonlar orqali tushuntiriladi. Y.O.Godikning ta'kidicha, mazkur yo'nalish mazmuni insondagi o'zini o'zi saqlab qolish va xavfsizlik hissi zarurligini qondirishga hamda ijtimoiy idrokka qaratilgan [2].

Mamlakatimiz olimlaridan R.S.Samarov axborotlar psixologik xavfsizligining milliy metodologik konsepsiyasini ishlab chiqib, unda axborotlashgan jamiyat va yoshlar, axborotlarning inson ongiga ta'sir etishining o'ziga xos masalalari borasida e'tiborga molik fikrlarini keltirib o'tgan[7]. Boshqa bir psixolog B.M.Umarovning ta'kidlashicha, tezkor taraqqiyot odatiy tamoyillar qatori vaqt va makon mutanosibligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Barcha faoliyat jarayonlarida yangicha yondashuv va rivojlanish strategiyalarining shakllanishi insonlar va mintaqalarning yakkaikidan yaxlitlikka yuz burishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida odamlarni ma'lum bir manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta'siri ostida yashashga majbur qilmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib, yoshlarimizda bu g'oyani to'g'ri talqin qilish, fikr mulohazalarini boyitish uchun ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tashkil qilinishi, ushbu soha bo'yicha turli ilmiy kitoblar yaratilishi davr talablaridan biri hisoblanadi[8].

Tahlil va natijalar. Biz yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlardan farqli ravishda tajriba-sinov ishlarimizda talabalarda kasbiy rivojlanish jarayonida konstruktiv psixologik himoya mexanizmini shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganishga harakat qildik. Tajriba-sinov ishlarida Qarshi davlat universiteti Psixologiya yo'nalishining birinchi kurs talabalarining ta'lim muassasalaridagi o'qish jarayonlariga ishtiroki, ularning axborot-psixologik tahdidlarga munosabati va kasbiy rivojlanish jarayonida ularda konstruktiv psixologik himoya mexanizmini shakllantirish holatlari o'rganildi.



1-rasm. 1-kurs talabalarida psixologik himoyaning konstruktivlik darajasini ifodalashi

Psixologik himoya mexanizmlarining ishlash chastotasiga ko'ra, 1-kurs psixolog talabalarining o'rta guruh profiliga ko'ra, maxsus kursni o'zlashtirish ta'siri natijasida barcha psixologik himoya mexanizmlarining ishlash yuklamasida sezilarli miqdoriy o'zgarishlar yuz bergani kuzatildi. Eng katta empirik o'zgarishlar – "o'rnini egallash" mexanizmlaridan foydalanish effektida (tajribadan oldin-53%; keyin-38%; farq-15%), "Rad etish"

(tajribadan oldin-58%; keyin-44%; farq-14%), "Loyihalashtirish" (tajribadan oldin -71%; keyin-59%; farq-12%) kuzatildi. Ushbu mexanizmlar qabul qiluvchi guruhlar tipiga mansubligi uchun, talabalar tajriba jarayonida qiyinchiliklarni nazorat qilish orqali ushbu himoya mexanizmlari ishlashida keskinliklar biroz kamayganligi kuzatildi. Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari: "kompensatsiya" (tajribadan oldin-63%, keyin-

69%; farq-6%), "giperkompensatsiya" (tajribadan oldin -39%; keyin-42%; farq-3%), "ratsionalizatsiya" (tajribadan oldin-53%; keyin-54%; farq-1%) ishlash yuklamasida miqdoriy o'zgarishlar kamroq kuchlanishda ifodalanganligi aniqlandi. (1-rasm).

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo'yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi (1-jadval).

Birinchi kurs talabalarining "o'rmini egallash"ni himoya qilishning ibtidoiy mexanizmi keskinligi sezilarli darajada kamaydi (T-Vmea= 9,5 o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6), bu 1-jadval

Psixologik himoya mexanizmlarining 1-kurs talabalarida shakllantirish kuchlanishini o'zaro taqqoslashda Vilkokson mezonining empirik qiymatlari ifodasi

Psixologlarni himoya qilish mexanizmlari	O'rmini egallash	Orqaga qaytish	O'rin almashirish	Rad etish	Loyihalashtirish	Kompensatsiya	Giperpensatsiya	Ratsionalizatsiya	PHUK
T-Vmea.	9,5*	8*	6	2,5,5	1,4	8	1,2	3,4	3,6,5

Eslatma: 1,11-0,05 darajasida muhim ahamiyatga ega

1,11* - 0,01 muhim ahamiyatga ega

T-Vmea. - Vilkokson mezonining empirik ahamiyati

PHUK-psixologik himoyaning umumiy keskinligi

"Kompensatsiya" mexanizmlaridan foydalanish keskinligining oshishi. T-Vmea=18 da $r<0,05$), "giperkompensatsiya" (T-Vmea=21 da o'tish: saytda harakatlanish, qidiruv 6) mehnatning kognitiv tahlilini kuchaytirish, ularni yengish uchun mumkin bo'lgan variantlarni topishga intilish ifodalangan. Umumiy keskinlikda statistik jihatdan psixologik himoyada ahamiyatli o'zgarishlar (T-Vmea=36,5) aniqlanmagan. Natijada, himoya mexanizmlari funksiyalarining o'rtacha intensivligi bir xil, yuqori darajada bo'lib qoldi. Ibtidoiy mexanizmlardan foydalanish chastotasini kamaytirish va yuksak kuchlanishning oshishi tadqiqot maqsadini tasdiqlash imkonini beradi. Tadqiqotda amalga oshirilgan ilmiy tarbiyaviy ta'sir talabalar shaxsining psixologik himoya tizimiga konstruktiv ta'siri aniqlandi.

Xulosa. Bugungi kunda kundalik xalqaro munosabatlarda "axborot urushi", "axborot qarama-qarshiligi", "axborot Abosimi"

ADABIYOTLAR

1. Баева И.А. Тренинги психологической безопасности в школе. СПб.: Речь, 2002. -251 с.
2. Годик Ю.О. Угрозы и риски безопасности детской и подростковой аудитории и новых медиа [Текст] / Ю.О.Годик. -М.: Медиаскоп, 2011.-№2.-С.16-21.
3. Карпинский К.В. Психология жизненного пути личности Текст.: Учеб. пособие / К.В.Карпинский. - Гродно: ГрГУ, 2002.167 с.
4. Котик М.А. Психология и безопасность. 3-е изд., испр. идоп. Таллинн: Валгус, 1999. – 224 с.
5. Крысько В.Г. Секреты психологической войны (цели, задачи, методы, формы, опыт). Минск, 1999. – 176 с.
6. Панкратов В.Н. Защита от психологического манипулирования: Практическое руководство. М.: Издательство Института Психотерапии, 2004. – 275 с.
7. Samarov R. Axborot xavfsizligining nazariy va metodologik asoslari. T.: "Akademiya", 2010. – 116 b.
8. Umarov B.M., Karimov X. Ochiq axborot tizimlarida axborot- psixologik xavfsizlik: o'quv qo'llanma. – T.: 2012, -315 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidani.//https://uza.uz/ru/posts.

ko'kalamzorlashtirish tendensiyasining pasayishiga ishora qiladi, ong sohasidan bezovta qiluvchi ma'lumotni olib tashlaydi. "Orqaga qaytish" ibtidoiy mexanizmining ishlash kuchlanishini kamaytirish T-Vmea=8 da $r<0,01$) qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolalarning xatti-harakatlarini tez-tez ishlatib turishi mumkin. O'tish: saytda harakatlanish, qidiruv T-Vmea =41,5) statistik jihatdan sezilarli darajada o'zgormadi, ehtimol, bu talabalarining yoshi va ularning o'qitish profiliga bog'liq, tasdiqlangan adabiy manbalar va boshqa ilmiy tadqiqotlarda ham shunga yaqin holatlar kuzatilgan. "Rad etish" mexanizmining ishlash kuchlanishi (T-Vmea=15,5 da $r<0,05$) kamaydi va pasayishiga olib keldi, qiyinchiliklarga e'tibor bermaslik, qiyinchiliklarni e'tiborsiz qoldirish kuzatildi (1-jadval).



Nafisa KOMILOVA,
Uzbekistan State University of World Languages Master's degree 2 student
E-mail:nafisakomilova@gmail.com

RTU p.f.d .Boxodirova G. taqrizi asosida

TIL O‘QITISHDA XULQ-ATVOR JIHATLARI

Аннотация

Maqolada kommunikativ tilni o‘rganish nazariyalari va yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. O‘rganish natijasida olingan grammatik bilimlarni o‘rganish va ularni o‘zlashtirish . O‘quv jarayonida atamalarni o‘rganishda o‘qituvchining roli. Usulbu turli xil mashqlar yordamida nutq amaliyoti davomida olingan natijalarni taqlid qilish, takrorlash, yodlash kabi amaliyotlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Aloqa, vositalari, o‘quv rejalar, o‘quv nazariyalari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul, nomukammal modellashirish, muzokaralar usuli.

BEHAVIORAL ASPECTS OF LANGUAGE TEACHING

Annotation

The article discusses the theories, approaches of communicative language learning. Learning presentations of grammatical knowledge that has resulted from instruction, and acquisition. Teacher roles in the terms in the learning process. Method represents the imitation, repetition, memorization and reinforcement were impressed within speaking practice with variety of drills.

Key words: Communication, CLT, Community Language Learning, Classroom procedures, Curriculum, Learning theories, Direct method, Imperfect modeling, Method, Negotiations.

ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В статье рассматриваются теории и подходы к коммуникативному изучению языка. Изучение грамматических знаний, полученных в результате обучения, и их усвоение. Роль преподавателя в изучении терминов в процессе обучения. Метод представляет собой имитацию, повторение, запоминание и закрепление полученных результатов в ходе разговорной практики с помощью различных упражнений.

Ключевые слова: Коммуникация, CLT, Изучение языка в сообществе, Аудиторные процедуры, Учебный план, Теории обучения, Прямой метод, Несовершенное моделирование, Метод переговоров.

Introduction. The language consists of various elements. When these are sorted from small to large, the smallest elements that make up the language are sounds. Sounds gain meaning not alone, but when combined with other elements. This merger takes place depending on some rules. The equivalents of sounds in written language are letters. Sounds and letters combine to form syllables, words and sentences. Situations such as the sequence of words in a sentence, function, meaning, creating text from words and sentences are included in the field of grammar knowledge. In the field of linguistics, the elements such as sounds, words, sentences and text that make up a language are examined in terms of structure, type, task, functioning and meaning, and various rules are laid down. In this process, the study of language knowledge, research and teaching approaches and methods are also important.

In the past, when it was called grammar, the rules about language came to mind and students were taught a set of rules. Over time, this limited understanding and practice has changed. Nowadays, language knowledge is taught in order for an individual to understand the language well, communicate, and improve their mental skills. Language knowledge is not only a means of communication, but also the subject of language recognition and learning. Because language knowledge is necessary to use and develop a language correctly. Today, grammar teaching has been discussed in detail with the constructivist approach, and the goals, approaches, methods and processes of grammar teaching have been redefined. This together with the approach, the purpose of grammar teaching has been determined as teaching the language itself, not the rules.

Literature review. In the last three decades, seeing the importance and benefits of researching teacher effectiveness in foreign language teaching to the teaching process and the parties affected by this process, several researchers have attempted to shed light on this construct. Studies investigating the effectiveness

of foreign language teachers revealed results about the personality traits of the teacher, her/his methods of delivering the lesson and his level of information about the foreign language. Brosh [1] investigated the characteristics of effective language teachers as perceived by foreign language teachers and students in Israel with a questionnaire and interviews. The following characteristics emerged from this study:

Knowledge and command of the target language, Ability to organize, explain, and clarify, as well as to arouse and sustain interest and motivation among students, Fairness to students by showing neither favoritism nor prejudice, Availability to students [2].

Barnes and Lock [3] investigated attributes of effective lecturers of English as a foreign language as perceived by students in a Korean university through a free writing instrument which asked 105 students to write about the attributes of effective English as a foreign language (EFL) lecturers. The results of the study indicated that students feel that lecturer to student rapport is essential to build atmospheres of respect and understanding in EFL classes; 2) existing and prospective lecturers should know that the degree of lecturer enthusiasm and preparation are very obvious to students and major factors influencing classroom atmosphere and motivation; 3) diverse views about the type and level of error correction will be a source of conflict unless lecturers make the effort to align student expectations with their own, and be sensitive to student self-esteem; 4) existing and prospective EFL practitioners should be aware that students appreciate their efforts to employ a participatory approach” (pp. 148-9).

Wichadee and Orawiwatnakul [4] collected data with a questionnaire from 192 students at Bangkok University. The results of their study indicated that both low and high proficiency students rated “effective language teacher skills” in order of importance as follows: organization and communication skills,

socio-affective skills, and organization and communication skills. In a recent paper, Salahshour and Hajizadeh [5] attempted to shed light on characteristics of effective EFL instructors through a 58-item questionnaire in Iran. They listed some of the most important features of an effective and successful EFL teacher as follows:

- Having interest in his/her job
- Having a sense of responsibility towards his/her job
- Being enthusiastic and lively
- Being self-confident
- Being punctual
- Encouraging students to use the target language at all times
- Providing explicit grammar correction
- Providing detailed explanation during reading and listening tasks
- Emphasizing frequent oral quizzes
- Emphasizing all skills, especially speaking
- Having knowledge of subject matter
- Having the ability to communicate ideas effectively
- Having the ability to answer the students' questions
- Having respect for students
- Being kind and friendly
- Encouraging participation
- Creating motivation in students
- Helping to increase the students' self-confidence during learning
- Taking students' feedback about the class into consideration
- Using the class time wisely
- Maintaining class order.

In another study, Brown [6], investigated approximately 1600 students' and 49 teachers' perceptions of effective foreign language teaching through a 24-item questionnaire at the University of Arizona. The results of the study indicated that the students are in favor of a grammar-based approach whereas their teachers preferred a more communicative classroom. The results of the study also pointed to the need for foreign language teachers to seek out their students' perspectives actively and to engage

them in brief classroom discussions about the rationale behind certain instructional strategies.

Research Methodology. This study is a quantitative survey since it comprises of data collection through a questionnaire aiming to describe the perceptions of pre-service EFL teachers regarding the characteristics of effective English language teachers. As Gay, Mills and Airasian state "survey research can be used to gather information about a group's beliefs, attitudes, behaviors, and demographic composition".

Analysis and results. Methods of Teaching Grammar when the methods of teaching grammar applied in our world from the past to the present are examined, we come across a long list. It is seen that different methods are applied according to each period, language and approach. These can be listed as 'Grammar-Translation Method, Natural Method, Direct Teaching Method, Active Method, Auditory-Verbal (Listen-Speak) Method, Audiovisual Method, Traditional Method, Intuition Method'. Some methods that are considered important are described below.

Grammar-Translation Method: The purpose of this method is to teach students to read, translate texts in a foreign language, then listen and speak through grammar rules and translation. In grammar teaching, the rule was presented first, explained and then shown in a sentence. The sentences given to the students were usually form sentences established to teach the rules of grammar. These were given separately from the text. Since the language teaching studies were carried out by memorization, imitation and repetition, the students were bored and the lessons were conducted in a single order (Puren, 2004, Rodriguez Seara, 2004).

Direct Teaching Method: This method is a combined and slightly improved version of the natural method with the grammar-translation method. Knowledge of language is treated as a complementary element to speaking and reading and is taught indirectly. In grammar teaching, the rules are taught indirectly by acting from examples, without being explained in detail. Knowledge of language is not a goal but a means (Puren, 2004, Rodriguez Seara, 2004). This method, which has been applied in the field of language teaching for many years, has been replaced by the active method in later years.

THEORETICAL FRAMEWORK	
<p>Knowledge of traditional languages</p> <ul style="list-style-type: none"> * Language knowledge issues are determined and explained by language science experts. • Every subject suitable for language science is taken, examined in depth and entered into the finest details. • Most of the rules taught are not used in everyday language. Used for samples <p>the texts are taken from great literary authors.</p> <ul style="list-style-type: none"> * The rules of the language are usually memorized. 	<p>New language knowledge</p> <ul style="list-style-type: none"> * Language knowledge issues language education specialists and it is determined and explained by educators. * Definitions and rules that improve language skills appropriate to the student's needs are discussed. * Emphasis is placed on the use of language. Texts in everyday language are also included. * Scientific approach, methods and rules in the field of education are used. * Priority is given to discovering the logic of language.
OBJECTIVES	
<p>Knowledge of traditional languages</p> <ul style="list-style-type: none"> * Language knowledge is taken as a mandatory and basic purpose. • Students are taught the entire content of language knowledge. * Grammar education is necessary to prepare students for a higher school. 	<p>New language knowledge</p> <ul style="list-style-type: none"> * Language knowledge is a tool for language education. • It is taught in order to improve students' language and mental skills. * Language knowledge teaching is carried out, which is necessary in the new educational understanding.
content	
<p>Knowledge of traditional languages</p> <ul style="list-style-type: none"> * The whole content of language knowledge is focused on. • All subjects are taught intensively from primary school onwards. • The topics of the previous year are reviewed every year. * The grammar program repeats in most classes and is similar to each other. <ul style="list-style-type: none"> * Language events are taught by explaining them. • The main content is grammar rules and vocabulary. 	<p>New language knowledge</p> <ul style="list-style-type: none"> * Focuses on grammar knowledge events in everyday language. • Those necessary for language and mental skills are taught. * Intensive and useful language knowledge is taught by giving little-used language events at a simple level. * Language knowledge content is given gradually and evenly from the first school. * Language events are taught together with explanation, process and condition information. • The main content is sentences and text.

In the table above, basic information about two types of language knowledge is given. This table can be prepared in even more detail. As it can be seen, the new grammar aims to teach logic rather than form, the language itself rather than the rules of the language. It places the student, not the grammar rules, at the center of the teaching process, and adopts a grammar understanding appropriate for the student. The dissemination of this understanding depends on the fact that teachers are aware of the new language knowledge and teach it well.

Conclusion/Recommendations. In this study, we aim to gather information on how promising Turkish elt teachers

perceive the characteristics of an effective foreign language teacher. The results of the study, in accordance with previous studies, show that the ELT Department, female and full-time students have an idea that an effective foreign language teacher should teach communicatively. Foreign Language teachers believe that students should be indirectly corrected when they produce verbal errors instead of resorting to direct correction (e.g., repeating them correctly instead of directly saying that they are wrong). They also believe that an effective foreign language teacher should be well versed in target culture.

The participants from the ELT department evaluate the foreign language teachers who allow the use of mother tongue in responding to test questions, give priority to indirect correction, teach the language by having students complete specific tasks rather than grammar-focused exercises, have students respond to commands physically in the foreign language, speak the foreign language with native-like control of both grammar and accent significantly, and who are knowledgeable about the culture of the target language more effective than those from the EL&L department do. This study is limited to 404 participants from only two state universities in Uzbekistan where English is taught as a foreign language and the data of the study is collected by a questionnaire and analyzed quantitatively. Since there is no empirical evidence for the correlation between the prospective teachers' perceptions of the effective foreign language teachers

and their GPAs, further studies may focus on investigating the university entrance exam scores of the students, especially their scores of English test (LYS-5), with regard to their GPAs, time of the classes, and other variables. Another limitation of this study is that it has collected data at one time.

Further studies can be designed with a longitudinal approach; that is to say, data can be collected from the prospective teachers and they may be compared to the data collected after they become in-service teachers, so as to analyze whether there is a perceptual change. To further our understanding of perceptions of the prospective teachers of English from different majors, characteristics of effective foreign language teachers can be investigated through designing qualitative and mixed method studies which can provide in-depth analysis of the participants' experiences.

REFERENCES

1. Arıkan, A. (2010). Effective English language teacher from the perspectives of prospective and in-service teachers in Turkey. *Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi (Electronic Journal of Social Sciences)*, 9(31), 209-223.
2. Bentolila, Alain (2006). *Rapport de Mission sur l'enseignement de la Grammaire*, Université Paris 5 – Sorbonne.
3. Bayyurt, Y. (2010). A sociolinguistic profile of Turkey, Northern Cyprus and other Turkic States in Central Asia.
4. M. J. Ball (Ed.), *The Routledge handbook of sociolinguistics around the world* (pp. 117-126). London: Routledge.
5. Gordon, E. J. (1973). The effective English teacher. *The English Journal*, 62(3), 448-453.



Marxabo KULIYEVA,
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti dotsenti
Shaxnoza SHARIPOVA,
O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti assistenti, PhD
E-mail: shaxnoza.00@mail.ru

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Аннотация

Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib ularning bilim ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, inklyuziv ta'lim sharoitida eshitishida, ko'rishida, aqliy va psixik rivojlanishida, nutqida, tayanch-harakat a'zolarida, muammolari bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, interfaol metod, imkoniyati cheklangan o'quvchilar qiziqishlari, ta'lim va tarbiya jarayoni, bilim, ko'nikma va malaka, metodik mahorat.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассмотрено развитие знаний, умений и навыков учащихся с ограниченными возможностями с использованием инновационных технологий, в условиях инклюзивного образования, детей с нарушениями слуха, зрения, умственного и умственного развития, речи, проблем опорно-двигательного аппарата, а также детей с нарушениями развития. Используются интерактивные методы. в образовании и профессиональной подготовке.

Ключевые слова: Инновационная технология, интерактивный метод, интересы студентов с ограниченными возможностями, образовательно-тренировочный процесс, знания, умения и компетенции, методические умения.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

In this article, the development of knowledge, skills and abilities of students with disabilities using innovative technologies, in the context of inclusive education, children with hearing, vision, mental and mental development, speech, musculoskeletal problems, and children with problems Interactive methods used in education and training are presented.

Key words: Innovative technology, interactive method, interests of students with disabilities, education and training process, knowledge, skills and competence, methodological skills.

Kirish. Bugungi kunda ma'naviy yuksalish va yangilanish davrida sifatli ta'lim imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta'lim standartlari me'yorlari inobatga olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari o'zaro hamkorligini rivojlantirish yanada muhim ahamiyatga ega. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sifatli ta'lim xizmatlari bilan ta'minlash borasidagi o'zaro manfaatli hamkorligi talab etilmoqda. Bu talablar bo'lsa boshlang'ich sinf o'qituvchilarida bilim, ko'nikma, malaka va metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Inklyuziv ta'limda innovatsion texnologiyalar orqali sifatli ta'lim jarayoniga erishish mumkin.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar zamirida, kelajak avlodning komil inson bo'lib ulg'ayishi, ayniqsa alohida ehtiyojli, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF- 5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2020 yil 13

oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Qarori, boshqa xujjatlarda ta'lim mazmunini modernizatsiyalash jarayonini metodik va didaktik ta'minlash vazifalari belgilab berilgan. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng huquqni ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga tayanadi. Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik jamiyatda munosib kasb egasi bo'lib yetishishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarga imkoniyat yaratish bo'yicha yurtimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan amoyillar va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni psixologik va pedagogik qo'llabquvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga sharoit yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, e'tibor kundan-kunga kengayib bormoqda. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan mustaqil izlanishlari, ularni tahlil

qilib borishlari, o'z bilim va malakalarini baholashlari, to'g'ri xulosalar chiqarishlariga qaratilgan. Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "innovatsion pedagogik texnologiya" iboralar keng qo'llanilmoqda. Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiya asosida o'qitishni boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish metodlari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash - ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida yetishmaydigan narsalardir.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ilmiy va ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik faoliyat strategik rivojlanishining muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanishi masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Shu tariqa ilmiy-metodologik adabiyotlardagi "innovatsiya" tushunchasiga konseptual yondashuvning turli yo'nalishlarini umumlashtirish orqali uning asosiy tavsiflari ro'yxatini ajratib ko'rsatishi mumkin:

innovatsiya muvafaqqiyatli amalga oshirilgan yangilikdir; innovatsiya inson intellektual faoliyatining mahsuli bo'lib, o'zida uning ijodiy fantaziyasi va ijodiy qobiliyatini umumlashtiradi;

innovatsiya umumiy "bozor"ga yangi iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan ma'lum mahsulot yoki maqsadli ishlab chiqarish tizimi samaradorligini oshirishning sifat o'zgartirilishi bilan tavsiflanadi;

innovatsiyani amalga oshirishda inson intellektual faoliyatining original natijalaridan foydalaniladi;

innovatsiya tovar yoki xizmatlar sifatini jahon standartlariga muvofiq ishlab chiqarishni ta'minlaydi;

innovatsiya tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning yuqori iqtisodiy samarasini ta'minlaydi;

innovatsiya raqobatchilarning texnologiya va intellektual darajasining ustunligini ta'minlaydi, bu bilan o'z taraqqiyotlarida sifat jihatidan "sakrash"ni amalga oshiradilar;

innovatsiya hamma vaqt ma'lum tavakkalga asoslangan kerakli investitsiyalar natijasidir.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi taxminiy manbalarini aniqlaydi:

1. Amaliyotga joriy qilinmagan muhim g'oyaning mavjudligi.

2. Nazariy asosga ega bo'lgan amaliy yondashuvning mavjudligi. Ushbu asosni yaratish eski uslublarni yangi ma'no bilan to'ldirib, ularning qo'llanish doirasini kengaytirishi zarur.

3. Oliy ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonga avval joriy etilmagan mavjud amaliy uslublarni olib kirish.

4. Ta'limga oid yangi g'oyalar yoki avvaldan mavjud bo'lgan samarali g'oyalar asosida yangi istiqbolli rejalarni umumlashtirish.

5. Ta'limiy innovatsiyani amaliyotga joriy qilish.

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Shuning uchun kelajakda mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashning maqsadi ham bolaga ma'lum bilimlarni berishgina emas, balki uni kuzatishga, fikrlashga, tahlil qilishga, munosabat bildirishga va xulosalar chiqarishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim maqsadi talabalar ma'lum bilimlar yig'indisini o'zlashtirishigina emas, balki ularda ma'lum qobiliyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt

sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatiga emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarga innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'quv jarayonini samarali tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining birinchi o'ringa turuvchi va muntazam rivojlanishni talab etuvchi jihatlari sifatida novatorlik, yangilikni sezish, yangilikni qabul qilishga tayyorlik, mustaqil ta'lim, kasbiy mahorat, innovatsion pedagogik tafakkur, ijodiy yechimlarni qabul qilishga tayyorliklari nazarda tutiladi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ta'lim jarayonining markazida o'quvchi turadi. Bu metodlar qo'llanilganda muallimo'quvchilarni faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. O'quvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

-ta'lim natijasi yuqoriroq bo'lgan o'qitish va o'rganish;

-o'quvchilarning rag'batlantirilishi;

-egallangan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;

-ta'lim jarayonini o'quvchilarning maqsad va ehtiyojlariga moslashtirish;

-o'quvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab quvvatlanishi;

-amaliy bajarish orqali o'rganilishi;

-pedagog va o'quvchi fikr-mulohazalariga sharoit yaratilishi.

Bundan ko'rinib turibdiki, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Ta'lim jarayonida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalga o'zlashtirish imkoniyati cheklangan bolalarning fikrlashini, dunyoqarashini kengaytiradi hamda muammoni to'g'ri haq qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda talabalar bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va mustaxkamlanishiga erishiladi.

Yuqorida keltirilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishli tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Bugungi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar hisoblanadi:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim".

Interfaol ta'lim strategiyalari: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya".

Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster".

Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi ta'lim mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda foydalanilmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot qatnashchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yuksak darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa muddatda muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash muallimdan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Quyida inklyuziv ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan o'qitishning zamonaviy metodlari keltirilgan.

"Venn diagrammasi" strategiyasi (metodi)

Mazkur strategiya o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarini shakllantirish asosida

sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o'zaro teng 4 bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka sxema chiziladi. Strategiya o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Strategiyani qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

sinf o'quvchilari 4 guruhga bo'linadi;

yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;

har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;

topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;

liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks diagrammani to'ldiradilar.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi

Metodning mazmun mohiyati quyidagilardan iborat:

-jamo'a orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordamlashish;

- o'quvchilarda ma'lum jamoa tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltiradi.

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodidan foydalanishga asoslangan mashg'ulot quyidagicha tashkil etiladi:

-ruhiy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgano'quvchilarni o'zida birlashtirilgan hamda son jihatdan teng bo'lgankichik guruhlari shakllantirish;

-guruhlarga hal etish uchun topshirilgan vazifalarni mohiyatidan kelib chiqadigan maqsadlarni aniqlashtirish;

- muayyan g'oyalarning guruhlar tomonidan ishlab chiqilishi;

- topshiriqlar yechimlarini muhokama qilish;

- dastlabki bosqichlarda topshiriqlarning yechimlari yuzasidan bildirilgan muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish hamda ular borasida yagona xulosaga chiqarish;

Metodni qo'llash jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarda quyidagi holatlar yuzaga keladi:

o'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilim va ko'nikmalarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

har bir o'quvchini faollik va mustaqil fikrlashga undash;

Xulosa. Ushbu interfaol metodlardan foydalanish jarayonida ilgor pedagogik innovatsiyalar va integratsion darslarni o'tkazilishio'qituvchilarni o'z vazifasiga nisbatan ijodiy yondoshgan holda alohida ehtiyojli bolalarning dunyoqarashini yanada kengaytirib muammolarni muvaffaqiyatli yechishga imkoniyat yaratib beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF- 5270-son “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, <https://lex.uz/docs/-3436192>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz.
3. 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/5044711>
4. Qodirova F.U. Inklyuziv ta'lim nazariya va amaliyot. Monografiya Toshkent 2022.- 90-109b.
5. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. Jamoa // Toshkent: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. -376 b.



UDK:53.35.014.48

Maqsudali QURBONOV,
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: maqsudaliqurbonov1992@gmail.com

NamDU professori, p.f.d B.Abdulazizov taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA OPTIKA FANINI YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Fizik hodisalarni o'rganishga ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi muhimdir. Bu nafaqat eksperimental natijalarni sifatli taqdim etish, balki ularni qayta ishlash va yangi bilimlarni olish uchun matematik vositalardan foydalanish, fizik jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini egallash, nazariy va eksperimental tadqiqot usullari o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni tushunishdir.

Kalit so'zlar: axborot, kompyuter, fizik jarayonlar, optika, eksperiment, axborot texnologiyalari

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОПТИЧЕСКОЙ НАУКЕ В ВУЗАХ

Аннотация

Важно создать дополнительные возможности для формирования творческого подхода к изучению физических явлений. Это не только качественное представление результатов эксперимента, но и использование математических средств для их обработки и получения новых знаний, приобретение навыков управления физическими процессами, понимание тесной связи между теоретическими и экспериментальными методами исследования.

Ключевые слова: информация, компьютер, физические процессы, оптика, эксперимент, информационные технологии.

THEORETICAL BASIS OF THE USE OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN OPTICAL SCIENCE IN UNIVERSITIES

Annotation

It is important to create additional opportunities for developing a creative approach to the study of physical phenomena. This is not only a qualitative presentation of the experimental results, but also the use of mathematical tools to process them and obtain new knowledge, the acquisition of skills to control physical processes, and an understanding of the close connection between theoretical and experimental research methods.

Key words: information, computer, physical processes, optics, experiment, information technology.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»[1]gi PQ 5032-sonli qarori asosida 2020-2026 yillarda fizika fani o'tish bo'yicha ta'limning umumiy sifatini oshirish yuzasidan hamda ilmiy tadqiqotlarining natijadorligini ta'minlay olish bo'yicha belgilab olingan ishlar, bugungi kunda dolzarb vazifa etib belgilandi.

Kompyuterlashtirish ulkan insonparvarlik salohiyatiga ega bo'lib, ishni yengillashtirish va boyitish imkonini beradi. Mehnat og'ir, xavfli va bir xildagi mehnat ulushini kamaytirish orqali osonlashadi va boyitish insonning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Axborot-intellektual salohiyatning oshishi va "bilim sanoati"ning rivojlanishi jamiyatni kompyuterlashtirishning asosiy va eng katta oqibatlaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Muntazam operatsiyalar sonini kamaytirish muammoli masalalarga ijodiy yechimlarga e'tibor qaratish imkonini beradi va bir kishiga ilgari bir nechta mutaxassislar tomonidan bajarilgan bir nechta funktsiyalarni birlashtirishga imkon beradi. Mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, axborot va kompyuter texnologiyalarini saqlash bilan bog'liq nazorat, mantiqiy va boshqaruv funktsiyalari soni kengaymoqda. Axborot va hisoblash texnologiyalaridan keng foydalanish aqliy faoliyatni rivojlantirish foydasiga qarorlar qabul qilish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi va demak, professional ishida ijodiy element.

Tarixan pedagogika o'z faoliyatida doimo axborot vositalaridan (axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish vositalari) foydalangan va ularni takomillashtirish o'qitish samaradorligini oshirgan. Binobarin, kompyuterdan eng ilg'or axborot vositasi sifatida foydalanish, ta'lim fanlarini o'rganishda kalkulyator, kitob, ruchka, videomagnitofon, televizor kabilardan

foydalanish tabiiy ravishda o'quv jarayonini takomillashtirishga olib kelishi kerak. Kompyuterlar va dasturiy ta'minotning evolyutsiyasi ularni eng o'qitilmagan foydalanuvchilar uchun o'rganishni nisbatan osonlashtirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So'nggi paytlarda bosma, audiovizual va kompyuter o'qitish vositalari alohida ajratildi. Endi kompyuter yuqoridagi barcha funktsiyalarni birlashtira oladi va o'z imkoniyatlariga ko'ra, insonning ma'lumotni idrok etishining barcha organlariga ta'sir ko'rsatadigan va axborotni idrok etishning majoziy-assotsiativ kanalini sezilarli darajada faollashtirishga imkon beradigan deyarli "ideal" o'quv vositasidir. Kompyuterni qo'llab-quvvatlash "axborot texnologiyalari" tushunchasi ostida birlashtirilgan kuchli vositalar va usullarni o'z ichiga oladi.

Yangi axborot texnologiyalari vositalari deganda an'anaviy ravishda" mikroprotessorli texnologiya asosida ishlaydigan apparat-dasturiy vositalar va qurilmalar, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tizimlari, ma'lumotlar almashinuvi, audio-video uskunalari va boshqalarni yig'ish, ishlab chiqarish operatsiyalarini ta'minlaydigan qurilmalar tushuniladi. axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, uzatish".

Zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan o'quv, uslubiy, axborot, matematik va muhandislik ta'minoti quyi tizimlarining funktsional bog'langan majmui sifatida foydalanishga asoslangan bo'lib, o'quv jarayonini uning turli shakllarida optimallashtirishga qaratilgan. va interaktiv rejimda ishlash.

Axborot texnologiyalari vositalari ancha keng assortimentga ega. Eng katta salohiyat, ehtimol, kompyuterga asoslangan o'quv muhitida faol va do'stona mulqotdadir. Shunday qilib, uslubiy jihatdan ishlab chiqilgan kontekstga

bog'liq yordam o'quv jarayonining motivatsion tarkibiy qismini shakllantirishga imkon beradi.

Kompyuterni qo'llab-quvvatlashning didaktik vositalari ham xilma-xildir. Bu nafaqat o'rganilayotgan hodisalarning talab qilinadigan sur'atida kompyuterni modellashtirish, balki aniqlik, axborot mazmuni va nazoratni ta'minlash uchun didaktik funksiyalarni amalga oshirishdir.

Grebenyuk O.S. dastlabki bosqichda kompyuter ta'limidan foydalanishning quyidagi maqsadlarini aniqlaydi [2]:

-vaqt omiliga ko'ra: o'quvchilarni nazorat qilish va ularga tashxis qo'yishda vaqtni orttirish, talabalarning nazorat va mustaqil ishlarini takrorlash va taqdim etish, natijalarni qayta ishlash va ularni har bir talabaga tezkor etkazish va boshqalarda orttirish;

-o'quvchilarning o'quv jarayonida "qamrovi" darajasiga ko'ra: asosiy bilimlarni va harakat usullarini yangilash bosqichida, reproduktiv qobiliyatlarini mashq qilish bosqichida ommaviy o'qitish imkoniyati;

-talabalarga individual yondashuvni amalga oshirish: har kim o'z tezligi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda kompyuter bilan ishlaydi;

-pedagogik operatsiyalarni "mexanizatsiyalash" darajasiga ko'ra: laboratoriya va amaliy ishlarni tayyorlashda talabaning ishini faollashtirish, simulyator rejimida kompyuterda ishlash, repetitor rejimi, ma'ruza materialida, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda kompyuter bilan ishlash.

Natija va muhokamalar. Maqsadlarning berilgan nomenklaturasi o'quvchini faoliyat subyekti sifatida rivojlantirishga qaratilgan emas, chunki bu holda o'quv faoliyatini tashkil etish muammosi tahlil doirasidan tashqarida qoladi. Shuni hisobga olgan holda, kompyuterni o'qitishni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning asosiy strategik yo'nalishi, hatto kompyuterdan foydalanganda ham, insonning asosiy sohalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni saqlaydigan ta'lim faoliyatining yaxlit tizimlarini asoslashdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning yangi pedagogik tushunchalarini va individual-faoliyat yondashuvini hisobga oladigan maqsadlar nomenklaturasi kerak. Bundan kelib chiqadiki, yuqoridagi maqsadlar nomenklaturasi quyidagi tarzda to'ldirilishi kerak [3]:

-intelektual sohani rivojlantirish: fikrlash (kognitiv, ijodiy), xotira, e'tibor, aqliy fazilatlar (zakovat, moslashuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash qobiliyatlari (izolyatsiya, taqqoslash, tahlil qilish va boshqalar), kognitiv qobiliyatlarni (qarama-qarshilikni ko'rish) rivojlantirish, muammo, savol berish, gipotezalarni ilgari surish), o'rganish ko'nikmalari, mavzu bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish;

-motivatsion sohani rivojlantirish: ehtiyojlarni shakllantirish - intellektual, bilim, tabiat, jamiyat, inson, tafakkur va bilish qonunlarini bilish; bilish va transformativ faoliyat usullarini egallash zarurati; ta'lim motivlarini (kognitiv qiziqishlar, fanni o'rganishning ma'nosi va boshqalar), yutuq motivlarini va boshqalarni tarbiyalash;

-hissiy sohani rivojlantirish: o'z his-tuyg'ularini va hissiy holatlarini boshqarish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirish, haddan tashqari tashvishlarni engish, o'zini o'zi qadrlashni rivojlantirish;

-irodaviy sohani rivojlantirish: qat'iyatni shakllantirish, tashabbuskorlikni, o'ziga ishonchni rivojlantirish, o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, bilimlarni o'rganish - qanday harakat qilish, qanday faoliyatni rejalashtirish, ularni qanday amalga oshirish va ularni tashqaridan nazorat qilish. Yordam bering;

-umumiy o'quv faoliyatini shakllantirish va uning asosiy tarkibiy qismlari: talabalar e'tiborini boshqarish, ularga bo'lajak faoliyatning ma'nosini tushuntirish, zarur bo'lganehtiyoj-motivatsion holatlarni yangilash, maqsadni qo'yishni rag'batlantirish, o'quvchilarning ijro etuvchi tizimni muvaffaqiyatli bajarishi uchun sharoit yaratish, harakatlar, faoliyatga yordam berish va tuzatish, talabalarning ta'lim faoliyati jarayoni va natijasini baholash.

Bu holda fizik hodisalarni o'rganishga ijodiy yondashuvni shakllantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishi muhimdir. Bu nafaqat eksperimental natijalarni sifatli taqdim

etish, balki ularni qayta ishlash va yangi bilimlarni olish uchun matematik vositalardan foydalanish, fizik jarayonlarni boshqarish ko'nikmalarini egallash, nazariy va eksperimental tadqiqot usullari o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni tushunishdir.

Axborotlashtirish pedagogik tizimni rivojlantirish vositasi bo'lib, o'zining evolyutsion imkoniyatlarini saqlab qolgan holda yangi bosqichga o'tish bilan bog'liq bo'lgansifat holatini barqaror o'zgartirishga yordam beradi. Yangi vazifalarni qo'yish pedagogik tizimning tarkibiy qismlarini yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq holda o'zgartirishni nazarda tutadi. Ma'lumotni muntazam qayta ishlash yukini sezilarli darajada kamaytiradigan pedagogik tizimning asosiy funksiyalari yangi mazmun bilan to'ldiriladi [4].

Kompyuterni o'qitish texnologiyasi bilvosita ta'limni amalga oshirishda, bunda katta hajmdagi ta'lim ma'lumotlari o'qituvchidan emas, balki kompyuterdan olinadi.

Fizika laboratoriyasida turli xil kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va talabalarning kompyuterga bo'lgantabiiy qiziqishi yaxshi uslubiy o'rganish bilan birgalikda talabalarning murakkab zamonaviy qurilmalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallashlariga yaxshi qo'shimcha turki bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning ushbu uslubdagi mustaqil ishi nafaqat yangi materialni idrok etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qiladi, balki turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil - xulosalar va umumlashtirishlarni shakllantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarning mustaqil ishi muammosi murakkab va ko'p qirrali muammolardan biridir. Bu zamonaviy oliy ta'lim pedagogikasi uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lganva shunday bo'lib qolmoqda, u talabalarni kompyuter o'quv dasturlari yordamida tayyorlash masalasida markaziy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning bilim olish sifati ko'p jihatdan ularning o'zlari ta'lim va kognitiv jarayonda qay darajada ishtirok etishlari, shuningdek, o'z bilimlarini qay darajada mustaqil ravishda kengaytirish olishlari va zarur ko'nikmalarni egallashlari bilan belgilanadi [5].

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, o'qituvchi o'quv jarayonini boshqaradigan va bilimlarni muvaffaqiyatli qurishga va talabaning samarali ishlashiga ta'sir qiluvchi bir qator funksiyalarni saqlab qoladi:

-ishni boshlash uchun asos bo'ladigan bilimlar bazasini shakllantirish;

-o'quv jarayonida qo'shimcha bilimlarni jalb qilishga e'tibor berish;

-bilimlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish;

-noto'g'ri tushunish sohasini aniqlash va qayd etish - uning keyingi rivojlanishi bilan bilmaslik (testlar, seminarlar, konferentsiyalar);

-nafaqat bilim olish, balki qurish ko'nikmalarini rivojlantirish;

-taklif qilingan materialdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish.

Kompyuter o'qituvchiga texnik va texnologik yordamning katta xazirasini taqdim etadi, uning vaqtining katta qismini talabalar bilan jonli muloqot qilish uchun bo'shatadi va bu muloqotni avvalgidan ham samimiy va insoniyroq qilish imkonini beradi. Kompyuter boshqaruv funksiyalarining ko'p qismini bajaradi va o'quvchilarning xatolariga tezkor javob beradi. Barcha xatolar darhol kompyuter tomonidan qayd etiladi, lekin asosan talabalarning shaxsiy ishi bo'lib qoladi va buning sababi emas. salbiy his-tuyg'ularni qabul qilish. O'qituvchi o'quvchilarga nisbatan erkin va ijobiy munosabatda bo'ladi. Kompyuter o'quvchi bilan hamkorlikka kirishib, har bir o'quvchiga o'zi uchun o'quv faoliyatining eng qulay sur'ati va ritmini belgilash imkonini beradi va o'qituvchini bu jarayonni doimiy nazorat qilish va faollashtirish zaruratidan xalos qiladi. Doimiy kichik nazorat vazifalaridan xalos bo'lgano'qituvchi vaziyatni bir butun sifatida ko'rish va har bir o'quvchiga individual e'tibor berish uchun ko'proq imkoniyatga ega.

Shaxsiy kompyuter nafaqat pedagogik muloqotga xalaqit bermaydi, balki, aksincha, buning uchun sezilarli darajada katta imkoniyatlarni ochadi, shunchaki ularni ko'rish va ulardan to'g'ri foydalanish kerak.

Shaxsiy kompyuter imkoniyatlarini bilim olish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida samarali amalga oshirish

muammosi bilan mini -kompyuterlar paydo bo'lganidan va sohasidagi mutaxassislar shug'ullanib kelinmoqda. dolzarbligini shaxsiy kompyuterlar davridan boshlab ta'lim va ta'lim yanada keskin ochib berdi.

ADABIYOTLAR

1. 2021-yil 19-martdagi «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ 5032-sonli qarori;
2. Ta'limda axborot texnologiyalari R.Xamdamiyov, U.Begimqulov, N.Taylaqov Smirnov A.V. Noviy kurs «Informatsionniy i kommunikatsionniy texnologii v fizicheskom obrazovaniy» v sisteme podgotovki A.V. Smirnov, N.V.Kalachev, S.A.Smirnov // Fizicheskoe obrazovanie v vuzax. – 2014
3. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019
4. Rahimjon I. Methods of conducting an experiment in physics in a credit-modular system //Academia Repository. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 203-205.
5. Ibragimov R. Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish //Farg'ona davlat universiteti. – 2024. – №. 1. – C. 17-17.



Umidaxon MIRZAYEVA,
ADU Umumiy fizika kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: (umidamirzayeva035@gmail.com)

ADPI professori, p.f.d M.Artiqova taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF NATURAL-SCIENTIFIC LITERACY OF STUDENTS

Annotation

Wide use of the achievements of science and innovation activities in the world education system, consistent and stable development of all spheres of society and state life is an important factor in building a worthy future of the country. It is important to improve the evaluation system in the education system based on advanced foreign experiences, international criteria and requirements, for this purpose, to study international experiences, comprehensive comparative analysis of the existing system, and close cooperation with relevant international and foreign organizations, agencies, and research institutions. is the owner.

Key words: international assessment programs, innovation, technology, pedagogy, empirical studies, modern methodology, scientific literacy.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

Широкое использование достижений науки и инновационной деятельности в мировой системе образования, последовательное и стабильное развитие всех сфер общественной и государственной жизни является важным фактором построения достойного будущего страны. Важно совершенствовать систему оценивания в системе образования на основе передового зарубежного опыта, международных критериев и требований, для этого проводить изучение международного опыта, всесторонний сравнительный анализ существующей системы, тесное сотрудничество с соответствующими международными и зарубежными организациями, агентства и научно-исследовательские учреждения является владельцем

Ключевые слова: международные программы оценки, инновации, технологии, педагогика, эмпирические исследования, современная методология, научная грамотность.

O‘QUVCHILARINING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

Аннотация

Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omilidir. Ta’lim tizimida ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu maqsadda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: xalqaro baholash dasturlari, innovatsiya, texnologiya, pedagogika, empirik ma’ulotlar, zamonaviy metodika, tabiiy-ilmiy savodxonlik.

Dunyoda o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish ta’limdagi muvaffaqiyatini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarining ilmiy-pedagogik ahamiyati qamrovi ortib bormoqda. Mazkur ahamiyatli jihati xalqaro baholash dasturlari ishtirokchi davlatlar ta’lim siyosatini yo‘nalishini belgilash, milliy ta’lim tizimini rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbir etish uchun empirik ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lishida nomoyon bo‘lmoqda.

Umumta’lim maktablarida fizika fani mazmuni, unda qo‘llaniladigan topshiriqlarning tuzilishi yildan yilga yangilanib borishi dinamik jarayon sifatida xalqaro baholash dasturlari talablarini ham singdirib bormoqda. Bu esa xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etuvchi davlatlar soni yildan-yilga ortib borishiga asos bo‘lmoqda. PISA xalqaro baholash dasturi milliy ta’lim tizimidagi innovatsiya, texnologiya, dastur, tamoyil yoki ularning elementlari milliy ta’lim tizimi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadbir etish uchun ko‘plab tahlil hamda qiyosiy ma’lumotlar taqdim etadi. Jumladan, o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish uchun topshiriqlar ishlab chiqish borasida ham yangicha yondashuvlar, metodikalar bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish imkoniyatini beradi. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni shakllantirishni ilmiy tadqiq etish xalqaro baholash dasturida muvaffaqiyatli ishtirok etishni ta’minlaydi. Ma’lumki, PISA xalqaro baholash dasturida topshiriqlar markaziy o‘rinni egallaydi. Shu topshiriqlarga o‘xshash topshiriqlarni ishlab chiqish, ulardan keng foydalanish o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy

savodxonligini egallashini intensivlashtiradi, ta’lim mazmuni sifatini yuksalishiga turtki beradi.

Bugungi kunda globallashiv va taraqqiyotning ta’siri natijasida nafaqat ta’limning mazmuni, balki “ta’lim oluvchi” tushunchasining ma’nosi ham o‘zgarib bormoqda. Hozirda o‘quvchilar maktab yoki oliy ta’limda olingan bilimning yakuniy bilim emasligi, doimiy ravishda uzluksiz mustaqil o‘qish, o‘rganish kasbiy-shaxsiy hayotda muvaffaqiyatni ta’minlashni yaxshi tushunadilar.

Jahon ta’lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omilidir. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’limda innovatsiyalar, o‘qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o‘quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi[1].

PISA xalqaro baholash dasturi asosida milliy ta’lim tizimi negizida tabiiy fanlarni o‘qitishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, asosan tabiiy fanlarni o‘qitish milliy kontseptsiyasini shakllantirishda ma’lumotlar bazasi vazifasini o‘taydi. Xalqaro baholash dasturlarining kontseptual asoslari mukammal ishlab chiqilganligi dasturlarda ishtirokchi davlatlar qamrov doirasini kengayishiga asos bo‘lmoqda. Baholash dasturlari metodologiyasi hamda natijalarining reprezentativligi bilan ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Baholash dasturlarining turli davlatlar milliy

ta'lim tizimiga joriy etish, ta'lim tizimini isloh qilish yo'nalishlarini belgilashda baholash dasturi natijalari bilan uzviylikda ilmiy tahlil qilish, baholash dasturi kontseptsiyasiga muvofiq o'quvchilarning o'qish, matematika, tabiiy fanlarga doir savodxonligi, shuningdek kompyuter, xorijiy tillarni bilish, moliyaviy savodxonligini shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar salmog'i yildan yilga ortib bormoqda.

Ta'lim tizimida islohotlarning samaradorligi umumta'lim fanlari mazmunini sayqallashtirish bilan aloqador. Ta'lim tizimida "Nimani o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" va "Kim o'qitadi?" degan savollar mazmunni tashkil etadi. Dastlab "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga javob berishimiz kerak. Uzoq yillardan buyon ushbu savol ochiq qolganligi, ta'lim turlariga integratsiyaning yo'lga qo'yilmaganligi hamda ta'lim mazmunini uzviylik bo'yicha chora-tadbirlar yetarlicha ishlab chiqilmaganligi hozirda ushbu muammoni dolzarb jarayonga aylantirdi. Ta'limning mazmunini o'quv dasturlari belgilar ekan, ularning ta'lim turlari o'rtasida bog'liqlik, fanlararo, sinflar, kurslar o'rtasida uzviy bo'lishi muhim.

O'quvchilarning fizika fanidan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda darslarda zamonaviy uslublarni qo'llash, yangi ma'lumotni o'zlashtirish jarayonida eshitib, ko'rib, hayotga qo'llab o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarining tez fursatlarda rivojlanganligi ularning boshqa tabiiy-ilmiy savodxonliklar ham shu asnoda rivojlanganligini anglatmaydi. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishda avvalambor fikrlash, taqqoslash, tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Pedagog olim va PISA xalqaro baholash dasturi bo'yicha yetakchi xalqaro mutaxassis A.Shlyaxer ayni shu vaziyatni tavsiflab quyidagi fikrni bildirdi: "Google hamma narsani biladi. Zamonaviy dunyo sizni bilganingiz bilan nima qila olishingizga qarab mukofotlaydi. Bular orasida katta farq bor"[1].

PISA xalqaro baholash dasturi pedagogik amaliyotga keng qo'llaniladigan "ta'lim" tushunchasi mazmunini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Pedagog olim va ta'lim bo'yicha xalqaro ekspert A.Shlyaxer ta'lim tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Ta'lim nafaqat o'quvchilarga biror narsani o'rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o'zgarib borayotgan dunyoda, o'ziga bo'lganishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta'minlash jarayonidir"[2]. Bundan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablari, pedagoglarining ham funktsional vazifasi ham shunga mos ravishda o'zgarib bormoqda. "Ta'lim" tushunchasining o'zgarishi o'quv adabiyotlari, o'quv topshiriqlarining mazmunida ham o'z aksini topadi.

Hozirgi zamon axborot jamiyati umumta'lim maktab o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishni taqozo etadi:

o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish, Fizika fani bo'yicha zaruriy bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, turli-tuman muammolarni hal etish uchun ulardan mohirona foydalanish, butun umri mobaynida hayotda o'z o'rnini topishga qodir bo'lish; mustaqil tanqidiy fikrlash, tabiat, global muammolar, real voqelikda yuz berayotgan muammolarni ko'ra bilish va ularni oqilona hal etish yo'llarini zamonaviy texnologiyalar yordamida topish;

o'zi o'zlashtirayotgan bilimlardan qaerda va qay tarzda foydalanish mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish;

o'z tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda axborot bilan mohirona ishlay olish: muayyan muammoni hal etish uchun zarur faktlarni to'plash, ularni tahlil qilish; muammoni hal etishga doir gipotezalarni ilgari surish; zaruriy xulosalar chiqarish; qonuniyatlarni aniqlash; dalillangan xulosalar chiqarish; olingan xulosalardan yangi muammolarni aniqlash va hal etishda foydalanish;

tabiiy-ilmiy savodxonlikka doir muzokaralarda ishtirok etishi, o'z munosabatini ilmiy dalillarga asoslanib bildirishi, turli sohalar va vaziyatlarda boshqalar bilan bahamjihat ishlay olish, har qanday ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish yoki ulardan mohirona chiqib bilish.

PISA xalqaro baholash dasturida tabiiy-ilmiy savodxonlik atamasi quyidagicha izohlanadi: "tabiiy fanlarga oid bilimlarni amalda qo'llay olish, tabiiy fanlarning muammolarini tushunish,

ilmiy manbalardan foydalangan holda xulosalar ishlab chiqish, tabiatga oid va inson omili bilan sodir bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlar bo'yicha qarorlarni tushunish"[3] deya tavsiflanganini aytishimiz mumkin. Muzkur ta'rif tabiiy-ilmiy savodxonlik bilvosita kundalik hayot, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga bog'liq tarzda baholanadi. O'quvchidan mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish va o'z natijalariga baho berish talab etiladi. O'quvchilarda atrof-olamni o'rganishga, tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, tabiat hodisalarini o'rganishda asboblar, vosita, uslublardan to'g'ri foydalana olish, atamalar, tushunchalar, qonuniyatlar, kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotga tatbiq qilish orqali ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanish, fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash kabi qobiliyatlar tabiiy-ilmiy savodxonlikning tarkibiy mazmuniga tegishli hisoblanadi.

M.Oripova o'z ilmiy maqolasida "tabiiy-ilmiy savodxonlik kuzatish va tajribalarga asoslangan xulosalar olish uchun ilmiy metodlar yordamida tekshirish va hal etilishda tabiiy-ilmiy bilimlarni ishlata olish qobiliyati, dolzarb muammolar haqida fikrlay olishi, shaxsiy, ijtimoiy, global muammolarga duch kelganda yechish ko'nikmasiga ega bo'lishi, mushohada yuritish qobiliyati sinovdan o'tkazilishi"[4] deb ta'rif bergan.

PISA xalqaro baholash dasturida tabiiy-ilmiy savodxonlik "tabiiy fanlarga oid bilimlarni amalda qo'llay olish, tabiiy fanlarning muammolarini tushunish, ilmiy manbalardan foydalangan holda xulosalar ishlab chiqish, tabiatga oid va inson omili bilan sodir bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlar bo'yicha qarorlarni tushunish"[5] deya tavsiflanganini aytishimiz mumkin. Tabiiy-ilmiy savodxonlik bilvosita kundalik hayot, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga bog'liq tarzda tekshirilmoqda. O'quvchidan mustaqil fikr bildira olishi, qaror qabul qilishi va o'z natijalariga baho berish talab etiladi.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining (IHTT) PISA xalqaro baholash dasturi kontseptsiyasiga muvofiq tabiiy-ilmiy savodxonlik quyidagicha tavsif etilgan: tabiiy fanlarning tasnif qiluvchi xususiyatlari va hozirgi zamondagi ahamiyatini tushunish, tabiiy bilimlarni amalda qo'llash, tabiiy fanlarga oid muammolarni bilish, tabiiy hodisalarini tavsiflay olish, ilmiy dalillar asosida xulosa chiqara olish, tabiiy fanlarga oid g'oyalari va ilmiy masalalarga munosabatini bildirgan holda tushuntira olish qobiliyati tushuniladi[6].

O'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mamlakat innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda o'quvchilarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur jihatlarni hisobga olgan holda o'quv-me'yoriy hujjatlar takomillashtirib borilmoqda.

PISA xalqaro baholash tadqiqotida yuqori natijalarga erishib bir qator omillarga bog'liq. Quyida shunday omillarning tahlili keltirib o'tilgan:

1. PISA xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik bo'yicha domenida yuqori natijalarga erishishida umumta'lim maktablari pedagoglariga ko'p jihatdan bog'liq. PISA xalqaro baholash dasturi o'z navbatida pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim jihati sifatida bo'lg'usi talabalarga "real hayotdagi jarayonlarni pedagogik nuqtai nazardan baholovchi va bu jarayonlarni o'quv jarayoniga didaktik jihatdan to'g'ri singdira oladigan mutaxassislar" bo'lishligini ko'rsatib o'tadi. Bu esa mavjud pedagogik ta'limni rivojlantirish va uzluksiz ta'lim jarayonida pedagoglar salohiyatini oshirish muammolarining dolzarbligini ko'rsatadi. Pedagoglarning salohiyati shu nuqtai nazardan tabiiy-ilmiy savodxonliklarning shakllanishida hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega.

2. PISA xalqaro baholash dasturi tabiiy-ilmiy savodxonliklardan tashqari, bir qator mustaqil boshqariladigan ta'limga oid savollarni ham dastur ishtirokchilariga havola etadi. O'qish, matematika va tabiiy fanlarga oid tabiiy-ilmiy savodxonliklar o'quv jarayoniga bog'liq holda shakllanadi. O'quv jarayoni tabiiy-ilmiy savodxonliklarning shakllanishi uchun etarli shart-sharoitni yaratib bermaydi.

3. O'quvchilarning mustaqil ta'limsiz tabiiy-ilmiy savodxonliklarning to'liq shakllanishi mumkin emas. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish, qo'llab-quvvatlash ham tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida qaraladi. PISA xalqaro baholash dasturi kontsepsiyasida mustaqil ta'limga quyidagicha tavsif berilgan: "O'quvchilar tabiiy-ilmiy savodxonliklarini shakllantirishda o'rganilayotgan bilimlarni anglab yetishi, o'zlari uchun mos o'quv strategiyasi va usullari tanlab olishi va o'ylash jarayoni mustaqil boshqariladigan ta'lim deyiladi. Bunda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini maqsadli, faol va mustaqil egallashi va qo'llashi tushuniladi" [7]. Shundan kelib chiqqan holda, PISA xalqaro baholash dasturining markazida o'quvchilarning ma'lumotlarni tahlil qilishi, motivatsional preferentsiyalari va maqsadga yo'naltirilganligi, o'z maqsadlarini nazorat qila olishi, o'zini o'zi baholay olishi, ijtimoiy munosabatlardagi hamkorlikda ta'lim strategiyalari turadi. Motivatsional preferentsiyalar oldinga undovchi, rag'batlantiruvchi ustuvor omillardir.

4. Ta'lim madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelgan ekan, o'quvchining tabiiy-ilmiy savodxonliklari maktabdan tashqari vaqtda ham jamiyatdagi ko'plab sohalarga bog'liq ravishda shakllanib, rivojlanib boradi. Oilada ta'limga munosabatlarning shakllanganligi, akademik resurslarning mavjudligi, ta'lim olishga shart-sharoitlar va ota-onaning ta'lim olishga yuqori prioritetdagi qadriyat sifatida qarashi muhim mezonlar hisoblanadi.

5. O'quvchilarning "o'rganishni o'rganish" bo'yicha malakalari mustaqil ta'lim orqali asosiy tabiiy-ilmiy savodxonliklarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning turli o'rganish strategiyalarini mukammal bilishi jamiyatda o'zining mustaqil o'rganish jarayonini tashkil etishida katta yordam beradi. Jumladan, turli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, turli tadbirlar, ko'rgazmalar, marosimlar, tashriflar orqali ham axborotlar bilan ishlash o'quvchi kompetentsiyasini shakllantirib boradi. Mukammal o'rganish strategiyalarini o'zlashtirgan o'quvchi jamiyatdagi ma'lumotlar oqimidan o'ziga kerakli ma'lumotlarni saralab olishi va maqsadli, unumli foydalanishi, maktabdan tashqarida turli soha vakillari bilan ma'lum soha yoki mavzuga oid suhbatlar qurishi va shu orqali kommunikativ kompetentsiyalarini shakllantira olishi, jamiyatda mahsulotlar va xizmatlar "iste'molchisi" sifatida o'z huquq va burchlarini bilishi esa ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasini shakllanishiga xizmat qiladi. O'quvchining turli sayohatlar davrida, turli millat vakillari bilan barcha e'tirof etgan me'yorlarni

qo'llagan holda suhbatlasha olishi va milliy hamda umummadaniy, shuningdek, kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlanishiga xizmat qiladi. Albatta, barcha tabiiy-ilmiy savodxonliklarning shakllanishida maktabdagi o'quv jarayoni mazmuniga yuqorida ko'rsatilgan holatlar – jamiyatdagi, iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi turli holatlar, vaziyatlar, me'yorlar, qadriyatlar turli topshiriqlar sifatida singdirilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

A.Ismoilov o'z dissertatsion ishida umumta'lim maktabi o'quvchilarining ta'limdagi yutuqlarini xalqaro tadqiqotlar hamda milliy tadqiqotlar asosida baholash orqali quyidagilarga erishish mumkin ekanligini ta'kidlab o'tadi:

milliy ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtda axborot olish;

ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi;

ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;

o'quvchilarning bilimi, salohiyati va savodxonligining qay darajada shakllanganligini bilish hamda xalqaro miqyosda taqqoslash;

ta'lim muassasalaridagi joriy etilgan o'qitish usullarini boshqa mamlakatlardagi usullardan farqli jihatlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

o'quvchilarning savodxonlikni rivojlantirishga oid darslar maktablarda qanday tashkil etilganligi haqida ma'lumot olish;

ota-onalar tomonidan o'quvchilarning bilimi va savodxonligini yaxshilashda qo'shilayotgan xissalari salmog'ini bilish;

o'quvchilarni fanlararo uyg'unlik asosida baholash, dunyo bo'yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish;

ta'lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetentsiyaviy yondashuvlar, ya'ni o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;

shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo'ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi[8].

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish lozimkin, xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlarini shakllanishi hamda uning dinamikligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Шляйхер А. Образование Мирового уровня. Как выстроить школьную систему XXI века? //Издательство Национальное образование. ФИОКО Москва. 2019. – 24 с.
2. Schleicher A. Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти. Таълим ва кўникмалар департаменти директори, PISA дастури асосчиси. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/2c0d9903-en/index.html?itemId=/content/component/2c0d9903-en>.
3. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. PISA 2018. Basic education in an international comparison // 1st edition.Münster: Waxmann, 2019. - P. 266.
4. Oripova M.Q. PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturining ahamiyati // "Ta'limdagi
5. xalqaro tadqiqotlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ilmiy ishlar to'plami. Toshkent, 2022. 166-169 B.
6. OECD. learning for life. First results of the school performance study PISA2000 // <http://www.oecd.org/education/school/programmeforinternationalstudentassessmentpisa/33691612.pdf>. – P. 24.
7. OECD. learning for life. First results of the school performance study PISA2000 // <http://www.oecd.org/education/school/programmeforinternationalstudentassessmentpisa/33691612.pdf>. – p. 24.
8. Education monitoring Switzerland: Ready for life? The Basic Skills of Young People-National Survey Report // PISA 2000. – P. 91.
9. Исмаилов А.А. Ўқувчиларнинг ютуқларини халқаро тадқиқот дастурлари асосида баҳолаш // "Таълимдаги халқаро тадқиқотларнинг Янги Ўзбекистон тараққиётидаги ўрни" мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами – Тошкент: Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази, 2022. – 21-26 б.



UDK: 101.1

Adhamjon MIRZACHAYEV,

Alfraganus universiteti Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi, O‘zMU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: mumin_81@mail.ru

Alfraganus universiteti dotsenti, f.f.d. M.Xujayev taqrizi asosida

ABU HANIFA YASHAGAN DAVRNING IJTIMOYIY-MADANIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Imomi A‘zam kabi buyuk shaxs va asl dahoning ilm-fan va ijodiy olamining ijtimoiy-falsafiy qarashlari keng izlanishlarni talab etuvchi ko‘plab ochilmagan jihatlariga ega. Uning, ijtimoiy-falsafiy qarashlari xalqimizning tarixiy-madaniy rivojlanish xususiyatlarining o‘ziga xosligini asrab-avaylash va mustahkamlashdagi xizmatlari misli ko‘rilmagan darajada beqiyos hisoblanadi. Maqolada Imomi A‘zam hayotida ijtimoiy-falsafiy qarashlarining shakllanish davri juda nozik tarixiy bosqichlari ochib berilgan.

FEATURES OF THE SOCIO-CULTURAL DEVELOPMENT OF THE PERIOD IN WHICH ABU HANIFA LIVED

Annotation

The article describes the socio-philosophical views on the world of science and creativity of such a great man and the true genius of Imam Azam, and cites many undisclosed aspects that require extensive research. His socio-philosophical views and achievements in preserving and strengthening the identity of the features of the historical and cultural development of our people are unprecedented. The article reveals very subtle historical stages of the period of formation of the socio-philosophical views of Imam Azam.

ОСОБЕННОСТИ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ В ПЕРИОД ЖИЗНИ АБУ ХАНИФЫ

Аннотация

В данной статье раскрыты социально-философские взгляды на мир науки и творчества такого великого человека и самобытного гения, как Имами А‘зам, которые имеют множество нераскрытых аспектов, требующих обширного исследования. Его заслуги в сохранении и укреплении своеобразия особенностей исторического и культурного развития нашего народа, его общественно-философские взгляды не имеют себе равных. В статье раскрываются весьма тонкие исторические этапы формирования общественно-философских взглядов в жизни имама А‘зама.

Kirish. Mamlakatimiz diniy-madaniy hayotining turli jabhalarini ko‘z gudek ravshan qilib ko‘rsatuvchi, bunyodkorlik ishlarinin ado etish yo‘lida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi Imomi A‘zam hayoti va ijodi, ijtimoiy-falsafiy qarashlari, azaliy pand-nasihatlari muhim hayotiy ahamiyatga ega. Imomi A‘zam o‘z davrining muhim siyosiy-ijtimoiy hodisalari to‘g‘risida aniq, to‘g‘ri va maqsadli fikrlar bildirgan, jamiyatni isloh qilishni ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotning muhim omili deb biladi. Shu tariqa uning fikrining kengayishi shu darajada bo‘ldiki, islom dini kengayishining birinchi bosqichida yangi siyosiy madaniyatning vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Imomi A‘zamning g‘oyalari bugungi kunda ham qo‘llanilib, insonlarni musaffolikka, yurt obodligi va farovonligiga, ajdodlar diyoriga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va erk va mustaqillikka yo‘naltiradi.

Bugungi kunda tarixiy, ilmiy, madaniy, milliy qadriyatlarni, shu jumladan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarni yanada izchil va chuqurroq o‘rganish va qayta tiklash zarurati mavjud. Ushbu yo‘nalishda o‘zbek xalqi so‘nggi yillarda asta-sekin jahon hamjamiyatining teng huquqli a‘zosi aylanmoqda, chunki istiqloq sharofati bilan mamlakatimizning jahon hamjamiyati oldidagi obro‘ e‘tibori tobora oshmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Abu Hanifa ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ko‘proq islomiy axloq-odob, mardlik, shijoatkorlik, saxiylik, mehr-muruvvat va boshqa insoniy xislatlar islom fiqh ilmi bilan bog‘liq holda tadqiq qilinadi. Ushbu qarashlarning o‘ziga xos jihatlari bo‘lib, ular shaxs ma‘naviy olamiga, islom axloqiy qadriyatlar taraqqiyotga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Bunda islomiy axloqning ham inson hayotidagi o‘rni katta ekanligiga amin bo‘lamiz. Chunki, aynan «huquq o‘zida umumiy, xususiy va alohida elementlardan iborat abstrakt, hamda aniqroq bo‘lgan islom axloqiy xususiyatga ega hodisadir. Huquq - umuminsoniy va islom axloqiy madaniyat hodisasi, unda u yoki bu sivilizatsiya o‘z aksini topadi» [1]. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida «...oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai

bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur. Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim»[2], deb ta‘kidlanadi.

Har bir xalq va millat o‘zining tarixiy qadriyatlariga doimo katta ehtiyoj sezadi. Va bu qadriyatlardan avlodlarni axloqiy va ma‘naviy tarbiyalash uchun doimo va oqilona foydalaniladi. Islom dinining tarqalishi bilan o‘zbek xalqi uchun boshqa dunyoga oyna ochildi. Milliy madaniyat islom madaniyati bilan rang-barang uyg‘unlikni topdi. O‘z navbatida o‘zbek xalqining tarixiy qadriyatlari islom madaniyatini yanada boyitgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mutafakkirlarining qoldirgan tarixiy merosi milliy o‘zlikni anglash va sivilizatsiyalar rivojida muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, islom dinini milliy madaniyatdan, milliy madaniyatni islom dinidan ajratib tahlil qilmaslik kerak.

Islom ilmi va tarbiyasida Abu Hanifa mazhabiga deyarli har bir kishi muhtoj ekanini Islom dini tarixi isbotlagan. Islom dinining rivoji va shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shgan sunniy fiqh ilmi yetakchilaridan biri Imom Abu Hanifadir. Biz uchun milliy o‘zlikni anglash, milliy tafakkurni rivojlantirishda Abu Hanifaning ilmiy merosini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Imom Abu Hanifaning ismi va tug‘ilgan joyi haqida manbalarda turli ma‘lumotlar keltirilgan. Aksariyat manbalar Imom Abu Hanifaning asli Ajamdan ekaniga guvohlik beradi. Aksariyat ma‘lumotlar uning qobullik oliy martabali huquqshunos ekanligidan dalolat beradi.

Buyuk mutafakkir hayoti va ijodini o‘rganish nafaqat O‘zbekistonda olib borilgan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Rossiya, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarning olimlari ham Imom A‘zamning ijodiy merosiga katta ilmiy qiziqish bildirishgan. Bu borada Ali Abdulfattoh al-Magribiy, O‘zbek Yashar Nuri, Abu Amin Bilol Fillips, SH.Alyatutdinov, R.V.Pashkov, T.Xabibulin, B.C.Nersesyans, R.Botir va boshqalarni izlanishlarini eslash o‘rinlidir. Ushbu ilmiy

tadqiqotlarda Imom A'zam hayoti va faoliyatining turli qirralari, olim, ilohiyotshunos va huquqshunos sifatida asarlarining muhim xususiyatlari o'ziga xos tadqiqot mavzusiga aylangan [3].

Ta'lim muassasalarida notiqlar hayoti va ijodi, xalqimizning buyuk mutafakkirlari fikr va e'tiqodlarini malakali va maqsadli o'rgatish ta'lim va tarbiya va o'qitish metodikasining muhim masalalaridan biridir. Bugun o'zbek jamiyatining muhim mavzularidan biri Imomi A'zam mazhabini e'tirof etish va uning diniy g'oyalari malakali o'rgatishdir. Imomi A'zam asoschisi bo'lgan hanafiy mazhabi butun dunyo musulmonlari, xususan, O'zbekiston musulmonlarining birligi va hamjihatligiga katta hissa qo'shgan va mamlakatimiz aholisining aksariyati shu mazhabga mansubdir. Boshqa tomondan, ta'lim muassasalarida, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Din tarixi" fani o'qitilib, uning asosiy qismini islom dini tarixi tashkil etib, unda Imomi A'zam mazhabi alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, sivilizatsiyalar to'qnashuvi va diniy kelishmovchiliklar yoshlarning zo'ravonlik tendensiyalarini keltirib chiqardi. Bu masalalarning barchasi Imomi A'zam mazhabini tadqiq etish va o'rganish va ushbu mazhabning ma'naviy-axloqiy tarbiya uslubiyatini ishlab chiqish zarurligini ochib berdi, bu ham mavzuni tanlashga sabab bo'ldi.

Imomi A'zam yashagan davrdagi siyosiy, diniy va madaniy vaziyat keng ko'lamli masalalarni qamrab olganligi sababli, uni o'rganishning eng yaxshi yo'li – umumiy nuqtai nazardir. Shuning uchun o'qituvchi mavzuga oid masalalarni, ya'ni buyuk mutafakkir yashagan davrdagi siyosiy, diniy, madaniy muhitni qisqa va lo'nda amalga oshirishi kerak. Agar siyosiy voqealar bayoni Imomi A'zam va uning o'quvchilariga bog'liq holda, kitobxonlar uchun asosiy masalalarni tushunish osonlashadi. Imomi A'zam va uning oila a'zolari o'zbek zodagonlari hisoblangani va "tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, uning ajdodlari tarixiy Qobul yoki Bomiyonda, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Marv yoki Shimoliy Baxtarda yashagan. Abu Hanifa shu shaharda tug'ilib, tadbirkorlik bilan shug'ullanib, boyib ketganligi aniq va hanafiy mazhabi yetakchisi hayotiga oid boshqa ma'lumotlar umumiy ko'rinishda tasvirlangan. Imom Abu Hanifa No'mon ibn Sobit Imom A'zam hijriy 80-yilda, milodiy 699-yilga to'g'ri keladigan Kufa shahrida tug'ilgan, o'sha davrda Kufa ilm markazi hisoblangan. Imomi A'zam sivilizatsiyalar, ilm-fan va ilmlar beshigi hisoblangan o'z qishlog'ida tadbirkor oilasida voyaga yetgan, o'z davri allomalarining bilim va hikmatlaridan bahramand bo'lgan. Imomi A'zam yigirma yil 22 yoshida iroqlik ilohiyotchi Hammud ibn Abu Sulaymonga shogird tushib uning ta'limini oldi. Aytish joizki, XI asrning ikkinchi yarmi islom dini uchun juda nozik va voqealarga boy davr edi. Musulmonlar ko'p o'lkalarni zabt etganlar, islom dini ko'p tarqalgan edi. Mazkur ishlanmalar asosida xalqning tirikchiligi uchun ijtimoiy zarurat vujudga keldi.

Imom Abu Hanifa (r.a.) umrining 52 yilini Umaviylar davrida, 18 yilini Abbosiylar davrida o'tkazgan. Ya'ni, Imom ikki davlat yoki ikki guruh musulmonlar hukumatini yaratdi. Bu ikki davrda o'zlarida mavjud bo'lgan usul va usullar bilan jamiyat tinchligi va barqarorligini himoya qilishga harakat qildilar. Imomi A'zam ana shu bid'atchilar va bid'atchilarning oldini olish maqsadida o'z mazhabini tashkil qildilar, bu Rasululloh (s.a.v.)ning muhtaram sahobalarining fikriga o'xshash edi. Imomi A'zam mazhabi o'z davrida musulmonlar uchun yo'l ko'rsatuvchi bo'lib, ularga Qur'on va Sunnat nurida to'g'ri hayot yo'lini ko'rsatib, bugungi kungacha musulmon ummatining hayot yo'lini ko'rsatib kelmoqda. Imomi A'zam mazhabi o'tmishda musulmonlarning xavfsizligi va osoyishtaligi uchun xizmat qilgan va hozir ham xizmat qilmoqda.

Tahlil va natijalar. Imomi A'zam mazhabining paydo bo'lishi va rivojlanishining siyosiy, diniy va madaniy asoslarini o'rgatishda ustoz va shogirdlarning masalaning mohiyatini oson va to'g'ri anglay oladigan usuldan foydalanishi zarurligi ta'kidlanadi. Birinchi bosqichda ushbu mavzu ta'limning qaysi bosqichida o'qitilayotganligini hisobga olish kerak. Ya'ni, talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Imomi A'zam Abu Hanifaning «Al-fikh al-akbar» asarida komil inson muammosini bilim, ta'lim va axloqiylik sifatlarining uyg'unligida ifodalab, rostgo'ylik, to'g'rilik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, sadoqat, xushmuomalalik,

shirinso'zlik, saxovat, ximmatlik, tavoze, bilimga chanqoqlik, donishmandlik, xalollik, ezgulik kabi ma'naviy-axloqiy xislatlar inson komilligining meyorlari sifatida talqin qilinadi.

Qur'on va hadislar musulmon xalqining asosiy tamoyillari bo'lib, doimiy ravishda islohot va takomillashtirishni talab qiladigan ijtimoiy tuzum musulmonlar oldida ko'plab yangi ijtimoiy muammolarga duch keldi. Arablarning o'zlari, xususan Quraysh ahli o'rtasida xalifa etib tayinlanishida davom etgan siyosiy va hokimiyat kurashlari bilan bir qatorda qizg'in diniy-ma'naviy kurash ham bo'lib, islom ichida ko'plab jarayonlar yuzaga keldi. Bu masalalarning barchasini ustoz Imomi A'zamning fikrlarini mulohaza yuritishdan oldin ko'tarib chiqishi kerak, toki o'quvchilar Imomi A'zam mazhabining mazmuni-mohiyatini tushunib yetsinlar.

O'sha paytda xavoriy va botil firqalar xalqni yo'ldan ozdirmoqchi bo'ldilar. Bu bid'atlarning oldini olish maqsadida Imomi A'zam o'z mazhabini tuzdilarki, bu Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muhtaram sahobalarining fikri bilan bir xil edi, bu keyinchalik uning talabalar va olimlar bilan olib borgan darslari natijalaridan ma'lum bo'ldi Imomi A'zam mazhabi o'z davrida musulmonlar uchun to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatgan, Qur'on va Sunnat nurida to'g'ri yo'l ko'rsatgan bo'lsa, bugungi kungacha musulmon ummati uchun ham xuddi shunday yo'l ko'rsatib kelmoqda. Agar bugungi musulmon jamiyatiga adolatli nazar tashlaydigan bo'lsak, Imomi A'zam mazhabi o'tmishda musulmonlar xavfsizligi va tinchligi uchun xizmat qilgan va hozir ham ular uchun havodek zarur ekaniga guvoh bo'lamiliz.

Boshqa tomondan, Imomi A'zam mazhabi islom olamida alohida maqomga ega bo'ldi. Imomi A'zamga Alloh taolo tomonidan g'ayrioddiy aql va zakovat in'om etilgan, shariat va hayotiy ishlarda o'ta zukko bo'lgan, Qur'on va sunnat ko'rsatmalariga ko'ra odamlarga oson qilgan. Imomi A'zam davrida xavoriy va mo'taziliylarning fitnalari jamiyatni barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab oldi va odamlarning hammasi sarosimaga tushib, Allohning payg'ambari (s.a.v.) sunnatlari nurida Islom va hayotning haqiqati nima ekanligini bilmay qoldilar.

Xulosa va takliflar. Imomi A'zam Alloh bergan ilmi bilan bu ekstremist va muxolif guruhlar bilan cheksiz bahs va munozaralar olib borgan va atrofdagilar va umuman musulmonlar uchun hayot haqiqati bu mutaziliylar va havoriylarning siz uchun aytgani emasligini tushunib yetganlar, lekin haqiqat shuki, Alloh va Uning Rasuli bizni hidoyat qildilar. Biz bu haqiqatni Qur'on va Sunnatdan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) solihning sodiq sahobalarining xulq-atvoridan izlashimiz mumkin. Imomi A'zam musulmon ummatiga bu kimsalar o'zlarining buzul g'oyalari bilan sizlarni yo'ldan ozdirmoqchi, hayotingizni bezovta qilmoqchi, tinchligingizni buzmoqchi ekanini tushuntira oldi. Asl haqiqatga tashna bo'lgan dunyo musulmonlari bu mazhabni va Imomi A'zamning yondashuvlarini qabul qildilar.

Imom Abu Hanifaning ilmi va Umar Foruq va Ali ibn Abu Tolib va Abdulloh ibn Mas'uddan kelib chiqqan bo'lib, Imom Abu Hanifa fiqh va siyosat ilmidagi, shuningdek, o'z mamlakati va dunyodagi vaziyatni tahlil qilish va baholashda juda yaxshi edi. O'sha davrdagi Kufadagi siyosat, xuddi bugungi kunimiz kabi, juda murakkab va yot g'oyalari hujumi juda yaqqol ko'rinib turardi. Xavoriy va mo'taziliylar Kufa shahri va boshqa musulmon mamlakatlaridagi siyosiy va diniy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin edi va ba'zida bu g'arazgo'ylar muvaffaqiyatga erishdilar. Imom Abu Hanifa bu xavfni ertaroq anglab, ilm va mahoratini musulmonlarning dini va e'tiqodini saqlab qolish uchun sarfladi. Imom A'zam (r.a.) mazhabining bu sof ta'limoti islom olamida ko'plab tarafdor va muxlislarini topdi.

Abu Hanifaning ijtimoiy-axloqiy qarashlari ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. Bu quyidagicha namoyon bo'ldi:

birinchidan, u islomiy ilmni va poklikni moddiy boylikdan hamda har qanday mansablardan ustun qo'ya oldi;

ikkinchidan, islomiy ilm yolg'onga emas, haqiqatga asoslanishi lozim, degan fikrni ilgari surdi, yolg'on adolatning buzilishiga olib keladi, deb xulosa chiqardi va hayoti davomida unga amal qildi;

uchinchidan, ma'naviy-ruhiy tetiklikka erishish, yolg'ondan va boshqa buzg'unchi unsurlardan qutulishning yo'li

kishining o'ziga, uning islomiy kitoblar va islomiy ilm bilan qanchalik yaqin bo'lishiga bog'liq, degan xulosa chiqardi. Shuningdek, alloma bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi, deb aytadi. Haqiqatan ham, ilmsiz kishi o'zining mustaqil

fikriga ega bo'lolmaydi. Mustaqil fikrning bo'lmaganligi esa kishini o'zga g'oya, fikrlar mutesisiga aylantiradi. Xamirdan qanday shaklda zuvala olinisa, bilimsiz, xurofotga berilgan mute kishini ham istagan shaklda solish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Саидов А. Сравнительное правоведение.- Т.: Адолат, 1999. – С.454.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.
3. م، 1995 ال ئا ئية، الا ط بعة و هبة، م ك تبة: الا ناشر المغربي، ال ف تاح ع ب د علي: ت ا ل ي ف و درا سة، منخل الإ سلامية ال كلامية ال فرق: ب ك تاب ص: 340.; Öztürk, Yaşar Nuri, İmâm-ı Â`zam Savunması, Şehid bir önder için Apolocyu, – Ortak kaderli iki deha: Sokrat ve İmâm-ı Â`zam, İnkılâp, İstanbul, 2010. Sahife 246; Филипс Абу Амина Билял. Законы жизни мусулман: Эволюция фикха [Пер. с англ. Т. В. Гончаровой]. - М.: УММАН, 2002. – 280 с.; Аляутдинов Ш.Р. Ответы на ваши вопросы об Исламе / Шамил Аляутдинов; Канон. ред., корректор араб. текстов имам Илдар Аляутдинов. - 2. изд., дораб. - М. : Muslim Media Press: Фонд Мир образования, 2003 (1-я Обр. тип.). - 445 с.; Пашков Р.В. Исламское государственное право [Текст] : учебное издание / Р. В. Пашков. - Москва: Ruzayns, 2016. - 141 с.; Илм Усул ал-Фикх. / Пер. с турецкого Т. Хабибуллин. – М.: "Издательская группа САД", 2005.; Нерсесян В.С. История политических и правовых учений: Учебник для вузов. - М., Из-во НОРМА, 2002.; Батыр Р. Абу Нанифа: жизнь и наследие. Ч.1. / под. общ. ред. Д.В.Мухетдинова. - Ниж. Новгород-Ярославл: ИД «Медина», 2007. – 288 с.
4. Хожаев М. The Religious-Philosophical Legacy Of Ahmed Zeki Velidiy. The Light of Islam 2019 (4), 122.
5. MI Xujaev. Historical philosophy of Ahmed ZEKIVelidi. Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (12), 126-132.
6. Muminjon Hojaev. The religious-philosophical legacy of Ahmed ZEKI Velidiy. The Light of Islam. 2019. p. 26.
7. Хужаев Муминжон Исохонович. Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 5, Issue:8, August 2020.
8. Muminjon Xujaev. Mahmudkhuja Behbudiy As A Leader Of Jadid Reforms. The Light of Islam. 2020. 3стр. 39-47.
9. Муминжон Исохонович Хужаев. Некоторые особенности этических взглядов Ахмет-Заки Валидова. 2015. Credonew. 2-2. стр.3-3.
10. Хўжаев Мўминжон Исохонович. Аҳмад Заки Валидийнинг диний-фалсафий меросининг илдизлари. «Интернаука» 2018. Том.33. № 21(33). – С. 177-182.
11. Xujaev Muminjon Isoxonovich Ahmad Zeki Velidi's Research on the Translations of the Koran. Miasto Przyszłości Kielce 2022. P. 6-8.



Дмитрий МОХОРОВ,

Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого, кандидат юридических наук, доцент Высшей школы юриспруденции и судебно-технической экспертизы
E-mail: mokhorov@mail.ru

На основе рецензии кандидата педагогических наук, доцента Т.Барановой

METHODS OF SOCIAL PROJECTS AND SOLVING PRACTICAL PROBLEMS IN THE COURSE «FUNDAMENTALS OF ANTI-CORRUPTION EDUCATION»

Annotation

Any activity of public authorities and institutions formed by them is aimed at solving issues of current importance for a wide range of people living in the territory of a certain state. As part of the fight against corruption, in order to protect the rights and interests of citizens, it is necessary to change not only the regulatory component of state regulation of anti-corruption, but also the use of modern forms and methods of the educational process, taking into account the achievements of science, technology, and the use of digital technologies.

Keywords: Corruption, anti-corruption education, legal awareness, practice-oriented approach.

МЕТОДЫ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ И РАЗРЕШЕНИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В КУРСЕ «ОСНОВЫ АНТИКОРРУПЦИОННОГО ПРОСВЕЩЕНИЯ»

Аннотация

Любая деятельность органов публичной власти и учреждений, сформированных ими, направлена на решение вопросов, имеющих актуальное значение для широкого круга лиц, проживающих на территории определенного государства. В рамках противодействия коррупции для защиты прав и интересов граждан необходимо изменение не только нормативно-правовой составляющей государственного регулирования противодействия коррупции, но и использования современных форм и методов образовательного процесса с учетом достижений науки, техники, применения цифровых технологий.

Ключевые слова: Коррупция, антикоррупционное просвещение, правосознание, практико-ориентированный подход.

“KORRUPSIYAGA QARSHI TA’LIM ASOSLARI” KURSIDA AMALIY MUAMMOLARNI YECHISH VA IJTIMOVIY LOYIHALAR METODLARI

Annotatsiya

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va ular tomonidan tuzilgan muassasalarning har qanday faoliyati muayyan davlat hududida yashovchi aholining keng doirasi uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan. Korruptsiyaga qarshi kurashish doirasida fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida korruptsiyaga qarshi kurashni davlat tomonidan tartibga solishning nafaqat normativ-huquqiy tarkibini o‘zgartirish, balki fan, texnika va raqamli texnologiyalar yutuqlarini inobatga olgan holda ta’lim jarayonining zamonaviy shakl va usullaridan foydalanish ham zarur.

Kalit so‘zlar: Korruptsiya, korruptsiyaga qarshi ta’lim, huquqiy ong, amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv.

Введение. Проблемы, стоящие перед осуществлением программ антикоррупционного просвещения, определяют целый ряд социально-правовых ориентиров, достижение которых актуально в современный период времени и связано с целями, стоящими перед этим видом государственной активности в области борьбы с коррупцией. Для целей формирования антикоррупционного мировоззрения предполагается рассмотреть «практико-ориентированный подход», метод проектов и метод конкретных ситуаций, используемые в антикоррупционном просвещении.

Материалы и методы. В основе исследования лежат нормативно-правовые акты стран Содружества Независимых государств, постановления Экспертного совета Межпарламентской Ассамблеи СНГ по науке и образованию и Объединенной комиссии при Межпарламентской Ассамблее СНГ по гармонизации законодательства в сфере безопасности и противодействия новым вызовам и угрозам, разработанная в контексте Российско-узбекского сотрудничества в области антикоррупционного просвещения Модельная сетевая программа формирования антикоррупционных навыков «Основы противодействия коррупции». В исследовании использовались методы изучения педагогического опыта, сравнения и анализа. Рассмотрены методы проектов и конкретных ситуаций позволяющих обеспечить активное

включение студентов в реальные ситуации антикоррупционного взаимодействия, с целью

симулирования условий для получения социокультурного опыта.

Результаты и обсуждение. Применение антикоррупционного просвещения увеличивает объем знаний правового характера у граждан государства и позволяет расширить представления членов общества об актуальных юридических проблемах, стоящих перед государством.

Воздействуя в информационном плане на каждого человека в контексте реализации его доступа к основам юридических знаний, антикоррупционное просвещение создает предпосылки для реализации всего спектра прав и свобод каждого члена общества. Антикоррупционное просвещение расширяет возможности понимания рядовым гражданином государства комплексности и системности правовых сведений и создает условия для регулирования нормами законов отношений, складывающихся в сфере противодействия коррупции. Способствует формированию идеологической убежденности гражданина в причастности его к осуществлению правовых идей и концепций, содержащих основные положения антикоррупционной направленности. Создает обширное поле общедоступных правовых знаний, существенно значимых для каждого члена социума в рамках общественных отношений, участником каковых он является[1].

Актуальность разработки современных программ антикоррупционного просвещения была предметом

рассмотрения Экспертного совета Межпарламентской Ассамблеи СНГ по науке и образованию[2] 19 октября 2023 года и Объединенной комиссии при Межпарламентской Ассамблее СНГ по гармонизации законодательства в сфере безопасности и противодействия новым вызовам и угрозам[3], которая состоялось 28 марта 2024 года. В совместном докладе с ректором Андижанского педагогического института Бахтиером Расуловым автор отмечает необходимость создания модельных сетевых программ по противодействию коррупции.

Антикоррупционное просвещение в современном образовательном процессе предполагает формирование у обучающихся знаний, умений и навыков.

Сегодня, с учетом сложившихся тенденций, антикоррупционное просвещение надлежащим образом формирует антикоррупционные компетенции посредством практикоориентированного образования.

Практикоориентированные технологии в настоящее время широко используются в ходе обучения студентов, однако в контексте проводимого исследования мы особо обращаем внимание на технологии, которые целенаправленно воздействуют на процесс осознанного формирования личности. По нашему мнению, с учетом ранее принятой интерпретации категории «практико-ориентированный подход» именно метод проектов и метод конкретных ситуаций (case-study) позволяют обеспечить активное включение студентов в реальные ситуации антикоррупционного взаимодействия, то есть симулировать условия для получения социокультурного опыта. Активное обучение способствует правильному восприятию теоретического материала и позволяет быстрее адаптироваться к реальной действительности в профессиональной деятельности.

По мнению Вербицкого А.А. принципами активного обучения являются: «принцип имитационного моделирования конкретных условий и динамики профессиональной деятельности во всех ее многообразиях; принцип игрового моделирования содержание и форм профессиональной деятельности; принцип совместной деятельности; принцип диалогического общения; принцип двуплановости; принцип проблемности содержания имитационной модели и процессы ее развертывания в игровой деятельности»[4].

В рамках сетевого взаимодействия России и Узбекистана в сфере высшего профессионального образования нами была разработана Модельная сетевая программа формирования антикоррупционных навыков «Основы противодействия коррупции», отвечающая принципам активного обучения и применяемому методу проектов и методу конкретных ситуаций.

Основная цель программы состоит в «получении новых профессиональных компетенций в области противодействия коррупции: состоянии коррупции в национальном государстве, ее причинах и основных направлениях противодействия ей, о проблемах и перспективах разработки, применения государственных антикоррупционных стратегий и специфики реализации независимых антикоррупционных инициатив в контексте антикоррупционного просвещения»[5].

В процессе реализации программы решаются следующие задачи:

1. Изучение комплекса антикоррупционной активности в области просвещения для реализации системного анализа процесса распространения антикоррупционных установок в массовом сознании;

2. Осознание социально-правовой опасности феномен коррупции в системе общественных отношений современного государства и значимости антикоррупционной деятельности;

3. Развитие антикоррупционного мировоззрения личности, формирование представлений о причинах и основных направлений противодействия коррупции;

4. Обеспечение системного усвоения слушателями основных положений теоретических, практических,

правовых, организационных и педагогических основ противодействия коррупции.

5. Выработка навыков и механизмов антикоррупционного воздействия в контексте осуществления антикоррупционной просветительской деятельности.

Сегодня «ведущими методами обучения должны стать методы практикоориентированной направленности, которые позволят в процессе обучения актуализировать приобретение социокультурного опыта, тем самым обеспечивая отказ от коррупционных действий в будущем и формирование необходимых навыков, ориентированных на выявление коррупционных рисков и их минимизацию популяризация антикоррупционного поведения средствами информационно-просветительских технологий, которые направлены на привлечение внимания к коммуникации, достижению восприятия и усвоению информационного сообщения в контексте противодействия коррупции, сохранению информации и её использованию для дальнейших практических действий»[6].

В преподавании курса «Основы противодействия коррупции»[7] используются традиционные и современные практикоориентированные образовательные технологии:

лекции, интерактивные лекции;
практические занятия в форме семинаров;
публичные выступления с презентацией материала;
работа с электронными ресурсами и информационно-правовыми системами;

творческие групповые работы (социальные проекты);
практические занятия в форме решения проблемных социокультурных задач и обсуждения кейсов и мини-кейсов (решение практической задачи на основе действующих нормативно-правовых актов и конкретных ситуаций).

Таблица 1. Критерии оценивания кейсов и мини кейсов:

Оцениваемый элемент	Максимальное количество баллов
1. Научно-теоретический уровень выполнения кейс-задания и выступления	Устанавливается с учетом используемой балльно-рейтинговой системы
2. Полнота решения кейса	
3. Степень творчества и самостоятельности в подходе к анализу кейса и его решению	
4. Использование нормативно-правовых актов	
5. Доказательность и убедительность	
6. Форма изложения материала (свободная; своими словами; грамотность устной или письменной речи)	
7. Наличие/отсутствие языковых и речевых ошибок	
8. Полнота и всесторонность выводов	
9. Наличие собственных взглядов на проблему	
10. Системное и критическое мышление	
11. Социокультурный опыт	
12. Регламент выступления	
13. Ответы на вопросы	
Итого	X

Таблица 2. Критерии оценивания творческих групповых работ (социальных проектов)

Оцениваемый элемент	Максимальное количество баллов
1. Выбор темы, наличие плана и способ изложения материала	Устанавливается с учетом используемой балльно-рейтинговой системы
2. Использование нормативно-правовых актов	
3. Умение коммуницировать и работать в команде	
4. Актуальность проекта	
5. Аргументированность	
6. Практическая значимость	
7. Междисциплинарность	
8. Вариативный критерий 1	
9. Вариативный критерий 2	
10. Ответы на вопросы	
Итого	X

Необходимо отметить, что дополнительным антикоррупционным инструментом являются электронные образовательные платформы, на которых обучающиеся имеют возможность в самостоятельном формате разрабатывать проекты антикоррупционной направленности и решать конкретные ситуационные задачи в игровом режиме с последующей рефлексией принятых решений. Системный контроль сформированности уровня антикоррупционной компетенции позволяет определять степень усвоения знаний и навыков обучающихся, а также фиксировать вовлеченность в процесс антикоррупционного просвещения.

Заключение. При анализе существующей системы правового образования и антикоррупционного просвещения, необходимо учитывать и то, что, если в стране уже существуют успешно функционирующие программы, которые способствуют повышению правовой грамотности населения, это следует отметить, как основу для дальнейшего развития[8]. Современные программы антикоррупционного просвещения должны ориентироваться для формирования

антикоррупционного мировоззрения «практико-ориентированным подходом», методами проектов конкретных ситуаций, позволяющих обеспечить активное включение студентов в реальные ситуации антикоррупционного взаимодействия, с целью симулирования условий для получения социокультурного опыта.

Проблемы реализации эффективных мер антикоррупционного просвещения представляют собой сложный комплекс взаимосвязанных подходов и способов, обеспечивающих достижение позитивных целей при проведении в жизнь разнообразных аспектов антикоррупционной направленности, оказывающих положительное влияние на правовое антикоррупционное сознание населения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мохоров Д.А. Формирование профессиональной культуры современного юриста / Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar / Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation-MARCH №3 (2024) Vol. 2 No. 3 (2024)
2. https://lex.spbstu.ru/news/zasedanie_ekspertnogo_soveta_po_nauke_i_obrazovaniu_pri_mezghparlamentskoy_assamblee_sng/
3. https://lex.spbstu.ru/news/obedinennaya_komissiya_pri_mpa_sng_po_garmonizacii_zakonodatelstva_v_sfere_bezопасnosti/
4. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. М.: Высшая школа, 1991. С.130 – 137
5. <https://lms.spbstu.ru/course/view.php?id=144>
6. Мохоров Д. А. Теоретические и практические основы антикоррупционного просвещения: Монография / Андижанский государственный педагогический институт; Институт передовых исследований и экспертизы. — Андижан; СПб.: Издательско-полиграфическая ассоциация высших учебных заведений, 2024. — 188 с. - ISBN 978-5-91155-275-6. - DOI 10.52565/9785911552756. - EDN XARWLT.
7. <https://lms.spbstu.ru/course/view.php?id=144>
8. Мохоров Д.А. Антикоррупционное образование и просвещение / Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research, 2023, № 6 (74)



Shahzodbek MUQIMOV,
TATU Qarshi filiali assistenti
Zuhriddin DILMURODOV,
TATU Qarshi filiali assistenti

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori v.b., PhD N.Ergashev taqrizi asosida

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA “KOMPYUTER TARMOQLARI” FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI

Аннотация

Ushbu maqolada raqamlashtirish sharoitida “kompyuter tarmoqlari” fanini o‘qitishning zamonaviy metodikasi hamda litsey kollej va oliy o‘quv yurtlarining talabalariga “Kompyuter tarmoqlari” fanini o‘qitishning zamonaviy metodikasi bayon etilgan. Ushbu metodikalor hozirgi kunda talabalarga dars jarayonining qiziqarli o‘tishi va bilim olishida poydevor vazifasini bajarishi keltirilgan. Bundan tashqari, talabalarni “Kompyuter tarmoqlari, Internet va multimedia texnologiyalari” fanidan o‘qitishda biz modulli texnologiyadan foydalanishni taklif etiladi. Shuningdek, bunda tabaqalashtirilgan yondashuv va kompetentsiyaga yo‘naltirilgan vazifalar to‘plami qo‘llanilgan hamda fanning asosiy modullari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kompyuter tarmoqlari, zamonaviy metodika, protokollar, tarmoq qurilmalari.

СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ “КОМПЬЮТЕРНЫЕ СЕТИ” В УСЛОВИЯХ ОЦИФРОВКИ

Аннотация

В данной статье изложена современная методика преподавания предмета “компьютерные сети” в условиях оцифровки, а также современная методика преподавания предмета “компьютерные сети” студентам лицеев колледжей и вузов. Эти методики в настоящее время предоставляются учащимся, чтобы сделать процесс урока увлекательным и послужить основой для приобретения знаний.

Кроме того, при обучении студентов по предмету “компьютерные сети, Интернет и мультимедийные технологии” нам предлагается использовать модульную технологию. В нем также используется дифференцированный подход и набор компетентностно-ориентированных задач, а также представлены основные модули науки.

Ключевые слова: Компьютерные сети, современные методики, протоколы, сетевые устройства.

MODERN METHODOLOGY FOR TEACHING THE SCIENCE OF “COMPUTER NETWORKS” IN THE CONTEXT OF DIGITIZATION

Annotation

This article describes the modern methodology for teaching “computer networks” in the context of digitization and the modern methodology for teaching “computer networks” to students of Lyceum colleges and universities. These methodologies are currently presented to students as an interesting passage of the course process and acting as a foundation in the acquisition of knowledge.

In addition, when teaching students in the subject “Computer Networks, Internet and multimedia technologies”, we are offered to use modular technology. It also used a differentiated approach and a set of competency-oriented tasks, as well as the main modules of science.

Key words: Computer networks, modern methodology, protocols, network devices.

Kirish. Ta’limni raqamlashtirish va uni rivojlantirish axborot texnologiyalar o‘qituvchisi uchun alohida rol o‘ynadi, chunki uning ishtirokida o‘quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalari joriy etilmoqda. Bilamizki, hozirgi kunda maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarining barchasida yo‘nalishidan qat’iy nazar informatika fani yoki axborot texnologiyalarining boshqa fanlari o‘tib kelinmoqda. O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning tobora kengayib borishi fan o‘qituvchisini tayyorlash rolining sezilarli darajada oshishi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shu o‘rinda U.Yo‘ldashev, D.Abduraximov o‘z tadqiqotlarida axborot texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanish, yagona axborot makonini yaratish hamda resurs va gibrid, intellektual tizimlararo munosabatlar, ekspert-o‘qitish tizimlarini o‘rgangan. Ta’limni raqamlashtirish va AKT kompetensiyasini shakllantirish uchun belgilangan shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi nuqtai nazaridan biz pedagogika ta’limi tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar tahlilini amalga oshiramiz. Keyingi paytlarda bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida davlatimiz tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarini tayyorlashning boshqa tendensiyalari va umuman butun ta’lim

tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bir qatorda, faol ishlab chiqilgan va qo‘llaniladigan professional metodika tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. F.M.Zakirova virtual didaktik kartochkalarni yaratish, informatikani o‘qitish metodikasi hamda elektron o‘quv resurslarini yaratish va ularga qo‘yiladigan talablarini ishlab chiqqan.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda o‘quvchilarga informatika asoslarini fundamental fan sifatida o‘rgatish, balki amaliyot shuni ko‘rsatadiki, informatika o‘qituvchisi talabalarga Axborot texnologiya fanlarining foydalanuvchi tomonini ham o‘rgatishi kerak (matn, ovoz, video bilan ishlash uchun dasturlar bilan ishlash, dasturiy ta’minot va multimedia dasturlarini yaratish va boshqalar), shuningdek ularni turli xil Olimpiada, konferentsiyalar, informatika va axborot texnologiyalari fanlari bo‘yicha tanlovlarga tayyorlashi zarur.

Tahlil va natijalar. Kelajakdagi informatika o‘qituvchilarini o‘qitishda professional blokning asosiy fanlaridan biri bu “kompyuter tarmoqlari, Internet va multimedia texnologiyalari” fanidir. Ushbu fan informatika fanining asosiy yo‘nalishlarini birlashtiradi: informatika nazariy asoslari (har xil turdagi ma’lumotlarni o‘lchash, kodlash va boshqalar); dasturlash (HTML, XML, CSS, Less, JavaScript, ActionScript va boshqalar); multimedia (grafika, audio, video va boshqalar); tarmoq texnologiyalari (lan, Wi-Fi, WiMAX, HTTP, TCP/IP,

POP va boshqalar); shuningdek, ushbu fan bo'yicha talabalar o'zlarining birinchi professional dasturiy ta'minot dasturlari va mahsulotlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. E'tibor bering, yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlarning har biri o'ziga xos qiyinchiliklarga, o'quvchilarning intellektual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'rganishga o'ziga xos yondashuvga ega. Har bir talaba bir vaqtning o'zida yuqori darajadagi dasturlash, dizayn va murakkab animatsiya yoki video tahrirlash bilan shug'ullana olmaydi.

Shuning uchun talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan va shu bilan ularga informatika "o'z" yo'nalishini chuqur o'rganishni ongli ravishda tanlashga yordam beradigan o'quv metodologiyasini ishlab chiqish kerak. Shu sababli, talabalarni "kompyuter tarmoqlari, Internet va multimedia texnologiyalari" fanidan o'qitishda biz modulli texnologiyadan foydalanishni taklif qilamiz, bunda tabaqalashtirilgan yondashuv va kompetensiyaga yo'naltirilgan vazifalar to'plami qo'llaniladi. Quyida fanning asosiy modullari keltirilgan:

1. Multimedia texnologiyalari.

Multimedia texnologiyalari, turli turlardagi ma'lumotlarni (matn, tasvirlar, audio, video va boshqa shakllardagi ma'lumotlar) integratsiyalash, saqlash, tarqatish va qo'llab-quvvatlashda qo'llaniladigan texnologiyalarni ifodalaydi. Bu texnologiyalar, xalqaro axborot tizimlaridan, mobil ilovalarga, san'at va gibridd media loyihalariga qadar ko'p yo'nalishlarda qo'llaniladi.

Kompyuter grafikasi. Grafik dizaynga kirish: hajmi, shakli, rangi, tuzilishi, joylashuvi, shrifti, tarkibi. Rang modellari, fotoformlar: intuitiv, qo'shimcha, subtractiv, sezgi modellari; rang profillari, aralash ranglar; bo'yoqning bir-biriga mos kelishi, teginish, rastri chiziq, Maur. Rastri grafikalar: bitmap tasvirlarining ta'rifi, o'lchamlari, formatlari; Windows OS, OC LINUX-da raster grafikalarining asosiy vositalari. Vektorli grafikalar: vektorli tasvirlarning ta'rifi, o'lchamlari, formatlari; Windows OS, OC LINUX-da vektorli grafikalarining asosiy vositalari. Nashriyot: nashriyot tizimlarining maqsadi, tuzilishi, asosiy xususiyatlari. Bosib chiqarish turlari: bosib chiqarishning asosiy turlari; afzalliklari va kamchiliklari; nashriyotdagi Amaliyotlar va Laboratoriyalar:


zamonaviy Bosmaxonalar. Audio bilan ishlash. Raqamli audio formatlari, ovoz komponentlarini ishlab chiqarishning texnologik jarayonining bosqichlari (yozib olingan materialni yozib olish, qayta ishlash, shovqinni o'chirish, fonogrammani o'rnatish, chastotani qayta ishlash, effektlarni qo'llash, audio faylni tinglash va formatda saqlash). Windows va OC LINUX audio muharrirlarida ishlash. Video bilan ishlash. Raqamli, analog video. Videoning asosiy xususiyatlari (rang chuqurligi, tasvir sifati, ekran o'lchamlari, ramka chastotasi), asosiy video formatlari. Chiziqli va chiziqli bo'lmagan o'rnatish. Windows va OC LINUX video muharrirlarida ishlash. Bu texnologiyalar, multimedia sohasidagi turli yo'nalishlarda qo'llaniladi va ma'lumotlarni turli shakllarda integratsiyalash va ko'rsatish imkonini ta'minlaydi. Multimedia texnologiyalari, axborot texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalarga va yangiliklarga olib keladi.

2. Kompyuter tarmoqlari fanining o'qitish metodikasi.

Axborot texnologiyalarining yana bir muhim bir yo'nalishi Kompyuter tarmoqlari fanining o'qitish metodlari bilan tanishib chiqsak. Kompyuter tarmoqlari fanining o'qitish metodikasi, misol uchun, universitet yoki maktab darslarida, fan o'qituvchilar tomonidan tanlanadi va taqdim etiladi. O'quvchilarga kompyuter tarmoqlari sohasidagi muloqot va ma'lumot almashishni o'rgatish maqsadida tuziladi. Bu fan, tarmoqning umumiy prinsiplari, protokollar, tarmoq xususiyatlari, tarmoq topologiyalari, tarmoq uskunalari, tarmoq xavfsizligi, va boshqa bir qator muhim mavzularni o'z ichiga oladi. Quyidagi metodikalar o'quvchilarga kompyuter tarmoqlari fanini o'rgatishda foydalaniladigan umumiy yo'nalishlardir:

Teorik Darslar:

Teorik dars deganda albatta qaysi fanni o'qitilishiga qarab unga mos teorik darsliklar o'qituvchi tomonidan tanlanadi yoki tayyor darsliklardan foydalaniladi. Kompyuter tarmoqlari fanining asosiy konseptlarini, prinsiplarini va umumiy xususiyatlarini o'rgatishga yo'naltirilgan. Bu jarayon o'quvchilarga, avvalo, tarmoq tuzilishi, protokollar, IP manzillar, subnets, tarmoq uskunalari, va boshqa asosiy mazmunlarni taqdim etadi.



1-rasm. Tarmoqni tashkil etish.

O'quv jarayonlarida ayniqsa Kompyuter tarmoqlari fanini o'rganish uchun amaliyot va laboratoriya xonalarining o'zni beqiyos. Talabalar teorik bilimlarini amaliyotlarda qo'llash orqali mustahkamlab, tarmoq ustida amaliy mashg'ulotlarni bajarishadi. Bu jarayon, o'quvchilarga tarmoqni o'rganish va boshqarish jarayonlarini tajriba qilishlari uchun imkoniyat yaratadi. Albatta bunda tarmoqni tashkil etish uchun kerakli quurilmalar bn jihozlangan bo'lishi muhim. Tarmoq quurilmalaridan router, switch, hub, server va boshqa quurilmalarni misol keltirsak bo'ladi. O'quvchilarga kompyuter tarmoqlari fanini o'rganishda texnik resurslardan samarali foydalanish juda muhimdir. Virtual laboratoriyalar, tarmoq simulyatorlari, tarmoq uskunalari modellari, va boshqa texnik vositalar tarmoqning amaliyotini o'rganishda o'quvchilarga yordam bera oladi.

O'qituvchilar o'quvchilarga teorik materiallar, tushunchalar va ma'lumotlar ko'rsatish orqali tarmoqning qanday ishlab chiqishini va boshqa tarmoq tuzilmalari haqida ko'proq tushuntirishlar olib boradi. Bunda ma'lum bir tarmoq quurilmalariga izohlar, savol va javoblar keltirib o'tilishi mumkin.

Projekt Ishlari:

O'quvchilarga tarmoqning amaliyotda qanday tuzilishini tushunish uchun tarmoq loyihalari va dasturlarni ishlab chiqishlarini qo'llash, shuningdek, tarmoq muammolari va ularga yechim topish bo'yicha o'quvchilarni ilg'or qilish uchun projekt ishlari ham amalga oshiriladi. O'quvchilar mustaqil o'zlarining tajribalarini, loyihalarini, yechimlarini va o'zlarining o'rganish jarayonlarini nashr qilishlari, masalan, blok, konferenslar yoki forumlar orqali, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun muhimdir. Bunda, o'quvchilarga o'zlarining o'rganishda qanday o'zlashtirishlari va talablarini qanday hal qilishlari kerakligi, umumiy jamoat bilan almashishlarini o'rganishadi.

Online resurslar va texnologiyalar:

O'quvchilarni yangi texnologiyalardan foydalanish va so'nggi yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida, online resurslar, virtual laboratoriyalar, va texnologik vositalardan foydalaniladi. Yana bunga misol qilib har xil turdagi web saytlar yaratib o'yin shaklida, savol javob tariqasida bilimlarini tekshirib mustahkamlashlari mumkin.

O'quvchilar o'zlarini o'rganish jarayonida boshqarilishi, darslar va laboratoriyalar monitoring qilinishi, maslahatlarni

boshqarish va o'quvchi progressini baholash kabi metodlar tarmoqlar fanini o'qitishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hozirgi kunda inter va axborot ushbu metodikalardan keng foydalanish ta'lim tizimini va kompyuter tarmoqlari fanining o'qitishda oz bo'lsada ijobiy ta'sir o'tkazadi degan umiddamiz.

keng foydalanish ta'lim tizimini va kompyuter tarmoqlari O'quvchilarga kompyuter tarmoqlari fanini o'rganishda ta'lim sifati muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar, o'quvchilar bilan maslahatlashish, ba'zi mavzularni qayta tushuntirish va o'quvchilarni qiziqtirish uchun motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Musaev M.M. "Kompyuter tizimlari va tarmoqlari". Toshkent.: "Aloqachi" nashriyoti, 2013 yil. 8 bob. 394 bet. – Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.
2. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar.– T.: Nihol, 2016.
3. Berdieva S.M., Imomova Sh.M. Informatika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Fan, texnologiya va ta'lim. 2018.
4. Степанов А.Н. Архитектура вычислительных систем и компьютерных сетей. Учеб.пособие. - СПб.: Питер, 2007, 512 с.
5. Пескова С.А., Кузин А.В. Сети и телекоммуникации. Учеб. пособие. -М.:Академия, 2008, 352 с.
6. Абдихалык Ш.С. Методы и средства моделирования атак в больших компьютерных сетях // Студенческий вестник. 2023. № 16-11 (255). С. 51-57.
7. Абдулкадыров У.У., Джабраилов И.А., Амерханова З.Ш. Технологии информационной безопасности компьютерных сетей и тенденции их развития // Журнал прикладных исследований. 2023. № 6. С. 25-29.
8. Абдуллин С.Н. Предотвращение незаконного оборота наркотических средств и их аналогов с использованием компьютерных технологий (сети интернет) // Новый юридический вестник. 2023. № 2 (41). С. 42-45.
9. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.



Ra'noxon MO'MINOVA,
Qo'qon DPI dotsenti,
Masturaxon UMAROVA,
Qo'qon DPI magistranti
E-mail: ranokhon29@gmail.com

Qo'qon DPI biologiya kafedrasida dotsenti M.Axmadjonova taqrizi ostida

БИОЛОГИЯ ТА'ЛИМИДА О'QUVCHILAR MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI MAZMUNI

Аннотация

Maqolada biologiya ta'limida o'quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari imkoniyatlari, o'qitish didaktik maqsad va vazifalari asosida mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil etish asosida mantiqan, tahliliy fikrlash va o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish asosida o'quv bilish faoliyatini tarkib toptirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ishlar mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, biologiya o'qituvchilarining shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, o'quvchilarni o'quv bilish faoliyati.

СОДЕРЖАНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ В БИОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье раскрываются возможности уникальных педагогических особенностей организации самостоятельной работы студентов в биологическом образовании, умения логически, аналитически мыслить и самоконтроля на основе организации самостоятельной и творческой работы исходя из дидактических целей и задач обучения. Выделены способы создания содержания учебной деятельности на основе обучения.

Ключевые слова: Содержание самостоятельной работы, ее формы обучения, методы, средства, саморазвитие учителей биологии как личности, учебно-познавательная деятельность учащихся.

CONTENT OF ACTIVITIES OF STUDENTS TO RECEIVE INDEPENDENT EDUCATION IN BIOLOGY EDUCATION

Annotation

The article reveals the possibilities of unique pedagogical features of organizing independent work of students in biological education, the ability to think logically, analytically and self-control based on the organization of independent and creative work based on didactic goals and learning objectives. Methods for creating the content of educational activities based on learning are highlighted.

Key words: The content of independent work, its forms of teaching, methods, tools, self-development as a person of biology teachers, educational cognitive activity of students.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'qituvchilarning pedagogik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy fanlar, jumladan, biologiya fanini o'qitish samaradorligini o'ttirish va talabalarni o'quv bilish faoliyatini samarasini oshirishda mustaqil ta'limni tashkil etish va kasbiy faoliyatini shakllantirishda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish kabi imkoniyatlar biologiyani o'qitishda mustaqil ta'lim olishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Mustaqil ish o'quvchilarning o'quv faolligini oshirishning samarali usullaridan biri bo'lib, u nafaqat bilimlarni ongli va doimiy o'zlashtirishga ta'sir qiluvchi, balki o'quvchilarda ular uchun ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi intellektni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqil ish muammosi bo'yicha psixologik, pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, talabalar mustaqil ishining mohiyati, mazmuni va shakllarini aniqlashda turli xil yondashuvlar mavjud. Oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "biologiya fanlarini chuqur va mustaqil ta'lim o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar yangi avlodlarini yaratish, o'quvchilarni darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllanishini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarga asoslanib, biologiya fanini o'qitishda o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini takomillashtirishning innovasion topshiriqlar bazasini ishlab chiqish va didaktik mazmunini aniqlash, biologiyani o'qitish mazmunida o'quvchilarni o'z hayotiy faoliyatini to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish orqali biologik tafakkurini rivojlantirishga asos bo'luvchi bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga

asoslangan metodik tizimni uzviylik va izchillikda boshqarish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'quvchilarning mustaqil o'quv ishlarini samarali pedagogik boshqarish o'qitish jarayonida ijodiy faollik va mustaqillikning didaktik prinsipini ro'yobga chiqarish yo'llaridan biridir. O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etish usullari oliy maktabda o'qitish nazariyasi va amaliyotiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlarda ochib berilgan. V.P.Bespalko, E.Y.Golanta, S.I. Zinoyev, I.P. Kobilotskiy, T.V. Kudryavseva, N.V. Kuzmina, R.A. Nizamova, N.D. Nikandrova, I.T. Bog'dornikova, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan mustaqil ishlarni mazmuni, o'quv jarayonida qo'llashning metod va vositalari yoritib o'tilgan. Masalan, L.B.Itelsonning tadqiqotlarida mustaqil ishlashga o'qitish bilimlarni to'plash jarayonini boshqarish, kognitiv faollikni tashkil etish, tadqiqot faolligini imulatsiya qilish, kognitiv tuzilmalarni to'plash jarayonini boshqarish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini oshirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini rivojlantirishning individual ishlash metodlari izohlab berilgan.

Biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish va o'tkazishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari: A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullayev, J.O.Toshpo'latova, M.X.Lutfullayev, G.S.Ergasheva, N.J.Toshmatov, M.N.Ibodovalar tomonidan tadqiq etilgan. Uzlüksiz ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil qilish, ta'lim oluvchilarda mustaqil o'quv malaka va ko'nikmalarini shakllantirish muammolari bo'yicha A.Arangelskiy, V.P.Bespalko, E.P.Slastenin, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, J.Tolipova kabi olimlar izlanishlar olib borganlar. R.Saidov tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish Esipov

B.P, A.K.Gromcheva va Y.U.Derajnelar mustaqil ta'limga o'rtta maxsus ta'lim tizimida bo'lajak kichik mutaxassislarining kasbiy shakllantirish omili sifatida qarab, uning tashkiliy va uslubiy muammolari haqida izlanishlar olib borgan. «O'quvchilar bilimlarni mustaqil, ijodiy darajada egallashi uchun ular o'zining bilish faoliyati predmetini va u bilan qanday ishlashni bilishi kerak. Bunga ularni maxsus o'rgatish lozim». O'quvchilar biologik ta'lim bo'yicha mustaqil o'quv – ijodiy faolligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'qitish qonuniyatlarini o'zlashtirishi mumkin bo'lgan alohida shakl va usullarini ajratish kerak. Ta'limning ma'lum ketma-ketligi va usullaridan iborat bo'lgano'qitish metodlari o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatuvchi ta'lim uchun xizmat qiladi, balki o'zi ham o'zlashtirish predmeti sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday mustaqil ish o'quvchilarni qo'ldan keladigan va ularning diqqatini jalb eta oladigan hamda o'quv dasturida mos bo'lishi kerak. Har bir mustaqil ishning bajarilishi yuzasidan o'qituvchi o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar berishi kerak. Bunda yangi materialni o'zlashtirayotganda talabalar oldin ko'rgan, eshitgan, bilib olgan narsalariga tayanishi zarur bo'ladi. Har qanday narsa ilgari o'zlashtirilgan eski narsalarga asoslanadi, ular bilan uyg'unlashib, keyingi ta'lim uchun mustahkam baza yaratadi. Agar o'quvchilar bilimlar, g'oyalari, tushunchalarni egallab, yangi o'zlashtirilgan bilimlarga ularga asoslanadigan bo'lsa, har bir yangi bo'g'inning ongli ravishda bilib olinishiga keng yo'l ochiladi.

O'quv topshirig'i muammosi fikrlash faoliyatini faollashtirishga imkon beradi, biroq ularning har biri ham ilmiy darajada pedagogik va psixologik tushunchalarni mustaqil shakllantirishga olib kelmaydi. Shu bois pedagogik va texnik-texnologik mustaqil ishlarni ishlab chiqishda o'quv muammolarining didaktik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Mustaqil ishlar o'quvchining ijodiy faoliyatiga imkon yaratish bilan bog'liq. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchining bilish faoliyati biologik obyekt yoki jarayonning mohiyatiga tobora chuqurroq kirib borib, ilgari noma'lum bo'lgan yangi g'oyalarni qidirib topish va yangi ma'lumotlar olish uchun zarur bo'lgan munosabatlarni o'rnatishdan iborat. Bunday topshiriqlarni bajarishi uchun o'quvchi o'zi yaratishi lozim bo'lgan g'oya va yangi faoliyatning mohiyati, u yoki bu ma'lumot ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi [6].

Tahlil va natijalar. Umumiy o'rtta ta'lim maktablarida o'quvchilarni mustaqil va uyushqoqlik bilan ishlash ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish hamda o'zlashtirish uchun o'quv jarayoni davomida mustaqil ishini tashkil etish masalasini hal etish bo'yicha ilg'or nuqtayi nazarni taqdim etadi. E.Ya.Golantning "o'quvchilarni mustaqil ishlari to'g'risida" monografiyasida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish umumiy o'rtta ta'limning muhim vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Ularga mustaqil ishlash orqali malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish va o'quv jarayonining barcha shakllarida hamda ularning faoliyatining barcha turlarida: "darslarda tinglash, kitob ustida ishlash, laboratoriya ishlarida, ishlab chiqarish amaliyotida mustaqillikni rivojlantirish vazifasi yuklatiladi. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarining professional tayyorligini takomillashtirish masalalari S.I.Arhangelskiy, V.P.Bespalko, V.A.Slastenin, U.N.Nishonaliyev, A.A.Abdugodirov, A.R.Xodjaboev, R.Xasanov, N.Saidaxmedov, O'Q.Tolipov, S.S.Bulatov, N.A.Muslimov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosini tashkil etadi. O'quvchilarning mustaqil ishi – individual yoki jamoaviy o'quv faoliyati bo'lib, o'qituvchining bevosita rahbarligisiz amalga oshiriladi. Tashkil etish jihatdan mustaqil ish frontal (sinf

bilan birgalikda) – o'quvchilar bir xil topshiriqni hammasi bajaradi; guruhi – topshiriqni bajarish uchun o'quvchilar guruhi 3-6 o'quvchi shakllantiriladi; juftlikda – tajribalar o'tkazishda; individual-har bir o'quvchi uchun alohida topshiriqlar tizimi shakllantiriladi. Mustaqil ishning eng ko'p tarqalgan turi: darslik bilan ishlash, ma'lumot materiallar yoki birlamchi manbalar bilan ishlash, masalalar yechish, bayon, kuzatish, loyihalash, modellashtirish va h.k [6].

Taxlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarda mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli, metod va vositalari ta'lim mazmunini yoritishda muhim metodik ahamiyatga egaligi ta'kidlab o'tilgan. O'quvchilarda biologiya fanlarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quvchilardan innovatsion va kreativ yondashuvga asoslangan metodik vazifalarni amalga oshirishni talab etadi. O'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil etishda quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: o'quvchilarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar; bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar; muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar; qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar yechimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar; o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarni bajarish, ish natijalarini maqsadga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar; muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar; qo'yilgan vazifalarni to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida o'quvchi shaxsini yaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'z ustida ishlashi va ijodkorlikning shakllanishiga yordam beradi [6].

O'quvchilarning mustaqil ta'limni faollashtirish uchun pedagogik jarayon muhim pedagogik tushunchaga e'tibor berish lozim. "Pedagogik jarayon bu o'qituvchi va o'quvchilarning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifalarni tashkil etishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan maqsadga muvofiq o'zaro munosabatidir". Pedagogik jarayon - bu talabalar va o'qituvchilarning bevosita o'zaro munosabatlarida rivojlanishiga yordam beruvchi usha tarkibiy qismlar (omillar) ning bir butunligiga integratsiyalashuvidir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rmida aytish joizki, mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish o'quvchilar bilan individual ishlash va ularni o'quv faoliyatini bevosita nazorat qilishga keng imkoniyat yaratishi aniqlandi. Shuningdek har bir talaba fanga ta'lluqli bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'quv portfoliosiga joylashtirish va o'z o'zini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi nazarda tutildi. Mustaqil ta'lim shakli talabaning fan yuzasidan ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun pedagogik - didaktik sharoitlarni yaratishga asos bo'ladi. Biologik talimda o'quvchilar uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda samarali metodik yondashuv va vositalar, didaktik tarqatmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar mustaqil ishining samaradorligi uning metodik ta'minoti bilan bog'liqdir. Darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar, topshiriqlar va vazifalar banki, fan bo'yicha axborot resurslari mustaqil ishning metodik ta'minotini tashkil etadi. Fanning xususiyati, o'quvchining bilim darajasi va qobiliyatiga qarab alohida mavzular mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Esipov B.P. Darslarda talabalarining mustaqil ishi. // RFSFR Shshpros nashriyoti. - M., 1991. - 239 b.
2. Arhangelskiy S.I. Oliy ta'limning ayrim yangi vazifalari va pedagogik mahoratga qo'yiladigan talabalar. M.: 3 bilim. 1986. -30 b.
3. Toshpo'latov U.D. Talabalarining mustaqil ishlari o'qitish vositalari. // Xalq ta'limi.2000.№3.-34-38 b.
4. Derazhne Yu. Mustaqil talim olish tizimi. // Kasb-hunar talimi . 2001. № 6. - 10 -12.
5. Isabayeva M., Karimova D. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik mazmuni./ O'zMU XABARLARI
6. VESTNIK NUUZ 2022 1/4, 2022, 85-89 betlar
7. Ibodova M. Biologiyadan o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi (akademik I itseylar misolida)...p.f.f.d (PhD), - 2019y, 160b



Farux NABIYEV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail:nabiyefarux@mail.ru

PhD, dotsent Sh.Turatov taqrizi asosida

ORGANIC RELATIONSHIPS OF PHILOSOPHY AND MATHEMATICS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH THINKING

Annotation

This article explores the interplay between philosophy and mathematics in shaping the cognitive development of young minds. It discusses how the foundational principles of both disciplines are inherently intertwined and how exposure to philosophical and mathematical concepts can enhance critical thinking, problem-solving skills, and overall cognitive development in youth. By analyzing the organic relationships between philosophy and mathematics, this article aims to highlight the importance of integrating these disciplines in educational curricula to foster holistic and well-rounded intellectual growth in young individuals.

Key words: Philosophy, Mathematics, Cognitive Development, Critical Thinking, Problem-Solving, Education.

ОРГАНИЧЕСКИЕ СВЯЗИ ФИЛОСОФИИ И МАТЕМАТИКИ В РАЗВИТИИ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В этой статье исследуется взаимодействие философии и математики в формировании когнитивного развития молодых умов. В нем обсуждается, как основополагающие принципы обеих дисциплин неразрывно переплетаются и как знакомство с философскими и математическими концепциями может улучшить критическое мышление, навыки решения проблем и общее когнитивное развитие молодежи. Анализируя органические связи между философией и математикой, эта статья призвана подчеркнуть важность интеграции этих дисциплин в образовательные программы для содействия целостному и всестороннему интеллектуальному развитию молодых людей.

Ключевые слова: Философия, математика, когнитивное развитие, критическое мышление, решение проблем, образование.

YOSHLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFA VA MATEMATIKA FANLARINING UZVIY ALOQALARI

Аннотация

Ushbu maqola yosh onglarning kognitiv rivojlanishini shakllantirishda falsafa va matematika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Unda ikkala fanning asosiy tamoyillari o'z-o'zidan bir-biriga bog'langanligi va falsafiy va matematik tushunchalar bilan tanishish yoshlarda tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va umumiy kognitiv rivojlanishni qanday oshirishi muhokama qilinadi. Falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tahlil qilib, ushbu maqola yosh shaxslarda yaxlit va har tomonlama intellektual o'sishni rag'batlantirish uchun ushbu fanlarni o'quv dasturlariga integratsiya qilish muhimligini ta'kidlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Falsafa, matematika, kognitiv rivojlanish, tanqidiy fikrlash, muammo yechish, ta'lim

Kirish. Falsafa va matematika o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, ularning yoshlar tafakkurini rivojlantirishga ta'siri haqida uzoq vaqtdan beri hayrat va izlanishlar mavzusi bo'lib kelgan. Falsafa borliq, bilim, qadriyatlar, aql, ong va til va matematika haqidagi fundamental savollarga, raqamlar, miqdorlar, makon va tuzilmalarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ikkalasi ham yoshlar ongini qanday idrok etishi va ishtirok etishini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. dunyo bilan. Ushbu maqola falsafa va matematika o'rtasidagi organik munosabatlarni o'rganadi, ularning bir-biriga bog'liq tabiati va yoshlarning kognitiv rivojlanishiga ta'sirini ta'kidlaydi. Ushbu aloqalarni o'rganish orqali biz har ikki fanni har tomonlama va tanqidiy fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash uchun ta'lim amaliyotiga kiritish muhimligini yoritishni maqsad qilganmiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Falsafa va matematika o'rtasidagi munosabatlar turli fanlar olimlarini qiziqtirgan mavzu bo'lib kelgan. Falsafa voqelik, bilim va borliq tabiati haqidagi fundamental savollarni o'rgansa, matematika miqdor, tuzilish va o'zgarishlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Ko'rinib turgan farqlariga qaramay, bu fanlar chuqur va o'zaro bog'liq tarixga ega bo'lib, ularning har biri bir-biriga ta'sir qiladi va boyitadi.

Tarixan faylasuflar va matematiklar bir-birlarining ijodidan ilhom olishgan. Pifagor va Afлотun kabi qadimgi yunon faylasuflari voqelik mohiyatini tushunishda matematikaning muhimligini tan olganlar. Masalan, Pifagor matematika olamning tartibi va uyg'unligi asosini tashkil qiladi, deb hisoblagan, bu tushuncha keyinchalik Platonning shakllar nazariyasiga ta'sir qilgan.

Zamonaviy davrda falsafa va matematika o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishda davom etdi. Immanuel Kant va

Gottlob Frege kabi faylasuflar matematika asoslarini tadqiq qilib, uning mantiqiy va gnoseologik asoslarini tushunishga intilganlar. Kant o'zining "Sof aqlning tanqidi" asarida matematika sintetik apriori fan ekanligini, ya'ni uning haqiqatlarini tajribadan ko'ra aqldan kelib chiqishini ta'kidlaydi.

Frege esa til falsafasi va mantiqqa oid asarlari orqali matematikaning mantiqiy asoslarini yaratishga intildi. Uning ishi zamonaviy matematik mantiq va to'plamlar nazariyasiga asos soldi, shundan so'ng ular matematikani o'rganishda markaziy o'rinni egalladi.

Bu tarixiy-falsafiy bog'lanishlardan tashqari falsafa va matematika o'rtasidagi munosabatni o'rganishning amaliy va pedagogik sabablari ham mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, falsafiy va matematik tushunchalar bilan tanishish yoshlarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va umumiy kognitiv rivojlanishni oshirishi mumkin.

Falsafiy va matematik so'rovlarni o'quv dasturlariga kiritish orqali o'qituvchilar mantiqiy fikrlash va mavhum fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ta'limga yanada yaxlit yondashuvni rivojlantirishlari mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv talabalarga atrofda dunyoni chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularni kelajakda murakkab muammolar va muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lganko'nikmalar bilan jihozlaydi.

Falsafa va matematika o'rtasidagi bog'liqlik asrlar davomida rivojlanib kelgan boy va murakkab munosabatlardir. Bu fanlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish orqali olimlar inson tafakkurining tabiati va uning rivojlanishi haqida yangi tushunchalarga ega bo'lishlari mumkin. Ta'limga fanlararo yondashuvlar orqali biz talabalarga tobora murakkab va o'zaro

bog'langan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lganko'nikma va bilimlarni rivojlantirishga yordam bera olamiz.

Falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqliklar ko'p qirrali va chuqur bo'lib, inson tafakkurining tabiati va uning rivojlanishi haqida o'ziga xos tushunchalar beradi. Ushbu fanlar o'rtasidagi markaziy aloqalardan biri ularning mantiqiy fikrlashga umumiy urg'u berishidir. Falsafa ham, matematika ham amaliyotchilardan to'g'ri xulosalar chiqarish uchun tizimli va izchil fikr yuritishni talab qiladi. Falsafada bu ko'pincha binolar va mantiqiy xulosalar qoidalariga asoslangan asosli dalillarni yaratishni o'z ichiga oladi. Matematikada mantiqiy fikrlash teoremlarni isbotlash va matematik masalalarni yechish jarayonida asosiy hisoblanadi. Shunday qilib, falsafiy va matematik mulohazalarga ta'sir qilish yoshlarga akademik muvaffaqiyat va intellektual o'sish uchun zarur bo'lganmantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Falsafa va matematika o'rtasidagi yana bir muhim organik munosabatlar ularning mavhum tafakkur rivojlanishiga o'zaro ta'siridir. Falsafa odamlarni haqiqat, adolat, go'zallik va axloq kabi jismoniy dunyoda bevosita kuzatilmaydigan tushunchalar haqida mavhum fikrlashga undaydi. Xuddi shunday, matematika sof fikrlash sohasida mavjud bo'lganraqamlar, to'plamlar va geometrik shakllar kabi mavhum mavjudotlar bilan shug'ullanadi. Ikkala fan bo'yicha ham mavhum tushunchalar bilan shug'ullangan holda, yoshlar ijodiy fikrlash, murakkab g'oyalarni kontseptsiyalash va atrofda duniyodagi naqsh va munosabatlarni idrok etish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, falsafa va matematika umuminsoniy haqiqat va tamoyillarni izlashning umumiy maqsadiga ega. Falsafada bu voqelik, bilim va axloqning tabiati haqidagi abadiy haqiqatlarni izlashni o'z ichiga oladi. Matematikada umuminsoniy haqiqatlarga intilish matematik ob'ektlarning xatti-harakatlarini boshqaradigan matematik qonunlar va printsiplarni kashf qilishda namoyon bo'ladi. Falsafiy va matematik so'rovlar bilan shug'ullanib, yoshlar haqiqatga intilish va haqiqatni yolg'ondan ajratishda tanqidiy fikrlash muhimligini chuqurroq tushunishlari mumkin.

Umuman olganda, falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy aloqalar ushbu fanlarning o'zaro bog'liqligini va ularning yosh ongning kognitiv rivojlanishini boyitish imkoniyatlarini ta'kidlaydi. Falsafiy va matematik tushunchalarni ta'lim o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali o'qituvchilar mantiqiy fikrlash va mavhum fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi intellektual rivojlanishga yaxlit yondashuvni rivojlantirishlari mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv yosh shaxslarga atrofda duniyoni chuqurroq tushunishga yordam beradi, ularning intellektual qiziqishini rivojlantiradi va ularni kelajakda murakkab muammolar va muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lganko'nikmalar bilan jihazlaydi.

Falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar tafakkurining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Falsafiy va matematik tushunchalarni ta'lim o'quv dasturlariga integratsiyalash orqali o'qituvchilar mantiqiy fikrlash va mavhum fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi intellektual rivojlanishga yaxlit yondashuvni rivojlantirishlari mumkin.

Yoshlar rivojlanishining asosiy ta'siridan biri bu tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishdir. Falsafa odamlarni taxminlarni shubha ostiga olishga, dalillarni baholashga va murakkab masalalar haqida tanqidiy fikrlashga undaydi. Xuddi shunday, matematika talabalardan muammolarni tahlil qilishni, naqshlarni aniqlashni va yechim topish uchun mantiqiy fikrlashni talab qiladi. Ikkala fan bilan shug'ullanish orqali yosh shaxslar akademik muvaffaqiyat va intellektual o'sish uchun muhim bo'lgantanqidiy fikrlash uchun yanada mustahkam qobiliyatni rivojlantirishlari mumkin.

Yana bir mavhum fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Falsafa talabalarni haqiqat, adolat va axloq kabi tushunchalar haqida mavhum fikrlashga chaqiradi, matematika esa raqamlar, to'plamlar va geometrik shakllar kabi mavhum mavjudotlar bilan shug'ullanadi. Ikkala fan bo'yicha ham mavhum tushunchalar bilan shug'ullangan holda, yoshlar ijodiy fikrlash, murakkab g'oyalarni kontseptsiyalash va atrofda duniyodagi naqsh va munosabatlarni idrok etish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Qolaversa, falsafa va matematikaning ta'lim dasturlariga integratsiyalashuvi o'quvchilarda haqiqat va bilimga intilishni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Falsafa odamlarni taxminlarga shubha qilish va asosiy haqiqatlarni izlashga undaydi, matematika esa koinotni boshqaradigan asosiy tamoyillarni ochishga intiladi. Ushbu fanlar bilan shug'ullanish orqali yosh shaxslar dunyo va undagi o'z o'rnini yanada chuqurroq tushunishlari mumkin, intellektual qiziqish tuyg'usini va umr bo'yi o'rganishga muhabbat uyg'otadi.

Falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar tafakkurining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ushbu fanlarni ta'lim amaliyotiga integratsiyalash orqali o'qituvchilar tanqidiy fikrlashni, mavhum fikrlashni va haqiqat va bilimga intilish uchun chuqurroq minnatdorchilikni rivojlantiradigan intellektual rivojlanishga yanada yaxlit yondashuvni rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa. Falsafa va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar tafakkurining rivojlanishi haqida qimmatli fikrlarni beradi. Ushbu fanlar o'z yondashuvlarida farqli bo'lsa-da, tanqidiy fikrlashni, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini va yosh shaxslarning umumiy kognitiv rivojlanishini kuchaytirishi mumkin bo'lganasosiy tamoyillarni baham ko'radi.

Falsafiy va matematik tushunchalarni ta'lim dasturlariga kiritib, o'qituvchilar mantiqiy fikrlash va mavhum fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi yanada yaxlit o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ushbu fanlararo yondashuv nafaqat talabalarning dunyo haqidagi tushunchalarini boyitadi, balki ularni kelajakda murakkab muammolar va muammolarni hal qilish uchun zarur vositalar bilan jihazlaydi.

Oxir oqibat, falsafa va matematikaning ta'limga integratsiyalashuvi har tomonlama rivojlangan va intellektual faol shaxslarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Ushbu fanlar orasidagi uzviy aloqalarni tan olish va qabul qilish orqali biz atrofda duniyoga tanqidiy va ijodiy munosabatda bo'lishga qodir bo'lganyangi avlod mutafakkirlarini tarbiyalashimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Resnik, M. D. (1997). *Mathematics as a Philosophical Challenge*. Springer Science & Business Media.
2. Steiner, M. (2012). *The Philosophy of Mathematics: Oxford Readings in Philosophy*. Oxford University Press.
3. Leng, M. (2018). *Mathematics and Reality*. Oxford University Press.
4. Kant, I. (1781). *Critique of Pure Reason*.
5. Frege, G. (1893). *Grundgesetze der Arithmetik (Foundations of Arithmetic)*.
6. Papert, S. (1980). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books.
7. Resnick, L. B., & Hall, M. W. (1998). Learning mathematics for understanding: A qualitative analysis of mathematics instruction based on the emergent models of children. *The Journal of Mathematical Behavior*, 17(2), 137-165.
8. Sfard, A. (1991). On the dual nature of mathematical conceptions: Reflections on processes and objects as different sides of the same coin. *Educational Studies in Mathematics*, 22(1), 1-36.



UDK:34567832

Xadicha MUXITDINOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, Pedagogika fanlari doktori

E-mail: hilola-19833@mail.ru

O'zDJTU dotsenti P.Omonov taqrizi asosida

THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVICES IN SECOND LANGUAGE EDUCATION

Annotation

The article covers the practical importance of ready-made speech devices in teaching Uzbek as a second language to representatives of other nationalities. In the author's opinion, it is necessary to teach students to compose new sentences based on examples when acquiring a language.

Key words: Uzbek language, teaching as a second language, speech skills, speech patterns, speech models, speech situations, lexical and grammatical skills.

ЗНАЧЕНИЕ РЕЧЕВЫХ СРЕДСТВ В ВТОРОМ ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассматривается практическое значение готовых речевых средств при обучении узбекскому языку как второму представителям других национальностей. По мнению автора, при освоении языка необходимо учить учащихся составлять новые предложения на основе примеров.

Ключевые слова: Узбекский язык, обучение как второму языку, речевые навыки, речевые модели, речевые модели, речевые ситуации, лексические и грамматические навыки.

IKKINCHI TIL TA'LIMIDA NUTQIY QURILMALARNING AHAMIYATI

Аннотация

Maqolada o'zbek tilini boshqa millatlar vakillariga ikkinchi til sifatida o'qitishda tayyor nutqiy qurilmalarning amaliy ahamiyati masalalari yoritilgan. Muallifning fikricha, tilni egallashda o'rganuvchilarning o'zlarini namuna asosida yangi gaplar tuzishga o'rgatish zarur.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, ikkinchi til sifatida o'qitish, nutqiy malakalar, nutqiy qoliplar, nutqiy modellar, nutqiy vaziyatlar, leksik va grammatik ko'nikmalar.

Kirish. Ikkinchi til ta'limida nutqiy modellar, nutqiy qurilmalardan foydalanish qator uslubiy qulaylik va ustunliklarga ega. Muayyan fikrni ifodalashda, ya'ni ma'lum bir grammatik mavzu bo'yicha eng ko'p qo'llanadigan nutqiy qurilmalarning o'quvchilarning diqqatini jalb qilish uchun ajratib berilishi mavzuning nisbatan tezroq o'zlashtirilishiga, mazkur nutqiy modellarning o'quvchilar xotirasida uzoqroq saqlanib qolishi va nutqida faolroq qo'llanishiga olib keladi.

Ma'lumki, har bir tildagi leksik birliklar xilma-xil aloqalari bilan o'zaro chambarchas bog'liq, chunki ular biror mavzu yoki vaziyat doirasida muloqot yuritishga xizmat qiladi. Ikkinchi til ta'limi muayyan turdagi gap qurilmalarini, modellarni o'zlashtirish tariqasida amalga oshadi, degan fikrni ko'pgina metodist olimlarning ishlarida uchratish mumkin. Ammo so'zlar minimal kontekstda – so'z birikmalari ichida taqdim etilgani uchun o'ziga xos sintaktik funksiyalari bilan tavsiflanadi. Bu funksiyalar grammatik modellar, ya'ni nutqiy qurilmalar orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, Ye.I.Passovning fikricha, "Model insonning xotirasida saqlanib qoladigan va shu kabi birliklarning tug'ilishiga asos bo'ladigan bir turdagi nutqiy birliklarni umumiy tavsiflovchi tuzilma qobig'idir... Nutq tizimini modellashtirish – bu aslyatdan bir muncha kamroq darajada bo'lsa-da, nutqning muayyan ko'rinishlarini ifodalay oladigan va o'rni kelganda muayyan vaziyatlarda butun til tizimini almashtira oladigan o'xshash tizimni yaratishdir. Buning uchun esa nutqiy faoliyatning 3 tomoni o'zaro muvofiqlashishi kerak. Biroq bunda shuni unutmaslik kerakki, ushbu uchlikda gapirish jarayonida nutqning grammatik tomoni birinchi o'rinda turadi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilini boshqa millatlar vakillariga o'rgatish sohasida nutqiy qurilmalardan ilk marta R.Tolipova va boshqalar tomonidan ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun tuzilgan o'quv dasturida foydalanilgan edi [2]. O'zbek tilidan ta'lim boshqa tillarda olib

boriladigan maktablar uchun tuzilgan mazkur o'quv dasturi va darsliklarda o'quvchilarning muayyan mavzuda nimalar haqida, ya'ni qaysi bilimlar haqida ma'lumot berilishi, o'quvchilar nimani o'rganishlari, ya'ni qanday malakalarni egallashlari kerakligini aynan nutqiy qurilmalar orqali bilib olishlari nazarda tutilgan. Bunda o'zbek tilida muayyan fikrni ifodalashda faol qo'llanadigan nutqiy qurilmalar (modellar, qoliplar) ko'rsatmali tarzda berilib, so'ngra mashqlar, ularni qo'llash orqali matnlar tarkibida o'quvchilarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirib borish nazarda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim bosqichidagi ta'lim boshqa tillarda, shu jumladan, rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini nutqiy qurilmalar vositasida o'qitishga keng e'tibor qaratilgan boshlandi. Nutqiy modellar, albatta, nutqiy qurilmalarni qo'llashni jadallashtirishga, sintagmatik gap tuzish malakasini shakllantirishga katta yordam beradi. Ammo til o'zlashtirishda nutqiy modellaridan foydalanishni yagona vosita sifatida talqin qilish va boshqa turdagi metodik usullarni nazardan chetda qoldirish samarali natijalarga olib kelmaydi. Shu bois ayrim "O'zbek tili" darsliklarida ushbu maqsadni grammatik qoidalarsiz, faqat nutqiy qurilmalarning o'zi bilan amalga oshirishning ko'zda tutilishi ko'p e'tirozlarga sabab bo'lmoqda [3]. Bu muayyan metodik qiyinchiliklar hosil qiladi, chunki ko'pchilik o'quvchilar faqat nutqiy qurilmalar o'zi bilangina fikrni ifodalash vositalarini umumlashtirib, qoidalashtirib bera olmaydilar. Tadqiqotchi H.Mustafoyevaning ta'kidlashicha, grammatik ta'limni ma'lum andozalar - nutqiy qoliplar, modellar (so'z birikmalari, muayyan tuzilishdagi gaplar) vositasida o'zlashtirish til o'rganishda faqat ilk samarani berishi mumkin, xolos. O'zlashtirilgan nutqiy qoliplarni turli vaziyatlarda qo'llay olish uchun o'quvchi qoidalarni xam bilishi kerak bo'ladi [4].

Metodist olim R.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, aksariyat rusiyzabon o'quvchilar o'zbekcha jumlar tuzish jarayonida nutq jarayonining boshidanoq so'zlarni sintagmalarga birlashtirmaydilar, balki dastlab har bir so'z shaklini alohida-alohida shakllantirib "gapira boshlaydilar". Keyinroq gap tuzish malakasining shakllanishiga qarab, ma'noli qismlarga amal qilib so'zlashga o'tib boriladi" [5]. Shu tarzda nutqiy faoliyat jarayonida ko'pdan-ko'p nutqiy qurilmalar yuzaga keladi. Ushbu qurilmalar turli nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Demak, nutqiy faoliyat, muayyan nutqiy birlik yoki tuzilmalarni yodda saqlab qolish va qayta qo'llashdangina emas, balki ularni ma'lum model-qoliplar asosida tuzish hamda nutqiy vaziyatga moslashtirib ishlatishdan ham iborat. Ye.I.Passovning yozishicha, "ushbu faoliyat quyidagi jarayonlardan tashkil topadi: 1) muayyan vaziyatda so'zlovchining o'ylagan fikriga mos nutqiy qurilma – model tanlash; 2) tanlangan modelni to'ldirish uchun til va vaqt me'yorlariga mos nutq birliklarini tuzilishini ta'minlash" [6]. Binobarin, tilni sistema sifatidagina emas, balki funksional jihatdan ham o'rganish, ya'ni so'zlarni va so'z birikmalarini yodlatish yo'lidan emas, balki ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llash malakalarini hosil qildirish yo'lidan borish kerak.

Haqiqatan ham, o'quvchiga barcha nazariy bilimlarning yig'indisini to'liq yetkazishning iloji bo'lmaganidek, unga barcha turdagi nutqiy tuzilmalarning aniq ko'rinishlarini o'rgatish ham qiyin. Shunday bo'lsa-da, har qanday nutqiy qurilma zaminida biron-bir grammatik model - namuna yotishini unutmazlik lozim. Ma'lum bir nutqiy qurilmani hosil qilish uchun grammatik qoidalarni, sintaktik shakllar, gap tuzishning modellarini o'zlashtirish kerak bo'ladi. Bu o'rinda grammatika va leksikaning uzviy aloqasi to'liq namoyon bo'ladi, ya'ni grammatika so'zlarni uyushtirib beradi va o'zi so'zlar, so'z birikmalari orqali namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o'zbek va rus tillarini o'rgatish yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan F.Qodirovaning quyidagi fikri ham buni tasdiqlaydi: "Nutqiy faoliyat, avvalo, o'zi xohlagan fikrni ifodalash uchun so'z tanlashga qaratilgan ayrim jarayonlardan tashkil topadi. Har bir tildagi so'zlar minglab birikmalarga qo'shilishi mumkin va so'zlovchi o'z fikrini ifodalashga xizmat qiluvchi so'zlar, vositalarni, fikrning ifoda shaklini, gap tuzish uchun kerak bo'ladigan grammatik unsurlarni (qo'shimchalar, ko'makchilar, bog'lovchilar) topishi zarur bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, birinchidan, o'zbek tilida so'zlovchilarning xotirasida nechta gap konstruksiyasi andoza shaklida saqlab qolinishi hech kimga ma'lum emas. Ikkinchidan, har kim o'z nutqiga e'tibor bersa, shunga iqrar bo'ladiki, kishi gapirayotgan paytda muayyan gap qurilmalarini xotirasidan qidirib o'tirmaydi, u fikr bayon qilish chog'ida so'zlarni bir zanjirga tizgan holda gap tuzish harakatini boshlaydi, o'z tuyg'ularini, munosabatlarini turli ohanglar vositasida hali konstruksiyasi noaniq gapda aks ettiradi" [7]. Demak, nutqiy tuzilmalarni hosil qilish uchun til birliklarini, sintaktik shakllar, so'z birikmalari, gap yasash modellarini bilish kerak.

Til fani faqat grammatik me'yorni o'rgatuvchi fan sifatida emas, balki o'quvchining fanlar kesimidagi turli matnlarni tinglab va o'qib tushunishiga, o'qish jarayonida orfoepik va orfografik me'yorlarga oid ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O'qish faoliyati axborot-ma'lumot olish, dunyoqarashni kengaytirish hamda so'yilgini ko'paytirib borishda ahamiyati nihoyatda katta. O'quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun, avvalo, o'qib tushunishga e'tibor qaratishi lozim. Tillarni puxta o'zlashtirgan, o'qish savodxonligi mukammal bo'lgano'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlaydi, boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi va egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga ega bo'ladi.

Qayd etilganidek, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda o'quvchilar og'zaki talaffuz me'yorlarini shakllantirish ustida ishlashga ayniqsa boshlang'ich sinflarda ko'p e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Biroq o'zga tilli o'quvchilarda o'zbek tildagi nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirishda faqat tinglab tushunishning o'zi mutlaqo yetarli emas. Tinglash va tushunish bir vaqtda sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, mazmunni anglab olish uchun o'quvchi leksik va

grammatik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi, ushbu bilimlar esa o'qish va yozish orqali sodir bo'ladi. O'qish va yozish faoliyatlari orqali olingan bilimlardan tinglab tushunish va gapirishda samarali foydalaniladi. M. Gulamova o'z tadqiqot ishida tinglab tushunishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri – bu lingvistik qiyinchiliklar ekanligini, tinglab tushunishni muvaffaqiyatli amalga oshirishda va qiyinchiliklarni bartaraf etishda o'qish va yozishni integratsiyalashtirib o'tish muhim hisoblanishini ta'kidlaydi [1].

Gapirish nutq faoliyatining turi sifatida mustaqil, yakka o'zi qo'llanmaydi, aksincha, boshqa nutq faoliyatilari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. J. Shabanov buni alohida ta'kidlab shunday yozadi: "...gapirish nutq faoliyatining reproduktiv turi sifatida tinglab tushunish, o'qish va yozish turlari bilan yaqin aloqadadir" [1]. Bu jarayonda o'qishning amaliy ahamiyati katta bo'lib, xususan, "Alifbo"ni o'rganish bosqichida o'quvchilar har bir nutq tovushining bosh va kichik harf shakli, harflarning bosma va yozma shakllari bilan tanishtiriladi. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda tovushlarning harfiy belgilarini tanish, harflarni va so'zlarni o'qituvchi bilan birgalikda talaffuz qilish, nutq tovushlarining katta va kichik shakllarini yozish, yakka holda va so'z ichida bir-biriga qo'shib o'qish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu jarayonda o'qishning amaliy ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilar aynan o'qish vositasida harflarni bir-biriga qo'shib talaffuz qilishni o'rganadilar.

Metodist olim R.Yo'ldoshev o'zbek tili darslarida o'quvchilarda so'z va so'z shakllarini xato talaffuz qilish, so'z urg'usini noto'g'ri qo'yish, so'zlamni sintagmalarga birlashtirib aytish ko'nikmalarini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratilmasligi provard oqibatda gapirish ko'nikmalarining yaxshi rivojlanishiga katta to'siq bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlaydi. Matn ustida ishlash bosqichida rusiyzabon o'quvchilar matndagi so'z va so'z shakllarini talaffuz xatolari bilan o'qiganlarida, chunonchi, ba'zi tovushlar talaffuzida xatolarga yo'l qo'yanlarida o'qituvchining bu holatga jiddiy qaramasligi, darhol o'qish texnikasini o'rgatish topshiriqlari ustida ishlamasligi, bunga dars vaqti ham imkon bermasligi tufayli talaffuz xatolari o'quvchilar nutqiga singib ketganligi, bu esa keyinchalik talaffuz xatolarini tuzatish uchun katta kuch sarflashga olib kelishini uqtiradi. Uning fikricha, talaffuz xatolari ayrim tovushlar talaffuzi ustida yetarli ish olib borilmasligi tufayli barqarorlashadi. Chunki o'zbek tili darslarida, odatda, yangi tovush qatnashgan so'zlar o'quvchilarga bir martadan aytiriladi, xolos [3].

Haqiqatan ham, nutq tuzuvchi tildagi bu modellardan o'z kommunikativ maqsadiga uyg'unini tanlaydi va uni turli variantlarda kengaytiradi, tildagi model asosida kerakli jumlar tuzadi. Olimlarning fikricha, gapning bunday namunaviy modellari har bir tilda o'ziga xos va miqdor jihatidan chegaralangan, taxminan 40-50ta jumlaning nari-berisida bo'ladi. Jumladan, N.Mahmudov fransuz professori Murtazo Mamudyan tomonidan aniqlangan quyidagi faktni keltiradi. "Ko'pgina tilshunoslar nutqdagi jumlar (120 dan ortiq bo'lmagan so'zdan tarkib topgan) miqdori 10.30 dan 10.86 gacha bo'lganson bilan o'chanadi deb hisoblaydilar. Bir asr 3 x 10.9 soniyadan iboratligi e'tiborga olinsa va bir odam bir asr davomida har soniyada bittadan jumlani o'rganadi deb taxmin qilinsa, inson butun umri davomida ham mazkur miqdordagi jumalarning juda oz qismini o'zlashtira olishi ma'lum bo'ladi. M.Mamudyan tilni o'zlashtirish va undan foydalanish jarayonlari mohiyatan benihoya tejamkor tamoyilda voqe bo'lishini, bu tejamkorlik til strukturasi bilan bo'laklanishi bilan ta'minlanishini ta'kidlaydi. Til o'rganuvchilar ana shu bo'laklarga suyangan holda sanoqsiz individual jumlar tuzadilar" [8]. Demak, tillarni o'rganishning dastlabki bosqichida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda gap va jumalarni muayyan model-qoliplar asosida tuzish hamda nutqiy vaziyatga moslashtirib ishlatish ahamiyati katta, albatta. Biroq muayyan model-qoliplar barcha nutqiy vaziyatlarga mos kelavermaydi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinadiki, ikkinchi tilga o'rgatishda samarador tamoyillarni aniqlashda muammolar anchagina, chunki til tizimi nihoyatda murakkab va serqirra, muayyan tilni o'rganish esa nutq, nutqiy ko'nikmalar hosil qilish, nutqiy vaziyatdan kelib chiqish kabi bir qator muhim jihatlar bilan ham bog'liq bo'lgani uchun yanada murakkab.

ADABIYOTLAR

1. Пассов Е.И. Основы методики обучения иностранным языкам. –М.: Русский язык, 1977. –Б.82-83, 95.
2. Tolipova R. va boshqalar. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) // Ta'lim taraqqiyoti. O'zR Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 1-maxsus son. –Toshkent: Sharq, 1999. –B. 264.
3. RTM seminar-treninglari materiallari // 2006-2007 yillar bo'yicha hisobot-protokollar materiallari. – Toshkent: RTM, 2007.
4. Mustafoyeva H.T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar talabalarga o'rgatishning lingvometodik xususiyatlari: Ped. fan. nom....dis –Samarqand, 2003. – B. 53.
5. Yo'ldoshev R. Gap tuzish jarayon sifatida // Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. II qism. –Toshkent: 2006. – B. 46-47.
6. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. –М.: Просвещение, 1989. –Б. 6.
7. Кадырова Ф.Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): Дис. ... док. пед. наук. –Ташкент: 2006. –С. 95.
8. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi mahorati. –Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. –B. 69-70.



UDK:796(071)

Zilola NAZAROVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

E-mail: zilolaxayrullayevna91@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori, akademik G'.Shumarov taqrizi asosida

O'SPIRIN YOSHIDAGI BOKSCHILARIMIZNING SPORT MUVAFFAQIYATIGA ERISHISHIDA METODIKALARNING INTERKORRELYASION XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bokschi yoshlarning sport muvaffaqiyatiga erishishida ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Bir nechta metodikalarning interkorrelyasion xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Motivatsiya, maqsad, bokschi-yoshlar.

ВЗАИМОКОРРЕЛЯЦИОННЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ МЕТОДОВ ДОСТИЖЕНИЯ СПОРТИВНЫХ УСПЕХОВ У ПОДРОСТКОВ БОКСЕРОВ

Аннотация

В данной статье изучаются факторы, влияющие на успехи юных боксеров в спорте. Описаны интеркорреляционные свойства нескольких методов.

Ключевые слова: Мотивация, цель, боксер-молодежь.

“INTERCORRELATION CHARACTERISTICS OF METHODS OF SPORTS SUCCESS OF OUR TEENAGE BOXERS”

Annotation

In this article, the factors affecting the success of young boxers in sports are studied. The intercorrelation properties of several methods are described.

Key words: Motivation, goal, boxer-youth.

Motivatsiyaga keng ma'noda inson hayotining murakkab, ko'p qirali boshqaruvchisi deb qaraladi. Inson xayoti anglangan va anglangan hollarda boshqarilishi mumkin. Shulardan oliy darajadagi boshqarilish anglangan irodaviy boshqarilish hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarimizni yanada aniqlashtirib,

1-Jadval

Elersning muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorligi (Sperman mezonini bo'yicha)

	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi
Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi	-0,217(**)

Izoh: ** $p < 0,01$.

Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash metodikalari orasidagi o'zaro korrelyatsion munosabatlar tahlil etilganda bir qator qiziqarli natijalar qo'lga kiritildi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi o'rtasida ishonch darajasidagi manfiy munosabat kuzatildi ($r = -0,217$;

2-Jadval

Elersning “Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va Gerbachevskiyning “Shaxs motivatsiyasini aniqlash” so'rovnomasi metodikasi Spirmen mezonini bo'yicha korrelyatsion tahlil natijalari tasvifi

Nomlanishi	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi
Ichki motiv	0,512**
Bilish motivi	0,361(**)
Qochish motivi	-0,415(**)
Musobaqalashuv motivi	0,543(**)
Faoliyatni almashirish xohishi	-0,462(**)
O'zini e'zozlash motivi	0,385(**)
Natijalarning ahamiyatligi	-0,021
Vazifalarning murakkabligi	0,066
Irodaviy quvvat	0,350(**)
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	-0,045
O'z imkoniyatlarini baholash	0,264(**)
Quvvatni safarbar eta olinganlik	0,155(*)
Faoliyat natijalarning kutilayotganlik darajasi	0,039
Natijalarning qonuniyatlari	0,112
Tashabbuskorlik	0,094

Izoh: $p > 0,05$; * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Natijalar diqqat bilan o'rganilganda bir qator musbat va manfiy korrelyatsion munosabatlar mavjud ekanligi aniqlandi.

motivatsiyaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: motivatsiya - insonni faoliyatga undashning murakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida extiyojlar, motivlar, qiziqishlar, ideallar, intilishlar, moslashishlar, emotsiyalar, normalar, qadriyatlar va x.k.larni mujassamlashtiradi [2].

$p < 0,01$) Yani bokschilarda mag'lubiyatdan qochish qanchalik ko'p kuzatilsa muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasiga ta'siri shuncha past bo'ladi. Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi qanchalik past darajada kuzatilsa, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yuqorilab boradi deyishimiz mumkin.

Xususan, V.Gerbachevskiy “Shaxs motivatsiyasini aniqlash” so'rovnomasining shkalalaridan biri bo'lganichki motiv bilan muvaffaqiyatga erishish motivi orasiga o'zaro musbat

bog'liqlik mavjud ekanligi namoyon bo'ldi. ($r=0,512$; $p<0,01$). Yani ichki motivning yuqori ko'rsatkichda namoyon bo'lishi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi kuchli bo'lishi mumkin ekan. Buni yana shunday izohlashimiz mumkin. Insonning ichki motivi kuchli va doimiy tarzda mavjudligi muvaffaqiyatga erishishi uchun muhim sanalar ekan. Insonda eng avvalo o'zida ichki xohishi, har qanday faoliyatda o'zi istagandek yutuqlarga erishishida zamin hisoblanadi.

Shuningdek bilish motivining yuqori bo'lishi muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining ham yuqori bo'lishi bilan izohlanar ekan. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va bilish motivatsiyasi o'rtasida ham ishonch darajasidagi musbat munosabat kuzatildi ($r=0,361$; $p<0,01$). Demakki, inson o'zining sohasida mavjud bilimlarni to'liq va ma'suliyat bilan egallashi tanlagan yo'nalishida muvaffaqiyatga erishishida eng asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Qochish motivi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi orasida ham ishonch darajasidagi manfiy bog'liqlik mavjudligi kuzatildi. ($r=-0,415$; $p<0,01$) Bokschilarimiz o'z natijalarini past bo'lishidan qochib, jang qilmaslikka harakat qilishi yoki mag'lubiyat haqida haddan oshiq ko'p o'ylashi natijasida muvaffaqiyatga nisbatan motivatsiya pasayib ketishi holatlari kuzatilishi mumkin ekanligi aniqlandi.

Musobaqalashuv motivi shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasining korrelyatsion tahliliga ko'ra o'zaro ishonch darajasi musbat natija mavjudligi kuzatildi ($r=0,543$; $p<0,01$). Musobaqalashuv motivi yani natijalarning boshqalarnikidan ustunroq bo'lishga harakat qilish muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivatsiyani oshishiga olib kelishi mumkin ekan.

Faoliyatni almashtirish xohishi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalalari o'rtasida ham ishonch darajasidagi manfiy bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatildi ($r=-0,462$; $p<0,01$). Bokschining o'z faoliyatini almashtirish xohishi o'ziga ishonchsizlik yoki faoliyatidan zirikish, sovish kabi yoki shunga o'xshash yengib o'tsa bo'ladigan ruhiy holatlar bilan faoliyatini o'zgartirish xohishi oshib borsa muvaffaqiyat sari intilish motivatsiya pasayib borishi mumkin ekanligini ko'rdik. Yani yetakchi istak va faoliyat sport hamda undagi muvaffaqiyat emas balki faoliyatni almashtirishga bo'lgan xohish ustunlikka chiqib, yetakchi faoliyatga aylanadi hamda muvaffaqiyatga bo'lgan qiziqish so'nib ketishi kuzatilishi mumkin.

O'zini e'zozlash motivi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shkalalari o'rtasida ham ishonch darajasidagi musbat bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatildi ($r=0,385$; $p<0,01$). O'zini e'zozlash ham sportchida katta imkoniyatlarni beradi. O'zini e'zozlash orqali sportdagi har bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

Natijalarning ahamiyatligi hamda vazifalarning murakkabligi shkalalari muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi (Spermin korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)

Nomlanishi	Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi
Ichki motiv	-0,093
Bilish motivi	-0,173**
Qochish motivi	0,233**
Musobaqalashuv motivi	-0,255**
Faoliyatni almashtirish xohishi	0,124*
O'zini e'zozlash motivi	-0,125*
Natijalarning ahamiyatligi	,066
Vazifalarning murakkabligi	,087
Irodaviy quvvat	-0,164**
Natijalarga erishganlik darajasining bahosi	0,011
O'z imkoniyatlarini baholash	-0,096
Quvvatni safarbar eta olinganlik	-0,089
Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi	-0,009
Natijalarning qonuniyatlari	-0,049
Tashabbuskorlik	-0,050

Izoh: $p>0,05$; * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

Shaxs motivatsiyasini aniqlashga yo'naltirilgan V.Gerbachevskiy so'rovnomasining shkalalaridan biri bo'lgan bilish motivi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi orasiga o'zaro manfiy bog'liqlik mavjud ekanligi namoyon bo'ldi. ($r=-0,173$; $p<0,01$). Sportchida bilish motivining past bo'lishi mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lar ekan. Yani sport bilimlarini to'liq egallay olmagan sportchi o'z-o'zidan berilgan topshiriqlarni noto'g'ri bajaradi hamda buning natijasida mag'lubiyat haqida ko'p o'ylash holati namoyon

metodikasi o'rtasidagi ishonchli korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

Muvaffaqiyatga erishish va irodaviy quvvat shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion munosabat kuzatildi ($r=0,350$; $p<0,01$). Yani bokschilarda irodaviy quvvatini kuchli, chidamliligi barqaror bo'lsa, muvaffaqiyatga erishishi ham kuchayishi mumkin ekan. Iroda bu shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarish demakdir [1].

Iroda uchun irodaviy xatti-harakat motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu bois irodaning negizini shaxsning xatti-harakatlari va ishlarining keng ko'lamliligi, rang-barang xususiyatli motivlashtirilishiga omil(turki) tariqasidagi ehtiyojlarni vujudga keltiradi [4].

Psixolog olim S.L.Rubinshteynning e'tirofi etishicha, irodaning manbai ehtiyojning faol jihati bo'lib, u o'ziga jalb qilish, istak yoki xohish ko'rinishida ifodalanadi [6].

Ehtiyojlar xatti-harakatlarga turtki (energiya), yo'nalish va barqarorlikni beradi deb ishonilgan [5,8].

Kiyingi shkalamiz natijalarga erishganlik darajasining bahosi bilan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

Natijalar tahliliga ko'ra o'z imkoniyatlarini baholash shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikalari o'rtasidagi musbat proporsional bog'liqlik mavjud ekanligini kuzatdik. ($r=0,264$; $p<0,01$). Yani bokschilarimizning o'zida mavjud imkoniyatlarini to'g'ri, aniq va yuqori baholay olishi, o'ziga nisbatan adekvat baho qo'ya olishi demak tanlangan sport faoliyatida yutuqlarga erisha olishiga bog'liqlikda amalga oshar ekan.

Quvvatni safarbar eta olinganlik shkalasi hamda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikalari orasida ham musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjud ($r=0,155$; $p<0,05$). Bokschilarimizning o'zidagi kuchi, irodasi, quvvatini to'g'ri safarbar eta olishligi juda muhim. Ayniqsa jang vaqti o'zidagi quvvatni ham aniq ham qay darajada mavjudligiga qarab, raqibi bilan jangni davom ettira olish bilimining yuqori bo'lishi muvaffaqiyatga erishish bilan uzvish bog'liq. Muvaffaqiyatni qo'lga kiritishi yuqorilab boradi.

Faoliyat natijalarining kutilayotganlik darajasi, natijalarning qonuniyatlari, tashabbuskorlik kabi shkalalarining muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi metodikasi bilan ishonch darajasidagi korrelyatsion bog'liqlik kuzatilmadi.

3-Jadval

Gerbachevskiy so'rovnomasining va Elersning mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari

bo'ladi. Imkoniyatlari mag'lubiyat bilan yakun topish holati oshib boraveradi. Inson har qanday sohada bo'lmasin o'sha soha bilimlarini mo'qammal egallamas ekan o'zi va yaqinlari kutgan natijaga erisha olmaydi [7].

Elersning "Mag'lubiyatdan qochish motivatsiya" bilan "Shaxs motivatsiyasini aniqlashga yo'naltirilgan" Gerbachevskiy metodikasining qochish motivi shkalasi o'rtasida ham o'zaro ishonchli musbat korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekan. ($r=0,233$; $p<0,01$). Demakki, natijalarning past bo'lishining oshishi

mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini ham yuqori bo'lishiga sabab bo'lar ekan. Musobaqalashuv motivining past bo'lishi hamda mag'lubiyatdan qochish motivatsiya o'rtasida ham manfiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lib ($r=-0,255$; $p<0,01$), bokschi yoshlarimizning musobaqalarga qatnashib o'zida mavjud kuchni safarbar eta olish motivining past bo'lishi sportchining mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini yuqorilishiga ham sabab bo'lar ekan. Faoliyatni almastirish xohishi shkalasi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiya o'rtasida ham musbat bog'liqlik mavjud ($r=0,124$; $p<0,05$). Sportchi yoshlarimizda faoliyatni almastirish xoxishining oshib borishi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi ham yuqorilab borar ekan. Odam o'z oldiga maqsad qo'yadi, agar maqsad bo'lmasa faoliyat ham bo'lmaydi. Ehtiyoj bilan birga odamda faoliyatning motivlari, ya'ni muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lganichki turtki kuchlar paydo bo'ladi. Bu kuchlar odamni faoliyatga undovchi sababdir, maqsad esa odamning nimagadir intilishi, muayyan ishni bajarishidir. Maqsad hamma vaqt ham motiv bilan mos kelavermaydi. Ammo odamning maqsadi faoliyatning motivga aylangan taqdiridagina muhim omil bo'la oladi. Bunda odamda o'z oldiga qo'ygan vazifani mumkin qadar yaxshiroq bajarishga intilish paydo bo'ladi. Bu esa uning ehtiyoji bo'lib qoladi. Faoliyat motivlari eng yaqin yoki qisqa muddatli va uzoqni ko'zlovchi motivlar bo'ladi. Yaqinni ko'zlagan (qisqa muddatli) motivlar bilan ish ko'rsa, uning faoliyati istiqbolga ega bo'lmasligi mumkin. Bu esa odamning qiziqishlari cheklanganligidan, o'ziga ishonmaslikdan, beqarorlikdan dalolat beradi. O'lisni ko'zlab ish ko'ruvchi (olisni ko'zlagan) motivlar faoliyat qanchalik murakkab, qiyin bo'lmasin oldilariga qo'ygan maqsadni amalga oshirishga harakat qiladilar, qiyinchiliklarni yengib maqsadga erishishiga intiladilar. Demak, faoliyat maqsadlariga erishish uning motivlari mazmuniga bog'liqdir [3].

O'zini e'zozlash motivi shkalasi hamda mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi metodikasining korrelyatsion tahliliga ko'ra o'zaro ishonch darajasi manfiy natija mavjudligi kuzatildi ($r=-0,125$; $p<0,05$). Yani bokschi o'g'il-qizlarimiz o'zini-o'zi e'zozlashining past bo'lishi, imkoniyatlariga yuqori va adekvat baho bera olmasligi mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin ekanligini ko'rishimiz kerak. Bilim, ko'nikma, malakalarini qay darajada ekanligini anglagan holda o'zini va imkoniyatlarini e'zozlashi lozim.

Ayniqsa musobaqa oldi holatlarda raqib bilan bellashganida o'zini hurmat qilishi, e'zozlashi raqibini psixologik mag'lubiyatga uchratishiga zamin bo'lishi mumkin. O'ziga bo'lganishonchni raqib oldida ko'rsata bilish muhim sanaladi. Irodaviy quvvat shkalasi bilan mag'lubiyatdan qochish motivatsiya metodikasi o'rtasida ham o'zaro manfiy ishonchli korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekan ($r=-0,164$; $p<0,01$). Irodaviy quvvatni past bo'lishi mag'lubiyatdan qochish motivatsiya yuqori bo'lishiga sababchi omil bo'lar ekan. "Maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish jarayonida zo'r berish bilan uyg'unlashgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatlar irodaviy harakatlar deyiladi". Shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psixologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi. Shuni ham eslash o'rinliki, shaxsda motivlar kurashining paydo bo'lishi uchun unga mas'uliyat, javobgarlik hissining yo'qlatilishi, irodaviy harakatni amalga oshirish zaruriyati tug'ilishi, mazkur vaziyatda shubhalanish, ikkilanish uyg'onishi favqulodda unda irodaviy zo'r berishlar vujudga kelishi lozim [4] demakki maqsadga erishishda, mag'lubiyat o'rnini muvaffaqiyat egallashida, motivlar barqarorligida irodaviy quvvatning mavjudligi muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Arziqulov, D.N. "Psixologiya va sport psixologiyasi" Darslik. Chirchiq 2020. 134, 195b.
2. Mannapova N.Sh. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. // Biologiya va uni o'qitishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent.: TDPU- 2009. 48-50b.
3. Zufarova M.E. "Umumiy psixologiya" T: 2010. 68b
4. G'oziyev E.G. "Umumiy psixologiya" 1 kitob T: 2002. 115, 240, 243b
5. Ветлужских Е.Н. «Мотивация и оплата труда. Инструменты. Методики. Практика». М.:2011. 20с.
6. Рубинштейн С.Л «Основы общей психологии». Питер, 2002.-666-720 с.
7. Nazarova Z.X. "Bokschi o'g'il bolalar va qizlarning motivatsiya holati natijalarning birlamchi tahlili". "Russian" "инновационные подходы в современной науке". 2023.
8. <https://www.unicef.org>.



Qudrat NAZIROV,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali dotsenti
E-mail: qudratnazirov1979@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

O'ZBEK MILLIY KURASHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada milliy qadriyatlarimizdan bo'lgankurash, uning tarixi, barkamol avlodni tarbiyasida sportning xususan, kurash sportining o'rnini va ahamiyati yoritilgan. Qolaversa, yurtimiz hududidan chiqqan ko'plab mashhur kurashchilar haqida, yurtimizda amalga oshirilayotgan sport sohasidagi islohotlar haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Shaxs, yoshlar, kurash, sport, milliy qadriyatlar, sog'lom farzand.

УЗБЕКСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ БОРЬБА ЕЕ МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В данной статье описывается борьба как одна из наших национальных ценностей, ее история, роль и значение спорта, особенно борьбы, в воспитании зрелого поколения. Кроме того, представлена информация о многих известных борцах нашей страны, о реформах в сфере спорта, проводимых в нашей стране.

Ключевые слова: Человек, молодежь, борьба, спорт, национальные ценности, здоровый ребенок.

UZBEK NATIONAL STRUGGLE, ITS PLACE AND SIGNIFICANCE

Annotation

This article describes wrestling as one of our national values, its history, the role and importance of sports, especially wrestling, in the education of a mature generation. In addition, information is provided about many famous wrestlers from our country, about the reforms in the field of sports implemented in our country.

Key words: Person, youth, struggle, sport, national values, healthy child.

Kirish. Kurash sport turi azal-azaldan oliyanoblik, mardlik va halollik timsoli bo'lib, xalqimizning bir necha ming yillik tarixiga ega milliy-madaniy merosining bir qismi va bebaho boyligi hisoblanadi. Bugun yosh kurashchilar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan Go'ro'g'lining jismoniy kuchliligi, uning jismoniy qobiliyatlari, fazilatlarini, og'ir sharoitlarda sabr-bardosh bera olishi va bunga uning jismoniy tayyorgarligining yordam berishini so'zlab berish yazshi ibrat bo'ladi. Bundan tashqari Respublikamiz hududida yashab ijod qilgan, pahlavonlikning eng yaxshi namunalarini namoyon qilgan Muhammad pahlavon va pahlavon Mahmudlarning jismoniy kuch-qudratlari, ularning jismoniy va axloqiy fazilatlarini haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Butun jahon nigohiga tushib, dovrug' va shuhrat qozonayotgan, millionlarni o'ziga jalb etgan kurash ham jahonning yuksak ma'naviy qadriyatlaridan biri sifatida o'zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportga ayniqsa kurash milliy sportimizni yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrda qaratilgan "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4881-son qarorini misol keltirishimiz mumkin.

O'zbek xalqining kurashchi-polvonlarga bo'lgan hurmati juda katta, chunki ular o'zlarida jasurlilik, mardlik, chidamlilik, ahloqiy poklik, erkevarlikni mujassamlash-tiradilar. Xorazmlik Pahlavon Mahmud (1243-1326) ning nomi tarixdan abadiy o'rin olgan. Futuvvat-juvonmardlik guruhining ulug' peshvolaridan biri. Fors tilida ijod qilgan. Postindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan[1]. U butun umri davomida bellashuvlarda biror marta ham mag'lubiyatga uchrarmagan. Pahlavon Mahmud ko'pgina yurtlarga sayohat qilgan Eronda, Hindistonda va boshqa ko'plab Sharq mamlakatlarida bo'lgan, O'rta Osiyo bo'yab yurgan va hamma yerda kuchli polvonlar bilan kurash tushgan. Lekin hech qayerda na o'z Vatanida va na xorijiy yerlarda uning kuragi yerga tekkan. Pahlavon Mahmud faqat kurashchi-

polvongina emas, balki shoir, mutafakkir, har jihatdan yetuk kishi bo'lgan. Unda yuksak axloqiy fazilatlar, insonparvarlik va jismoniy kamolot mujassamlashgan edi.

Pahlavon Mahmud vafotidan keyin, oradan sal kam yuz yildan ko'proq vaqt o'tgach, Xorazmda yana bir kurashchi - Pahlavon Muhammad yashagan. U ham o'zining o'timishdoshi singari mag'lubiyat nimaligini bilmagan. Toshkentlik Ahmad polvon ham xalq orasida ancha shuhrat qozongan edi. 1895- yili Toshkentga taniqli nemis kurashchisi Rippel keladi va Ahmad polvon bilan kurashish istagini bildiradi. 1895-yil 23-iyunda sirk maydonida kurash bo'ladi hamda u o'zbek polvonining ajoyib g'alabasi bilan tugaydi. Bunda ular klassik kurash bo'yicha musobaqalashishadi. Shunisi xarakterliki, Ahmad polvon milliy kurashdan boshqa hech qanday kurash maktabini o'tamagan edi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay, u aynan klassik kurashda o'zining kuchi, chidamliligi va yuksak kurash mahorati tufayli g'alabaga erishdi. 1911-yili Ahmad polvon birinchi bor fransuzcha kurash musobaqasida ishtirok etib, Germaniya chempioni Gyugner ustidan g'alaba qozondi. 1890-yilda Toshkentda tug'ilgan Toji A'loyev sirk maydonida muvaffaqiyatli qatnashgan. Toji Ahmad polvonning shogirdi bo'lgan. Qizig'i shundaki, klassik kurash bo'yicha maxsus tayyorgarlik ko'rmagan Toji polvon 1919-yili shu kurash turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada o'z og'irlik vaznida g'alabaga erishgan. 1942-yildan boshlab Toji A'loyev o'zbek sirkida o'z san'atini namoyish qila boshlaydi. Respublikada mashhur kurashchilar juda ko'p. Mehnat Qahramoni Hakim polvon Qodirov chorak asr davomida og'ir vaznda muvaffaqiyat bilan kurash tushgan. 1937-yilda Buxoro viloyatida tug'ilgan, erkin va klassik kurash, shuningdek, o'zbek kurashi bo'yicha sport ustasi Ismoil Turobov milliy kurashning nasliy vakili hisoblanadi. Turobovlar uchun kurash oilaviy an'anaga aylangan. Uning otasi, bobosi va amakisi avval ham mashhur polvonlar bo'lganlar. Otasi Turob Sharobov va amakisi Bahrom Sharobov milliy kurash musobaqalarida muvaffaqiyatli qatnashgan va dong taratgan polvonlar edilar. Ularning hammasi ajoyib temirchi-ustalar bo'lishgan. Buxoro amiri Amir Olimxon ularni o'z saroyida kurashchi bo'lib xizmat qilishga taklif etgan. Lekin polvonlar amirga xizmat qilishdan bosh tortganlar va uning

jabrini ko'p marotaba tortishgan[3]. Oila an'anasi, avlodlar estafetasi Turob va Bahrom polvonlarning o'g'illariga ham o'tadi. Ismoil Turobov yoshlik chog'idayoq oilada yaxshigina mashq ko'rди, jismoniy jihatdan yaxshi rivojlanganlik, milliy kurash texnikasini yaxshi bilish Ismoilning katta sport maydoniga chiqishiga yo'l ochdi — u kurashning olimpiada turlarini mukammal egalladi va milliy, erkin hamda klassik kurash bo'yicha uch marta sport ustasi nomini oldi. Ismoil Turobov 1957-yili Tbilisi shahrida o'tkazilgan erkin kurash bo'yicha sobiq ittifoq birinchiligida muvaffaqiyatli qatnashdi. O'sha yili Ismoil uchun sport mahorati cho'qqilarini egallash yili bo'ldi: u Toshkent va Moskvadagi sport festivalida qatnashdi. 1958-yildan 1969-yilgacha Ismoil erkin kurash bo'yicha O'zbekiston chempioni, 1956-yildan 1960-yilgacha milliy kurash bo'yicha chempion bo'lgan. Ismoil Turobov xalqaro maydonlarda mamlakatimizning sport sharafini himoya qilib, sport g'alabalarining shonli yo'lini bosib o'tdi. 1961-yili Chexoslovakiya, Polsha, Bolgariya va boshqa mamlakatlar kurash-chilari ustidan g'alaba qozongan Ismoil xalqaro uchrashuv g'olibi bo'ldi va o'sha yili Afg'onistonning poytaxti - Qobulda o'tkazilgan o'rtoqlik uchrashuvida ishtirok etdi. 1959-yildan 1964-yilgacha Ismoil Turobov erkik kurash bo'yicha O'zbekiston terma jamoasining sardori bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qashqadaryo viloyati o'zbek sportiga juda ko'p ajoyib kurashchi-sportchilarni tayyorlab bergan. Ulardan biri-Sayfiddin Hodiyev. U bosib o'tgan katta sport yo'li murakkab va qiyin bo'lgan. Bir kun kurash musobaqalari bo'layotgan edi. Odatga ko'ra unda faqat kattalar emas, bolalar ham ishtirok etadi. Xodiyevlar qo'shnisining o'g'li - Raim hamma bolalarni tezlik bilan yiqitar edi. U o'rta maktabni tugatib, Toshkent jismoniy tarbiya intitutiga o'qishga kirdi. Talabalik yillarida Sayfiddin sambo to'garagida shug'ullanmoqchi bo'ladi. Lekin sambo uchun uning og'irlik vazni kamlik qiladi (o'sha yillari samboda 48 kg gacha bo'lgan og'irlik vazni yo'q edi). Shu boisdan ham u erkin kurash to'garagiga kiradi. Bu yerda Ye. B. Qoltunov murabbiylik qilar edi. Yaxshi jismoniy tayyorlik, kurash texnikasini mukammal bilish Sayfiddin Hodiyevning ikki marta: birinchi kursda yoshlar o'rtasida, ikkinchi kursda kattalar o'rtasida mamlakat chempioni nomini egallashiga imkon berdi.[4-61] 1974-yil 26-iyulda Ulan Batorda jahon chempionati ochildi. S.Hodiyev Bolgariya, Rkpaniya, Eron, Turkiya Janubiy Koreya, Angliyaning mashhur sambochilari ustidan g'alabaga erishadi. Ammo finalda Sayfiddinni jiddiy raqib - Mongoliya chempioni, ikki marta xalqaro turnir g'olibi Shokdar Monoxul kutar edi. Uchrashuv keskin va mashqaqatli bo'ldi. Shunday bo'lsa ham o'zbek sportchisi raqibini 10:2 hisobida yengdi. U sambo bo'yicha jahon chempioni bo'ldi va jamoaga birinchi oltin medalni keltirdi. Kurashchi Sobir Qurbonov ham katta shuhrat qozongan. 1973-yildan boshlab Sobir Qurbonovning sport biografiyasida xalqaro turnirlar va chempionatlar muhim o'rin tutadi. Madriddagi Yevropa chempionatida u fransuz Jorj Pokat, ingiliz Kilray, bolgar Danov, niderland Dolman, ispan Xose Chechinlar ustidan ajoyib g'alabaga erishdi. Yuksak mahorati va favqulodda sport texnikasi uchun Sobir Qurbonov 1974-yil Yevropa chempionati diplomini va «Ispaniya darvozasi» sovrini bilan mukofotlandi. 1974-yili Ulan Batorda o'tkazilgan xalqaro o'rtoqlik uchrashuvida Sobir Qurbonov mashhur jahon chempioni, mo'g'ul kurashchisi G. Batsux ustidan g'alabaga erishdi. Tomoshabinlar ham, Batsuxning o'zi ham Sobirni jiddiy raqib deb bilmadilar. O'rta bo'yli, sustkash, vazmin, muloyim yigit tortinchoq shogird tasurotini berar zdi. So'zsiz, hiech kim Batsuxning g'alaba qilishiga shubhalanmas edi. Lekin Sobir Qurbonov juda ham tezkorlik bilan hujum qilib, raqibini esankiratik qo'ydi. Batsux ketma-ket berilayotgan hujumni qaytarolmay qoldi. Tezlik, chaqqonlik, kuchlilik, g'alabaga bo'lganirroda, uyushqoqlik bu kurashda Sobir Qurbonovni xarakterlar edi. U alohida usul bilan Batsuxni yerdan ko'tarib oldi va yuqoriga ko'tarib yerga yiqitdi. Bu usul kurashda butunlay yangicha usul edi va u «Qurbonov buramasi» nomini oldi. 1975-yilning sentyabrida Minskda o'tkazilgan jahon chempionatida Sobir Qurbonov beshta sambochi, shu jumladan jahon chempioni Batsux ustidan g'alaba qozondi va sambo bo'yicha jahon chempioni unvonini oldi. Sobir Qurbonov iste'dodli

kurashchigina emas, balki tajribali murabbiy hamdir. U hozirgacha ko'plab sport ustalarini tayyorlagan. O'zbekistonda kurashish san'ati avloddan avlodga o'tib kelayotgan kurashchilar sulolasi bor. Buxoro viloyati Qorakul tumanida Yusupovlar oilasi yashaydi. Bu oilani xalq «bahodirlar oilasi» deb ataydi. Bu bejiz emas, albatta. Ularning bobosi Ro'zmat polvon afsonaviy bahodir bo'lgan, xalq uni Yengilmas deb atagan. Uning nevarasi Tursun Yusupov kuchli, ephil botir, bo'lgan. Yetti o'g'illarining hammasiga u kurash san'atini o'rgatgan. O'zi esa keksalik chog'idaham viloyatda taniqli polvon bo'lgan. O'g'illarini mashq qildirgan va ularga kurash usullarini o'rgatgan. Qadriyatlar inson hayotining turli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini anglatadi. Qadriyatlar moddiy va ma'naviy milliy va umuminsoniy bo'ladi. Shu jumladan o'zbek millatining ham o'z qadriyatlari mavjud. Xususan o'zbek kurashi milliy qadriyatimiz durdonasidir. O'zbek kurashini dunyoga chiqarish bo'yicha hozirda bir qancha amaliy ishlar bajarildi.

Bu o'rinda birinchi galda "Xalqaro Kurash assosiasiyasini qo'llab quvvatlash to'g'risida" 1999-yil fevraldagi Prezident farmoyishi misol bo'la oladi. Hozirda xalqaro kurash assotsiatsiyasi tashkil qilingan va unga 100 dan ortiq davlatlar a'zo bo'lib kirgan. 120 dan ortiq davlatlar xalqaro kurash assosiasiyasini tan oldi va hamkorlikda ish olib borilmoqda. Kurashga oid o'zbekona: dakki, chala, halol, tanbeh, yonbosh, kurash, to'xta, vaqt kabi atamalar dunyo sport maydonlari bo'yab jaranglamoqda. Mustaqillik yillarida Shaxrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva shaharlarida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan xalqaro xotira turnirlari kurashni rivojlanishiga xizmat qildi. Shuningdek kurashni yanada rivojlantirish borasida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi: 1999-yil 10-dekabrda 2000-yilning 10-yanvargacha "Kurash mening iftxorim" shiori ostida kurash oyligi o'tkazildi. "Gilamda polvonlar", "Polvonlar qarimaydi", "Kurash yosh tanlamaydi" shiorlari ostida qator musobaqalarning o'tkazilishi ham kurash muxlislarini befarq qoldirmadi. Kurashni yanada targ'ib etish maqsadida "O'zbek kurashi olimpiya sari" va "O'zbek kurashini qo'llayman" mavzusida tanlovlar e'lon qilindi. Bu tanlov doimiy ravishda televideniya, radio orqali reklama qilib berildi. Tanlov yakunida o'zbek xalqining kurashiga bo'lganmehrinini yana bir bor namoyon etadi. O'zbek kurashi Respublikamizda o'tkazilib kelinayotgan sport musobaqalaridakurashimizni ommalashganini ko'rsatadi. [5-48] Hozirgi kunda O'zbekistonda 300 dan ziyod sport ta'lim muassasalari ishlab turibdi. Bu maktablarda hozirgi zamon sporti shug'ullanuvchilardan milliy qadriyatlarimizni o'zida aks etishni, mehnatsevarlikni o'zini tuta bilishni, salbiy tuyg'ularni yenga bilishni oldiga qo'yan maqsad yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yenga olishni talab etadi. Shuningdek, sport musobaqalarining ham ahamiyati katta. Musobaqa qoidalari sportchilarni raqib bilan qat'iy belgilangan sharoitda kurashishga majbur qiladi. Yosh kurashchidan intizomli, halol va rostgo'y bo'lishnigina emas balki, raqibi, sport hakamlarini xurmat qilishni talab etadi.

Xulosa. Asrlar sinovidan, tarixiy davrlardan o'tgan, mardlar va munosib raqiblar bahsi bo'lgano'zbek kurashi mustaqillik sharofati bilan umumdavlat darajasidagi sport turiga aylanib, butun jahon ahlining nazariga tushdi. O'zbek milliy kurashining sport turi sifatida dunyoga yuz tutushi, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirishga zamindir. O'zbek kurashi bugun o'z dovrug'ini butun olamga yoydi. O'zbek xalqini jahonga tanitdi. Bu milliy o'yinda qo'llanilayotgan bir qator atamalar dunyoning deyarli barcha burchagida yangramoqda. Bularning barchasini zamirida mustaqillikdan keyin o'zimizning ota-bobolarimizdan bizgacha qolib, meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni tiklanishi bugungi kunga kelib ancha jadallashgan deyishimiz mumkin. Shuning bilan birga o'zbek millati, o'zbek tili va boshqa milliy an'analarimizni dunyodagi ko'plab davlatlar bilishi va tan olishiga olib kelmoqda. Xalqaro sport harakatining ilg'or tajribalariga tayangan holda O'zbekistonda jismoniy madaniyat qadriyatlar negizidagi ma'naviy-ma'rifiy madaniyat bilan sug'orilmoqda va o'z navbatida ular qadriyatlarimiz va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda xizmat qilib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Самадова Х. С. (2022). Соғлом турмуш тарзи инсон саломатлигининг асосидир. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(9), 198-201.
2. Komilov A. Kurashish qoidalari va xususiyatlari, kurashish tartibi //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 2. – С. 156-160.
3. Komilov A. X. O'zbek milliy kurashi tarixining o'ziga xos xususiyatlari //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 2. – С. 684-687.
4. Xoshimovich K. A. Sambo kurashchilarda kuch sifatini tarbiyalash metodini takmollashtirish //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 278-281.
5. Komilov A. X. Sportchini texnik mahoratini, sport amaliyotining talabiga va ilmiy-texnik ko'rsatgichlariga qarab takomillashtirish yo'llari //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 11. – С. 625-634.
6. Xolmamatovich J. B. 18-20 Yoshli kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyati //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 292-297.



Azimxon NE'MATOV,
Qo'qon DPI tayanch doktoranti
Mashhuraxon ISABAYEVA,
Qo'qon DPI biologiya kafedrasida dotsenti, PhD
E-mail: mashxuraisabaeva1978@mail.com

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, pedagogika kafedrasida dotsenti, O.Ergashev taqrizi ostida

BIOLOGIYA O'QITIISH METODIKASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR

Аннотация

Maqolada biologiya o'qitish metodikasi o'quv kursida talabalarni mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari imkoniyatlari yoritib berilgan. Biologiya o'qitish metodikasida mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik maqsadi talabalarning faoliyat jarayonida ijodiy, mantiqan, tahliliy faoliyat yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llari asoslab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ishlar mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, kasbiy pedagogik faoliyat, o'qituvchilarning shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, talabalarni o'quv bilish faoliyati.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ

Аннотация

В статье освещаются уникальные педагогические особенности организации самостоятельной учебной работы студентов в методическом курсе преподавания биологии. Дидактическая цель организации самостоятельного обучения по методике преподавания биологии основана на способах развития творческих, логических и аналитических способностей учащихся в процессе деятельности.

Ключевые слова: Содержание самостоятельной работы, ее формы обучения, методы, средства, профессиональная педагогическая деятельность, саморазвитие учителя как личности, активность учебных знаний учащихся.

PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION IN BIOLOGY TEACHING METHODOLOGY

Annotation

The article highlights the unique pedagogical features of organizing students' independent educational work in the biology teaching methodology course. The didactic goal of organizing independent education in the methodology of teaching biology is based on the ways of developing creative, logical and analytical skills of students in the process of activity.

Key words: The content of independent work, its teaching forms, methods, tools, professional pedagogical activity, self-development of teachers as individuals, activity of students' educational knowledge.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda o'quv-pedagogik jarayonga xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, pedagog-kadrlar salohiyatini oshirish xususan, bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishda ta'lim sharoitiga moslash, talabalarning amaliy-kasbiy kompetentligini ilg'or innovatsion metodlar asosida rivojlantirish pedagogik ta'limda turli tadqiqotlarga asos bo'lmoqda. Zero pedagogika Oliy ta'limida barcha ixtisoslik fanlar kabi biologiya o'qitish metodikasini o'qitishda talabalar uchun mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini rivojlantirishga oid metodik bazani rivojlantirish va innovatsion yondashuv asosida mustaqil va ijodiy izlanish kabi faoliyatini optimallashtirish yuzasidan ilmiy tadqiq etishni maqsad etib olindi. 2009-yilning 14-avgustida OO'MTV 286-buyrug'I asosida "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma" joriy etildi. So'nggi yillarda talabalar mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha respublikamiz oliy ta'lim tizimida muayyan pedagogik vazifalar olib borilmoqda. Ushbu vazifalar zahirida, talabaning ta'lim olishini zamonaviy usullarini egallashga, uning ijodiy va mustaqil ta'lim olishini zamonaviy usullarini egallashga, uning ijodiy va mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini o'stirish va fikrlash tarzini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Bu esa talabalarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlashni qayta ko'rib chiqish, mashg'ulotlar bosqichlarida turli zamonaviy metodlar va mutaxassislikgacha bo'lganfan elementlaridan keng foydalanishga o'rgatish, pedagogik amaliyot jarayonida ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning o'z ustida

mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik aspektda tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil faoliyatining umumiy va alohida jihatlari, pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida o'rganish masalasi M.Ochilov, J.G'.Yo'ldoshev, R.H.Djurayev, A.Abdullayev, fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli N.N.Azixodjayevalar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. O'.Q.Tolipovning kasbiy ta'lim tizimida yoshlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari [1], Sh.Sharipovning talabada mustaqil ta'lim shaklida ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik asoslari [2], Sh.Yunusovning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish [3], Z.Nishonova, J. Tolipova va N. Xalilovlarning mustaqil ta'lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. [4]. "Mustaqil ish" tushunchasini "o'z-o'zini tarbiyalash" tushunchasidan farqlash kerak. V.I.Tolkunov tadqiqotlarida o'z-o'zini tarbiyalash mustaqil mehnatdan ajralgan va o'quv jarayoniga parallel ravishda o'tadigan hodisa sifatida emas, balki mustaqil ish bilan bir xil emas, balki uning eng yuqori darajasi sifatida qaraladi. O'quv faoliyati mustaqil ishga asoslanadi. Mustaqil ishlar muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, o'quv topshiriqlarning yechimini topish, o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlash, ko'nikma, malakalarni takomillashtirish, kompetensiyalarini shakllantirish amaliy-laboratoriya mazmundagi kabi mashqlarni qamrab oladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarni fanga oid nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirilishi o'quv rejada berilgan ma'ruza, amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim soatlarini bajarilishida amalga oshirib boriladi. Talabalarining mustaqil ishlari auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlarda tashkil etishdan iborat bo'lib, ularda o'quv topshiriqlarni mustaqil bajarishi uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishiga yordam beruvchi o'qitish shaklidir. Auditoriyada bajariladigan mustaqil ta'lim o'qituvchi va talaba hamkorligida bajariladigan o'quv muammolarini yechimini topishga qaratilgan tizimli faoliyat bo'lib, o'zaro guruhlar o'rtasida kommunikativlikda tashkil etiladi. Professor-o'qituvchilardan auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarining yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta'minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarda pedagogik faoliyatni shakllantirish, fanning o'qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari haqida nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, shuningdek ularda kasbiy mahorat va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kabi masalalarni yoritishda ixtisoslik fani sifatida "Biologiya o'qitish metodikasi" muhim ahamiyatga ega. Barcha o'quv fanlari kabi "Biologiya o'qitish metodikasi" o'quv fanidan ma'ruza, laboratoriya, seminar va amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'qitish tamoyillari, metod va vositalari yuzasidan metodik tavsiyalar va ko'rsatmalar mavjud bo'lib, pedagoglar uchun unumli foydalanish imkoniyatini beradi. Ilmiy pedagogik adabiyotlar va tadqiqot ishlari tahlilidan ma'lum bo'ldiki, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, mustaqil ta'lim mazmuni, shakli, metodlari hamda talabalarining mustaqil ishlari uchun metodik tavsiyalar berilgan [6]. Biroq o'qitish metodikasida talabalarni o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmasini faoliyat usuliga aylantirishning metodik tizimini tadqiq etilishi muhim o'ringa ega. Mazkur jarayon "Biologiya o'qitish metodikasi"dan auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning rolini oshirish professor-o'qituvchilardan talabalarining yuqori darajadagi mustaqil ishlarni bajarishi yuzasidan tayyorgarliklarini ta'minlovchi quyidagi usul va shakllarni ishlab chiqishni talab etadi:

"Biologiya o'qitish metodikasi"da mustaqil ta'limni tashkil etishning og'zaki, amaliy va ko'rgazmali metodlar yordamida tashkil etish;

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda elektron axborot resurs vositalaridan foydalanish imkoniyatidan foydalanish (reproduktiv, produktiv, adaptiv va kreativ standart testlar, keys-stadi o'quv topshiriqlar, jadvalli organeyzer topshiriqlar va x.zo);

"Biologiya o'qitish metodikasi"dan auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida mustaqil, ijodiy, mantiqan va tahliliy fikr yuritish ko'nikmasini tarkib toptiruvchi o'quv topshiriqlar bazasini shakllantirish;

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarni darslik, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rgazma vositalari, masala va mashqlar yechish, amaliy mazmundagi tajriba qo'yish kabilar.

Mustaqil ta'limda talabalarni mustaqil o'quv - bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun innovatsion ta'lim texnologiyasini individual ishlash metodlaridan foydalanish talabalarni berilgan o'quv materialini ustida ijodiy izlanishi, berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishi nazarda tutiladi. Mustaqil ish topshiriqlarini berish, o'quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o'quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvofiq mustaqil ishlarni tashkil etish va ijodiy

topshiriqlar berish uslublari kiradi. O'quv vazifalarini bajarish uchun ishlab chiqilgan metodologiya bizga uchta ketma-ket va o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlarni belgilash imkonini beradi:

1. Maqsadga muvofiqlik bosqichi talabalarni kelgusi faoliyatda umumiy asosda yo'naltirishga qaratilgan. Uning mohiyati shundaki, talabalar topshiriqlarning mazmuni va maqsadini tushunadilar, ularni amalga oshirishning eng mumkin bo'lgan variantlarini aniqlaydilar.

2. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish bosqichi - olingan bilim va ko'nikmalar aniq ishlarni bajarish jarayonida o'zining haqiqiy timsolini topadi. Talabalar o'qitishning asosiy usullari bilan tanishadigan birinchi bosqichdan farqli o'laroq, o'quv-ijodiy bosqich ularni o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llarini izlashni tashkil etadi;

3. Konstruktiv bosqichi o'quv jarayonini ijodiy bosqichda rivojlangan ko'nikmalarni umumlashtirish, talabalarining o'z-o'zini rag'batlantirish harakatlarini oldingi bosqichga teng darajada va yuqori darajada amalga oshirish, vazifalarni hal qilishda ijodiy yondashuvning namoyon bo'lishidir. bu amaliy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va aniq muammolarni hal qilishga, oqilona fikrlash mahoratidan foydalangan holda real obyektlarni yaratishga qaratilgan jarayondir.

Tahlil va natijalar. Pedagog olimi M. Ibovoning ilmiy tadqiqot ishlari mazmunida maktab o'quvchilarida mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot resurs vositalaridan samarali foydalanish metodikasini takomillashtirish yo'llarini yoritib o'tilgan[5]. B.Sattarov va M.Hamidovalar tomonidan talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda jihatlar o'qish bosqichi; muayyan fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi; talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi); fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi; talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi metodik tavsiyalar asosida yoritib berilgan. L.Zaripovning "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish" nomli metodik qo'llanmasida oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish va nazorat qilishga qaratilgan bo'lib, ularning mustaqil fikrlashlarini shakllantirish usul va uslublari ko'rsatilgan bo'lib bizning tadqiqot ishimizni yoritishimizda metodik manba bo'lib xizmat qiladi[7]. Mustaqillikni shakllantirish jarayoni talabalarni o'z ichiga olgan qidiruv vazifalarini tizimli ravishda bajarishni o'z ichiga oladi shunday xarakterdagi vazifalar, ularning echimiga muayyan vaziyatni tahlil qilish, sabablarni aniqlash, taqqoslash va hokazolarning u yoki bu usullari mulohazalar va xulosalar yordamida muhim aloqalarni aniqlash erishish mumkin. Bilim bilan ishlagan holda o'quvchilarda fikrlash, muhim fakt va hodisalarni qayd etish, ular o'rtasida bog'lanish, muhim belgilariga ko'ra o'xshashlik va farqlarni o'rnatish, bir xil faktlarni bir nechta manbalardan solishtirish qobiliyati asta-sekin rivojlanadi. O'quvchilarning tajribasi sezilarli darajada kengayadi, samaraliroq bo'ladi va o'ziga xos deduktiv xulosalarda rivojlanadigan fikrlash samarali faoliyat darajasiga yetadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytishimiz joizki, "Biologiya o'qitish metodikasi"da mustaqil ta'limni tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirish talabalar bilan individual ishlash va ularni o'quv faoliyatini bevosita nazorat qilishga keng imkoniyat yaratishi aniqlandi. Shuningdek har bir talaba fanga ta'liqlik bo'lgan mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'quv portfoliosiga joylashtirish va o'z o'zini nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi nazarda tutildi. Mustaqil ta'lim shakli talabaning fan yuzasidan ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun pedagogik - didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'.Q. Talabalar mustaqil ishlarida o'qitish vositalari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2000. - №1. - B. 45 – 47.
2. Sharipov Sh. S. Talabalar ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. (Mehnat va kasb ta'limi faku'tetlari misolida): Dis. ... ped. fan. nom. – T.: 2000. – 205 b.
3. O'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 1997. – №5. – B. 53 – 55.
4. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'limi. - Toshket, 2001.- №1.- B. 38 – 40.
5. M.Ibovova. Biologiyadan o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi (akademik litseylar misolida) p.f.f.d...diser., T.-2019y, -152b.

6. B.Sattarov, M.Hamidova. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va o'tkazish (Metodik tavsiyalar).- Namangan, 2020.- 20 b.
7. Zaripov, L. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish [Matn] : metodik qo'llanma /L. Zaripov, N. Xayitov, Z. Tohirov. – Toshkent: “Sano-Standart”, 2023. – 32 b.
8. Smirnova N.Z.Berejnaya O.V. Kompetentnostiy podxod v biologicheskom obrazovanii. Uchebno metodicheskaya obrazovanii posobiye –Krasnoyarsk, 2012.–168 s.



Salakhutdin NURITDINOV,
Professor of National university of Uzbekistan
E-mail: nur200848@mail.ru
Sobir TURAEV,
PhD student of National university of Uzbekistan
E-mail: sobr8488@mail.ru

O'zRFA Astronomiya instituti professori K.Mirtadjiyeva taqrizi asosida

PROBLEMS OF THE ACCELERATING EXPANSION OF THE UNIVERSE

Annotation

Observational data from the James Webb Telescope pose significant challenges to the Λ CDM model. This could lead to significant changes to the standard model. The accelerated expansion of the Universe is associated with the redshift of distant objects, and standard cosmology assumes that this redshift is caused by cosmological expansion. In this paper, we consider the alternative possibility that the redshift of distant objects may also be due to the phenomenon of redshift of light in the intergalactic and interstellar media.

Key words: Accelerating expansion, cosmology, intergalactic medium, interstellar medium, modeling, redshift.

О ПРОБЛЕМЕ УСКОРЯЮЩЕГОСЯ РАСШИРЕНИЯ ВСЕЛЕННОЙ

Аннотация

Данные наблюдений телескопа Джеймса Уэбба представляют собой серьезные проблемы для модели Λ CDM. Это может привести к существенным изменениям в стандартной модели. Ускоренное расширение Вселенной связано с красным смещением далеких объектов, и стандартная космология предполагает, что это красное смещение вызвано космологическим расширением. В этой статье мы рассматриваем альтернативную возможность того, что красное смещение далеких объектов также может быть связано с явлением красного смещения света в межгалактической и межзвездной среде.

Ключевые слова: Ускоряющееся расширение, космология, межгалактическая среда, межзвездная среда, моделирование, красное смещение.

KOINOTNING TEZLANISH BILAN KENGAYISHI MUAMMOLARI

Annotatsiya

Jeyms Webb teleskopidan olingan kuzatuv ma'lumotlari Λ CDM modeli uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Bu standart modelda sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Olamning tezlashtirilgan kengayishi uzoqdagi jismlarning qizilga siljishi bilan bog'liq va standart kosmologiyada bu qizilga siljish kosmologik kengayish tufayli yuzaga keladi deb taxmin qilinadi. Ushbu maqolada biz uzoq ob'ektlarning qizilga siljishi ham galaktikalararo va yulduzlararo muhitda yorug'likning qizilga siljishi fenomeni bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lganmuqobil imkoniyatni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Tezlanuvchan kengayish, kosmologiya, galaktikalararo muhit, yulduzlararo muhit, modellashtirish, qizilga siljish.

Introduction. Observing very young massive objects with JWSP poses significant challenges for modern cosmology. In this case, it is useful to introduce new alternatives to standard cosmology and increase the demand for existing alternatives. The new model of the Universe proposed by Perlmutter and his co-authors [1,2] is known to be expanding with acceleration, which was established by them on the basis of observations of type Ia supernovae (SNe Ia) in distant galaxies and the discovery of regular deviations of distances to them from Hubble's law towards them increase. However, without disputing in any way the possibility of the existence of dark energy in the Universe, it is useful to look for an alternative to its expansion with acceleration, if only because the processing of observational data and the calculations of the above authors need clarification on a number of factors. Riess et al. considered some factors of affecting the distance modulus, including effect of a Local Void-very small, Weak Gravitational Lensing, Evolution, Extinction and Light Curve Fitting Method [1]. They consider that all these factors cannot explain for the 0.28m difference in the template-fitting SNe Ia distances and the $\Omega_\Lambda=0$ prediction. Among them, the procedure for determining the distance to a light source requires special attention, since a natural question arises: is the regular deviation of distances related to the effect of a decrease in the brightness of supernova light as it moves in intergalactic space and inside our Galaxy?

Let us first turn to the results of modern observational data performed on the Hubble Space Telescope and large ground-based telescopes. These results show that the understanding of the physical state, structure and distribution of baryonic and dark

matter in intergalactic space today is clearly far from the concept accepted in [1,2], and only now we have deep observations indicating a patchy structure of the distribution of these types of matter in intergalactic space. An example is the work of Whitaker et al. [3], where in the redshift interval $0.5 < z < 2.5$ young galaxies and systems of globular clusters of stars were found inside dark matter in Coma Berenices [4]. Both articles [3,4] were written based on the results of research in 2017. If several dark dwarf galaxies were previously known, now dark spiral galaxies have been discovered [5]. The work of Farrah et al. [6] even discovered super-luminous infrared galaxies with a redshift of $1.5 < z < 3$ inside a dark matter halo with a mass of $6 \times 10^{13} M_\odot$. These super-luminous infrared galaxies are likely the precursors of galaxy clusters or superclusters. Thus, if stars in the Milky Way are born in dark molecular clouds, then it turns out that protogalaxies and young galaxies should be sought within dark matter. The complex, patchy structure of intergalactic matter, which may contain protogalaxies and other types of baryonic matter, suggests that neglecting the effect of weakening the brightness of distant supernovae in intergalactic space, and especially in our Galaxy, is generally unacceptable.

Alternatives to the cosmological redshift. Masanori Sato [7] proposed an alternative interpretation of the theory of the accelerating Universe using experimental data on redshift. At small z (< 0.1), there is no slowdown in the width of the light curve. At large z (> 0.1), a slowing down of the width of the light curve appears. We know Zwicky tired light mechanism based on gravitational redshift is proposed for a diffusion-free and dispersion-independent frequency redshift mechanism.

Although Tired Light Theory is mainly suggested for the static Universe, however, this theory could be attached to the expanding Universe (non-accelerating). Partial correctness of the theory may also damage to the existing standard model. In Tired light theory, redshift is caused not by the cosmological expansion, as in the Λ CDM model, but by the loss of a portion of photon's energy during the intergalactic motion. This loss may be owing to electrons, neutral hydrogen and other substances in the intergalactic medium. Accordance with New Tired Light (NTL) oscillating electrons in the intergalactic environment absorb and reproduce photon, resulting in reduced its energy, wavelengths, and redshift [8]. As photons irradiated by intergalactic electrons are coherent, light cannot dim (interference is not observed). Current intergalactic medium models contend that its mass density: $\rho_M \approx 10\text{--}27 \text{ kg/m}^3$. Using identical electron number density, $n \approx 0.498$ giving a mean free path of $7.13 \times 10^{21} \text{ m}$. If redshift due to interaction between photon and intergalactic medium matter it can't be used it in calculations. Then this result may be sufficient to damage to the SNe Ia cosmology calculations.

Frank R. Tangherlini developed an alternative theory for the expansion of the Universe with acceleration. This theory doesn't keep out the existence of dark energy, although opposed to acceleration, but assumes that there is no negative compressive force (no acceleration) [9]. At $z = 1.65 \pm 0.15$, the Universe expansion coincides with a non-accelerating period [10]. In another paper [11], when $z \approx 0.5$, the visibility of SNe Ia fits to the maximum brightness. This theory opposes the accelerating expansion by supporting the expanding Universe.

The Timescape cosmological model [12] was supposed as a potentially vital Smale & Wiltshire alternative to homogeneous and accelerating model with fluid-like dark energy. This model considered that the redshift value could be greater in Voids, and less in intergalactic and interstellar medium. At present, about 40-50% of the universe is in voids of order 30h-1 Mpc in diameter. According to observations of voids, the present epoch Universe is inhomogeneous on scales below the BAO (Baryon Acoustic Oscillation) in scale of 100h-1 Mpc, while exhibiting the density difference of order 8% in density for sample volumes larger than this scale [13,14]. Timescape cosmology predicted the values that are comparably low at $61.7 \pm 3.0 \text{ km s}^{-1} \text{ Mpc}^{-1}$, being a non-linear average of $50.1 \pm 1.7 \text{ km s}^{-1} \text{ Mpc}^{-1}$ for walls and an apparent maximum of $75.2^{+2.0}_{-2.6} \text{ km s}^{-1} \text{ Mpc}^{-1}$ across voids [51].

Photon transmission in different media. The effect of partial loss of radiation in intergalactic and interstellar space occurs in completely different ways and is cumulative in nature, as a result of which it is lost through absorption. $A''(r) > 0$ in units of magnitude m, which directly enters into the expression for the "absolute magnitude" of the supernova at the moment of its maximum brightness

$$M_{max} = m_{max} - 5lgr - A''(r), \quad (1)$$

Moreover, the value $M_{max} = -19m.07$ (filter B) was established for many supernovae. Formula (1) makes it possible to determine the distance r to the supernova (i.e. to the galaxy), if only we know the value of the total absorption $A''(r)$ in a given direction, which is not a simple task. Note that the authors of [1,2] it is believed that there is a critical value of redshift $z_{cr} = 0.7$, and for $z_{cr} > z$ the light source is in a state where the Universe was expanding at a slower rate and in this case absorption can be neglected. However, in our opinion, the absorption effect must be taken into account regardless of the value of redshift of the supernova. These authors determine the absorption value using an approximate formula known in stellar astronomy, where excess color is involved [3,4]. Numerous calculations of the value known in the literature show that its value depends not only on the type of objects, but also on the direction in our Galaxy. In this regard, below we present another way to calculate the absorption effect.

In (1), the value of the absorption function $A_m(r)$ is determined by the absorption coefficient $a(r)$, which in general depends on the distance r and consists of at least two parts: interstellar $a_{is}(r)$ and intergalactic $a_{ig}(r)$ coefficients absorption, i.e.

$$A^m(r) = \int_0^r a(r) dr = \int_0^R a_{is}(r) dr + \int_0^r a_{ig}(r) dr = J_S + J_G, \quad (2)$$

where R is the distance from us to the boundary of the characteristic size of our Galaxy in the observed direction, which is a function of galactic latitude b .

Analysis of observational data assessing the absorption of light in various directions in the Milky Way shows that the magnitude of absorption is maximum in the equatorial plane of symmetry of our Galaxy and decreases rapidly with increasing galactic latitude b . The Sun is located just near this plane, along which the gas-dust layer of matter is located, since the Galaxy is a system flattened along the z -coordinate with a mass concentration towards this plane. The absorption coefficient $a_{ig}(r)$ is proportional to the distribution density of the gas-dust layer, for which the barometric formula is a fairly good approximation

$$a_{is}(r) = a_0 \exp\left(-\frac{z}{\Delta}\right) = a_0 \exp\left(-\frac{r \sin b}{\Delta}\right), \quad (3)$$

where a_0 is the absorption value in the plane itself, a_{is} is the characteristic half-thickness of the substance layer. Therefore, in (2)

$$J_S = \frac{a_0 \Delta}{\sin b} \left[1 - \exp\left(-\frac{r \sin b}{\Delta}\right) \right] \quad (4)$$

According to observations, $a_0 = 2.m23 \pm 0.m19$, ~ 100 pc, and the value of R depends on b .

As for determining the value of J_S , today this task seems quite difficult due to the lack of observational data and requires, first of all, an analysis of the distribution of gas-dust matter in galaxy clusters and superclusters, since it is believed that electromagnetic radiation interacts very weakly with dark matter, in dense areas in which accumulation of ordinary, observable matter occurs

To estimate the average value of J_G in (2), you can use the normal density distribution

$$a_{ig}(r) = \bar{g}_0 N \sqrt{\frac{a}{\pi}} \exp(-ar^2). \quad (5)$$

here \bar{g}_0 is the average value of the absorption coefficient in a galaxy cluster, N is the number of clusters in a given direction, a is the proportionality coefficient. Substituting (5) and (2) and representing the integral from R to r as the difference of integrals for the intervals $[0, R]$ and $[0, r]$ we find that

$$J_G = \frac{1}{2} \bar{g}_0 N [(\Phi\sqrt{ar}) - (\Phi\sqrt{aR})], \quad (6)$$

where Φ is the symbol of the special function "probability integral". A more accurate estimate of the value obviously requires the accumulation of observational data and the implementation of appropriate additional analysis.

Conclusion. Redshift is a very important concept in astrophysics. It explains the expansion of the Universe and determines the distances to distant objects. In standard cosmology, the cosmological redshift is assumed to be related to the cosmological expansion. But there are a number of alternatives to the occurrence of redshift. In this work, we propose that light experiences external influences as it passes through different media and that the cosmological redshift arises from the absorption and re-emission of light in the intergalactic and interstellar medium. There are a number of alternatives for the origin of the redshift. We assume that the redshift is caused in part by the absorption and re-emission of photons in the interstellar and intergalactic medium, and modulate the passage of light through various media. We need further research to draw a definitive conclusion on our supporting proposal, and we will develop our results in future work.

REFERENCE

1. Adam G. Riess et al., Observational evidence from supernovae for an accelerating Universe and a cosmological constant, *Astrophysical journal*, 116:1009-1038, 1998 September, p.1009,1020, 1028-1034
2. S. Perlmutter et al., measurements of Ω and λ from 42 high-redshift supernovae, *The Astrophysical Journal*, 517 : 565-586, 1999 June 1

3. Whitaker, Katherine E et al., Predicting Quiescence: The Dependence of Specific Star Formation Rate on Galaxy Size and Central Density at $0.5 < z < 2.5$, *The Astrophysical Journal*, 838:19 (19pp), 2017 March 20
4. Pieter van Dokkum et al., Extensive Globular Cluster Systems Associated with Ultra Diffuse Galaxies in the Coma Cluster, *The Astrophysical Journal Letters*, 844:L11 (7pp), 2017 July 20
5. Pieter van Dokkum et al., A high stellar velocity dispersion and ~ 100 globular clusters for the ultra-diffuse galaxy dragonfly 44, *The Astrophysical Journal Letters*, 828:L6 (6pp), 2016 September 1
6. D. Farrah et al., Ultraluminous Infrared Galaxies at $1.5 < z < 3$ Occupy Dark Matter Haloes of Mass $\sim 6 \times 10^{13} M_{\odot}$, *ASP Conference Series*, Vol. 380, 2007
7. Masanori Sato, Tired Light: An Alternative Interpretation of the Accelerating Universe, 20181225 Revised, 20 Oyamazuka, Oiwa-cho, Toyohashi, Aichi 441-3193, Japan, 2019, p.2
8. Lyndon E Ashmore, Calculating the redshifts of distant galaxies from first principles by the new tired light theory (NTL), *IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series* 1251 (2019) 012007, p.1
9. Frank R. Tangherlini, A Possible Alternative to the Accelerating Universe I, II, III, IV, *Journal of Modern Physics*, 2015, 6, 78-87; 2015, 6, 1360-1370; 2016, 7, 1829-1844; 2017, 8, 622.
10. Riess A. G., et al., The farthest known supernova: support for an accelerating Universe and a glimpse of the epoch of deceleration, *The Astrophysical Journal*, 560, 49-71. 2001, p.49.
11. Tonry J. L., Cosmological results from high- z supernovae, *The Astrophysical Journal*, 594, 1–24, 2003, p.2
12. David L Wiltshire, Cosmic clocks, cosmic variance and cosmic averages, *New Journal of Physics* 9 (2007) 377, p.3
13. David W. Hogg et al. Cosmic homogeneity demonstrated with luminous red galaxies. arXiv:astro-ph/0411197v1 8 Nov 2004, p.1
14. Sylos Labini F. et al. Testing the Copernican and Cosmological Principles in the local Universe with galaxy surveys, arXiv:1006.0801v1 [astro-ph.CO] 4 Jun 2010, p.1



Bahodirjon OMONOV,
QDPI Ta'lim menejmenti dotsenti, PhD
E-mail: bahodironov33@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-2112-1756>

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Sh.Nematov taqrizi asosida

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ZARURATI

Annotatsiya

Maqolada milliy uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishning innovatsion yo'li – kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan, ya'ni individning layoqatini aniqlash va qobiliyatini baholash orqali kasbiy mahoratga yo'naltirishning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Individ, kompetensiya, layoqat, qobiliyat, mahorat, kompetensiyaviy yondashuv, milliy tizimli ta'lim-tarbiya, yo'naltirish, uzviylik, uzluksizlik.

THE NEED TO FORM ECOLOGICAL CULTURE THROUGH ECOLOGICAL EDUCATION

Annotation


The article reveals the innovative ways to improve the national system of continuing education – based on a competency-based approach, that is, the specifics of the orientation to professional skills by identifying the abilities and assessing the abilities of the individual.

Key words: Individuality, competence, ability, ability, skill, competency approach, national systemic education, redirect, membership, continuity.

Kirish. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.4-bandida “Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish...” masalasi qo'yilgan. Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'llaridan biri unga kompetensiyaviy yondashishdir. 2012-yildan boshlab milliy ta'lim o'quv dasturlarida mazkur masalaga alohida urg'u berilgan. Lekin “kompetensiya” termini turli normativ hujjatlar va o'quv adabiyotlarda turlicha talqin qilinmoqda. Masalan, maktabgacha ta'limning “Ilk qadam” o'quv dasturida kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarini majmui sifatida aks ettirilgan[1]. Vaholanki, endigina bog'chaga qadam qo'ygan bolada ta'limga tegishli – bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyaga tegishli qadriyat elementlari bormikan. Mazkur dasturda tarbiyalanuvchilarning 4ta: kommunikativ, o'yin, ijtimoiy, bilish kompetensiyalarining mazmunini ochib berishga harakat qilingan. Bu 3–7 yoshdagi bolaning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va qadriyatini baholashga imkon berarmikan? Yo'q, albatta. Unda kompetensiya termini nimani anglatadi va uni ta'lim-tarbiyada qanday ahamiyati bor?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur muammoning nazariy va metodik jihatlari tegishli tadqiqotlarni 1-jadval.

Yuksak madaniyatli shaxsni tarbiyalash formulasi



Chunki inson ma'naviyati tarbiya orqali, ma'rifati esa ta'lim orqali shakllanadi. Yuksak madaniyatli shaxsgina jamiyatda farovon hayot sari intila oladi va odamzod uchun xizmat qiladi[4]. Kishi ma'naviyatli bo'lsa-ku, ma'rifatli bo'lmasa, u zamonamizdan orqada qoladi. Ma'rifatli bo'lsaku, ma'naviyatli bo'lmasa, olgan bilimni yomonlikka ishlatadi. Kishi ham bilimli ham tarbiyali bo'lsagina el-yurt uchun foydasi tegadigan “inson” bo'lib yetishadi. Lekin, fanda “ta'lim” va “tarbiya” atamallari alohida kategoriya yoinki insonning faoliyat turidir.

xorijda (Maria Eduarda Ferreiraa, Catarina Cruza, Rui Pitarmab, 2016-yil) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular chiqindishunoslik ta'limi va tarbiyasini aynan maktabgacha yoshdagi bolajonlarga berishdan boshlash kerakligi va uni ekologik ta'limga integratsiya qilish orqali olib kirishni taklif qilganlar. Rossiyalik Y.A.Sidyakina, (2013) tadqiqotlariga ko'ra ekologik, jumladan chiqindishunoslik ta'limi umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich qismida ekotizimlar haqida qanday o'ylashni emas, balki qanday fikr yuritishni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur, deb xulosa qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimidagi pedagogik metodlar tizimi aniqlandi va ular quyidagi ierarxik pog'onaga joylashtirildi:

mavzuga tegishli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish; faoliyat samaradorligini aniqlash va tajribalarni joriy qilish holatini baholash;

Tahlil va natijalar. Avvalambor, O'zbekistonda ta'lim va tarbiyaning yagona bir maqsadga – yuksak madaniyatli shaxsni tayyorlashga yo'naltirilganligini e'tirof qilmoqchimiz. Yuksak madaniyat esa quyidagi hayotiy formulaga: tarbiyaga asoslangan ma'naviyat va ta'limga asoslangan ma'rifatdan kelib chiqadi.

Rivojlangan davlatlarda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ijtimoiy kategoriyadagi ta'lim-tarbiya kishilarga emas, aynan kishiga qaratilgan[6]. Sobiq Ittifoq davrida jamoaviy-ommaviy ta'limda ishlatilgan “biz” o'rmiga, endilikda individ yoki jismoniy shaxsga qaratilgan “men” so'zi ishlatilmoqda. Zero ta'lim-tarbiyada har bir kishiga individual yondashish o'ta muhim ahamiyatga ega va o'ziga xosdir.

“Kompetensiya” degan termini fanga ilk bor 1972-yilda Fransiya ta'lim vaziri Edvard For BMTning YUNESKO tashkiloti qoshida tuzilgan komissiya hisoboti uchun tayyorlangan

“O'qimoq” degan ma'ruzasi orqali olib kirdi[3]. Komissiya “Hayot uchun ta'lim konsepsiyasi”da uzluksiz ta'lim jarayonida kishi kompetentligini to'rt darajada baholashni taklif qildi:

bilimlardan foydalanmoq, ya'ni ta'lim oluvchini keng umumiy bilimlar orqali tor doiradagi chuqurlashtirilgan holda mehnat qilishga tayyorlash;

ishni bajarmoq, ya'ni ta'lim oluvchini standart shaxsiy ko'nikmalardan tashqari komanda bilan ishlashga o'rgatish;

birgalikda yashamoq, ya'ni ta'lim oluvchini o'zgarlarni tushunish va mojarolarni xal qilishga tayyorlash;

rivojlanmoq, ya'ni o'quvchining shaxsiy hislat va imkoniyatlarini kengaytirish orqali “inson potentsialini” oshirishga tayyorlash.

Bunda E.For ta'lim-tarbiyani bilim berish, ko'nikma hosil qilish, malakasini oshirishga emas, balki uni hayotga yo'naltirishga harakat qilgan. Biz ham ushbu yo'naltiruvchi g'oya(konsepsiya)dan chetga chiqmagan holda, uzluksiz va uzviylashgan milliy ta'lim va tarbiyani hayotga, to'g'rirog'i, kasbga qaratishga harakat qilamiz.

Mazkur kompetentlik darjasini egallash kishining butun hayot faoliyati davomida amalga oshiriladi va unga shaxsiy yoinki kasbiy muammolar tug'ilgan tarzda ta'lim olish imkoniyatini beradi. Keyingi 10-15-yil ichida pedagogika fanlarida kompetentlikka qaratilgan dissertatsiyalar va maqolalar soni bir necha o'n barobarga oshgan[5]. Lekin hanuzgacha uning asl ma'nosiga oid juda xilma-xil fikr va mulohazalar mavjud[2]. Odatda kishini:

fanda – har bir hodisa, jarayon, holat yoki voqeani ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bera oladigan jismoniy shaxs;

2-jadval

Milliy ta'lim tizimidagi kompetensiyalar

Ta'lim turlari va kompetentlik ko'rsatkichlari	Umumiy o'rt	Maktabgacha
O'rt maxsus, kasb-hunar	Umumiy o'rt	Maktabgacha
kommunikativ; axborotlar bilan ishlash; o'zini o'zi rivojlantirish; ijtimoiy faol fuqarolik; milliy va umummadaniy; matematik savodxonlik; fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish.	kommunikativ; axborot bilan ishlash; shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish; ijtimoiy faol fuqarolik; umummadaniy; matematik savodxonlik; fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish.	jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.

Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, birinchidan, qobiliyat shaxsga emas, balki jismoniy shaxs tegishli. Zero yurisprudensiyada shaxs ikkiga: jismoniy va yuridik shaxsga ajratiladi. Ikkinchidan, layoqat alohida bir jismoniy shaxsning individual ko'rsatkichi. Shuning uchun ham, “O'zbek tilining izohli lug'ati”dagi ikkinchi ta'rif iste'dod, talant so'zlari bizning holatga juda mos tushadi. U kishida genetik xususiyat kasb etadi. Masalan, san'atga qobiliyatli, texnik qobiliyatli, badiiy adabiyotga qobiliyatli, sportga qobiliyatli jismoniy shaxs va h.k. San'atda

3-jadval

Kadrlar tayyorlashning faoliyat sohasi va unga kompetensiyaviy yondashish

Kadrlar tayyorlash sohasi	Kompetentlik ko'rsatkichlari va baholash darajalari		
	Layoqat	Qobiliyat	Mahorat
San'at va ijodiy faoliyat sohasida	3-darajali	1-darajali	2-darajali
Pedagogika sohasida	1-darajali	3-darajali	2-darajali
Ishlab chiqarish sohasida	3-darajali	2-darajali	1-darajali

Layoqat – biror ishga yaroqlilik, qodirlik, qobiliyatlik[8]. Bu o'rinda yaroqlilik va qodirlik so'zlari ta'lim sohasiga mos tushadi. Qobiliyat esa, biz yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, alohida bir ma'noga ega tushuncha. Masalan, psixologik, mehnatsevarlik va kasbiy layoqatlar va h.k. Ta'lim-tarbiyada u pyedagogning qo'l ostidagi o'quvchilarni o'z yaqinidek hurmat qilishi, ardoqlashi, bor vujudi bilan o'z kasbiy mahoratga kirishi, e'zozlashi va mehnatsevarligida namoyon bo'ladi[10]. Bunday fazilat pedagog uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham, pedagog kasbini tanlamog'chi bo'lgan jismoniy shaxslarning, avvalambor, layoqat darajisini aniqlash va uni rivojlantirishga doir ta'lim-tarbiya berish zarur.

ta'limda – rasmiy ta'lim normativ-hujjatlarda belgilangan talablarga mos bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lgan hamda ularni o'z hayot, jumladan mehnat faoliyatida qo'llay oladigan kishi;

amaliyotda – hayot, jumladan mehnat faoliyat tajribasiga ega bo'lgan, o'z sohasida kishilarga ustozlik yoki murabbiylik qila oladigan mutaxassis sifatida qaraladi. Bu ham kompetensiyaning asl mohiyatini ochib bermaydi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda “kompetensiyani shakllantirish” emas, balki “kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya” deyish har jihatdan o'rindidir. Masalan, 2015-yilda Respublika ta'lim markazi tomonidan tayanch va xususiy kompetensiyalar belgilangan (1-jadval). Bunda xususiy kompetensiyalar har bir o'quv faniga tegishli ravishda ishlab chiqilgan hamda DTSda hamda o'quv dasturlarida aks etgan.

Bizning fikrimizcha, kompetensiya – kishi, jismoniy shaxs yoki individning layoqat, qobiliyat va mahorat darajasi. Chunki, 1-jadvalda ko'rsatilgan tayanch va xususiy kompetensiyalarni ta'lim oluvchi individning layoqat, qobiliyat va mahorat ko'rsatkichlari sifatida aks ettirish mumkin-ku. Masalan, qobiliyatga – matematik, kommunikativ, musiqiy, texnik, ijodiy kabi ko'rsatkichlarni kiritish. Layoqatga – kasbiy, psixologik, pedagogik, ilmiy kabilar. Mahoratga – matematik savodxonlik, nutq, fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish, o'qish va yozish, axborotlar bilan ishlash kabilarini kiritish.

Qobiliyat – bilim, ko'nikma va malakalardan farqli o'laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning biron bir ishni uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarini ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari[7].

qobiliyat jismoniy shaxsning birlamchi individual ko'rsatkichiga kiradi va shuning uchun ham kadrlar tayyorlashda jismoniy shaxsning ushbu xususiyatini inobatga olish birlamchi ahamiyat kasb etadi (2-jadval). Sanoatning ishlab chiqarish sohasiga tayyorlaydigan ta'lim-tarbiyada va ishga qabul qilinayotgan jismoniy shaxsning mahorati o'ta muhim ko'rsatkichga ega[11]. Pedagogika sohasida esa individning layoqati 1-o'rinda inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Mahorat – mohirlik, ustalik, epchillik[9]. Oddiygina qilib aytganda, jismoniy shaxsning mahorati – o'z kasbining ustasi va mazkur kasb bo'yicha ustozlik qila olish darajasi. Har bir ishning mohir ustasi, uning tegishli sohani bilishi, unga oid malaka tajribasiga ega ekanligi bilan bahonaladi. Shuning uchun ham u ta'lim amaliyoti, ya'ni jismoniy shaxsning olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay va shogirdlarni tayyorlay olish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Mahorat, nafaqat, bilim va ko'nikmaga, balki katta hayotiy tajribaga ham suyanadi. Ishlab chiqarish korxonalarida jismoniy shaxsning mahorat darajasi birlamchi kompetentlik ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagi metodologik holatdan kelib chiqqan tarzda zamonaviy an'anaviy ta'lim – kishini hayotga, jumladan,

mehnatga tayyorlashning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan tizimlashgan, rasmiy, muddatli, tegishli bilim, ko'nikma va malaka berish vositasi. Aynan kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limda o'ta muhim o'rin egallaydi. Chunki har bir kishi(individ)ni, avvalambor, kasbiy layoqatini aniqlash, unga tegishli qobiliyatini baholash, so'ngra, kasbiy mahoratga tomon yo'naltirish maqsadga muvofiq. Ta'lim-tarbiya individni kompetentlik darajasiga monand ravishda uzviylashgan va uzliksizliklashgan tarzda olib borish milliy ta'limning hozirgi zamon talablariga juda mos tushadi. Chunki ana'anviy ta'limning maqsadi – hayotning barcha jabhalariga yoki iqtisodiyot sohalariga kadrlar tayyorlash. Shuning uchun ham, 1999-yil 29-avgustda "Ta'lim to'g'risida"gi O'zR qonuni bilan bir paytda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingan hamda Dastur qonun maqomini olgandir.

Yaponiya va Janubiy Koreyaning ta'lim-tarbiyasida bolajonlarni kasbga yo'naltirish bog'chadan boshlanadi[10].
4-jadval

Ta'lim turlari bo'yicha individga kompetensiyaviy yondashish

T/r	Ta'lim turi	Individga kompetensiyaviy yondashish
	Maktabgacha	Uch yoshligida bolajonning layoqati aniqlanadi → qobiliyat darajasini baholanadi → tegishli kasbiy mahoratga tomon yo'naltiriladi
	Umumiy o'rta (maktab)	1-4-sinfda o'quvchining layoqati va qobiliyatiga aniqlik kiritiladi → kasbiy mahorat sohasini tanlashga ko'maklashiladi. Yuqori sinflarda o'quvchining mahorati oddiydan murakkabga tomon oshirilib boriladi.
	Maktabdan tashqari	Mahorat darajasining innovatsion yo'nalishlari bo'yicha o'quvchini tegishli to'garaklarda faol ishtirok etishi ta'minlanadi.
	O'rta maxsus (akademik litseyda)	Kompetentlik darajasiga qarab o'quvchini oliy ta'limning kasbiy yo'nalishiga tayyorlanadi.
	Kasb-hunar	Kompetentlik darajasiga qarab o'quvchini kasb-hunarga tayyorlanadi.
	Oliy	Bakalavrni ishga joylashtirish va lavozim darjasini belgilash nuqtayi nazardan kompetensiyaviy darajasi ta'minlanadi. Magistrni ijodiy kompetentligiga qarab tegishli ilmiy sohani tanlashga va innovatsion faoliyatga yo'naltiriladi.
	Oliy ta'limdan keyingi	Doktorantlarning ilmiy yo'nalishi, rahbari va opponentlarini belgilashda ularning ixtisoslik shifri emas, balki kompetensiyaviy darajasiga qaratiladi.
	Malaka oshirish	Tinglovchining kompetensiyaviy darajasi aniqlanadi → tegishli kasbda oqsayotgan darjasi bo'yicha malaka oshirish yo'nalishi va ta'lim muddati belgilanadi.
	Qayta tayyorlash	Tinglovchining kompetentlik darajasiga qarab kasbiy ta'lim yo'nalishi aniqlanadi va o'qish muddati belgilanadi.

ADABIYOTLAR

1. "Ilk qadam" MTMning davlat o'quv dasturi. I.V. Grosheva va boshq.– T.: MTV, 2018.–6-b.
2. Chomsky N. Fspekt of the theory of syntax. Cambridge.- R.198-199.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/For,Edgar>.
4. Nigmatov A.N., Omonov B.O. (2021). Waste: The Experience Of Creative Approach, Innovative Suggestion And Practical Classification. The American Journal of Applied Sciences, 3(03), –P.56-63.
5. Omonov B.O. Model for the development of environmental competence of directors of pei in advanced training courses on waste management. Frontline social sciences and history journal, Table of Content – Volume 03 Issue 02 (February). –P.46-57. (Global impact factor 6.8).
6. Yermakov D.S. Kompetentnyy podxod v obrazovanii // J. Pedagogika. № 4.-M.,2011.- S. 8-15
7. Qobiliyat. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-j.–T.: "O'zME DIN", 2008.–317-b.
8. Layoqat. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-j.–T.: "O'zME DIN", 2006.–483-b.
9. Mahorat. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-j.–T.: "O'zME DIN", 2006.–575-b.
10. Petinenko I.A., Tkach A.A. Sistema obrazovaniya v Yaponii: chtu vedet etu stranu k uspehu? – Vestnik Tomskogo gosuniversiteta. №2, 2012. – S. 174-178; BBC news | UK | Education | South Korea's education success.
11. Omonov B.O. (2023). Educational technologies used in teaching topics related to the development of environmental competence in waste management. current research journal of pedagogics, January 30, 2023-y. 4(01). – P.62–67. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-01-10>. DOI-10.37547/social-fsshj (Global impact factor 8.145).



Nurilla ORINBETOV,
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti
E-mail: nurilla75@bk.ru

TATU director v.v.b, prof. R. Oteniyazov taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR THE FORMATION OF TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

Annotation

This article provides information about the main tasks of future teachers of technological education that require a special approach to the formation of technical and technological competence.

Key words: Technical and technological competencies, digital technologies, case method, integration, pedagogical technology, trend, objectivity, logistics.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТЕХНИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье представлена информация об основных задачах будущих педагогов технологического образования, требующих особого подхода к формированию технико-технологической компетенции.

Ключевые слова: Технические и технологические компетенции, цифровые технологии, кейс-метод, интеграция, педагогическая технология, тренд, объективность, материально-техническое обеспечение.

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TEXNIK VA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Аннотация

Mazkur maqolada bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining texnik-texnologik kompetensiyani shakllantirishga alohida yondashishni talab qiluvchi asosiy vazifalar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Texnik va texnologik kompetensiyalar, raqamli texnologiya, keys metodi, integratsiya, pedagogik texnologiya, tendentsiya, obyektiv, moddiy-texnik ta'minlash.

Kirish. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlariga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Kompetentlik" so'zining ma'nosi xabardorlik, obro', o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi. Kompetensiya-shaxsiy sifat bo'lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalangan qobiliyat, bilim, ko'nikma va malaka hisoblanadi[1].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Pedagogikada kompetent yondashish mutlaqo yangi hodisa emas, balki uning irmoqlari uzluksiz rivojlanib boruvchi ta'lim jarayonlarida mavjud bulib, ular bosqichma-bosqich shakllangan edi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos muammolari V.A. Adolfa, Yu.V. Vardanyan, S.M. Godnik, N.N. Lobanova, L.A. Orlova, E.M. Pavlyutenkova, V.G. Podzolkova, N.E. Shchurkova N. V. Kuzmina, A. K. Markova, E. F. Zeer, V. A. Slastenin, M. Ochilov, U. Maxkamov, S. Ochilov, O. Musurmonova, N. A. Muslimov va boshqalar tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi masalalari zamonaviy xorijiy olimlar (G. Moskovit, R. L. Oksford, R. S. Skarcella, G. Yulius) asarlarida ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta'lim makonida, ayniqsa, texnik mutaxassislarni tayyorlash sohasida o'rganishga amaliy yo'naltirilgan yondashuvga e'tibor qaratilmoqda. Bakalavriat ta'limi sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlash texnik va texnologik kompetensiyani shakllantirishga alohida yondashishni talab qiluvchi asosiy vazifalardan biridir. Bu talabalarga nafaqat joriy bilim va

ko'nikmalarni berish, balki ularning egallagan malakalarini haqiqiy ta'lim amaliyotida qo'llash qobiliyatini ta'minlash zarurati bilan bog'liq.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilari uchun texnik va texnologik kompetensiyaning ahamiyatini ortiqcha baholash qiyin. U o'quv jarayonini samarali amalga oshirish imkonini beruvchi, texnologik yangiliklar va texnika yutuqlarini amalda qo'llashga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini ifodalaydi.

Bugungi jadal rivojlanayotgan, texnologiyalar har kuni yangilanib borayotgan sharoitda o'qituvchining nafaqat bu o'zgarishlarni kuzatish qobiliyati, balki ularni oldindan ko'ra bilishi ham ta'lim jarayoni muvaffaqiyatining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

Texnologik kompetensiya nafaqat muayyan texnologiya yoki texnikani egallash, balki ular qanday ishlashini tushunish, yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga tanqidiy baholash va integratsiya qilish qobiliyatini, shuningdek, talabalarni texnologik bilimlarni real hayotda faol qo'llashga o'rgatish va rag'batlantirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Bu bilim va malakalar majmuasi bo'lajak texnologiya o'qituvchisidan nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki yuksak darajada rivojlangan amaliy ko'nikmalarni, shuningdek, doimiy ravishda o'z-o'zini takomillashtirish va malakasini oshirishni talab qiladi.

Ushbu ishda taqdim etilgan texnik va texnologik kompetensiyani rivojlantirish metodologiyasi integratsiyalashgan yondashuvga asoslangan bo'lib, u quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: nazariy tayyorgarlik, amaliy ish, loyiha faoliyati va aks ettirish. Bunday yondashuv nafaqat talabalarga kerakli bilimlarni berish va ko'nikmalarni rivojlantirish, balki o'quv jarayonida kasbiy o'ziga xoslik va mustaqillikni shakllantirishga hissa qo'shish imkonini beradi.

Nazariy mashg'ulotlar talabalarning texnologiya va texnika sohasida chuqur bilimlarini shakllantirish, ularning tarixiy rivojlanishi, hozirgi holati va istiqbollarni tushunishga qaratilgan.

Bu esa bilimlarni keyinchalik amaliy faoliyatda qo'llash uchun zaruriy asos yaratadi[3].

Amaliy ishlar talabalarning nazariy bilimlarni real sharoitlarda qo'llash, o'z loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, zamonaviy texnologik vositalar va usullardan foydalanishga qaratilgan turli topshiriqlarni bajarishlarini o'z ichiga oladi. Bu talabalarga zarur ko'nikmalarni amaliyotda o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni shakllantirish imkonini beradi[4].

Shunday qilib, texnik va texnologik kompetentsiyani rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan metodologiya ko'p qirrali bo'lib, bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularga zamonaviy o'quv jarayonining vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashning muhim jihati ta'lim jarayoniga innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Bu nafaqat texnik fanlarning jadal rivojlanishi va kasbiy faoliyatning o'zgaruvchan sharoitlariga moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati, balki raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvini talab qiluvchi yangi ta'lim standartlari bilan ham bog'liq. Shunday qilib, o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining texnik va texnologik kompetentsiyasini shakllantirishning asosiy elementiga aylanadi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida texnik va texnologik kompetentsiyani shakllantirish jarayoni o'qitish usullari va tamoyillarini tanlashga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Zamonaviy ta'lim tendentsiyalari va kasbiy muhit ehtiyojlarini tahlil qilish asosida quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga olgan metodologiya ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich kompetentsiya darajasi diagnostikasi-birinchi bosqichda talabalarning texnik va texnologik fanlar bo'yicha hozirgi bilim, ko'nikma va malakalari darajasi baholanadi. Bu o'quv jarayonini o'qituvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

2. Faol usullardan foydalangan holda nazariy tayyorgarlik-bu bosqichda talabalarga texnik va texnologik fanning asosiy jihatlari bo'yicha nazariy asoslar beriladi. Keys metodi, munozaralar, aqliy hujum kabi faol ta'lim usullaridan foydalanish materialni chuqur anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi.

3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda amaliy ishlar- bu bosqichda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga alohida e'tibor beriladi. Talabalar zamonaviy texnologik vositalar va usullardan foydalangan holda real hayotdagi loyihalar ustida ishlaydi. Bu nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

4. Mulohaza va o'z-o'zini baholash-amaliy topshiriqlarni bajarib bo'lgach, talabalar o'z ishlarini tahlil qiladilar, muvaffaqiyatli yechimlar va takomillashtirishni talab qiladigan nuqtalarni aniqlaydilar. Mulohaza o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini takomillashtirish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, bu bo'lajak o'qituvchi uchun muhim mahoratdir.

5. Bilimlarni integratsiyalash va tizimlashtirish-yakuniy bosqichda talabalar o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni murakkab fanlararo masalalarni yechishda qo'llagan holda birlashtiradi va tizimlashtiradi. Ushbu bosqich kasbiy faoliyatning yaxlit tasavvurini shakllantirishga imkon beradi va innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Bu metodologiya nazariya va amaliyot o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni nazarda tutadi va talabalarning zamonaviy texnologik resurslardan faol foydalanishiga qaratilgan. Bunday yondashuv nafaqat materialni chuqur o'rganishga yordam beradi, balki o'quvchilarda kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Metodikani amalga oshirishning asosiy prinsipi har bir talabaga individual yondashish bo'lib, uning shaxsiy qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi va moyilligini hisobga olishga imkon beradi. Bunga ta'lim jarayonining moslashuvchanligi va o'quv

materiallari va topshiriqlarini muayyan talabaga moslash qobiliyati tufayli erishiladi[5].

Ushbu metodikaning o'quv jarayoniga joriy etilishi o'qituvchilardan nafaqat texnik va texnologik fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarini ham puxta egallashni talab etadi.

Bundan tashqari, o'quv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning tez o'zgaruvchan texnologiyalar sharoitida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatning asosiy sharti bo'lgan uzluksiz ta'lim va o'z-o'zini takomillashtirishga tayyorligini shakllantirishga e'tibor berish muhimdir. Bu nafaqat maxsus texnik bilimlarni egallashni, balki yangi axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va qo'llash, shuningdek, yangi texnologik tendentsiyalarga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologik yechimlardan foydalanishga yo'naltirilgan texnologik ta'lim o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish tadqiqot ishlarining muhim qismiga aylanib bormoqda. O'quv rejasiga dasturlash asoslari, raqamli asbob-uskunalar bilan ishlash va kompyuter modellashtirishdan foydalanish bo'yicha modullarning kiritilishi bo'lajak mutaxassislariga olingan bilimlarni maktab amaliyotida yanada samarali qo'llash imkonini beradi.

Shunday qilib, texnik va texnologik fanlarni bakalavriat ta'lim jarayoniga integratsiyalash kompleks yondashuvni, jumladan, o'qitishning adekvat uslublarini ishlab chiqishni, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirishni hamda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining texnik va texnologik kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan o'qitish metodlari samaradorligini baholash nuqtai nazardan, talabalarning kasbiy tayyorgarligi darajasini etarli darajada aks ettira oladigan mezon va ko'rsatkichlarni, shuningdek, olingan natijalarning obyektivligi va ishonchliligini ta'minlaydigan usullar va baholash vositalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega[6].

Texnik va texnologik kompetentsiyani baholash uchun turli usullardan foydalanish mumkin, shu jumladan test, talaba portfelini tahlil qilish, loyihalash va tadqiqot ishlarining bajarilishini baholash, shuningdek, o'quv jarayoni va talabalar faoliyatini monitoring qilish imkonini beruvchi zamonaviy raqamli vositalardan natijalar real vaqtda foydalanish. Bundan tashqari, baholash jarayonida o'zaro baholash usullaridan foydalanish mumkin, shu jumladan ishi tashqi va o'zaro tekshirish, bu baholashning obyektivligini oshirishga va professional hamjamiyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining texnik-texnologik kompetentsiyasini rivojlantirish sharoitida ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyatiga e'tibor qaratish kerak. Bu hamkorlik o'quv dasturlari dolzarbligini ta'minlash va talabalarga bugungi mehnat bozori talabalariga javob beradigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Bunday hamkorlikning asosiy maqsadlaridan biri talabalarning ishlab chiqarishda amaliyot va amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish, o'quv kurslari va loyihalarni amalga oshirishda soha mutaxassislarining ishtirokini o'z ichiga olgan qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni ta'minlashdan iborat. Bunday yondashuv talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni amaliy qo'llashni chuqurroq tushunishga, balki muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga imkon beradi.

O'quv dasturlarini yangilash va takomillashtirish, ularni mehnat bozori va texnologik taraqqiyotning o'zgaruvchan talabalariga moslashtirishga ko'maklashuvchi ilmiy doiralar va soha vakillari o'rtasida bilim va tajriba almashish ham hamkorlikning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Korxonalar, o'z navbatida, malakali mutaxassislariga ega bo'lib, bo'lajak xodimlarni tayyorlash jarayoniga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda, bu esa ularning raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda[7].

Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun qo'shma o'quv va ilmiy markazlar tashkil etish, professional forumlar va konferensiyalar tashkil etish, shuningdek, ta'lim muassasalarini moliyaviy va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi qator tadbirlar, loyihalar va tashabbuslar taklif etilmoqda.

Biroq, bunday hamkorlikning aniq afzalliklariga qaramay, bir qator to'siqlar mavjud, jumladan, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarining maqsad va vazifalaridagi farqlar, ma'muriy va byurokratik to'siqlar, shuningdek, hamkorlikni amalga oshirish uchun mablag' va resurslarning etishmasligi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish barcha manfaatdor tomonlarning faol ishini, jumladan, samarali muloqot mexanizmlarini ishlab chiqish, ma'muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish va ta'lim tashabbuslariga sarmoya kiritish uchun rag'bat yaratishni talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining texnik-texnologik kompetentsiyasini rivojlantirish, zamonaviy texnologik dunyo ta'lim dasturlarining dolzarbligi va amaliy yo'nalishini ta'minlash, o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va ularni muvaffaqiyatli kasb-hunarga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, texnik va texnologik ta'lim sohasida ilg'or jahon tajribasi va standartlarini integratsiyalashuviga ko'maklashuvchi bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda yangi istiqbollarni ochadi. Bu nafaqat o'quv jarayonini boyitibgina qolmay, balki talabalarda global fikrlashni, madaniyatlararo kompetentsiyani va xalqaro jamoalarda ishlashga tayyorligini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Борисов А.В. Повышение качества технико-технологической подготовки будущих учителей технологии (на примере обучения токарной обработке конструкционных материалов) [Текст]: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / А.В. Борисов - Сыктывкар, 2003. - 133 с.
2. Абдуллаева К.М. Махсус фанларни ўқитишда бўлажак ўқитувчиларнинг касбий билим ва кўникмаларини шакллантиришнинг методик асослари: Дис. ... пед. фан.ном. -Т.: 2006. -182 б
3. Муслимов Н.А. ва бошқалар Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. — Т.: «Fan va texnologiya», 2013, 128 бет.
4. Муслимов Н.А., Н.Каримова. Касб таълими ўқитувчиларининг амалий компетентлигини шакллантириш технологияси. Тошкент, «Иқтисодтиёт» нашриёти, 2012 йил, 4 б.т.
5. Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность Учителя // Педагогика. - 2001. - № 10. - с. 56-61.
6. Сергеев, А.Н. Технологическая подготовка будущих учителей в контексте парадигмальной трансформации образования (на примере специальности: 050502.65 - технология и предпринимательство) [Текст]; дис. ... д- ра пед. наук: 13.00.08 / А.Н. Сергеев - Тула, 2010. - 468 с. - РГБ ОД 71 02- 13/13-Х.
7. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста [Текст] / Ю.Г. Татур // Высшее образование сегодня. - 2004.-№3.-С. 21-26.



Nazira OTANAZAROVA,
Student of 2217 group, Uzbekistan state world languages university
E-mail: nazira@gmail.com

Dilnoza SHAMURATOVA,
Senior teacher, Department of English Applied Disciplines, Uzbekistan state world languages university
E-mail: dizamura5@gmail.com

Based on the review of TSPU professor, Doctor of Philosophy G. Makhkamova

INCORPORATING TECHNOLOGY TO ENHANCE SURFACE AND DEEP LEARNING IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article explores the role of technology in promoting surface and deep learning in English language education at higher universities. Drawing on existing literature and empirical research, it examines the potential of technological tools and resources to support diverse learning approaches, enhance student engagement, and foster critical thinking skills. The article underscores the importance of integrating technology strategically to create dynamic and interactive learning environments conducive to both surface-level comprehension and deep understanding of English language concepts.

Key words: Technology, Surface Learning, Deep Learning, English Language Education, Higher Education.

ВНЕДРЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ПОВЕРХНОСТНОГО И ГЛУБИННОГО ОБУЧЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В этой статье исследуется роль технологий в продвижении поверхностного и глубокого обучения при обучении английскому языку в высших университетах. Опираясь на существующую литературу и эмпирические исследования, в ней рассматривается потенциал технологических инструментов и ресурсы для поддержки разнообразных подходов к обучению, повышения вовлеченности учащихся и развития навыков критического мышления. В статье подчеркивается важность стратегической интеграции технологий для создания динамичной и интерактивной среды обучения, способствующей как поверхностному пониманию, так и глубокому пониманию концепций английского языка.

Ключевые слова: Технологии, Поверхностное обучение, Глубокое обучение, Обучение английскому языку, Высшее образование.

INGLIZ TILIDA TA'LIM BO'YICHA CHUQUR O'RGANISHNI KUCHAYTIRISH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy o'quv yurtlarida ingliz tili ta'limida sirt va chuqur o'rganishni targ'ib qilishda texnologiyaning rolini o'rganadi. Mavjud adabiyotlar va empirik tadqiqotlarga tayangan holda, u turli xil ta'lim yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash, talabalarning faolligini oshirish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun texnologik vositalar va resurslarning imkoniyatlarini o'rganadi. Maqolada ingliz tili tushunchalarini chuqur tushunish va chuqur tushunish uchun dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratish uchun texnologiyani strategik integratsiya qilish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, Surface Learning, Deep Learning, English Language Education, Higher Education.

Introduction. In today's digital age, technology plays a pivotal role in transforming educational landscapes, offering innovative opportunities to enhance teaching and learning experiences. In the field of English language education, where proficiency in language skills is crucial for academic and professional success, integrating technology has become increasingly essential. This article aims to explore how technology can be effectively utilized to facilitate both surface and deep learning in English language education at higher universities.

Literature Review. Research in the field of English language education underscores the transformative role of technology in enhancing both surface and deep learning processes among learners.

Surface-level learning, primarily concerned with the acquisition of basic language structures and vocabulary, is significantly supported by the accessibility of technological resources. Lai and Zhao (2020) highlight the effectiveness of online dictionaries, language learning apps, and grammar checking tools in facilitating rapid comprehension of fundamental language elements. These resources offer immediate access to definitions, examples, and explanations, aiding students in grasping vocabulary nuances, grammar rules, and sentence structures essential for surface-level understanding.

Furthermore, technology-enabled collaborative activities have been instrumental in fostering surface-level engagement and interaction among students. Stockwell (2018) discusses the effectiveness of online discussion forums and virtual language exchange platforms in promoting peer-to-peer interaction and language practice. By facilitating communication in authentic contexts, these platforms encourage students to apply their language skills in real-time conversations, thereby enhancing their surface-level proficiency and confidence in language use.

In addition to supporting surface-level learning, technology holds significant potential in facilitating deep learning processes, which involve critical thinking, problem-solving, and contextual understanding of language usage. Chen et al. (2019) emphasize the immersive learning experiences afforded by virtual reality (VR) simulations in English language education. Through VR environments, students are transported to simulated scenarios, such as navigating a foreign city or participating in business negotiations, which require them to apply language skills in contextually rich situations. By engaging in experiential learning, students develop a deeper understanding of language usage within authentic contexts, thus fostering deep learning outcomes.

Moreover, multimedia presentations and interactive language learning software have emerged as effective tools for promoting deep learning by offering dynamic and multimodal learning experiences. Chen et al. (2019) discuss how these

resources integrate visuals, audio, and interactive elements to cater to diverse learning preferences and styles. By presenting content in multiple modalities, multimedia resources appeal to different sensory modalities, facilitating deeper cognitive processing and retention of language concepts. Additionally, gamified elements embedded within interactive software, such as quizzes and challenges, enhance student motivation and engagement, leading to more profound learning outcomes.

Furthermore, technology-enabled adaptive learning platforms provide personalized instruction tailored to individual learning needs and preferences, thereby fostering deep conceptual understanding and metacognitive skills development. Wang and Hsu (2019) highlight the adaptive nature of these platforms, which leverage artificial intelligence algorithms to analyze student performance data and adjust instruction accordingly. By receiving personalized feedback and interventions, students can address their specific learning gaps and challenges, leading to deeper comprehension and mastery of language concepts.

In summary, the integration of technology in English language education offers multifaceted benefits for both surface and deep learning processes. From providing access to resources for rapid comprehension of language basics to offering immersive and personalized learning experiences that promote critical thinking and metacognitive skills development, technology plays a pivotal role in enhancing the effectiveness and efficiency of English language instruction. However, successful integration requires thoughtful consideration of pedagogical goals, learner characteristics, and contextual factors to maximize its impact on student learning outcomes.

This comprehensive review emphasizes the need for continued research and innovation in technology-enhanced language learning approaches, underscoring the importance of leveraging the full potential of technology to meet the diverse needs of learners in English language education.

Research Methodology. To examine the role of technology in enhancing surface and deep learning in English language education, a mixed-methods approach was employed. Quantitative data were gathered through surveys administered to English language educators and students at higher universities,

assessing their perceptions of the effectiveness of technology integration in promoting surface and deep learning. Qualitative data were collected through interviews with select participants to gain in-depth insights into their experiences and perspectives regarding the use of technology in language learning contexts.

Discussion. The findings of the study highlight the multifaceted benefits of integrating technology in English language education. Surface-level learning is facilitated through easy access to online resources and interactive activities, enabling students to quickly grasp basic language concepts. Moreover, technology-enhanced collaborative learning environments promote surface-level engagement and interaction among students, facilitating language practice and skill development.

Furthermore, technology serves as a catalyst for deep learning by providing immersive and interactive learning experiences that encourage critical thinking, problem-solving, and application of language skills in real-world contexts. Adaptive learning platforms and personalized feedback mechanisms support individualized instruction, allowing students to progress at their own pace and focus on areas requiring deeper understanding.

Results. Quantitative analysis of survey data revealed a high level of satisfaction among both educators and students regarding the effectiveness of technology integration in promoting surface and deep learning in English language education. Key themes that emerged from qualitative interviews included enhanced student engagement, improved language proficiency, and increased confidence in language use.

Conclusion. In conclusion, technology has emerged as a valuable asset in enhancing surface and deep learning in English language education at higher universities. By strategically integrating technological tools and resources, educators can create dynamic and interactive learning environments that cater to diverse learning styles and promote both surface-level comprehension and deep conceptual understanding of English language concepts. Moving forward, continued research and innovation in technology-enhanced language learning will be essential to meet the evolving needs of students in an increasingly digital world.

REFERENCES

1. Chen, M., Wang, M., Lin, Y., & Wang, S. (2019). Exploring the use of multimedia resources to enhance English learning: A case study of junior high school students in Taiwan. *Educational Technology & Society*, 22(1), 86-97.
2. Lai, C., & Zhao, Y. (2020). Learning English vocabulary in a mobile assisted language learning environment: Do learner factors matter? *British Journal of Educational Technology*, 51(1), 282-298.
3. Stockwell, G. (2018). Critical CALL – Social issues in computer assisted language learning. *Critical CALL – Social issues in computer assisted language learning*, 10(2), 133-149.
4. Wang, Y., & Hsu, C. (2019). Implementing adaptive learning in English writing courses: A case study of higher education. *Computers & Education*, 130, 91-102.



Gulnoza OCHILOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası professori
E-mail: gulnozaochilova58@gmail.com
Dildor ESHMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası professori
E-mail: eshmuratovadildor1@gmail.com

Xalqaro innovatsiyalar universiteti professori P.M.Jalolova taqrizi asosida

TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Maqolada bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida muammoli ta'lim texnologiyalarining ahamiyatli jihatlari va talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishda, tahliliy va mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim texnologiyalarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'lim, tahliliy fikrlash, bilim, Oliy ta'lim, faollik, talaba, bilish faoliyati, tafakkur, ijodiy fikrlash, salohiyat

THE IMPORTANCE OF PROBLEM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN ACTIVATING STUDENTS' LEARNING ACTIVITY

Annotation

The article talks about the important aspects of problem-based learning technologies in today's modern educational conditions and the role of problem-based learning technologies in activating students' learning and developing analytical, independent and creative thinking.

Key words: Problem-based education, analytical thinking, knowledge, higher education, activity, student, cognitive activity, thinking, creative thinking, potential.

ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ ПРОЦЕССА АНАЛИТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье говорится о важных аспектах технологий проблемного обучения в современных образовательных условиях и о роли технологий проблемного обучения в активизации обучения учащихся и развитии аналитического, самостоятельного и творческого мышления.

Ключевые слова: Проблемное образование, аналитическое мышление, знания, высшее образование, деятельность, студент, познавательная деятельность, мышление, творческое мышление, потенциал.

Kirish. So'nggi o'n yilliklar ichida insoniyat jamiyatidagi o'zgarishlar pedagogikada ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, uning kompetentlik paradigmasiga aylanishi uchun asos bo'ldi. Bir tomondan, bugungi zamondagi yangi pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirishga maqsadli jarayonni belgilay olish, hamda atrofimizdagi butun dunyoni bilishning yuqori darajasini ta'minlay oladi. Xalqaro sivilizatsion taraqqiyot vaqtida ijtimoiy o'zgarishlarning dinamikasi shuni ko'rsatib beradi, ya'ni butun dunyoning taraqqiy etishida katta ilmiy innovatsiyalar juda muhimligini isbotlab bermoqda. Innovatsiyalarning ishlab chiqilishi albatta talabalarning bilim saviyasi, intellektual salohiyatlarining takomillashtirishga qaratilgan yangi pedagogik talablar bilan uzviy bog'liqdir.

Taniqli olim A.Verbitskiy ta'lim jarayonlarida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish bo'yicha quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Talabalar muayan masalalarni hal etishda turli tuman darajada murakkablikga ega bo'lib bilimlarni o'zlashtirib, ularni hal etishda ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishga tayanadi. Shuning bilan birga pedagoglarning shaxsga qaratilgan ta'lim mazmuni ham shular bilan chambarchasdir".

Asosiy qism. Bugungi zamonaviy ta'lim yoshlardan kuchli salohiyatli, raqobatbardosh, maxsus qobiliyatli, zamon bilan hamnafas, maqsadli, ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradigan, mustahkam irodali bo'lishni talab etadi. Bu kabi sifatlarini amalga oshirilishda esa muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tahliliy fikrlashda, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishda keng qo'llaniladigan va eng ko'p talab qilinadigan pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta'limdir. Talabalar muammoli jarayonlarni hal etishda yoki muammoli masalalarning o'ziga xosliklarini tushinishning ahamiyatli tomonini yangi bilimlarga asoslanib qaraladi. Buning nazariy va amaliy jihatlari bir qator olimlar A.Brushlinskiy,

T.Kudryavsev, A.Matyushkin va boshqalar tomonidan tadqiq qilinadi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining umumiy mazmuni shuni qamrab oladiki, ya'ni talabalarning tahliliy fikrlashida tayyor bo'lgan axborot yoki ma'lumot tayyor shaklda berilmaydi, balki ular talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan muammoli shakllarda berilishi maqsadga muvofiqdir. Talabalar tahliliy fikrlashlarini shakllantirib boradilar hamda mustaqil faoliyat jarayonini olib boradilar. Bunday qidiruv faoliyati natijasida yangi bilim, qobiliyat, ko'nikmalar hosil qilinib, ular ko'proq darajada teranlik, mustahkamlik, ongillik bilan ajralib turadi.

Ta'limning qulayligi talabalarning yosh farqlari va xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Mashg'ulot shunday olib borilishi kerakki, o'rganilayotgan material mazmuni va ko'lami jihatidan talabaning imkoniyatlariga to'g'ri kelsin, qo'llaniladigan o'qitish usullari esa talabalar rivojlanishiga mos kelishi kerak.

O'qitishdagi anglanganlik va faollik ta'limning maqsad va vazifalaridan, o'rganilayotgan materialga mazmunli va ijodiy yondashishni talab qiladigan bevosita o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Mazkur tamoyil o'rganilayotgan hodisalarni maqsadli, faol idrok etish va anglash, olingan bilimlarni ijodiy qayta ishlash hamda ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llashdan iborat.

Talabalarning bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi o'quv muassasasining maqsadlari bilan ham, o'qitishning o'zi qonuniyatlarini bilan ham uzviy bog'liq bo'lib, ta'limning keyingi bosqichlarida olingan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanishni va ulardan hayotda foydalanishni nazarda tutadi.

O'qitishdagi tizimlilik va izchillik fanlarning mantiqiyli hamda talabalarining aqliy va jismoniy rivojlanishi qonuniyatlariga muvofiq davom etuvchi ularning bilish va amaliy faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Ushbu tamoyil o'quv dasturlarini tuzishda asos bo'lib, pedagogning ishlashi tizimini hamda o'qitish jarayonida talabaning faolligini belgilaydi.

Ta'limning ochiqqligi talabalarning yosh farqlari va o'ziga xosliklarini hisobga olishga asoslanadi. O'qitish shunday olib borilishi kerakki, bunda o'rganilayotgan material mazmuni va ko'lami jihatidan talabaning imkoniyatlariga to'g'ri kelsin, qo'llaniladigan o'qitish usullari esa talabalar rivojlanishiga mos kelishi kerak.

Jamoaviy o'quv ishi sharoitida talabaga individual yondashuv har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi, shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi, o'z-o'zini amalga oshirishiga yordam beradi.

O'qitish uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modelini shakllantirishning asosiy tamoyillari ajratib ko'rsatildi: talabaga insonparvarlik munosabati; shaxsning intellektual va ma'naviy asoslari tengligi; talabani anglash subyektivi sifatida belgilash; talabaning ijtimoiylashuvi; shaxsning o'z-o'zini qadrlashi; talabaning subyektiv tajribasiga; talabaning tabiiy rivojlanishiga; talabaning ruhiy-jismoniy imkoniyatlarini hisobga olishga; shaxsiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga tayanish[5].

Axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda OTM da o'qitishning uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modelini amaliy tatbiq etish quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda:

agar ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirish har bir talabaning tajribasini aniqlashga asoslangan bo'lsa;

agar o'quv faoliyatining qo'llanilayotgan usullari ustidan keyinga qoldirilmaydigan nazorat o'tkazilsa, zarurat bo'lganda, o'qitish taktikasi to'g'rilansa;

agar talaba va pedagogning, shuningdek, talaba va axborot texnologiyalari vositalari hamkorligi talabani mustaqil ta'limga rag'batlantirishga imkon bersa;

agar turli mutaxassisliklar pedagoglarining harakatlarini muvofiqlashtirish o'qitish samaradorligini oshirishga yordam bersa muvaffaqiyatli bo'ladi.

Talabalarga axborot texnologiyalari fanini muvaffaqiyatli o'qitish uchun oliy ta'lim muassasasida o'qitishning uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modeli tuzilishini tahlil qilish, pedagogik maqsadlarni qo'yish, ular asosida ta'lim mazmunini o'rganish, o'qitish usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini aniqlash zarur.

Bu bosqichda pedagog tomonidan qo'yiladigan maqsadlar aniqroq bo'lib, ammo alohida mavzularni, modullarni o'rganishda va muayyan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda batafsilroq ma'lumotni talab qiladi. Informatika va axborot texnologiyalari fani OTMning bo'limlari va mavzulari umumiy didaktik maqsad bilan birlashtirilgan bo'lsa-da, bir-biridan mustaqil bo'lib, modullarga (lotincha modulus – o'lchov [5]) birlashtirilishi mumkin bo'lganfanlaridan biridir.

O'quv moduli didaktik birlik bo'lib, unda asosiy o'rinni o'quv faoliyatining turli uslublari va usullarining o'zaro ta'siri egallab, ular ushbu modulni fan va umumiy ta'limning yaxlit tizimiga kiritishni ta'minlaydi.

Modulli maqsad – o'qitishning mazmunli trayektoriyasini tanlash va bu bosqichda rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirish, bunda talabaning intellektini rivojlantirishga, bilimlarini mustaqil ravishda ajratib olishga va taqdim etishga, ma'lumot ishlab chiqarishga rag'batlantirishga qaratilgan zarur usul va vositalar qo'llaniladi. Modullar bir nechta mavzularni qamrab olishi yoki mavzuning bir qismi bo'lishi mumkin; mavzularni yagona modulga birlashtirish pedagog tomonidan ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan maqsad va vazifalarning umumiyli bilan belgilanadi.

O'qitish uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modelida modulni o'rganish faqat berilgan bosqichda bilimlar o'zlashtirilishini kuzatish bilan tugamaydi, balki kafedra pedagoglari hamda turli fanlar pedagoglarining talabalarning axborot madaniyatini shakllantirish bo'yicha harakatlarini muvofiqlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzularning maqsadlari – talab qilingan bilimlarni olish, zarur ko'nikma va malakalarni egallash, bo'lajak mutaxassis shaxsining muhim kasbiy fazilatlarini rivojlantirishdan iborat.

Xulosa takliflari. O'qitish uslubiy tizimining muvofiqlashtiruvchi modeli konsepsiyasiga muvofiq, mavzuni o'rganish odatda harakatlarni o'zlashtirishning zarur darajasida ularni bajarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu talabani

o'rganilayotgan materialni talab qilingan sifatda aniq maqsadlarini tashhishlash va talabning ularga erishish darajasini o'zlashtirishga qaratadi, shuningdek, pedagogga o'quv aniqlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 3-son, 79-modda , 710-modda.
2. Rustamov Sh.X. "O'zMU xabarlari" Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. T.: 2021. №1/3/1. 144-146-b.
3. Rustamov Sh.X. Ta'lim beruvchi tizimlarning interfeysini loyihalashtirish. Academic Research in Educational Sciences ISSUE 6/2021 Scientific Journal Impact Faktor (SJIF):5.723 ISSN: 2181-1385.
4. Рустамова Н. Медиаълимнинг ривожланиш тарихи ва узлуксиз таълимда қўллаш имкониятлари//Узлуксиз таълим. – Тошкент , 2013.- №5.-Б.
5. Rustamov Sh.X. Ta'lim jarayonidagi vaziyatlardan samarali foydalanishning innovatsion pedagogik shartlari. «Mug'allim h m yzliksiz bilimlendirio'» Ilmiy-metodik jurnal Huquc. 2020. №6. 22-25-b.
6. Yo.J.Odilov. Chiziqli va vizual dacturlash acocida fizika o'qitish metodikacini takomillashtirish" diccertatsiya // Chirchiq-2022.



Asila SADIKOVA,
O'ZJOKU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

O'ZJOKU f.f.d.prof. A.Kodirov taqrizi asosida

FOLLOW A HEALTHY LIFESTYLE PHILOSOPHICAL AND SOCIAL SIGNIFICANCE

Annotation

In this article, a healthy lifestyle is a set of activities aimed at maintaining and strengthening the physical, mental and social health of a person. A healthy lifestyle is important not only at the individual level, but also at the community level. It is important that this issue is studied in depth not only from a medical or biological point of view, but also from a philosophical and social point of view.

Key words: Family strength, healthy living, proper nutrition, physical activity, personal hygiene, personal well-being, healthy living.

ВЕДИТЕ ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ ФИЛОСОФСКОЕ И СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В данной статье здоровый образ жизни – это комплекс мероприятий, направленных на сохранение и укрепление физического, психического и социального здоровья человека. Здоровый образ жизни важен не только на индивидуальном уровне, но и на уровне общества. Важно, чтобы этот вопрос был глубоко изучен не только с медицинской или биологической точки зрения, но и с философской и социальной точки зрения.

Ключевые слова: Прочность семьи, здоровый образ жизни, правильное питание, физическая активность, личная гигиена, личное благополучие, здоровый образ жизни.

SOG'LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA QILISHNING FALSAFIY VA IJTIMOY AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqolada sog'lom turmush tarziga – bu insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyatlar to'plamidir. Sog'lom turmush tarzi nafaqat individual darajada, balki jamiyat darajasida ham muhim ahamiyatga ega. Bu masala faqat tibbiy yoki biologik nuqtai nazardan emas, balki falsafiy va ijtimoiy jihatdan ham chuqur o'rganilishi muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Oila mustahkamligi, sog'lom turmush, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, shaxsiy farovonlik, sog'lom hayot.

Kirish. Sog'lom turmush tarzining tarixiy asoslari va uning ijtimoiy ahamiyati sivilizatsiyalarning almashinuvi va unda inson omiliga e'tibor qaratilganligi bilan bog'liq. Sog'lom turmush tarzi (STT) – bu insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan faoliyatlar to'plamidir. Sog'lom turmush tarzi nafaqat individual darajada, balki jamiyat darajasida ham muhim ahamiyatga ega. Bu masala faqat tibbiy yoki biologik nuqtai nazardan emas, balki falsafiy va ijtimoiy jihatdan ham chuqur o'rganilishi kerak.

Sog'lom turmush tarziga rioya qilishining ijtimoiy iqtisodiy omillari aholi turli qatlamlarining individual darajada o'z salomatligini asrash, mustahkamlash mexanizmlarini ishlab chiqishi bilan bir qatorda jamoat tashkilotlarida xodimlarning salomatligini asrash mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu ma'noda Yaponiya tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki Yaponiyada aholining tungi uxlash vaqti va ertalab turish vaqti davlat tomonidan nazorat qilinadi va har kun erta tongda aholi ommaviy badan tarbiya mashqlarini o'zi yashayotgan hudud atrofida amalga oshiradi, bu jarayon shu hududga mas'ul odamlar tomonidan nazorat qilinadi. Shu bois, Yaponiya aholisining o'rtacha yoshi hozirgi kunda 95 ga teng bo'lib, aholining uzoq umr ko'rish ko'rsatkichi bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rin egallagan.

Ta'lim va tarbiya tizimida valeologiya fanini o'qitishning joriy qilinishi, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchi va talabalarning doimiy ishtirokining ta'minlanishi, turli darajadagi sport musobaqalarining tashkil etilishi, ular ongida salomatlik inson hayotining eng katta boyligi ekanligi haqida tasavvurni shakllantiradi. Jismoniy faollik va sport bilan shug'ullanadigan odamlarda yurak xastalıkları va saraton kabi qator kasalliklarga chalinish ehtimoli kamroq. Bundan tashqari, ular sog'lom tana vazniga va to'qimalar tarkibiga ega bo'lish ehtimoli ko'proq. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy faollik tabiiy sabablarga ko'ra o'lim xavfini kamaytiradi, ya'ni haftasiga 2,5 soat (ekvivalent). Haftada 5 kun davomida kuniga 30 daqiqa o'rtacha

faollik) hech qanday faoliyat bilan solishtirganda barcha sabablarga ko'ra o'lim xavfi 19% ga, haftasiga 7 soatlik o'rtacha faollik esa 24% ga kamayishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, bo'sh vaqtdagi jismoniy faollik (jismoniy mashqlar, yurish, faol transport) barcha sabablarga ko'ra o'limning past darajasi bilan bog'liq va ishdagi og'ir jismoniy faollik u qadar ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi yoki uning yuqori darajasi, bu aerobik mashqlarning ishda jismoniy faoliyatga qo'shgan hissiy pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda nafaqat nogironlikni bartaraf etish, balki go'zallikni asrashning turli usul va vositalari ishlab chiqilayotganligi va amaliyotga joriy etilayotganligi turmush darajasining yuqoriligi odamlarning umrguzaronligini ta'minlashga ham ta'sir etmoqda. Shu ma'noda Turgenevning "Mumu" asaridagi "hovliga yuzlarini ajin bosgan, ko'zlarida horg'inlik aks etgan, sochlari oqargan 40 yoshlardagi Gerasim kirib keldi"[1], degan ta'rifidagi 40 yoshli odamning qiyofasi bilan hozirgi davrdagi 40 yoshli odamning qiyofasi mutlaqo farq qilishini aniqlash mumkin. Bu hozirgi davrda kasalliklarni davolash emas, balki ularning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan tizimli faoliyatning natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu nafaqat tibbiy profilaktika, balki tibbiy texnologiyalardan foydalanish amaliyotining takomillashganidan dalolat beradi. Shu ma'noda turli davrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlarning inson umri har narsadan ulug' degan g'oyasi hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, 1883 yilda Ilya Mechnikov "Organizmning shifobaxsh kuchlari haqida" deb nomlangan maqolasida kasalliklarning paydo bo'lish sabablarini "Organizm a'zolarining o'zaro ta'siriga kirish jarayoni"[2], deb ta'riflagan, bunda moslashish va immunitetga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, agar biz bu jarayonni immunitetni oshirishga yo'nalgan jarayon deb baholaydigan bo'lsak, u holda kasallik avj olishi, pirovard natija o'lim bilan tugashi mumkin. Ayni paytda bu yondashuv klinik tibbiyotning taraqqiyotiga to'g'ri ta'rif bo'lishi ham mumkin.

XX asrning 60 yillarida S.M.Pavlenko va S.F.Oleynik inson salomatligini saqlash va unga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga harakat qilgan[3]. Organizmning kasalliklarga qarshi kurashish imkoniyatini immunitet emas, sanologiya deb baho berganlar va "Sanologiya" ilmiy yo'nalishiga asos solganlar. Harbiy tibbiyot sohasi vakillari G.L.Apanasenko, R.M.Bayevskiy salomatlik muammosini rivojlantirishga harbiy tibbiyot vakillari va noharbiy sog'liqni saqlash namoyandalari V.P.Kaznacheyev, A.P.Berseneva va boshqalar kasallikni uning ilk bosqichida aniqlash va bartaraf etishni aks ettiruvchi "donozologik diagnostika"[4 ga asos solganlar, diagnostikaga asos solinishi odamlarning yashash imkoniyatini oshirgan.

1982 yilda I.L.Brexmanning sog'lom odamlarning sog'lig'ini asrash ular umrini uzaytirish kafolati ekanligini va bunga erishishning metodologik yondashuvlarini asoslagandan keyin, salomatlikni saqlashga tizimli yondashuv tashkil etildi. Xususan, 1988 yildan akademik Chazovning aholi turli qatlamlarini bir yilda bir marta tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tizimli tashkil etishi bu sohada muhim qadam bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Barcha davrlarda inson salomatligini asrash mexanizmlarini aniqlashga e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz, bu jarayonda juda ham ko'p olimlar va maglar hayot eliksirini topishga harakat qilgan bo'lsa, ba'zilar go'zallikni saqlash usullarini topishni maqsad qilgan, har ikki omil ham inson tanasiga mo'ljal olgan, bu harakatlarning oqibati sifatida zamonaviy kosmetologiya nihoyatda rivojlangan. Sog'lom turmush tarzi insonning hayotiy maqsadlarini amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Inson o'z sog'lig'ini saqlash orqali o'z hayotini mazmunli va to'laqonli yashashi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, sog'lom turmush tarzi insonning o'zini o'zi anglash, hayotdan mamnun bo'lish va baxtli bo'lishi uchun muhimdir.

Tahlil va natijalar. Bunda har bir odamning individual sog'lig'ini asrash, turli kasalliklarning oldini olish maqsadida yuqumli kasalliklarga qarshi ommaviy emlash muolajalarining o'z vaqtida amalga oshirilishi odamlarning umrini uzaytirish imkoni sifatida amal qildi. Bu jarayonga oqilona yondashuv sportning rivojlantirilishi, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini kundalik ehtiyoj darajasiga yetkazishda namoyon bo'ldi, biroq ba'zi hollarda reja va amaliyotning mutanosibligini ta'minlanmagan hollari ham bo'lganligini, ba'zi hollarda tibbiy ko'rikdan o'tishga aholining bepisandligi, e'tiborsizligi, bu jarayonni tizimli tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu ma'noda, valeologiyani individual salomatlikni saqlashning metodologik asosi sifatida rivojlantirishga ehtiyoj oshdi va buni uch yo'nalishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

Umumiy valeologiya negizida, yoshga doir valeologiya, tibbiy genetika, immunologiya, ekologik valeologiya sohalari rivojlantirish va aholiga bu sohada yutuqlar haqida muntazam ma'lumot yetkazish;

Valeologik metodologiyani takomillashtirish, ruhiy barkamollikka erishish uchun meditatsiya va boshqa psixologik mashg'ulotlar, rekreasiyani rivojlantirish, barcha turdagi mehnat faoliyatini oqilona tashkil etish, bo'sh vaqtning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymaslik, dam olishni tizimli tashkil etish metodologiyasini takomillashtirish;

Har tomonlama yetuk shaxs tarbiyasining metodologik yondashuvlarini takomillashtirish, unda jamiyatga moslashish, salomatlik zaxiralarini ko'paytirish, davlat siyosati darajasida salomatlikni asrashga yo'nalgan qonunlar va me'yoriy hujjatlarining ijrosini ta'minlashni nazorat qilish inson qadrini ulug'lashni ko'zda tutadi, aynan shu maqsadni aholi turli qatlamlari ongiga yetkazishda ma'naviyat targ'ibotchilarining faoliyatini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha, salomatlikni saqlash infratuzilmasini shakllantirish, sog'lomlashtirish texnologiyalarini barcha tibbiy maskanlariga yetkazish kabi hozirgi kunning dolzarb muammolari bartaraf etilmoqda. Xususan, 2017 yil 7 yanvarda O'zbekiston respublikasi prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar" qarori e'lon qilindi, unda eng asosiy e'tibor, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni O'zbekistonga olib kelish, xorij mutaxassislari bilan tajriba almashish, barcha viloyatlarda ixtisoslashtirilgan shoshilinch xizmat ko'rsatish kasalxonalarini tashkil etish, takomillashtirish MRT

texnologiyasidan foydalanuvchi yangi avlod shifokorlarini tayyorlash, valeologik xizmatni tizimli tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Buning natijasida, agar 2017 yilda O'zbekistonda 336 ta xususiy klinikalar faoliyat olib borgan bo'lsa, 2022 yilda faoliyat olib borayotgan xususiy klinikalar soni 5845 taga yetdi, barcha viloyatlarda sog'lomlashtirish markazlari, sport maydonchalari, trenajer zallari tashkil etildi va bu valeologik xizmatni tashkil etishning metodologik asosi bo'la oladi, unga shuningdek: prognozlik diagnostika (xomilaning jismoniy holatini aniqlash) sog'liqning sifati diagnostikasi (inson organizmining tirikligini ta'minlovchi mikroelementlarning miqdori va sifatini aniqlash); davolash vositalari va texnologiyalarini takomillashtirish kabilar kiradi.

Falsafiy ahamiyati

Etika va mas'uliyat: Sog'lom turmush tarzi insonning o'ziga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatini anglatadi. Bu yondashuv etikaning asosiy tamoyillaridan biridir. Inson o'z sog'lig'ini saqlash orqali nafaqat o'ziga, balki atrofdagilarga nisbatan ham hurmat ko'rsatadi.

Ekzistensialistik yondashuv: Sog'lom turmush tarzi ekzistensialistik falsafa nuqtai nazaridan ham muhimdir. Insonning o'z mavjudligini anglash va uni mazmunli qilish uchun sog'lom turmush tarzi zaruriy shartdir. Bu yondashuv insonning hayotga bo'lgan munosabati va qadriyatlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy ahamiyati

Jamiyatning umumiy salomatligi: Sog'lom turmush tarzi umumiy jamiyat salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu orqali kasalliklarning oldini olish, mehnat unumdorligini oshirish va hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Ijtimoiy birdamlik va hamjihatlik: Sog'lom turmush tarzi ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi. Jamiyat a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinsa, bu ularning bir-biriga bo'lgan ishonchi va hurmatini oshiradi.

Iqtisodiy samaradorlik: Sog'lom turmush tarzi iqtisodiy jihatdan ham foydali. Sog'lom insonlar mehnat bozorida ko'proq samarali va mahsuldor bo'laladi. Bu esa umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Madaniy va ma'naviy yuksalish: Sog'lom turmush tarzi madaniy va ma'naviy yuksalishning bir qismi hisoblanadi. Bu orqali jamiyat a'zolari o'zlarining ma'naviy salohiyatlarini rivojlantiradilar va madaniy merosni saqlashga hissa qo'shadilar.

Shu nuqtai-nazardan, valeologiya fan sifatida inson salomatligini saqlashning ilmiy nazariy asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois uni rivojlantirishning metodologiyasini yangilash, odamlarning o'z sog'lig'ini asrashga oqilona yondashuvini tashkil etishning takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Valeologiyaning ijtimoiy madaniy hayotdagi o'rni va ahamiyati nuqtai nazardan u boshqa fanlar bilan ham o'zaro aloqadorligini ham tan olish maqsadga muvofiq. Zero, valeologiya fanlararo fan sifatida o'zida, organizmning barcha tizimlarini rivojlantirish, uning tashqi va ichki muhitga moslashish, tabiiy tanlanish jarayonlari bilan bog'liqligi uning doirasida fiziologiya, psixologiya, biologiya, genetika, psixofiziologiya fanlarini ham o'rganishni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, fan sifatida valeologiyaning paydo bo'lishining asosiy omili inson bo'lib, unda insonning biologik kelib chiqishi, ijtimoiy ongi, faoliyati o'rganiladi, bunda asosiy e'tibor shu organizmlarning faoliyatini o'rganish orqali insonning umrini uzaytirishga mo'ljal oladi. Insonning tashqi muhitga moslashish imkoniyatlarini oshiradi, bunda ong va maqsadli faoliyat birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda yuqorida ta'kidlaganimizdek, valeologiyaning fan sifatida rivojlanishida o'ziga xos predmeti, metodologik yondashuvlari, maqsad va vazifalari bo'lib, u bir tomondan mustaqil fan sifatida rivojlanadi, ikkinchi tomondan esa doimiy boshqa fanlar bilan taqozolangan holda rivojlanadi va uning muayyan ma'noda ijtimoiy ma'naviy ahamiyati oshib boradi, lekin bu jarayon sekin kechib o'tganligi, hali aholida o'z sog'lig'ini asrashga doir, yuqori ijtimoiy ong shakllanmaganligidan dalolat beradi. Biroq, biz valeologiyaning asosiy maqsadi inson salomatligini saqlash ekanligini bilganimiz holda, uning boshqa fanlar bilan taqozolanganligini asoslashga harakat qilamiz.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Sog'lom turmush tarzi falsafiy va ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash orqali u o'z hayotini mazmunli va baxtli yashashi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning umumiy salomatligini, iqtisodiy samaradorligini va madaniy-ma'naviy yuksalishini ta'minlaydi. Sog'lom turmush tarzi targ'ib qilinishi va qo'llab-quvvatlanishi jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun zarurdir.

Salomatlikni saqlashning madaniy omillari aholining bo'sh vaqtini unumli tashkil etish, milliy va diniy an'analardan salomatlikni saqlash maqsadlarida foydalanishni nazarda tutadi. Masalan, islom dinining muhim farzlaridan biri namoz salomatlikning madaniy omili sifatida muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash omillari har bir shaxsning tana xavfsizligini ta'minlashga erishish, sog'likga tahdid soluvchi turli jinoyatlardan saqlanish va himoyalaniş mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Atrof muhitning tozalagini saqlash, yashil makon tamoyiliga rioya qilib, ko'kalamzorlashtirish ishlarini tizimli tashkil etish, havo tozaligini ta'minlaydi va bu sog'lom turmush tarzining ekologik omili sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'lom turmush tarziga rioya qilishda shaxsiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi, bunda har bir inson o'z

salomatligiga individual yondashishi va uni saqlashga tizim asosida, har olti oyda tibbiy ko'rikdan o'tishi, o'z vaqtida davo muolajalarini olishi uning umrguzaronligi kafolati bo'ladi.

Inson salomatligini ta'minlashning bu omillari sog'lom turmush tarzini ta'minlash mexanizmi sifatida doimiy amal qilishi, davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi aholining umumiy umrguzaronligini oshirish omil hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarziga rioya qilishning eng muhim omillaridan biri bu oilaviy muhit bo'lib, unda har bir oila a'zolarining oilada sog'lom ijtimoiy muhit yaratishga munosib hissa qo'shishi va yangi avlodni tarbiyasida unga o'zi ibrat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi, bunda oilaviy byudjetni to'g'ri taqsimlash va sog'lom turmush tarzini moliyalashtirishni to'g'ri tashkil etilishi lozim.

Bunga Xitoy tajribasi misol bo'la oladi. Xitoyda har bir oila bir haftada oilaviy hammomga borish an'anasi mavjud, unga ko'ra oila shanba kuni hammomga borishi an'anaga aylangan, unda o'zining ikki kunlik byudjetini oila a'zolarining sog'lig'ini asrashga taqsimlanadi va to'liq dam olib dushanda kunidan ishga boriladi.

Tibbiy omillar inson tanasi salomatligini diagnostika qilish, kasalliklarni topish va ularni davolash, organizmning turli darajadagi profilaktikasini ta'minlashni maqsad qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Тургенев И. Муму. – М.: Прогресс, 1996. – С.46.
2. Мечников И.И. О оздоровительных силах организма. – М.: Наука, 1985. – С.45.
3. Павленко С.М. Изучение саногенеза естественный путь дальнейшего развития медицины. /В кн.: Саногенез. Материалы научн. конф.–М.: 1968, –С.7 -13., Олейник С.Ф. // В кн.: Вопросы санологии. – Львов, 1969.
4. Казначеев В. П., Баевский Р. М., Берсенева А. П. Донозологическая диагностика в практике массовых обследований населения. –Л.: Медицина, 1980. – С.207.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son, "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida".
6. Arziqulov R. Sog'lom turmush tarzi asoslari (Valeologiya) - O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent-2009;
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" nashriyoti. T.: 2023 yil 30-aprel. 29-bet.



UDK:5:53.536

Dilshoda SATTOROVA,

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: sattorova.dilshoda@bk.ru.

O'zMU dotsenti, PhD Sh.Sodiqova taqrizi asosida

ON THE PROBLEM OF PROPAGATION OF SOUND VELOCITY IN GASES AND HISTORY OF ITS DEPENDENCE ON HEAT CAPACITY

Annotation

This article examines the speed of propagation of elastic waves in media: longitudinal (in gases, liquids or solids) and transverse, movement (in solids), which is determined by the elasticity and density of the medium: as a rule, the speed of sound in gases is greater than in liquids, less, and in liquids less than in solids. It was also mentioned that the speed of sound in gases depends on the temperature of the substance, and in single crystals - on the direction of wave propagation.

Key words: Volume, speed, heat capacity, constant volume, constant pressure.

К ПРОБЛЕМЕ РАСПРОСТРАНЕНИЯ СКОРОСТИ ЗВУКА В ГАЗАХ И ИСТОРИИ ЕЕ ЗАВИСИМОСТИ ОТ ТЕПЛОЕМОСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается скорость распространения упругих волн в средах: продольных (в газах, жидкостях или твердых телах) и поперечных, перемещения (в твердых телах), которая определяется упругостью и плотностью среды: как правило, скорость звука в газах больше, чем в жидкостях, меньше, а в жидкостях меньше, чем в твердых телах. Упомянулось также, что скорость звука в газах зависит от температуры вещества, а в монокристаллах — от направления распространения волны.

Ключевые слова: Объем, скорость, теплоемкость, постоянный объем, постоянное давление.

TOVUSH TEZLIGINING GAZLARDA TARQALISH MUAMMOSI VA UNING ISSIQLIK SIG'IMIGA BOG'LIQLIK TARIXI HAQIDA

Аннотация

Ushbu maqolada elastik to'liqlarning muhitda tarqalish tezligi: bo'ylama (gazlarda, suyuqliklarda yoki qattiq jismlarda) va ko'ndalang, siljish (qattiq jismlarda) bo'lib, u muhitning elastikligi va zichligi bilan aniqlanadi: qoida tariqasida, gazlarda tovush tezligi suyuqliklarga qaraganda kamroq, suyuqliklarda esa qattiq jismlarga qaraganda kamroq. Shuningdek, gazlarda tovush tezligi berilgan moddaning haroratiga, monokristallarda esa to'liqlarning tarqalish yo'nalishiga bog'liqligini olimlar tomonidan aniqlangani keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tovush, tezlik, issiqlik sig'imi, o'zgarmas hajm, o'zgarmas bosim.

Kirish. Eramizdan avvalgi buyuk mutafakkirlar Ftolemey va Evklid tovushni tebranish harakati bilan uzviy bog'lashgan. Aristotel esa havodagi tarqalayotgan tovush tezligi chekli qiymatga ega ekanligi to'g'risida fikr bildirgan. Undan tashqari u tovush havo zarralarini harakatga keltirib, uni siqadi va cho'zadi, natijada bu tebranma harakat havoda tovush shaklida tarqaladi degan. Tovush tezligini tajriba yo'li bilan aniqlash ishlari 17-asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Har xil usullar bilan havodagi tovush tezligini Mersenn (370 m/s), Gassendi (390 m/s), Florensiya "Tajriba Akademiyasi" da (296 m/s), Parij "Akademiyasi" sida (310 m/s) aniqlangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nyutonning 1686 yilda yaratgan buyuk "Natural falsafaning matematik boshlanishi" asari chop qilinguncha aniqlangan havodagi tovush tezligining o'rtacha qiymati 350 m/s ni tashkil qilgan. Nyuton o'zining buyuk asarida quyudagilarni yozgan: "Gaz yoki suyuqlikda tovush tarqalganda ulardagi zarralar oldinga va orqaga tebrana boshlaydi va xuddi mayatnik tebranish qonuniga asosan zarralar tezlashadi va sekinlashadi". Bunga asoslangan holda elastik muhitdagi tovush tezligi:

$$v = \sqrt{\frac{p}{\rho}} \quad (1)$$

bu yerda $p = \rho dh$ - muhitning h chuqurlikdagi (balandlikdagi) bosimi, ρ - muhitning zichligi.

Nyuton o'z formulasi va standart havo atmosferasini balandligi (h) asoslanib, tovushning havodagi tarqalish tezligini hisobladi va u 280 m/s qiymatni tashkil qildi.

Shunday qilib, Nyutonning olgan natijasi tajriba yo'li bilan aniqlangan havodagi tovush tezligidan ancha kichik bo'ldi. Nyutonning o'zi tushuntirishga harakat qildi. 1713-1725 yillarda

nashr qilgan asarlarida Nyuton bu farqni quyidagicha izohlaydi: "Hisob-kitoblarimda havo zarralarining tebranishlari bilan bog'langan xususiyatlar inobatga olinmagan. Undan tashqari, havodagi bug'lar elastikligi boshqa zarralar elastikligidan ancha farq qilishi mumkin. Bu qo'shimchalarni inobatga olinsa, tovushning tezligi 338 m/s ga etishi mumkin". Shu bilan birga Nyuton havo haroratiga qarab, uning elastikligi kamayishi (qishda) va ortishi (yozda) mumkinligini izohlaydi. Nyuton fikrining to'g'riligi keyinchalik 1740 yilda Kondalin tajribalarida tasdiqlandi, xususan sovuq kunlarda tovushning tezligi 339 m/s va issiq kunlarda 357 m/s bo'lishi aniqlandi. Ammo Nyutonning tushuntirishlari sun'iyroq va to'liq asoslanmagan edi, shu sababli bu farqning tub mohiyatini aniqlash masalasi ochiq qoldi.

Buyuk matematiklar Eyler va Lagranj tovushning havodagi tezligi muammosini nazariy ravishda hal qilishga urinib ko'rishdi. 1746 yilda Eyler "Yorug'lik va ranglarning yangi nazariyasi" asarini chop qildi. Asarning ikkinchi "G'alayonlanishni vujudga kelishi va tarqalishi bobida u elastic muhitda bo'ylama to'liqlarni vujudga kelishi va tarqalish masalasini ko'rib chiqdi va birinchi bo'lib analitik usulda elastic muhitdagi tovush tezligi uchun Nyuton formulasini keltirib chiqardi. Uning ko'rinishi quyudagicha bo'lgan:

$$v_e = \sqrt{K} \quad (2)$$

bu yerda $K = E/D$, E - muhitning elastiklik moduli (Yung moduli), D - muhit zichligi.

Bu formulani havodagi tovush tezligini hisoblashga tadbir qilinishi tajriba natijalariga mos kelmasligi Eylerga ayon bo'lganbo'lsa ham buning sabablarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yilmagan edi. 1759 yilda Eyler maxsus ilmiy "Tovushni tarqalishi haqida" gi asarini chop qildi. Bu ish elastik

muhitlarda to'liqlarning tarqalishiga bag'ishlangan bo'lib, unda nazariy va tajribalarda aniqlangan tovush tezliklarining farq sababi havodagi g'alayonlanish tezligining muhit zarralari va havo orqali uzatilayotgandagi farqlanishlardan iborat deb bilgan. Eyler fikricha, kichik tebranishlar uchun bu farqlanish kichik bo'ladi va shu sababli uni inobatga olmasa ham bo'ladi, ammo havodagi intensiv tovush tezligini aniqlashda bu farqlanishlarni inobatga olish zarur. Shunday qilib, nazariy va tajriba natijalari orasidagi farqlanishning haqiqiy sabablari ochiqlicha qoldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nyuton ham Eyler ham havodagi tovush tezligini aniqlashda Boyl-Mariott qonuniga asoslanishgan, ya'ni havo elastikligi uning zichligiga to'g'ri proporsional bo'lishiga. Faqatgina fransuz olimi Lagranj havodagi tovush tezligini aniqlashda Boyl-Mariott qonunini asos qilib olishni gumon qilgan. 1759-1761-yillarda Lagranj tovush to'liqlarini muhitda tarqalish muammosi bo'yicha o'zining 3 ta asarini chop etadi. Shulardan ikkinchisi "Tovush tarqalish tabiati haqidagi yangi tadqiqotlar" ishida Lagranj havo elastikligi uning zichligiga to'g'ri proporsional bo'lmay darajali proporsional bo'ladi deb, tovushning havodagi tezligi uchun tajriba natijalariga asoslangan holda quyidagi formulani keltirib chiqaradi:

$$\vartheta_N = \sqrt{m} \cdot \vartheta_n = \sqrt{\frac{4}{3}} \vartheta_n = 335 \text{ m/s} \quad (3)$$

Shunday qilib, Lagranj o'z intuitsiyasiga asoslangan holda Nyuton va boshqalarning tajriba natijalarini mos kelmaslik sababini to'g'ri tushundi. Uning fikricha, tovush to'liqlari tarqalishida havo ketma-ket tez siqiladi va siyraklashadi, bu sohalar uchun Boyl-Mariott qonuni bajarilmaydi, natijada havo elastikligi uning zichligiga nisbatan tezroq o'zgaradi ($E = D^m = D^{4/3}$) Lagranj o'z gipotezasining fizik asoslarini bera olmagan, chunki o'sha davrda aniq tajriba natijalari mavjud emas edi. Keyinchalik 18-asrning oxirida nemis fizigi Xladni azot, kislorod, vodorod va karbonat anhidrid gazlari bilan tajribalar o'tkazib, ulardagi tovush tezligi 330-350 m/s oraliqda bo'lishligini aniqladi. Undan so'ng Angliyada gazlarning siqilishi va kengayishi natijasida ularda issiqlik effektlari (sovush va isish) ro'y berishligini Darvin va Dal'tonlar aniqlashdi. Fransuz olimi yuqoridagilarni inobatga olib, quyidagi xulosaga keldi: havoda tovush tarqalganda gaz elastikligi va zichligi orasidagi to'g'ri proporsionallik qonuni buziladi. Buning sababi tovush to'liqini tarqalishi natijasida havoning siqilishi va siyraklashishidir. Bu hodisa o'z navbatida havo haroratining o'zgarishiga u esa havo elastikligini Nyuton qiymatidan ortishiga olib keladi.

Havodagi tovush tezligini aniq aniqlash muammosiga buyuk fransuz nazariyotchisi Puasson ham qiziqib qoldi. U 1807 yilda chop qilgan "Tovush nazariyasi haqidagi memuarlar" asarida Nyuton formulasiga havo elastikligi bilan zichligi orasidagi proporsionallik tuzatmasini inobatga olish masalasining to'g'ri yechimini aniqlab berdi. Massa birligidagi gazning bosimi "P" hajmi "V" harorati "O" bo'lsin. Gaz harorati bir gradusga oshirilsa (O+1), uning nisbiy hajm o'zgarishi

$$\gamma = \frac{V-V_0}{V} = \frac{\alpha}{1+\alpha\theta} \frac{a}{1+a\theta} \quad (4)$$

bo'ladi. Bu yerda: α – gazning hajmiy kengayish koeffitsiyenti. Bu holatdagi gazga berilgan issiqlik miqdori shu gazning o'zgarmas bosimdagi issiqlik sig'imi (C_p) deyiladi.

Agar yuqoridagi, gazni o'zgarmas hajmda bir gradusga qizdirsak, u holda gazga berilgan issiqlik miqdori shu gazning o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imi (C_v) deyiladi. Bu issiqlik sig'imlar ta'rifidan quyidagi xulosa kelib chiqadi: $C_p > C_v$. Puasson fikricha $\frac{C_p}{C_v} = 1 + \tau$ (5)

bu yerda τ – gaz temperaturasiga bog'liq bo'lgan tuzatma. Demak, Nyuton formulasiga kiritilayotgan tuzatmani (CP/CV) aniqlash uchun " τ " hisoblash zarur bo'lgan. Puassonning aniqlashiga ko'ra:

$$\tau = \frac{\omega\alpha}{(1+\alpha\theta)\beta} \quad (6)$$

bu yerda β – gazning kichik siqilishidagi haroratning kichik ortishi (ω), demak $\beta\tau = \gamma\omega$.

Havodagi tovush tezligini aniqlash uchun Puasson tomonidan

$$\text{taklif qilingan formula } \vartheta_t = \sqrt{\frac{PC_p}{PC_v}} = \sqrt{g \cdot h \cdot \frac{C_p}{C_v}} = \sqrt{gh \cdot \left(1 + \frac{\alpha\omega}{(1+\alpha\theta)\beta}\right)} \quad (7)$$

Puassonning o'zi, bu formula bo'yicha aniq hisob-kitoblar qilish ancha qiyin, chunki " ω " ning qiymati ma'lum emas, deb izohlagan. 1816 yilga kelib, havodagi tovush tezligini va gazlarning issiqlik sig'imlarini aniqlash bo'yicha muhim eksperimental tadqiqotlar amalga oshirildi, shu sababli Laplash o'zining havodagi tovush tezligini aniqlash nazariyasini yana bir karra tekshirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Shu yili Laplash bir kichik "Tovushning havodagi va suvdagi tezligi haqida" degan xabarnomasini chop qildi. Unda birorta matematik formula bo'lmasa ham, u tugatilgan va har tomonlama asoslangan fizik-matematik tadqiqot ishi bo'lgan. Xususan bu xabarnomada quyidagi fikr va izohlar keltirilgan: "Tovush tezligi uchun Nyutonning formulasi tajriba natijalariga nisbatan kichik qiymatni beradi. Bu farqlanishning sababi havo siqilgandagi ajralib chiqayotgan issiqlik kiydori bilan izohlanadi. Havo harorati oshganda uning bosimi ham ortadi va hajmi ham o'zgaradi. Bu esa o'z navbatida muhit zarralarining intensiv tebranishiga va tovush tezligini ortishiga olib keladi. Bunday jarayondagi gazning bosimi va hajmi orasidagi bog'lanish Boyl-Mariott qonuniga bo'ysunmaydi, chunki unda harorat o'zgarmas deb qabul qilingan (izotermik jarayon, Laplash fikricha esa jarayon – adiabatik). Shu sababli tovushning havodagi tezligini aniqlash uchun Nyuton formulasidagi tezlikni kvadrat ildiz ostidagi havoning o'zgarmas bosimi (C_p) va o'zgarmas hajmdagi (C_v) solishtirma issiqlik sig'imlar nisbatiga ko'paytirish kerak, ya'ni

$$\vartheta_{\text{tovush}} = \vartheta_N \cdot \sqrt{\frac{C_p}{C_v}} \quad (8)$$

Demak, Laplas xuddi Puasson xulosasiga keldi, lekin u jarayon va formulani aniqroq tavsiflab berdi.

Tahlil va natijalar. Gazlarning o'zgarmas bosim va o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig'imlari nisbatini aniqlash bo'yicha bajarilgan muhim eksperimental ishlar natijasiga to'xtalsak. 1819 yilda Kleman va Dezorm o'zlarining "Gazlarning absolyut noldagi issiqlik va solishtirma issiqlik sig'imini eksperimental o'lchash" nomli ilmiy ishida vakuumning issiqlik sig'imini o'lchash gipotezasini tekshirib ko'rishmoqchi bo'lishgan. Bu fikr va urinish birinchi ko'rinishda mutlaq ma'nosiz bo'lsa ham, ular olgan natijalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Teplorod nazariyasiga ko'ra, jismning harorati qancha katta bo'lsa, undagi teplorod shuncha ko'p bo'lishi kerak yoki aksincha. Agar jism ma'lum sabablarga ko'ra teplorodini butunlay yo'qotsa, u holda uning harorati absolyut hol bo'lib qoladi (eng past harorat). Dal'ton gipotezasiga asosan esa, bu holda vakuum eng maksimal issiqlik sig'imiga ega bo'lish kerak, chunki vakuumda teplorod bo'lmagani uchun uni qizitish juda qiyin.

Xulosa va takliflar. Fizik olimlarni o'z davrida qilgan eksperiment tadqiqotlarida tovushni gazlardagi tarqalish muammosi o'rganildi. Kleman va Dezorm eksperimentni o'zgarmas bosim va hajmdagi issiqlik sig'imlar nisbatini aniqlashga bag'ishlangan bo'lib, ular bu nisbatni havo uchun topishdi va u 1,36 qiymatni tashkil qildi. (hozirgi kundagi aniq qiymati 1,41 ga teng). Dyulong gazlardan tovush tezligining o'sha paytdagi (1829 y.) qiymatlarini va Laplas formulasidan foydalanib, havo va boshqa gazlarning $\frac{C_p}{C_v}$ qiymatlarini aniqladi.

Havo uchun bu natija 1,4 ga yaqin bo'lsa ham boshqa gazlar uchun bunday natija olinmadi. Keyinchalik, 19-asrning 40-60- yillarida $\frac{C_p}{C_v}$ nisbati Kuzen, Girn Lefua, Peno, va boshqa olimlar tomonidan ham aniqlandi. Ularning natijalari havo uchun 1,38 dan to 1,42 qiymatlar oralig'ida bo'lgan. Gazlarning o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imini aniqlash eksperimental qiyinchiliklar bilan bog'landi. Faqatgina XIX asrning 90-yillarida bu masala Jolli tomonidan maxsus konstruksiyali kalorimetr yaratilishi bilan to'liq hal qilindi.

ADABIYOTLAR

1. M.Qurbonov, D.A.Begmatova "Fizika tarixi" fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent - 2018 y
2. Т. Усмонов "Физика тарихидан методик қўлланма" – Тошкент – 2003.

3. Кудрявцев П.С. “Курс истории физики”. М. 1982 г.
4. Дорорман Я.Г., “Всемирная история физики”. М. "Наука". 1974 г.
5. N.Rahimov. “Fizika tarixi”. O'quv-uslubiy qo'lanma. Namangan – 2011



UDK: 377.031:378

Sadoqat SIDDIQOVA,
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, PhD,
E-mail: sadoqats@mail.ru

Professor, p.f.d Q.Olimov taqrizi ostida

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON THE INTEGRATION OF SPECIAL SUBJECTS IN DUAL EDUCATION

Annotation

This article deals with organizational and methodological interdisciplinary integration in teaching special disciplines in dual education, ensuring the integration of special disciplines to achieve efficiency in the learning process, integrated information technology and the organization of integrated lessons.

Key words: Integration, training, special disciplines, dual education, learning process, interdisciplinary integration.

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ДУАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье речь идет об организационно-методической междисциплинарной интеграции в преподавании специальных предметов в дуальном образовании, обеспечении интеграции специальных предметов для достижения эффективности учебного процесса, организации интегрированных информационных технологий и интегрированных занятий.

Ключевые слова: Интеграция, преподавание, специальные предметы, дуальное образование, учебный процесс, межпредметная интеграция.

DUAL TA'LIMDA IXTISOSLIK FANLAR INTEGRATSIYALASHUVI ASOSIDA O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH

Аннотация

Ushbu maqolada dual ta'limda ixtisoslik fanlarni o'qitishda tashkiliy-metodik fanlararo integratsiya, o'quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun ixtisoslik fanlarining integratsiyalashuvini ta'minlash, integratsiyalashgan axborot texnologiyalari va integratsiyalashgan darslarni tashkil etish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, o'qitish, ixtisoslik fanlar, dual ta'lim, o'quv jarayoni, fanlararo integratsiya

Introduction. The decree of the President of the Republic of Uzbekistan from 07 February 2017 up-4947 "On a Strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan" decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures to improve the quality of education in dual education institutions and ensuring their active participation in large-scale reforms in the country" dated 14 June 2012. This article will contribute to achieving the goals set out in other regulatory documents [1].

Striving to become one of the developed countries, Uzbekistan, like all sectors of the economy, is trying to introduce advanced technologies in education and thereby bring the content of education to world standards. Currently, dual educational institutions are carrying out a number of noteworthy works on the use of new pedagogical and information technologies and the development of modern teaching materials. Also, in order to improve the education system, the experience of professional training of foreign countries is used. The implementation of this work is the basis for creating a methodological system in the field of education, combining the rich heritage of our people, the ideas of our great thinkers and the latest innovations of our time.

The model of interdisciplinary connections determines the quality of the student's professional training and, as a result, the

future specialist's ability to master an independent study of this activity. Therefore, the time characteristic of this model is its dynamics, and it involves the acquisition of independent knowledge based on interdisciplinary communication in dual education institutions.

Literature review. One of the most important features of the organizational and structural model that we developed is its integrity, because the research goal cannot be achieved by introducing any component of this model [5].

The task of the educational process is to ensure the unity of teaching, upbringing and development. The problem of developing the skills, consciousness and skills of students, deepening their scientific and practical knowledge is also relevant in the preparation of teachers in the field of vocational education in technical universities. These qualities help future students consciously increase their interest and responsibility in their profession, and develop their abilities. The problem of increasing the creative abilities of students in the learning process is complex and multifaceted.

Therefore, this is a priority area. Figure 1 below shows the structure of a traditional lesson process:




Figure 1. The structure of the traditional educational process

Thus, from Figure 1 above, it can be seen that, the pedagogical process is the result of joint activities of the

participants. In the process of learning, the worldview, abilities and qualities of a person change. Throughout the learning process,

students master the socio-historical experience of human society, and in this way they provide a spiritual, cultural, economic and social heritage between generations [4].

All actions of a person guided by a conscious goal in obtaining certain knowledge, skills and abilities are associated with education. The methodological basis of teaching is the theory of dialectical knowledge. The educational process includes: obtaining information about the characteristics of the universe, necessary for the successful organization of a certain type of experience and practice, mastering the methods and tools that lead to this activity, mastering the methods of using the information

provided to select and control the correct path and method in accordance with the intended purpose and conditions of the problem [3].

Research Methodology. Consequently, education is the process of transferring knowledge, skills and abilities, the main means of preparing a person for life and work. In the process of training, knowledge is acquired and upbringing is carried out. Education is a narrow concept of learning. But this is not only a learning process in various educational institutions, but also a process of acquiring knowledge in the family, in production and in similar areas.

We represent this in Figure 2 below:




Figure 2. Product of the traditional educational process

Requirements for a comprehensive lesson plan:

1. The topic of a comprehensive lesson.
2. Planned results for the formed knowledge, skills and abilities.
3. Modern technologies, methods and techniques.
4. Training equipment.

5. Desktop educational process: the stage of formation of knowledge, skills and abilities, showing the leading activity of the lesson, teacher activity, student activity.

After developing a lesson plan that combines general and specialized teaching, the quality of its content can be assessed according to the assessment criteria shown in Figure 3.




Figure 3. Criteria for evaluating a comprehensive lesson plan

Analysis and results. An integrative plan of practical training is developed on the basis of the following stages:

1. Create a multimedia presentation for an integrated lesson.
2. In the process of preparing the presentation, combine several similar topics, use one content to complement the other, determine the temporal distribution (based on the flowchart of the lesson).
3. Develop a cluster or mental map of the topic.
4. Create a page on the topic on the social network.
5. Create a collage (sketch for coat of arms, cover, poster, portrait, costume, etc.) on the main concepts of the subject using ICT.
6. Create video booklets or playlists.

1. Choosing a topic, organizing a project group (for example, a group project)

2. Drawing up the name of the project, the planned results, the format of the final product, the distribution of responsibilities.

3. Monitoring the progress of the project (stages of orientation, planning, data collection and processing, implementation, presentation of results, presentation, evaluation and reflection).

4. Development of a sample project.

5. Preparation of the project presentation.

Table 1

Criteria for evaluating project activities

Criteria for evaluation	Points (estimates)
Material feeding quality:	
compliance of the project structure with the set goals and objectives;	10-15
relevance, novelty and originality of the proposed solutions;	10-15
completeness of the content of the topic, the depth of the disclosure of the topic;	10-15
compositional integrity and consistency of presentation;	10-15
compliance with speech norms.	10-15
The practical value of the proposed developments	15-20
Compliance of the project with the standard requirements for text formatting and video presentation.	10-15
Project defense (the ability to present material and conduct scientific discussions in the process of discussing the results)	10-15
Total points: min. – max.	85-100

At the end of the lesson, students will be provided with a list of recommended literature and teaching aids for independent work on a new topic. Thus, the technology of teaching natural sciences plays an important role in organizing the educational process on the basis of an integrated curriculum and teaching materials. Interdisciplinary integration in style, didactic tools, methodological support of the course, the appeal of students to the content of other topics of the subject, along with general and specialized subjects related to the topic, depends on the structure of the curriculum and learning objectives.

The peculiarity of the domestic version of the integrated approach lies in the early correction of impaired functions against the background of a purposeful general development of an abnormal child, in providing him with rehabilitation opportunities through a system of special differentiated and integrated education.

The formation of the cognitive interests of students occurs primarily in the classroom. We activate students' learning and cognitive activity and increase interest in learning at each stage of the lesson, using various tasks for the purposes of influence and use in various lessons.

Since integration is not an end in itself, but a certain system in the activity of a teacher, there must be an end result of integrated learning:

to increase the level of students' knowledge of the subject, which manifests itself in the depth of digestible concepts, patterns due to their multifaceted interpretation using information from integrable sciences;

in changing the level of intellectual activity provided by the consideration of educational material from the perspective of leading ideas, the establishment of natural relationships between the problems studied;

in the emotional development of students;
in the growth of students' cognitive interest, manifested in the desire for active and independent work in the classroom and during extracurricular time;

in the inclusion of students in creative activities, the result of which may be their own independent work, which is a reflection of the personal attitude to certain phenomena and processes.

Conclusion. The highlighted aspects correspond to the educational, developmental and educational functions of training. This allows us to formulate the conclusion that the integration of subjects contributes to the overall development of the student and a deeper study of topics in the class on special subjects, contributes to the formation of a holistic picture of the world among students, understanding the links between phenomena in nature, society and the world as a whole.

For our time, the integration of sciences is characteristic, the desire to get the most accurate picture of the general picture of the world. These ideas are reflected in the concept of modern education. But to solve such a task is impossible within the framework of one academic subject. Therefore, in the theory and practice of education, there is a tendency to integrate academic disciplines (integrated courses, integrated lessons), which allows students to achieve interdisciplinary generalizations and approach an understanding of the overall worldview. This is especially important for teaching mathematics, the methods of which are used in many fields of knowledge and human activity [2].

This connection is also reflected in the development of criteria for assessing students' knowledge on the topic, the correct choice of types of assessment.

REFERENCES

1. "On the strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan." Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017. – № 6. – P. 70.
2. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
3. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, (2), 67-70.
4. Sharifovna, T. Z., Kizi, T. M. K., Khikmatovna, N. L., Ramazonovna, E. M., Narzullaevna, A. M., & Kizi, K. S. N. (2020). Opportunities for the development of creative abilities of the future teacher and student. Journal of Critical Reviews, 7(12), 103-107.
5. Sharifbaeva Kh. Ya., Babakhanova M. P., Ziyatov A. Implementation of continuity in the training of teachers for sspo. Republic of ilmiy-Amaliy conference materialari. – Vol. 2006. – 163-164 b.
6. Daminov, L. O., & Tukhtaeva, J. P. T. Z. S. (2020). Nigora Zakiraliyeva Sayfullaeva, Khurshid Nozimovich Khakimov The Importance of Game Technologies in the Training of Future Vocational Teachers on the Basis of Competent Approach. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 4, 6669-6674.
7. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in dual education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), – 125-131.
8. Tukhtaeva Zebo. (2023). Improving educational process by providing crosssubject integratio. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 178–188. <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/571>
9. Shutova N.V. Integrated mental development of problem children by means of musical influence. Nizhny Novgorod, 2009. – p. 424
10. Toropova E.A. Modern problems of science and education. Electronic scientific journal. - 2012. - № 6. – P. 58-59.
11. Vazina K.Ya. Natural-reflective technology of self-development of teachers, students. Teacher Education. Moscow, 2010. – P. 20-24.



Erkin SIRLIYEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sirlieverkin@gmail.com

TDPU professori, psixol.f.dok (DSc) N.Umarova taqrizi asosida

O'ZBEKISTON YOSHLARI HARBIY VATANPARVARLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA IRODAVIY SIFATLARNING AHAMIYATI

Аннотация

Mazkur maqola yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning psixologik mexanizmlaridan biri bo'lgan irodaviy sifatlarni takomillashtirish orqali erishish mumkinligi to'g'risida bilim va ko'nikma hosil qilish uchun imkoniyat yaratish bilan birgalikda, shaxsga xos bo'lgan irodaviy sifatlarni takomillashtirishning psixologik amaliyoti uchun zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, obyektiv qiyinchiliklar, subyektiv qiyinchiliklar, iroda, irodaviy faoliyat, irodaviy aktlar, chidamlilik, matonat, maqsadga intilish, mardlik, jasurlik, beriluvchanlik, yalqovlik, qat'iyat.

ЗНАЧИМОСТЬ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ В ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА СРЕДИ МОЛОДЁЖЕЙ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье излагаются основы психологической практики совершенствования волевых качеств, присущих личности, в сочетании с предоставлением возможности формирования знаний и умений, которые могут быть достигнуты путем совершенствования волевых качеств, что является одним из психологических механизмов формирования чувства военного патриотизма у молодежи.

Ключевые слова: Психология, объективные трудности, субъективные трудности, воля, волевая активность, волевые акты, выносливость, настойчивость, стремление к силе, доблесть, мужество, лень, решительность.

IT IS HERODIAN IN THE FORMATION OF MILITARY PATRIOTISM IN THE YOUTH OF UZBEKISTAN IMPORTANCE OF ADJECTIVES

Annotation

The article suggests that developing qualities such as masculinity or resourcefulness, physical training, educational enlightenment, healthy family relationships, strong will and a light spirit are essential in achieving this goal. It emphasizes that these qualities are beneficial for individuals in general.

Key words: Psychology, objective processes, subjective processes, volitional activity, volitional acts, work, perseverance, aspiration, bravery, courage, dedication, laziness, determination.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish, jamiyatimizda adolat hamda qonun ustuvorligiga erishish O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Ichki ishlar vazirligi, Mudoafa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Sud-praktura, qolaversa, mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqoroning muqaddas burchidir. Yurtimizda yuqorida nomlari ko'rsatilgan har bir idora sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, oliyjanob, fidoiy, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalash va yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Chunki, bugungi murakkab sharoitda harbiy xizmatchi va xodimlarning xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, ularga bo'lganishonchini mustahkamlash bevosita mana shu islohatlar hamda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar samarasiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi"[1]. Ma'lumki, "O'zbekiston-2030" strategiyasi [2], "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi va boshqa qonun hujjatlarida yoshlarimizga zamonaviy standartlar asosida ta'lim-tarbiya berish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilayapti. Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida

tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, "Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!" degan ezgu g'oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas'ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g'oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda.


Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyun oyida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarorida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish, mazkur yo'nalishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligini yanada oshirish, yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida alohida konsepsiya ishlab chiqilgan. Ushbu konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash "Vatan – ulug', burch – muqaddas!" konseptual g'oya ostida tashkil etilib, unda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, har tomonlama rivojlantirish, qat'iy fikr va e'tiqodga ega shaxsni shakllantirish asosiy vazifa etib belgilanadi [3].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosi dolzarbligi bilan o'ziga xos tarzda alohidalikka ega. Shu bois, O'zbekiston yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish muammosi shaxsning psixologik tayyorgarligi hamda xissiy-irodaviy o'zini-o'zi boshqarish bilan bog'liqligi hech kimga sir emas.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning psixologik mexanizmlari hisoblangan irodaviy sifatlarni rivojlantirishning psixologik omillarini ishlab chiqish, ekstremal

vaziyatlarga tez moslasha olish ko'nikmasini takomillashtirish hamda qiyinchilik talab etadigan xizmat sharoitida shaxs irodaviy sifatlarini shakllantirish zaruratini tug'diradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iroda insonning o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan ongli faoliyatidir. "Iroda" tushinchasining mohiyatini insonning o'z oldiga maqsad qo'ya olish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, jismi xulqini iroda qilish



Iroda juda murakkab jarayon bo'lib, uni bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin:[6] muayyan maqsadni tanlash; maqsadga erishish yo'llarini anglash va shakllantirish; shakllangan fikrlarni mustahkamlash; kutilayotgan ijobiy va salbiy oqibatlarini solishtirib, sabab motivlarini o'rganib, maqsad sari harakatlanish; iroda jarayoni maqsad amalga oshganidan so'ng yakunlanadi.

Maqsadlarning davomiyligi shaxsning individual xususiyatlari, ya'ni maqsadning faoliyatga aylanishi, unga erishilishi uchun qat'iy, zarur muhim qaror qabul qila olish bilan bog'liq. Irodaning kuchi qat'iyatlikda, faoliyatni har qanday qarshiliklar bo'lishiga qaramasdan oxirigacha hal qilishda, o'zining oldiga qo'ygan maqsadga erisha olishiga ishonira olishda, to'siqlar qanday va qay tarzda bo'lishidan qat'iy harakatning faqat qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilganligida namoyon bo'ladi.

Iroda ko'rinishlari:

1. Ijobiy-qat'iyatlik, mustaqillik, matonatlik, jasurlik, mardlik, chidamlilik va sabr-toqat;
2. Hissiyotda – hissiyotlarni jilovlash va aql bilan qaror qabul qilish;
3. Salbiy – beriluvchanlik, xudbinlik va yalqovlik.

Irodaviy o'zini o'zi boshqarishning asosiy maqsadi yoshlar o'z ichki imkoniyatlaridan optimal foydalanishiga, uning ijodiy salohiyati ochilishiga, kasbiy hislatlari va qobiliyatlari keng va samarali namoyon bo'lishiga yordam beradigan alohida ruhiy holatlarni shakllantirishdan iborat.

Shunday qilib, o'z organizmida yuz berayotgan jarayonlarni mustaqil ravishda faol o'zgartirish va ularni boshqarish imkoniyati katta ahamiyatga ega. O'zini o'zi boshqarish orqali qisqa vaqtga vaziyatdan kelib chiqib ruhiy jarayonlarni faollashtirish yoki sekinlashtirish, shuningdek, bajariladigan faoliyatni tayyorlash sifatini va uning samaradorligini oshirish mumkin. Masalan, jismoniy mashg'ulot chog'ida shaxs yuzaga keladigan ishonchsizlik hissini bartaraf etishi, o'z jangovar ruhini ko'tarishi, butun imkoniyatlarini safarbar etishi mumkin va h.k.

O'zini o'zi boshqarish usulining turli shakllari yordamida bilish jarayonlariga ham, motivatsion jarayonlarga ham ta'sir etish; motivlar va mayllarning amaliyligini ko'tarish (masalan, bir xil ishni bajarishda hosil bo'ladigan charchash hislari bilan kechadigan zo'riqishlar chog'ida). Bu shaxs faoliyatida, natijaga darhol erishish mumkin bo'lmaganda, tavakkalli yoki xavfli tuyulgan vaziyatlarda, shuningdek, ekstremal sharoitlarda ish qobiliyatini vazifani bajarishga safarbar etishda juda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, ruhiy jihatdan o'zini o'zi boshqarish ikki maqsadli ustanovkaga ega: bir tomondan, xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish uchun har tomonlama qulay psixologik shart-sharoit yaratish, boshqa tomondan dam olishga o'tishni yengillashtirish. Bunda katta tajriba natijasida shaxsning o'zi topgan oddiy ruhiy boshqaruv usullarni ("sodda" ruhiy boshqarish) ilmiy asoslangan mashqli usullarni egallashtirish farqlash lozim. Ruhiy boshqarish mashqli usullarni egallash deganda, odatda, avtonom, ya'ni oddiy vositalar bilan ixtiyoriy boshqarib bo'lmaydigan jarayonlarni maqsadli o'zgartirish

qobiliyati kiradi. Iroda to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan aqliy, maqsadga yo'naltirilgan psixik faollik bo'lib, maqsadga intilishda vujudga keladi va instinklar negizida shakllanadi[4].

Iroda faoliyati qiyinchiliklarni yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'zini o'zi boshqarish sifatida, eng avvalo, o'ziga, o'z hissiyotlariga xatti-harakatlariga xukmronlik qilishdir. (1-rasm)

tushuniladi. Kutilgan natijaga faqat rejali ravishda takrorlab boriladigan mashqlar orqali erishiladi.

O'z ruhiyatini boshqarishning mohiyati shundaki, inson o'zining ruhiy holatiga va butun organizmiga ta'sir ko'rsatish uchun atrof muhit bilan muloqotda bo'lish va o'z organizmini bilish jarayonida to'planadigan his-tuyg'ularini muntazam mashqlar predmetiga aylantiradi. Irodaviy mashqlar yordamida ruhiy o'zini o'zi boshqarish organizmning faoliyat ko'rsatishiga doir doimiy qaytma aloqa, markaziy asab tizimining fiziologik jarayonlar bajarilgani to'g'risidagi refferant signallariga kabi muhim umumiy tamoyilga asoslanadi. Ushbu signallar tabaqalashgan tarzda idrok qilinishi va irodaviy mashqlar dasturining mazmuniga (ichki erkinlik hissini, keskinlik, zo'riqish, bo'shshish kabi his-tuyg'ularini mashq qildirish va h.k.) asos yaratishi mumkin.

Umuman, har bir sog'lom, mehnatga qobiliyatli bo'lajak xarbiy xizmatchi va xodim o'zini o'zi boshqarish usullarini egallashi mumkin. Ammo bunda irodaviy o'zini o'zi boshqarish usullaridan foydalanish samaradorligini pasaytiruvchi bir qator omillar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

yoshlar mazkur mashqlarni bajarishga munosabati (uning ichki tayyorligi). Haddan tashqari o'ziga ishonish muvaffaqiyatga erishishga yordam bermaydi. Istakning o'zi natija bermaydi. Buning uchun muntazam ishlash, sabr-toqat va iroda zarur;

mashqlarning dastlabki bosqichida erishilgan muvaffaqiyat mashq qiluvchini uning mashg'ulotlarga munosabatida noto'g'ri yo'nalish berishi, o'ziga ortiqcha ishonishiga va qiyinchiliklarni yenga olmaydigan bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin;

o'zini mashq qildirishning yomon sharoitlari. Halaqit beruvchi tashqi omillarni yo'q qiluvchi, o'zini bo'sh qo'yishga yordam beruvchi xotirjam sharoit yaratish kerak. Ruhiy boshqaruv usullarini egallab borgan sari xizmat faoliyatining haqiqiy sharoitlarida mashq qilishga o'tish mumkin;

shaxsning individual xususiyatlariga mos kelmaydigan o'zini o'zi boshqarish usulini noto'g'ri tanlash, shu bois ruhiyatni boshqaruvchi vositalar katta ehtiyotkorlik bilan, ularning samaradorligini doimiy nazorat qilgan holda tanlanishi kerak;

ishonuvchanlik va xayol surish qobiliyati kabi shaxsiy xislatlarning namoyon bo'lishidagi xususiyatlar. [7]

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Irodaviy o'zini o'zi boshqarish jarayoni uchta asosiy tamoyilga tayanadi[5]:

- relaksatsiya;
- vizuallashtirish;
- o'zini o'zi ishtirish.

Relaksatsiya tamoyilining mohiyatini tana va ruhning birgalikda ishlashga tayyorlanishi tashkil etadi. Aynan relaksatsiya paytida o'z ichki ovozini eshitish va o'z organizmingiz va tafakkur faoliyatingizning aloqasini his etishingiz mumkin. Relaksatsiya yoki bo'shshish tana va ruhni keraksiz zo'riqishdan va odamni bo'shshitib yuboradigan jihatlardan ozod qilishni bildiradi, u insonga foydali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jarayon:

unda miya xotirjamlashgani sayin tana bo'shshadi, tana bo'shshagani sayin miya xotirjam bo'la boradi.

Vizuallashtirish intuiiv tafakkur onga kirib borishning turli yo'llaridan foydalanadi. Asosiysi manzara hosil qilish yoki miyangizda obrazlarni gavdalanitirish yo'lidir. Vizuallashtirish yo'nalgan tasavvurni eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, teri bilan sezish sezgilari hamda ularning kombinatsiyalari yordamida faollashtirishning turli usullarini bildiradi. Aslida, inson miyasi obektiv olam obrazlariga ham, ongda yuzaga keladigan obrazlarga ham bir xilda javob beradi. Shu bois vizuallashtirish ko'nikmalari insonga o'z ichki imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish, ruhiy jarayonlarning kechishini faollashtirish imkonini beradi.

O'zini o'zi ishonitirish tamoyilining mohiyati shundaki, biz o'zini o'zi ishonitirish yordamida ichki obrazlarimizni ongimizda aks sado sifatida bir necha marta takrorlanadigan so'zlar bilan ifodalaymiz. O'zining ichki kuchi va qo'llab-quvvatlanishi bilan to'lgan bu so'zlar his-tuyg'ular darajasida chuqur qabul qilinadi. Bunday ichki aks-sadoni "Men buni qila olaman" so'zlarida namoyon bo'ladigan munosabat, niyat va mayl sifatida ifodalash mumkin. O'zini o'zi ishonitirish muvaffaqiyatga erishish mumkinligi haqida birinchi shaxs no-midan hozirgi zamonda ifodalangan aniq ta'kidir. Insonning o'ziga qarata aytgan so'zlari o'z maqsadlariga erisha olishiga bo'lganishonchini kuchaytiradi va qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini ko'rsatadi. Bu so'zlar miyani maqsadga erishish borasida ishlashga va bunda faol ishtirok etishga majbur qiladi. O'zini o'zi ishonitirish - obrazlarni so'zda ifodalashga imkon beruvchi faol moyillikdir.

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullari:

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini qo'llashdan ko'zlangan maqsad bo'lajak xarbiy xizmatchi va xodimga xizmat doirasidagi harakatlarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun maqbul ichki sharoitni yaratishda yordam berishdan iborat. Bunda quyidagi bir qator jihatlar nazarda tutiladi:

insonning o'ziga nisbatan ijobiy ustanovkani mustahkamlash ("Men buning uddasidan chiqaman"), o'ziga ishonch hissini oshirish;

hissiy-affektiv jarayonlarni (ayniqsa, tavakkal, qo'rqinch hissi, kasbiy harakatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lganvaqt taqchilligi kabilarni) uyg'unlashtirish va faollashtirish;

O'zini o'zi boshqarishning eng oddiy usullarini qo'llash, birinchi navbatda, rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi boshqaruvni kuchaytiradi. Ularga yoshlar o'ziga, o'z imkoniyatlariga, kutilayotgan kasbiy natijalariga nisbatan ijobiy mayllarni kuchaytirish va salbiy mayllarni bartaraf etish kiradi.

Yoshlarda irodoviy sifatlarni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligi va faoliyat samaradorligini ta'minlovchi psixologik omillardan sanaladi. Jismoniy tayyorgarligida yuklamalarni aniq va davomiy bajarilishlarini taminlaydigan irodoviy sifatlarni namoyon qilishlari muhimdir.

Jismoniy tayyorgarlik birinchi navbatda shaxsning jismoniy sifatlarni rivojlantiradi. Jismoniy sifatlarni albatta jismoniy yuklamalarni uzliksiz tartibda bajarish evaziga sodir bo'ladigan fiziologik jarayondir. Jismoniy yuklamalarni bajarish shaxsda uch bosqichdagi ruhiy holati bilan bog'liq amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlarda inson ruhiyatining sog'lomligi va aniq maqsadlarga qaratilganligi uning jismoniy o'sishi va irodoviy chidamkorligi rivojlanishini ta'minlaydi.[6]

Mashg'ulotdan oldingi psixologik holat.

Mashg'ulot paytidagi psixologik holat.

Mashg'ulotdan keyingi psixologik holat.

Mashg'ulotdan oldingi ruhiy holatida, jismoniy yuklamalarni bajarish, aniq maqsad va rejalar asosida amalga oshirish kerak bo'ladi. Ushbu bosqichda, jismoniy mashg'ulot

bilan shug'ullanish, kundalik ish rejasiga aniq qilib belgilanib, har qanaqa sabab va kelib chiqishi mumkin bo'lganqiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan motiv va irodoviy sifatlarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Bu psixologik jarayon o'z o'rnida bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarni mashg'ulotlarini bajarish uchun mo'ljallangan joyga olib keladi hamda murabbiy ko'rsatmalari asosida o'z mashg'ulotlarini boshlaydi.

Mashg'ulot paytidagi psixologik holat, reja asosida belgilangan yuklamalarni a'lo darajada bajarishga undovchi motivatsiya hisoblanadi. Ikkinchi bosqich jismoniy tayyorgarlikning asosini tashkil etib, unda oldindan belgilab olingan yuklamalarning bajarilish jarayonidir. Mashg'ulot paytida yuklamalarni texnik jihatdan mukammal darajada bajarilishi fiziologik rivojlanish va psixologik chidamkorlikni ta'minlaydi.

Mashg'ulotdan keyingi psixologik holat insonni jismoniy va ruhiy zo'riqishlarini yengib o'tib, keyingi mashg'ulotgacha har tamonlama tayyor bo'lishga qaratilgan psixologik tiklanish bosqichidir.

Bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlar o'z kasbiy faoliyatida kun tartibiga qat'iy amal qilib, jismoniy tayyorgarlikni belgilangan reja asosida olib bora, qo'yilgan vazifalarni vaqtda bajarib bora, o'z ko'nikma va malakalarini shakllantirib irodoviy sifatlarni chiniqtiradi.

Takliflar. Bizningcha irodoviy sifatlarni mustaqil tarbiyalash va rivojlantirish quyidagi psixologik tavsiyalar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish uchun, ma'lum bir sport turiga qiziqishini shakllantirish kerak (boks, karate, kikkoks, dyuzdo, erkin kurash, futbol);

O'zi yoqtirgan sport turiga taalluqli qisqa metrajli filmlar va video lavhalarini ko'rsatish orqali tezkor tafakkurni rivojlantirish;

Jismoniy yuklamalarni yengildan murakkabiga qarab bajartirish orqali psixologik va fiziologik barqarorlikni ta'minlash; Muvaffaqiyotga intilish motivini shakllantirish;

O'ziga ishonchini oshirish uchun psixokorreksiya usullardan foydalanish (trening, rolli o'yinlar va psixogimnastik mashg'ulotlar);

Chidamkorlik va qo'rqinchni yo'qotadigan psixologik ustanovkani singdirish;

Irodani tarbiyalash yengildan qiyinga, ya'ni nisbatan arzimasi qiyinchiliklarni o'z vaqtda bartaraf etishni singdirish; Qabul qilingan har qanday qarorni iloji boricha oxirigacha yetkazish;

Maqsadga erishish bosqichlarini ko'ra olish va tinimsiz xarakter qilish.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joyizki, yoshlarni jismoniy tayyorgarligi, o'zlarini irodoviy boshqara olishi, murakkab vaziyatlarda tezkor va aqlli qaror qabul qilishi o'ziga belgilangan burchini sadoqat bilan ado etishi ruhiy barkamoligiga bog'liqdir. Xizmat faoliyatida kuchli irodaga ega bo'lgan, jismonan baquvvat, o'z xisssiyotlarini boshqara oladigan, jinoyatchilikning oldini olish va qahshi kurashishda o'zining jismoniy va aqliy imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan bo'lajak harbiy xizmatchi va xodim ko'proq muvoffaqiyatga erishadi. O'z maqsad va belgilangan chora-tadbirlarni yuksak darajada bajarishda irodoviy fazilatlarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarning o'z vazifasi va burchiga sadoqat bilan yondashishiga ko'maklashadi. Yuqoridagi psixologik tavsiyalarga amal qilib, jismoniy mashg'ulotlarni olib borish, biz o'ylaymizki, bo'lajak harbiy xizmatchi va xodimlarning jismonan va ruhan rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi va albatda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston" 2017y. 221-b
2. Mirziyoyev Sh.M. 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 29-iyun "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 267-son Qarori

4. Arifxodjayeva I.X. “Ichki ishlar idoralari faoliyatida kasbiy-psixologik va pedagogik tayyorgarlik”: Darslik. O‘zbekiston Respublikasi IIV -2013 yil.
5. Asyamov S.V., Pulatov Y.S. “Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi”: O‘quv qo‘llanmasi. T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi - 2002 yil.
6. Arzikulov D.N., Gapparov Z.G., Vaxabova D.B. “Psixologiya va sport psixologiyasi”. O‘quv qo‘llanma: / Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: - 2017 yil.
7. Vasilev V.L. “Yuridicheskaya psixologiya”-Uchebnik dlya VUZov SPB, 2005 yil.



Gulnora SULTANOVA,

Chilonzor tumani 217-maktab Ma'naviy va Ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari(MMIBDO')

E-mail: gulnorasultonova756@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, PhD S.Sultonovning taqrizi asosida

MAN, HIS DIGNITY-THE HIGHEST VALUE OF A DEMOCRATIC SOCIETY

Annotation

In this article, a person, his dignity-the highest value of a democratic society and the scale, intensity and wide coverage of the rapid reforms that are being carried out in our country today, draw our eyes to our country. Our President SH.M.Speaking about the reforms under the leadership of Mirziyoyev, the mention of the phrase “New Uzbekistan” by the world community in relation to our country is, of course, a worthy assessment of the changes in our country. According to the head of our state, “New Uzbekistan is a noble idea that “the benefit of the people is greater than everything” is being confirmed by practical work.

Key words: State, world experience, communication, public interest, man, his dignity, Democratic.

ЧЕЛОВЕК, ЕГО ЦЕННОСТЬ-ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

В этой статье Человек, его ценность-высшая ценность демократического общества, а также масштаб, интенсивность и масштаб проводимых сегодня в стране быстрых реформ привлекают внимание всего мира. Наш Президент Ш.М.Говоря о реформах, проводимых под руководством Мирзиёева, мировое сообщество упоминает фразу “новый Узбекистан” в отношении нашей страны, что, безусловно, является достойной оценкой изменений в нашей стране. По словам главы нашего государства, “благородная идея о том, что новый Узбекистан – это” интересы народа превыше всего”, находит свое подтверждение на практике.

Ключевые слова: Государство, мировой опыт, диалог, интересы народа, человека, его достоинство, демократия.

INSON, UNING QADR-QIMMATI – DEMOKRATIK JAMIYATNING OLIY QADRIYATI

Аннотация

Ushbu maqolamizda inson, uning qadr-qimmati – demokratik jamiyatning oliy qadriyati hamda Bugun yurtimizda olib borilayotgan jadal islohotlar ko'lami, shiddati hamda keng qamrovi bilan dunyo nigohini diyorimizga qaratmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar haqida so'z ketganda jahon hamjamiyati tomonidan yurtimizga nisbatan “Yangi O'zbekiston” degan iboraning tilga olinayotgani, albatta, mamlakatimizdagi o'zgarishlarga berilayotgan munosib bahodir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, “Yangi O'zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug'” degan ezgu g'oya amaliy ishlar bilan o'z tasdig'ini topayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Davlati, jahon tajribasi, muloqot, Xalq manfaati, inson, uning qadr-qimmati, demokratik.

Kirish. Bugun yurtimizda olib borilayotgan jadal islohotlar ko'lami, shiddati hamda keng qamrovi bilan dunyo nigohini diyorimizga qaratmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar haqida so'z ketganda jahon hamjamiyati tomonidan yurtimizga nisbatan “Yangi O'zbekiston” degan iboraning tilga olinayotgani, albatta, mamlakatimizdagi o'zgarishlarga berilayotgan munosib bahodir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, “Yangi O'zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug'” degan ezgu g'oya amaliy ishlar bilan o'z tasdig'ini topayotgan zamondir”.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 8-moddasida: “O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”, – deyiladi. Yana shuningdek, 13-moddada, demokratik sivilizatsiya talabi o'laroq. “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deb tan olinadi. Konstitusiya va uning asosida qabul qilingan barcha qonunlarda insonlarning demokratik huquq hamda erkinliklari yuridik jihatdan himoya qilinadi. Albatta, yurtimizdagi keng ko'lamlil islohotlar va yangilanishlar mazkur insonparvar g'oya asosida amalga oshirilmoqda. Bugun Yangi O'zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakat sifatida e'tirof etilib, uning HARAQATLAR STRATEGIYASIDAN–TARAQQIYOT STRATEGIYASI SARI nufuzi tobora ortib bormoqda. Har bir inson baxtli hayot kechirishi uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar yurtdoshlarimizning qalbini quvontirmoqda. Bugun yurtimizda

inson qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligini ta'minlash, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilgan. Bu esa “Davlat – inson uchun” tamoyilining amaldagi ifodasidir. Zero, inson va uning baxt-saodatiga, xalq manfaatlariga xizmat qilish insonparvarlikning asosiy mezonini sanaladi. Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyilni to'la ro'yobga chiqarish, Konstitusiya va qonun ustuvorligini, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta'minlash amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi va davlatimiz siyosatida muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mana shunday islohotlarni kelgusi besh yillikda ham davom ettirish, ularning uzviyligini ta'minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Unda yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida belgilandi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatimiz milliy rivojlanishining yangi bosqichini boshlab bermoqda. Mazkur bosqichda davlatimiz o'z faoliyatini “inson – jamiyat – davlat” degan ustuvor tamoyil asosida tashkil etadi. Bu esa inson manfaati, uning qadr-qimmati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ekanidan dalolat beradi. Aytish o'rinliki, so'nggi besh yilda mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha maqsadli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning “Temir daftar”, “Ayollar daftar”, “Yoshlar daftar”, “mahallabay” va

“xonadonbay” kabi yangicha mexanizmlari joriy etildi. O'zbekistonning inson huquqlari va diniy erkinlik sohasidagi islohotlari dunyo miqyosida yuksak e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari asosida 5 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joylaridan ozod etildi. Shu bilan birga, jinoiy qilmishidan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga o'tgan mahkumlarni afv etish va ularni erkin hayotga qaytarish borasida ham ulkan ishlar bajarilmoqda. Xususan, jinoyat yo'liga adashib kirib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan fuqarolarni Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo'mitalarining kafiligi bilan jazodan ozod etish tartibi yo'lga qo'yildi. Bu boradagi ishlarning davomi sifatida 2019 yilda Jasiq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasining yopilgani davlatimiz insonparvar siyosatining amaliy namunasi sifatida jahon miqyosida e'tirof etildi. Shuningdek, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiya va ijtimoiy sug'urta to'lash tartibi amaliyotga kiritilib, manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan pensiya yoshidagi mahkumlarga pensiya pullari to'lab berilishi joriy etildi. Xorijdagi mojaroli hududlardan, urush o'choqlaridan mamlakatimiz fuqarolarini yurtimizga qaytarib olib kelish bo'yicha “Mehr” operatsiyalari o'tkazilganini ham ta'kidlash joiz. Jumladan, 2019 yilda “Mehr-1” va “Mehr-2” insonparvarlik tadbirlari muvaffaqiyatli amalga oshirilib, Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar maydonidan fuqarolarimiz, asosan ayollar va bolalar yurtimizga qaytarib olib kelindi. 2020 yilning dekabr oyida o'tkazilgan “Mehr-3” tadbiri orqali Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola yurtimizga qaytarildi. 2021 yilda amalga oshirilgan “Mehr-4” operatsiyasi orqali 24 nafar fuqaro Afg'onistondan O'zbekistonga qaytarilgan bo'lsa, “Mehr-5” operatsiyasi natijasida Suriyadagi urush ketayotgan “qaynoq nuqtalarga” borib qolib, “Al-Hol” lagerida 3 yildan ortiq vaqt davomida ushlab turilgan 24 nafar ayol va 69 nafar bola O'zbekistonga olib kelindi. “Mehr” insonparvarlik tadbirlari doirasida jami 531 nafar fuqarolarimiz Vatanimizga qaytarib olib kelinib, ularga zarur bo'lgan tibbiy va moddiy yordam ko'rsatildi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-tergov sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimizning huquq-manfaatlarini ta'minlash yo'lida o'zining ijobiy samarasini namoyon etmoqda. 2021 yilda 4 mingdan ortiq shaxs sud zalidan ozod qilinib, 8 mingga yaqin fuqaroga nisbatan asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarilgani, 859 nafar shaxs oqlangani ham bu boradagi islohotlar samarasidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi “Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida”gi farmoni bilan 140 nafar shaxs, 2021 yil 7 dekabrda farmoni asosida yana 182 nafar shaxs muddatidan oldin ozodlikka chiqarildi. Bu esa Yangi O'zbekistonning xalqimizga xos kechirimlilik, bag'rikenglik va olijanoblik fazilatlariga asoslangan insonparvar siyosatidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sobiq mahkumlar tomonidan moliyaviy muhtojlik tufayli takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish maqsadida “dastlabki yordam paketi” tizimi joriy etilib, aniq tadbirkorlik loyihasini taqdim etgan, mustaqil faoliyatini boshlamochi bo'lgan sobiq mahkumlarga Probatsiya xizmatini rivojlantirish jamg'armasidan 10 million so'mgacha bir martalik moddiy yordam berilishi yo'lga qo'yildi. Davlatimizning insonparvar siyosati mamlakatimizda uzoq yillardan beri istiqomat qilishiga qaramay fuqarolik maqomiga ega bo'la olmayotgan kishilarga O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi berilayotganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. 1991 yildan 2016 yilning dekabr oyigacha atigi 482 kishiga O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi berilgan bo'lsa, 2016 yilning dekabridan 2021 yilgacha bo'lgan muddatda 18 ming nafardan ortiq shaxsga mamlakatimiz fuqaroligi berildi. 1995 yilning 1 yanvariga qadar O'zbekistonda yashab kelgan 50 ming nafar fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasining fuqarosi deb tan olindi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar BMTning jahon davlatlariga qaratilgan fuqaroligi bo'lmagan insonlar sonini kamaytirishga doir chaqirig'iga munosib javob bo'ldi. Amalga oshirilayotgan bunday keng ko'lamli islohotlar xalqaro hamjamiyatning e'tiborini va e'tirofini qozonmoqda. Xususan, 2021 yilda “Medium” xalqaro internet nashrida

“O'zbekistonning Uchinchi Renessans poydevoriga insonparvarlik va ilm-fan asos bo'ladi” mavzusida maqola e'lon qilinib, unda so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dunyo siyosatida yangi to'lqin hosil qilayotgani bir qator xorijiy ekspertlar tomonidan ta'kidlangan. Maqolada AQShlik olim Efroim Gurmanning, “Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo'lib, o'z siyosatida xalqini kelajakda emas, bugundan boshlab yaxshi yashashi kerak degan g'oyani ilgari surdi”, degan fikrlari keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyat taraqqiyotida, insonlarning hayotida, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda erkinlik, tenglik, birodarlik kabi qadriyatlar katta ahamiyat kasb etadi. Insoniylikni qadrlovchi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar ichida esa istiqol tufayli qo'lga kiritilgan barqarorlik, tinchlik, insonparvarlik, totuvlik kabi buyuk qadriyatlar o'zni benihoyat katta.

Insonlar hayoti turli-tuman odamlarning o'zaro ijtimoiy mu-nosabatlari majmuidir. Inson borki, hayot mavjud, jamiyat borki, inson kamol topib, yashab, o'sib-ulg'ayib kelmoqda. Demak, “Inson jamiyatning gultoji”, inson jamiyatning muqaddas kuchidir. Uning kuch-qudrati bu dunyoda eng oliy vujud, eng oliy mavjudot ekanligidir.

Sharqning ulug' qomusiy olimi, buyuk faylasuf Abu Nasr Fo-robining “Fozil odamlar shahri” asarida insonga nisbatan shunday baho beriladi: “Jamiyatni tashkil etuvchi insonlar qanchalik fozil, axloqli bo'lsalar, qanchalik imon-e'tiqodlari mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo'ladi, boshqarish osonlashadi, hokimiyat tepasiga tasodifiy odamlar chiqmaydi”.

Yuksak ma'no-mazmunlarga boy ruboiylari bilan bashariyat ahlini lol qoldirgan, buyuk tafakkur egasi, Umar Hayyom shunday satrlarni bitgan edi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz.

Aql ko'zin qarosi-javhari ham biz.

To'garak jahonni uzuk deb bilsak,

Shaksiz uning ko'zi-gavhari ham biz.

Hazrati insonning ulug'ligini madh etuvchi jummalarni muta-fakkir shoirlarimizdan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Bedil va boshqa allomalarning asarlarida ham bot-bot uchratish mumkin.

Inson doimo, har bir sohada tarixning taraqqiyot bosqichlari-da bosh qahramon, jamiyatning oliy qadriyati bo'lib kelgan. Chunki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti, hayotning barqarorligi, go'zal-ligi insonning ijodiy mehnat faoliyati, axloqi, madaniyati, xatti-harakati bilan chambarchas bog'liq.

Jamiyatning demokratlashuvi, turmushimizning farovonligi, ko'p jihatdan kishilarning yuksak ma'naviyatiga hamda ularning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqliklariga bog'liq.

Tahlil va natijalar. Insonning ulug'ligi axloqiy sifatlar, insonparvarlik, Vatan va xalqqa sadoqat, mehnatga hamda atrofidagi kishilarga nisbatan munosabat, aql-zakovat va fahm-farosat bilan o'lchanadi.

Ha, inson buyuk mavjudot!... U har qancha maqtovlarga loyiq. Faylasuf shoir Mirzo Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar hurmat va ehtiromga sazovor zot deb hisoblaydi va bu haqda shunday deydi: “Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir”. Ushbu fikrning har qanday davr uchun adolatli, ardoqli bo'lib qolishiga hech qanday shubha bo'lmasa kerak.

Mustaqil O'zbekiston fuqarolarining, xususan, yoshlarning ruhiyatida insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish hamda ularni rivojlantirish, demokratik adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim kafolati hisoblanadi. Shunday ekan, ularning ongiga insonparvarlik va insonni ulug'lash kabi muqaddas tuyg'ularni singdirish, amalga oshiradigan ma'rifiy ishimizning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Chunki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning bosh maqsadi ham inson manfaatlariga qaratilgan. Mamlakatimizda xalqimizning farovon turmush kechirishi, ularning orzu-istaklarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar har doim dolzarb bo'lib kelgan.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng asosiysi hayotning o'zidir, chunki hayotdan mahrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan mahrum bo'lish demakdir.

Demak, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanar ekan, inson yo'q joyda biron-bir narsaning qadr-qimmatini haqida gapirish noo'rindir. Shuning uchun ham, insonni e'zozlash, uning izzat-ikromini joyiga qo'yish, davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, davlatimizning insonparvar siyosati mohiyatida avvalo xalqni,

odamlarni rozi qilish maqsadi mujassam. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan bunday islohotlarimiz buyuk Alisher Navoiy bobomizning bitta ko'ngli o'ksik odamni xursand qilish – Ka'bani obod etish bilan barobar, degan teran ma'noli so'zlariga, mehr-oqibat, sahovat va olijanoblik kabi fazilatlarini doimo qadrlab, ulug'lab yashaydigan xalqimizning orzu-intilishlariga har tomonlama uyg'un va hamohangdir". Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi esa insonparvar islohotlarning davomiyligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: "O'zbekiston", 2021. – 27-б.
2. <https://lex.uz/docs/6445145>.
3. <https://lex.uz/docs/6445145>.
4. Хорижий нашр: Ўзбекистоннинг Учинчи Ренессанс пойдеворида инсонпарварлик ва илм-фан асос бўлади // <http://uza.uz/posts/285799>; Meagan J. Meehan. Uzbekistan's Third Renaissance Roots Basis in Humanity, Science, and Education // <https://medium.com/@artsycr8tor/uzbekistans-third-renaissance-roots-basis-in-humanity-science-and-education-6df9af78c2fe>.
5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри.-Т.: Адабиёт ва санъат, 1993, 138-бет.



Гузалхон СУЛТАНОВА,
Университет Геологических Наук, старший преподаватель
E-mail: sguzal2019@gmail.com

На основе обзора Ш.С.Кодировой, ст. преподаватель, Университет Геологических Наук

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF TEACHING ENGLISH TO STUDENTS IN THE GEOLOGICAL AND OIL AND GAS INDUSTRIES

Annotation

The article analyses the current state of teaching English to students in the geological and oil and gas industries, identifies the main characteristics of a modern ESP course, examines the demand for developing work programs for technical students, and conducts a comparative analysis of relevant foreign language teaching programs.

Key words: Lexical competence, ESP, methodology, analysis of study programs.

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ГЕОЛОГИЧЕСКОЙ И НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛЕЙ

Аннотация

В статье проведен анализ текущего состояния в обучении английскому языку студентов геологической и нефтегазовой отраслей, определены основные характеристики современного курса ESP, рассмотрена востребованность разработки рабочих программ для студентов технических направлений, проведен сравнительный анализ соответствующих учебных программ обучения иностранному языку.

Ключевые слова: Лексическая компетенция, ESP, методология, анализ учебных программ

GEOLOGIC VA NEFT-GAS TARMOQLARINI TALABALARGA INGLIZ TILI O'QITISHDAGI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada geologiya va neft-gas sanoatida talabalarga ingliz tilini o'rgatish hozirgi holati tahlil qilinadi, zamonaviy ESP kursining asosiy xususiyatlarini aniqlaydi, texnik talabalar uchun ish dasturlarini ishlab chiqishga bo'lgantalabni o'rganadi va tegishli chet tilini qiyosiy tahlil qiladi

Kalit so'zlar: Leksik kompetentsiya, ESP, metodologiya, o'quv dasturlarini tahlil qilish.

Введение. Рост международных связей в экономике и производстве ставит нас в условия необходимости постоянного совершенствования подходов к образовательному процессу будущих инженеров, а особенно это касается таких глобальных, высокотехнологичных сфер индустрии как нефтяная и геологическая. Знание английского языка инженерами делает возможным их общение в сфере научных исследований, эффективное сотрудничество с международными коллегами, а также упрощает доступ ко всему массиву профессиональной литературы. Преподавание ряда предметов на английском языке, сотрудничество преподавателей иностранных языков с преподавателями основных дисциплин, а также необходимость обращаться к первоисточникам на оригинальном языке актуализируют проблему формирования лексической компетенции у студентов технических специальностей. Специалист с высшим техническим образованием должен быть готов к реальному иноязычному общению в профессионально значимых ситуациях и сферах общения, а именно: способность решать профессиональные проблемы в иноязычной ситуации, умеющим представить результаты своей деятельности на международных конференциях (в частности, презентация проекта) и в научных публикациях в зарубежных источниках[1].

Литературный обзор. Вопросам разработки и комплексного использования средств обучения иностранному языку в образовательном процессе, включая средства новых информационных технологий посвящено значительное количество научно-методических работ отечественных исследователей (Жалолов Ж.Ж., Ахмедова Л.Т., Махкамova Г.Т., Сатторов Т.К., Исроилова Д.М., Собирова Г.С., Рузметова М.Ш.), российских и зарубежных ученых (Мильруд Р.П., Соловова Е.Н., Гальскова Н.Д., Крупченко А.К., Шпортько И.А., Harmer Jeremy, Jack C.Richards, John Raven).

Анализируя текущее состояние в обучении английскому языку техническим специальностям, следует выделить следующие направления: 1. General English (Бытовой английский) 2. Business English (Деловой английский) 3. English for science and Technology (английский для научно-технической сферы) 4. English for academic purposes (английский для академических целей) 5. English for specific purposes (Английский для специальных целей). Из этих пяти направлений два являются приоритетными в обучении студентов геологических и нефтегазовых специальностей – английский для научно-технической сферы и английский для специальных целей. Говоря об ESP, необходимо упомянуть, что данное направление необходимо вводить в учебный процесс при наличии у студентов уровня английского языка B2 (средний).

Методология исследований. Обзор учебной литературы для студентов геологического и нефтегазового направлений. При выборе учебного материала для специалистов определим основные характеристики современного курса ESP.

Соответствие потребностно-мотивационной сфере студентов.

Опора на методологию специальности.

Соответствие лексическим, грамматическим и языковым нормам, принятым в рамках конкретной специальности[2].

В изучении языка мотивация играет важную роль. Для формирования иноязычной коммуникативной компетенции педагогу необходимо учитывать факторы, влияющие на мотивацию, поведение и учебную деятельность учащихся. Согласно Марковой А.К., учебная мотивация определяется как направленность ученика на различные стороны учебной деятельности и выделяется две группы мотивов: познавательные, связанные с содержанием учебной деятельности и процессом ее выполнения и социальные

мотивы, связанные с различными социальными взаимодействиями учащегося с другими людьми. [3] Для изучения потребностно-мотивационной сферы проводились опросы и анкетирования на выявление различных видов учебной мотивации (по Шамову А.Н. и Фурмановой В.П.) – коммуникативная, лингвопознавательная, познавательная, образовательная, инструментальная, эмоциональная, мотивация честолюбия, интеллектуально-развивающая, прагматическая, профессионально-педагогическая, идентификационная, мотивация долга. Кроме того, существует и группа отрицательных мотивов – мотив избегания неприятностей (отрицательные оценки), желание родителей, чтобы ребенок владел иностранным языком, наличие предмета в образовательной программе. Опрос проводился на тему целей и мотивации в изучении английского языка среди студентов первого курса узбекского и национального потока всех направлений Университета Геологических Наук. Результаты опроса показали, что одной из важнейших мотиваций в изучении английского языка для нынешней молодежи являются потенциальные возможности в продвижении по карьере, продолжении учебы и участие в международных программах и конференциях. При этом бесспорное лидерство в мотивах студентов изучать иностранный язык заняло желание путешествовать, что лишь усиливает целеустремленность учащихся, поскольку желание путешествовать входит в разряд внутренних мотиваций, которые более способствуют успеху дела.

Наиболее существенной характеристикой создания курса ESP является опора на методологию специальности. Связь со специалистами в области геологии и нефтегазовой отрасли является основополагающей компонентой для авторов учебного пособия, автор должен и сам иметь все необходимые сведения по предлагаемой тематике, безупречно владеть терминологией. Необходимая междисциплинарная работа при создании учебного пособия предполагает обмен знаниями между специалистами области и преподавателями языка. Не менее важен для будущих инженеров личный опыт социального и профессионального плана.

Осуществление успешного профессионально-ориентированного обучения невозможно без достаточного уровня непосредственно технической подготовки преподавателей иностранного языка. Специальная подготовка преподавателей иностранных языков для инженерных вузов происходит путем самообразования. Изменить ситуацию можно двумя способами – либо получать второе специальное образование, либо посещая лекции контент-преподавателей. Очевидно, что стажировки за рубежом в соответствующих вузах и работа по научно-техническому переводу способствуют развитию навыков [4].

Соответствие лексическим, грамматическим и языковым нормам, принятым в рамках конкретной специальности. Приступая к обучению будущих инженеров иностранному языку, необходимо убедиться в соответствующем уровне английского языка студентов. Как правило, это уровень среднего владения общего английского (Intermediate, B1 – General English), который осваивается в школьной программе или на первом семестре обучения, что обеспечивает надлежащую подготовку четырех базовых навыков (чтение, письмо, говорение, аудио), а также грамматики и вокабулярия. Поскольку словарный запас уровня Intermediate составит 2000-2500 слов, следующий уровень 3000-3700, разницу в 500-1000 слов на курсе английского для инженеров необходимо пополнить за счет технической терминологии.

В высших учебных заведениях для будущих нефтяников активно используется учебник издательства

Oxford “Oil and Gas” первая и вторая части. Данный учебник создан для учащихся со средним уровнем знания английского языка и разрабатывает четыре основных языковых навыка: чтение, письмо, аудио и говорение. За период с 2009 года по сегодняшний день (последние пятнадцать лет) российскими исследователями издано большое количество учебников и учебных пособий по английскому языку для студентов геологического и нефтегазового направлений, среди них Тихонова В.П., Герасимова, Журова Т.В., Граббе Н.Ю., Астафурова Т.Н., Лавриненко И.Ю. и другие. Учебники российских педагогов фокусируют внимание на терминологию специальности и работу с профессиональными текстами. Также, отечественными педагогами Кадырбековой Д. и Мусаевой Ф.М. был издан учебник “English for oil and gas students”. Учебник содержит тексты и упражнения по работе с ними, аудио материал.

Винникова в своем учебном пособии «Английский язык для специалистов нефтегазовой отрасли» использует видеоролики из образовательных контентов YouTube и приводит ссылки на них в виде qr-кодов. Видеоролики выполнены в анимационной технике и озвучены англоговорящим комментатором.

Актуальность и востребованность разработки рабочих программ для студентов технических направлений доказывается анализом функционирующих в настоящее время вузов на территории Республики Узбекистан. Данный анализ показал, что на сегодняшний день факультеты и направления геологии и нефтегазового дела есть в пятнадцати высших учебных заведениях.

Подготовка специалистов по геологическим и нефтегазовым специальностям и направлениям в Республике Узбекистан сосредоточена: в Университете Геологии, в Филиале Российского государственного университета нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в городе Ташкенте, Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова, Каршинском инженерно – экономическом институте, Нукусском горном институте. Отдельные направления геологической и нефтегазовой сферы представлены в следующих вузах страны: в Национальном Университете Узбекистана им. М.Улугбека (геология, гидрогеология), Термезском инженерно-технологическом институте (горное дело, геология месторождений полезных ископаемых, поиск и разведка), в Ташкентском химико-технологическом институте, его Янгйерском филиале, Андижанском машиностроительном институте (технология производства нефтегазовой химии), в Бухарском инженерно-технологическом институте (технология производства нефтегазовой химии, нефтегазовое дело), Каракалпакском государственном университете (геология, нефтегазовое дело), в Наманганском инженерно-строительном институте (технология переработки нефти и газа), Ферганском политехническом институте (технология углубленной переработки газа), Навоийском государственном горно-технологическом университете (горное дело). В свою очередь вузам необходимо ориентироваться на реальные потребности отрасли, преподавателям проходить стажировку на предприятиях нефтегазовой отрасли, адаптировать обучающие программы под новые технологические процессы, внедряемые на предприятиях. Необходимо разрабатывать программы не только для формирования профессиональных знаний, но и развития диагностических, исследовательских, управленческих и деловых навыков, необходимых современным специалистам.

Анализ и результаты. Проведенный сравнительный анализ учебных программ обучения иностранному языку трех высших образовательных учреждений показал следующие результаты:

Название вуза	Учебная нагрузка	Учебники
---------------	------------------	----------

Университет Геологии	120 часов практических занятий (8 кредитов) и 120 часов самостоятельной работы	1. Jake Hughes and Katie Wood with additional materials by Paul Dummett Series "Navigate" (Different levels) Oxford university. 2015 2. Raymond Murphy. English Grammar in Use. Intermediate. 2010 3. Bokieva G.X., Rashidova F.M. va boshkadar. Scale up, Student's book, Course 1, 2, 3. T. Gafur Gulom, 2015 4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent 2016. 5. John Allison "Business". Intermediate. Macmillan 2007
Каршинский инженерно-экономический институт	2 семестра, 120 часов практических занятий и 120 – самостоятельных	1. James Shofield. Workplace English 1. Harper Collins. UK. 2012 2. James Shofield. Workplace English 2. Collins Educational. None edition UK. 2012 3. British council. English for academics. Book 1. Cambridge University press and Brotish council Russia. 2014 4. British council. English for academics. Book 2. Cambridge University press and Brotish council Russia. 2014
Российский Государственный Университет нефти и газа (НИУ) имени И.М. Губкина в г. Ташкент	3 семестра, 150 практических занятий, 174 самостоятельных	1. Щербакова М.В. Professional English for Engineers : учебное пособие / Щербакова М.В. — Оренбургский государственный университет, ЭБС АСВ, 2015. 2. Артемова О.Г., Сафонова О.Е. Английский язык для специалистов в области нефтегазового дела (Professional English for Oil and Gas Engineering) : учебное пособие / Артемова О.Г., Сафонова О.Е. — Воронежский государственный архитектурно-строительный университет, ЭБС АСВ, 2018.

Таблица № 1 Анализ учебных программ

С 2017 года Министерство высшего и среднего специального образования в Узбекистане приступило к активному расширению практики применения программы двойных дипломов (Double Degree). Согласно этой программе, между узбекским и иностранным вузами заключаются соответствующие соглашения, в результате которых выпускники получают возможность проходить обучение по двум программам параллельно и в итоге получить два диплома, узбекский и иностранный. В применении данной практики необходимо соблюдать ряд параметров. Временной срок обучения в этих вузах должен быть одинаковым, так, что возможно объединить один или более семестров. Существуют строгие ограничения по специальностям, они должны быть смежными. В Университете геологии данная договоренность заключена с Московским Государственным Университетом имени М.В.Ломоносова по специальности "Геофизика" по программе бакалаврата 2+2, согласно которой студенты проходят первые два года обучения в Узбекистане, оставшееся время – в Москве, с Томским Государственным

Университетом по программе магистратуры 1+1. На стадии завершения переговоров находится соглашение с Белорусским Национальным Техническим Университетом по специальности "Экология по отраслям и сферам" по программе магистратуры 1+1. В результате данного варианта обучения студент получает более объемные знания и навыки, а также свидетельства об окончании обоих учебных заведений.

Заключение и рекомендации. В заключение хотелось бы подчеркнуть, что в данной статье был предпринят анализ научных источников по вопросам формирования лексической компетенции с целью выявления ведущих теоретических тенденций и применяемой учебной литературы при обучении студентов геологической и нефтегазовой специальностей. Принимая во внимание большое количество вузов, имеющих геологические и нефтегазовые факультеты и направления (15 вузов), автор статьи рекомендует разработку методического материала по обучению иностранного языка студентам данных специальностей.

ЛИТЕРАТУРА

1. Корниенко О.П. Формирование иноязычной проектно-технической компетенции у специалистов. Дисс. Канд. Пед. Наук. Волгоград, 2008
2. Носенко Н.В. Английский язык для специальных целей для гуманитарных специальностей вузов: методические принципы создания учебного пособия. Журнал: Современные проблемы науки и образования. №3, 2019
3. Маркова А.К., Матис Т.А., Орлов А.Б. Формирование мотивации учения: монография. М.: Просвещение, 1990. 192 с.
4. Минеева О.А., Колдина М.И. Особенности мотивации студентов лингвистических специальностей к изучению иностранного языка. Карельский научный журнал. 2018. Т. 7. "№ 3 (24)
5. Исроилова Д.М. Теория и практика обучения в нефилологических вузах. Наманган, 2021
6. Сабирова Г.С. Лингводидактические основы обучения видам речевой деятельности школьников на основе Веб 2.0 технологий (английский язык), Ташкент, 2022
7. Рузметова М.Ш. Технологии развития компетенций в обучении английскому языку учащихся 5-7 классов общего среднего образования, Ташкент, 2021
8. Багрецова Н.В. Формирование иноязычной лингвокультурной компетентности у студентов направления подготовки "Нефтегазовое дело" в профессионально ориентированном обучении английскому языку: Дис.. кан.пед.наук, Санкт-Петербург, 2016
9. Граббе Н.Ю. Английский язык : для студентов специальностей нефтегазовой отрасли. Кубанский гос. Технологический ун-т. – Краснодар : ГОУ ВПО «КубГУТ», 2009. – 158 с.
10. Русский язык https://docs.google.com/forms/d/1vcNu_s3-ijhg-UWgpVTL-kQ48msCBNIXnB-XvP3Bq3Q/edit
11. Узбекский язык <https://docs.google.com/forms/d/18PPnzNOla-lj8aSBqBzFVqc1DZ9IStVdoHyejDbJ60M/edit#responses>



Nizom TANGIROV,
O'zMU dotsenti, PhD
E-mail: nizom3686@gmail.com

TDPU Ijtimoiy fanlar kafedasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi M.Tillavoldiyeva taqrizi asosida

NOOSFERA KONSEPSIYASINING FALSAFIY-ONTOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada noosfera konsepsiyasi falsafiy-ontologik tahlil etilgan. XX asr mahsuli бўлган noosfera konsepsiyasi ilmiy bilimlar taraqqiyotida ham nazariya, ham amaliyot sifatida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Noosfera, nazariya, amaliyot, bilish, hayot, biosfera, nosferaviy tizim.

ФИЛОСОФСКО-ОНТОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НООСФЕРНОЙ КОНЦЕПЦИИ

Аннотация

В данной статье понятие ноосферы анализируется философски и онтологически. Концепция ноосферы, являющаяся продуктом XX в., имеет важное методологическое значение в развитии научного знания как в теории, так и в практике.

Ключевые слова: Ноосфера, теория, практика, познание, жизнь, биосфера, несферная система.

PHILOSOPHICAL AND ONTOLOGICAL ANALYSIS OF THE NOOSPHERIC CONCEPT

Annotation

In this article, the concept of the noosphere is analyzed philosophically and ontologically. The concept of the noosphere, which is a product of the 20th century, has important methodological significance in the development of scientific knowledge both in theory and in practice.

Key words: Noosphere, theory, practice, cognition, life, biosphere, non-sphere system.

Kirish. O'tgan XX asr mahsuli bo'lgannoosfera konsepsiyasi ilmiy bilimlar taraqqiyotida ham nazariya, ham amaliyot sifatida muhim metodologik rol o'ynamoqda. Avvalo, noosfera nazariya sifatida ilmiy bilimning eng yetuk shakli bo'lib, borliqning muayyan jabhasining qonuniy va muhim bog'lanishlarini yaxlitlik holda o'zida aks ettiradi. "Biz iste'mol qiladigan maxsulotlar, biz nafas oladigan havo, biz ichadigan suv, biz yashaydigan sayyoraga hayot bag'ishlovchi iqlim - barchasi tabiat tufayli. Ustiga ustak, hozir tabiatning o'zi bizga belgi bermoqda. O'z haqimizda qayg'urish uchun avvalo, tabiatga g'amxo'rlik qilishimiz kerak. Hozir - Uyg'onish davri. Muammolarni payqash uchun, ovozimizni ko'tarish uchun... Insoniyat uchun, Yer sayyorasi uchun yaxshiroq muhit yaratish vaqti. Bu xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni - tabiat vaqtidir", deyiladi "Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish - 2020" kun tartibida... Bunda avvalo, "yashil" va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur[1]. Shu jihatdan, Noosfera amaliyot sifatida noosferaviy bilimlar taraqqiyotining yo'nalishi va maqsadini ifodalaydi. Noosfera olam ilmiy manzarasini: yaxlit, obyektiv, tabiiy jarayon sifatida bilish asosida inson ongining yuksak potensial imkoniyatini namoyon qiladi. Ya'ni mazkur obyektiv qonuniy rivojlanishni bilish jarayonida yuksak aql sohasi - Noosferaning shakllanishida va mazmun-mohiyatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Falsafa va fan tarixida noosfera konsepsiyasining o'rni va roli muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchi M.Yu.Shishin fikricha[2], noosfera sintetik tushuncha sifatida inson faoliyati natijalarini, jumladan, moddiy va ma'naviy yutuqlarni ham o'zida mujassam etadi. Shuningdek, bu tushuncha mazmunida inson va atrof-muhitning munosabatlari tizimini, nafaqat planetar darajada balki kosmik miqyosda ifodalaydi. Shu sababli bizning fikrimizcha, M.Yu.Shishinning shakllanayotgan yangi ilmiy-falsafiy paradigma asosida, aynan noosfera g'oyasi alohida joy olishi maqsadga muvofiq, degan qarashida metodologik asos bor. Shu jihatdan, ekologiyada: tolerantlik, korrelyatsiya, transformatsiya, noosfera, ratsionallik, irratsionallik kabi tushunchalar mazmun-mohiyatining yoritilishi, ekologiya sohasida bilimlarni boyitadi.

Xususan, bioxilma-xillikning falsafiy tahlili global ekologik muammolarni anglashga, yechimini topishga yordam beradi[3].

Dunyoqarashning noosferaviy sintezi, rus falsafasining yetakchi g'oyalari biri bo'lgan bilimlar yaxlitligi (bir butunligi) g'oyasini rivojlantiradi. Rus mutafakkirlari dunyoqarash sintezida: fan, din, falsafa o'tasidagi ziddiyatlar va alohidalikning bartaraf etish zarurligini ko'rganlar. Chunki bu ziddiyatlar insoniyat ruhining yetilmaganligi, uning ongi chegaralanganligidan dalolat beradi. Ular insoniyat ruhining yaxlitligidan kelib chiqqan holda, dunyoqarashga oid ong shakllari sintezi g'oyasini ilgari surganlar. Muammoning bunday tushunilishi uchun hozirgi vaqtda barcha zarur obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar tizimi yetilgan[4].

Shuningdek, noosferaning bir-biridan nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lganlikka tashkil etuvchi asosini ajratib ko'rsatish metodologik ahamiyatga ega, ya'ni: birinchisi, inson tomonidan yaratilgan tabiiy moddiy-energetik strukturalar: antropogen landshaftlar, turli xil madaniy-ramziy tizimlar (til, arxitektura, musiqa va h.k.); Ikkinchisi, insonning mental-psixologik faoliyati bilan bog'liq energiya - axborot strukturalaridan iborat bo'lib, mazkur asos noosferani shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi.

Falsafa va fan taraqqiyotida ilmiy bilimlarning: ontologik, gnoseologik, akseologik va futurologik masalalari doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bunda ilmiy bilimlar borliq va olamni inson tomonidan adekvat aks ettirishning muhim asosi sifatidagi murakkablikni, uzviylikni qamrab oladi. Hozirgi zamon postnokklassik fanida olam taraqqiyotining bir butunlik paradigmasi tan olinib, unda: olam, biosfera, noosfera, jamiyat, insonlar yagona yaxlit tizimni tashkil qiladi. Ushbu yaxlitlikning namoyon bo'lishida inson o'rganilayotgan obyektidan tashqarida emas, balki uning ichida yaxlitlikning bir qismi bo'lib ko'rinishi yotadi va bunday yondashuvning oqibati sifatida tabiiy hamda ijtimoiy fanlarning yaqinlashuvini ko'ramiz.

Bunda hozirgi zamon fanlarining nisbatan universal ilmiy g'oyalari, tamoyillari, modellari ijtimoiy-gumanitar yoki tabiatshunoslik fanlariga ham keng tadbiiq etilishi kuzatiladi[5]. Zero, modellashtirish jarayonida narsa va hodisalarning alohidalik, xususiylik va umumiylik tomonlarining birligini, ularning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan e'tirof etish,

o'rganilayotgan obyekt modeli adekvatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega[6].

Mazkur model tashkillashgan bilimlarni yangi taraqqiyotga yo'naltiradi. U tabiat va madaniyat dunyosini yangicha tushunish mo'ljallarini belgilaydi. Bunda: tabiat va inson, biosfera va noosfera, tabiat va jamiyat, sivilizatsiya va madaniyat evolyutsiyasining statistik va dinamik modellarining farqi shartli va nisbiy xarakterga ega. Ya'ni, statistik modellar o'rganilgan obyektning faqat ma'lum jihatini aks ettiradi. Dinamik modellar esa, obyekt (narsa, hodisa, jarayon)ning vaqt bo'yicha o'zgarishi qonuniyatlarini aks ettiradi.

Bunda noosferaning boshlang'ich asosi – atributiv axborot hisoblanadi. Murakkab tizimlardagi axborotning evolyutsiyasi koinotning barqaror va maqsadga yo'nalgan rivojlanishini tashkil etish vositasi sifatidagi boshqarish hodisasini tug'dirdi. Aqlning amal qilish doirasi (noosfera) tabiatda boshqarish jarayonlari rivojlanishi uzluksiz zanjirining eng yuksak halqasidir[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Biosferaning o'z-o'zini tashkil qiluvchi tizim sifatidagi faoliyati tirik narsaning mavjudligi unda yashovchi tirik organizmlar bilan muvofiqlashganligida aks etadi. Biosfera ichki strukturali komponentlarning, shuningdek, antropogen omillarning doimiy o'suvchanlik ta'siridagi rivojlanuvchi dinamik tizimdir. Bu esa biosfera taraqqiyotida noosfera ham alohida yaxlit tizim sifatida xarakterlanadi. Biosferada ham, noosferada ham axborot algoritmlari mavjud. Bular tizim taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Axborot – algoritmlari adekvat bo'lgantasodifiy ketma-ketlikning eslab qolingani tanlovi bo'lib, bu tanlovni mustahkamlash axborotni yaratadi[8]. Aqlning amal qilish doirasi (noosfera)da insoniyatning texnik-texnologik taraqqiyoti sivilizatsiyani vujudga keltirdi.

Insonning doimiy faoliyati natijasida uning kuchi ortadi va biosfera strukturasi o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insonning bilimi va mehnati ta'sirida u yangi noosfera holatiga o'tadi. V.Vernadskiyning konsepsiyasida hayot kosmik evolyutsiyaga qo'shilgan holda bir butun evolyutsion jarayonni (fizik, geokimyoviy, biologik) namoyon qilishi ko'rsatilgan[9].

Darhaqiqat, L.I.Plotnikova fikricha, Noosfera tabiatning rivojlangan insoniyatlashirilgan holati va uning mavjud bo'lishi faqatgina ongli emas balki, shuningdek, ko'tarinki ruhdagi (ya'ni oliy va abadiy qadriyatlarga yo'naltirilgan) faoliyat bo'lganligi sababli, noosfera ta'limotining falsafiy-metodologik asoslarini tushunish uchun tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining umumiy nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi[10].

Shu jihatdan, noosfera konsepsiyasini yoritishda borliq va uning falsafiy tahliliga ham e'tibor qaratish, shu asosda mulohaza yuritish o'rinli: Borliq — olam va har qanday turdagi mavjudlikni ifodalaydigan falsafiy kategoriya. Mifologiya, din va naturfalsafada mavjudlikning manbai nima, degan muammoni hal etishga urinishlar bo'lgan. Falsafa haqiqiy borliqni anglash va uni idrok etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Noosfera konsepsiyasi doirasida noosferaviy dunyoqarash davr taqozasi, tabiiy muhit, ijtimoiy voqealar, global hodisalar ta'sirida muntazam o'zgarib, yangilanib boruvchi ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, keng ma'noda noosferaviy dunyoqarash – bu insonning tabiatdagi o'zgarishlarning tabiiy, ijtimoiy va texnogen omillarini mohiyatini

anglash, baholash hamda oqibatlarini oldindan his qila bilishni hamda g'oyalarda, nazariyalarda, ta'limotlarda ifodalangan, global tabiiy antropogen o'zgarishlarga moslashishga yo'naltirilgan intellektual jarayondir.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, insonni faqat biologik-ijtimoiy birlik sifatida tushunish bir yoqlama qarash bo'lib, bu yondashuv uning antropologik tabiati haqidagi tasavvurlarni, xususan, uning oqilona Kosmos mahsuli, kosmik mavjudot sifatidagi mohiyatini cheklaydi. Zero, inson Koinotdan alohida mavjud bo'lmagani kabi, Koinot ham insondan alohida mavjud bo'lmaydi. Insonning korpuskulyar-to'liqlik, kimyoviy tabiatida namoyon bo'lganyagonalik F.Kapraning “Biz submikrodunyoga teran nazar tashlar ekanmiz, hozirgi zamon fizigi sharq mistigi kabi dunyoga bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi va tinimsiz harakat qiluvchi ajralmas elementlardan tarkib topgan tizim sifatida qarashi lozimligiga ishonch hosil qilamiz. Bunda kuzatuvchining o'zi ham mazkur tizimning ajralmas qismi hisoblanadi”[11]. Bu holda, dunyo qarshimizda inson integral tarkibiy elementi hisoblanuvchi tizim sifatida g'aydalanadi. Tabiat to'liqlilari va kvantlaridan biz ya'ni kuzatuvchi, uning ongi sari harakatlanmasak, fizika psixologiyaning tarmog'iga aylanadi,[12] degan fikrda ham asoslanadi. Ushbu fikrlarning zamirida A.Eddington, S.Siragning tabiat poydevori aqlidir, degan g'oyasi yotadi. Bu g'oyani B.O.To'raev va B.R.Karimovlarning ijtimoiy gumanizmni o'z ichiga olgan oqilona qadriyat mo'ljallari haqidagi fikrlari tasdiqlaydi. Zero, ularning fikricha, «Kishining qadriyat mo'ljallari oqilona yo'naltirilganligiga, u jamiyat manfaatlariga mos, jamiyatning ehtiyojlarini qondira oladigan kuchga ega bo'ladi, aks holda jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, oqilona qadriyat mo'ljallarini shakllantirish - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim rol o'ynaydi»[13]. Darhaqiqat, faqat inson tabiatidagina oqilonalik xos bo'lib, u qadriyatli mo'ljal oladi. Kishilik jamiyati maqsadlari va intilishlarini o'z ichiga olgan oqilonalik noosfera ontologiyasining gumanistik prinsip va maqsadlarini o'z ichiga oladi, ijtimoiy taraqqiyotning oqilona boshqaruv va tashkillashtirishga yo'naltirilgan jihatlari birlashtiradi.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, rivojlanishning noosfera bosqichida inson ontologiyasi, insonni murakkab kelajak tomon tor evolyutsiya yo'lagi bo'ylab o'tishini ta'minlovchi oqilonalik o'z-o'zidan tashkillanishni shart qilib qo'yadi. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Qamrovi jihatdan, global, ammo, mamlakatimiz hayoti va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, umumiy va xususiy manfaatlarini uyg'unlashtirish lozim. Bu esa o'z navbatida, kelajagimiz qiyofasini belgilaydigan global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topishni paysalga solmaslik zarurligidan kelib chiqadi”[14].

Darhaqiqat, hozirgi davrda biosferadan noosferaga o'tish yo'lida bizning sayyora antroposfera bosqichini o'tamoqda. Fanlarda insonparvarlashuv jarayoni kechmoqda, ijtimoiy ongda umumbashariy qadriyatlar ustuvor deb e'lon qilinmoqda. Diqqat markazi va ziddiyatlar tuguni bo'lgan inson, ekologik Chernobil halokatlarga olib keluvchi zamonaviy global inqirozning yadrosiga aylanib bormoqda. Lekin aynan inson noosferada munosib o'rini saqlash uchun bu inqirozdan chiqish yo'lini – ma'naviy yuksalishni topishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2021. -B.388-393.
2. Шишин М.Ю. Онтологические и методологические основания концепции ноосферогенеза. Тема диссертации и автореферата, доктор философских наук. 09.00.01.// -Москва, 1997. – С. 3.
3. Хошимова И.С. Философский анализ биоразнообразия // Материалы семинара: Проблема биоразнообразия и изменения климата. – Ташкент, 2010.
4. Шишин М.Ю. Ноосферная концепция культуры. //Дисс. д. философских наук. - Москва, 2001. – С. 54.
5. Shermuxamedova N.A. Dunyoning postnoklassik manzarasi va sinergetika // Sinergetika: rivojlanishi va istiqbollari. - Toshkent, 2010. – B.55.
6. Abdullayeva M.N., Tulenova K.J., G'affarova G., Niyazimbetov M. Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari. /Mas'ul muharrir: M.N.Abdullaeva. –Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. – B.127.
7. Крайнюченко И.В. Глобальный эволюционизм и синергетика ноосферы //Тема диссертации и автореферата, доктор философских наук. – Москва, 2010. - С.3.

8. Abdullayeva M.N., Tulenova K.J., G'affarova G., Niyazimbetov M. Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari. /Mas'ul muharrir: M.N.Abdullaeva. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2009. –B. 79.
9. Вернадский В.И. Размышления натуралиста научная мысль как планетарное явление. – М., 1977. – С.14.
10. Плотникова Л.И. Учение о ноосфере как идеальный проект гармонизации социоприродного взаимодействия: Дис. ... канд. филос. наук. - Чита, 2004. – С. 56.
11. Капра Ф. Уроки мудрости. -Москва. АГРАФ, 2006. – С. 318.
12. Zukav G. The dancing. Vu Li masters. -N.Y. 2008. –P-56.
13. To'rayev B. Karimov B. Oqilona qadriyat mo'ljallari. -Toshkent. Fan, 1994. - B.104.
14. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston", 2021. -B. 377.



Akmaljon TURSUNPO'LATOV,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: akmaljon@mail.ru

Falsafa fanlari doktori, professor I.Siddiqov taqrizi asosida

SOCIAL-PHILOSOPHICAL CHARACTERISTICS OF IMPROVING MEDICAL CULTURE OF INTERNAL WORKERS

Аннотация

The concept of medical culture among internal workers in healthcare encompasses a complex interplay of social, philosophical, and ethical dimensions. This article explores the social and philosophical aspects of enhancing medical culture within the internal workforce. It delves into the core principles, values, and practices that contribute to the development and improvement of medical culture, emphasizing the importance of empathy, communication, and ethical conduct. Drawing on various philosophical perspectives, the article argues for a holistic approach to cultivating medical culture that integrates social responsibility, professional ethics, and personal development. The article concludes with recommendations for fostering a positive medical culture within healthcare institutions, highlighting the need for continuous education, reflective practice, and a supportive working environment.

Key words: Medical culture, internal workers, social philosophy, ethics, healthcare.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ МЕДИЦИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ РАБОТНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

Концепция медицинской культуры среди органов внутренних дел работников здравоохранения включает в себя сложное взаимодействие социальных, философских и этических аспектов. В данной статье исследуются социально-философские аспекты повышения медицинской культуры органов внутреннего трудового коллектива. Он углубляется в основные принципы, ценности и практики, которые способствуют развитию и совершенствованию медицинской культуры, подчеркивая важность сочувствия, общения и этического поведения. Опираясь на различные философские точки зрения, в статье приводится довод в пользу целостного подхода к развитию медицинской культуры, интегрирующего социальную ответственность, профессиональную этику и личностное развитие. Статья завершается рекомендациями по формированию позитивной медицинской культуры в медицинских учреждениях, подчеркивая необходимость непрерывного образования, рефлексивной практики и благоприятной рабочей среды.

Ключевые слова: Медицинская культура, органы внутренних дел, социальная философия, этика, здравоохранение.

ICHKI ISHLAR XODIMINING TIBBIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY XUSUSIYATLARI

Аннотация

Sog'liqni saqlashning ichki ishlar xodimlari o'rtasida tibbiy madaniyat tushunchasi ijtimoiy, falsafiy va axloqiy o'lchovlarning murakkab o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Ushbu maqola ichki ishlar xodimlarida tibbiy madaniyatni oshirishning ijtimoiy va falsafiy jihatlari o'rganadi. U tibbiy madaniyatni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradigan asosiy tamoyillar, qadriyatlar va amaliyotlarni o'rganadi, hamdardlik, muloqot va axloqiy xulq-atvor muhimligini ta'kidlaydi. Maqolada turli falsafiy qarashlarga tayangan holda, ijtimoiy mas'uliyat, kasbiy etika va shaxsiy rivojlanishni o'zida mujassam etgan tibbiy madaniyatni tarbiyalashga yaxlit yondashuvni ilgari suradi. Maqola sog'liqni saqlash muassasalarida ijobiy tibbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi, doimiy ta'lim, fikrlash amaliyoti va qo'llab-quvvatlovchi ish muhiti zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiy madaniyat, ichki ishlar xodimlari, ijtimoiy falsafa, etika, sog'liqni saqlash.

Kirish. Ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyat zamonaviy huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining muhim jihati bo'lib, u zobitlar va jamoatchilik salomatligi va farovonligini ta'minlovchi qadriyatlar, amaliyot va bilimlarni o'zida mujassam etgan. Ushbu madaniyat bir qator omillarni, jumladan, tibbiy tamoyillarni tushunish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va huquqni muhofaza qilish operatsiyalari doirasida samarali tibbiy amaliyotni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatni yuksaltirish ichki ishlar xodimlarlarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati samaradorligi va yaxlitligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda huquq-tartibot idoralari, ayniqsa, ular oldida turgan vazifalarning tobora murakkablashib borayotgani munosabati bilan tibbiy madaniyatning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Zamonaviy politsiyaning tabiati ko'pincha zobitlarni yuqori darajadagi stress, travma va jismoniy xavfga duchor qiladi, bu ularning salomatligi va farovonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, opioid inqirozi va ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarning tarqalishi kabi tahdidlarning

rivojlanayotgan tabiati huquqni muhofaza qilish organlarining tibbiy tamoyillar va amaliyotlarni yaxshi tushinishi zarurligini ta'kidlaydi.

Ushbu maqolada ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatni oshirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi, bu tashkilotlarning jamiyatdagi o'ziga xos o'rni hisobga olinadi. Tibbiy madaniyatni yuksaltirish bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni o'rganish, shuningdek, takomillashtirish bo'yicha strategiyalarni taklif qilish orqali ushbu maqola tibbiy madaniyatning huquqni muhofaza qilish organlaridagi ahamiyati va uning ichki ishlar xodimlarlarning salomatligi va farovonligiga ta'sirini chuqurroq tushunishga hissa qo'shishga qaratilgan.

Ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va ular xizmat qilayotgan mahallalar salomatligi, xavfsizligi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu tashkilotlarda kuchli tibbiy madaniyat muhimligini bir necha asosiy omillar ta'kidlaydi:

Ichki ishlar xodimlarlarning farovonligi: huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda ko'plab jismoniy va ruhiy salomatlik muammolariga duch

kelishadi. Shikastli hodisalar, uzoq soatlar, smenali ish va yuqori stressli vaziyatlarga ta'sir qilish yurak-qon tomir kasalliklari, ruhiy kasalliklar va giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish kabi bir qator sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. Profilaktik yordam, ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlash va tibbiy resurslardan foydalanishga urg'u beradigan mustahkam tibbiy madaniyat ushbu muammolarni hal qilish va ichki ishlar xodimlarining umumiy farovonligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Jamoat xavfsizligi: huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining sog'lig'i ularning o'z vazifalarini xavfsiz va samarali bajarish qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Jismoniy va ruhiy jihatdan sog'lom bo'lgan ichki ishlar xodimlari favqulodda vaziyatlarda harakat qilish, to'g'ri qarorlar qabul qilish, jamoat tartibini saqlash uchun yaxshi jihozlangan. Bundan tashqari, o'z sog'lig'ini birinchi o'ringa qo'yadigan ichki ishlar xodimlari baxtsiz hodisalarga duchor bo'lishlari yoki ortiqcha kuch ishlatish ehtimoli kamroq bo'lib, xavfsizroq jamoalarga hissa qo'shadilar.

Kasbiylik va halollik: Kuchli tibbiy madaniyat ichki ishlar organlarining professionalligi va haloligini mustahkamlaydi. Axloqiy xulq-atvor va javobgarlikni targ'ib qilish orqali ichki ishlar xodimlari xulq-atvor standartlariga rioya qilishlari va jamoatchilik ishonchini oqlashlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonch va qonuniyligini oshiradi.

Xarajatlarni tejash: Kuchli tibbiy madaniyat orqali ichki ishlar xodimlarining salomatligi va farovonligiga sarmoya kiritish ichki ishlar organlarining xarajatlarni tejashga olib keladi. Profilaktik yordam va erta aralashuv qimmat tibbiy davolanish va nogironlik nafaqalariga bo'lganehtiyojni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, sog'lom ishchi kuchi samaraliroq bo'ladi va ishdan bo'shatish darajasi past bo'ladi, bu esa xarajatlarni yanada kamaytiradi.

Jamoatchilik bilan aloqalar: Huquqni muhofaza qilish idoralari o'z jamoalarining ajralmas qismidir va zobitlarning salomatligi va farovonligi jamoaviy munosabatlarga ta'sir qilishi mumkin. Ichki ishlar xodimlari sog'lig'iga ustuvor ahamiyat qaratuvchi kuchli tibbiy madaniyat jamiyatga ijobiy xabar yo'llab, agentlik o'z xodimlarining farovonligini qadrlashi hamda jamiyatga axloqiy va mas'uliyat bilan xizmat qilishga intilishidan dalolat beradi.

Ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatning ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ichki ishlar xodimlarining salomatligi va farovonligini birinchi o'ringa qo'ygan holda, ushbu tashkilotlar jamoat xavfsizligini oshirishi, professionallik va halollikni oshirishi, xarajatlarni tejashga erishishi va jamoatchilik bilan aloqalarni mustahkamlashi mumkin. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining samaradorligi va barqarorligini ta'minlashda tibbiy madaniyatga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatni yuksaltirish ichki ishlar organlari xodimlarining o'ziga xos vazifalari va ehtiyojlariga javob beradigan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Quyidagi strategiyalar ushbu tashkilotlarda tibbiy madaniyatni yaxshilashga yordam beradi:

Kompleks o'quv dasturlari: Ichki ishlar xodimlariga tibbiy muammolarni samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan kompleks o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Ushbu dasturlar bir qator mavzularni, jumladan, birinchi yordam, ruhiy salomatlikdan xabardorlik, stress va trauma belgilarini tan olish kabi mavzularni qamrab olishi kerak.

Salomatlik va salomatlikka yaxlit yondashuv: jismoniy, aqliy va hissiy farovonlikning o'zaro bog'liqligini tan oladigan salomatlik va farovonlikka yaxlit yondashuvni targ'ib qilish. Ichki ishlar xodimlariga maslahat xizmatlari, stressni boshqarish dasturlari va sog'lom turmush tarzi tashabbuslari kabi resurslardan foydalanish imkoniyatini taqdim eting.

Tibbiy skrining va baholash: Sog'liqni saqlash muammolarini erta aniqlash va hal qilish uchun muntazam tibbiy ko'rik va baholashlarni amalga oshiring. Bu jiddiy sog'liq muammolarining oldini olishga yordam beradi va ichki ishlar xodimlarining xizmatga yaroqliligini ta'minlaydi.

Tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: Ichki ishlar xodimlariga sog'liq muammolarini muhokama qilish va hamkasblaridan maslahat olish uchun maxfiy va qo'llab-quvvatlovchi muhitni ta'minlaydigan tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish. Tengdoshlarning qo'llab-quvvatlashi ruhiy salomatlik bilan bog'liq stigmani kamaytirishga yordam beradi va kerak bo'lganda ichki ishlar xodimlarini yordam so'rashga undaydi.

Sog'liqni saqlash mutaxassislari bilan hamkorlik: Ichki ishlar xodimlariga eng yaxshi yordam ko'rsatilishini ta'minlash uchun sog'liqni saqlash mutaxassislari, shu jumladan shifokorlar, hamshiralar va ruhiy salomatlik bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlik qilish mumkin. Bu huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining noyob ehtiyojlari bo'yicha sog'liqni saqlash mutaxassislari bilan hamkorlikni rivojlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Sog'lom turmush tarzini tanlashni targ'ib qilish: Ichki ishlar xodimlarini muntazam jismoniy mashqlar, muvozanatli ovqatlanish va etarli uyqu kabi sog'lom turmush tarzini tanlashga undash. Sog'lomlashtirish dasturlarida ishtirok etadigan va tashkilot ichida salomatlik madaniyatini targ'ib qiluvchi ichki ishlar xodimlarini rag'batlantirish.

Inqirozga aralashish va keskinlikni kamaytirish bo'yicha trening: zobitlarga yuqori stressli vaziyatlarni samarali boshqarishda yordam berish uchun inqirozga aralashuv va keskinlikni kamaytirish usullari bo'yicha treninglar. Bu ichki ishlar xodimlarining ham, jamoatchilikning ham jarohat olish ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tadqiqotlar va ilg'or tajribalar: huquqni muhofaza qilish organlarida tibbiy madaniyatni oshirish bo'yicha ilg'or tajribalarni aniqlash bo'yicha tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali ichki ishlar organlari o'z tashkilotlarida tibbiy madaniyatni oshirish, o'z xodimlarining salomatligi, xavfsizligi va farovonligini oshirishi mumkin.

Xulosa. Ichki ishlar organlari xodimlarining salomatligi, xavfsizligi va faoliyati samaradorligini ta'minlashda ichki ishlar organlarida tibbiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Ichki ishlar xodimlarining farovonligiga ustuvor ahamiyat berish va salomatlik va farovonlikka yaxlit yondashuvni rag'batlantirish orqali ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi, kasbiy mahorat va jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilashi mumkin.

Ushbu maqolada bayon etilgan strategiyalar, jumladan, keng qamrovli o'quv dasturlari, tengdoshlarni qo'llab-quvvatlash tashabbuslari va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari bilan hamkorlik ichki ishlar organlariga o'z xodimlarining sog'lig'ini qadrlaydigan va qo'llab-quvvatlaydigan madaniyatni yaratishga yordam beradi. Ichki ishlar xodimlarining salomatligi va farovonligiga sarmoya kiritib, ichki ishlar organlari nafaqat o'z faoliyatini samaradorligini oshirishi, balki jamiyatga axloqiy va mas'uliyat bilan xizmat qilishga sodiqligini ham namoyish qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Violanti, J. M., & Paton, D. (2015). Police trauma and addiction: Coping with the dangers of the job. Charles C Thomas Publisher.
2. Patterson, G. T., Chung, I. W., & Swan, P. W. (2014). The state of the union: A review of police suicide statistics. *International Journal of Emergency Mental Health*, 16(2), 441-444.
3. Miller, L., & Hess, K. M. (2018). Police occupational culture: Elite warriors or public servants? *Police Quarterly*, 21(2), 240-265.
4. Pennington, D. C., & Young, J. (2019). Police occupational culture: A critical perspective on crime control. *Journal of Contemporary Criminal Justice*, 35(3), 301-318.

5. Reaves, B. A. (2016). Local police departments, 2013: Personnel, policies, and practices. US Department of Justice, Office of Justice Programs, Bureau of Justice Statistics.
6. Maguire, E. R. (Ed.). (2019). The Oxford handbook of police and policing. Oxford University Press.
7. Sherman, L. W., & Weisburd, D. (1995). General deterrent effects of police patrol in crime "hot spots": A randomized, controlled trial. *Justice Quarterly*, 12(4), 625-648.
8. Klinger, D. A. (2019). *Into the kill zone: A cop's eye view of deadly force*. John Jay Press.



Nilufar UMAROVA,
A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mail: umarova.nilufar1983@gmail.com

Samarqand viloyati PYMO ‘MM kafedra mudiri, PhD, dotsent G.Fayzullayeva taqrizi asosida

PEDAGOGICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION STRATEGIES AMONG SCHOOL PRINCIPALS

Annotation

The article provides a brief analysis of the concepts of “communication”, “strategy”, “communication strategy” and notes that the director’s communication strategies are a comprehensive plan that includes achieving the school’s strategic goals, managing communications through PR practices, and creating a corporate culture.

Key words: School director, communication, strategy, communication strategy, strategic goal, PR practice, corporate culture, communicative space, communication tool, discursive dimension.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ У ДИРЕКТОРОВ ШКОЛ

Аннотация

В статье дается краткий анализ понятий «коммуникация», «стратегия», «коммуникативная стратегия» и отмечается, что коммуникативные стратегии директора представляют собой комплексный план, включающий в себя достижение стратегических целей школы, управление коммуникациями посредством PR-практик, формирование корпоративной культуры.

Ключевые слова: Директор школы, коммуникация, стратегия, коммуникативная стратегия, стратегическая цель, практика PR, корпоративная культура, коммуникативное пространство, инструмент коммуникации, дискурсивное измерение.

MAKTAB DIREKTORLARIDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada kommunikatsiya, strategiya va kommunikativ strategiya atamalarining qisqacha tahlili, direktor kommunikativ strategiyalari maktabning strategik maqsadlariga erishishi, PR amaliyotlari orqali kommunikatsiyalarni boshqarishi, korporativ madaniyatni shakllantirishni o‘z ichiga olgan kompleks reja ekanligi to‘g‘risida mushohada yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Maktab direktori, kommunikatsiya, strategiya, kommunikativ strategiya, strategik maqsad, PR amaliyoti, korporativ madaniyat, kommunikativ makon, aloqa vositasi, diskursiv o‘lchov.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida rahbar kadrlarning boshqaruvida samarali muloqot qobiliyatlarini rivojlanganligiga qo‘yiladigan talablarni sezilarli kuchayishi ularda kommunikativ kompetentlikni yanada takomillashtirishga e‘tiborni ustuvorlashtirmoqda.

Ta‘lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar boshqaruv falsafasi, uning paradigmalari, qonuniyatlari, tamoyillari va qadriyatlarining o‘zgarishi, jarayonga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur yondashuvlar fonida direktorlarda maktabning rivojlanish dinamikasiga bo‘lgan ehtiyojlarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, kelajakdagi holati haqidagi tasavvurni prognozlash, ta‘lim muassasasining samarali faoliyatini tashkil etishga qaratilgan rejalar tuzish va ularning bajarilishini ta‘minlash, maktab strategiyasi, missiyasini amalga oshirishda ta‘limning boshqa subyektlari bilan yaqin va natijador hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, ta‘lim olish muhitini motivatsiya asosida tashkil etish, ta‘lim sifatini oshirish, zamonaviy, kuchli va tashabbuskor rahbar sifatida jamoada o‘rnak bo‘lish, xodimlarni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan kommunikativ strategiyalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda “kommunikativ strategiya” tushunchasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda, jumladan kognitiv, pragmatik, psixologiya, ma‘naviyatshunoslik, kommunikativ tadqiqotlarda tez-tez uchraydi.

Avvalo, “kommunikativ strategiya” tushunchasining ikki komponentini ko‘rib chiqamiz. Birinchi komponent kontekstida “kommunikatsiya” tushunchasi tadqiqotchilarning fikricha “muloqot” atamasi hosilasi sifatida qaraladi.

Lug‘aviy jihatdan “kommunikatsiya” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan (communicatio - umumlashtiraman, bog‘layman [1] -xabar, uzatish [2], communicate -biron kishi bilan

maslahatlashmoq, aloqa ma‘nolarini ifoda etadi [3]) universal tushuncha bo‘lib, hozirda barcha fanlarda qo‘llanilib kelinmoqda.

Falsafiy lug‘atda kommunikatsiya - muloqot, fikr ma‘lumot, g‘oyalar almashinuvi [2] deb ta‘riflanadi.

Psixologik lug‘atda esa, kommunikatsiya - unsonlar o‘rtasidagi aloqa, o‘zaro ta‘sir, ma‘lumot almashish jarayoni deb ta‘riflanadi [4].

Tilshunoslikda, nutqiy muloqot, muloqot qilish va axborot almashish uchun tildan foydalanish, jamiyat hayotini ta‘minlash va boshqa odamlar bilan aloqada bo‘lgan shaxsning psixologik ehtiyojlarini qondirish [5] deb ta‘rif berilgan.

Demak, kommunikatsiya shaxsni ijtimoiy shaxs sifatida shakllantirishning eng muhim mexanizmi, jamiyatda barcha munosabatlarining “kotalizatori” hisoblanadi.

Strategiya grekcha (“strategos”) so‘z bo‘lib, “general san‘ati” degan ma‘noni anglatadi [6].

Shuningdek, lug‘atlarda strategiya - aniq maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan umumiy harakatlar rejasini [4], turli vakilliklardan foydalanish va o‘zgartirish jarayoni, harakat hosil qiluvchi jarayon [5] sifatida ta‘riflar keltirilgan.

A.A.Svechin strategiyani san‘at nazariyasi sifatida talqin qilib, harbiy rahbarlikning eng muhim qismini ifodalovchi amaliy san‘at [7] deb ta‘riflaydi.

Strategiya – reja bo‘lib, istalgan faoliyat turida strategik maqsadlarga erishish bo‘yicha boshqaruv subyektining maxsus dasturi, kelajakka qaratilgan tadbirlar tizimi.

Bugungi kunda “strategiya” atamasi turli fanlar va sohalarida qo‘llaniladi. Xususan, menejmentda M.X.Meskon “Tashkilotning missiyasini amalga oshirish va maqsadlariga erishishni ta‘minlash uchun ishlab chiqilgan batafsil, keng qamrovli rejadir [8] desa. G.Minsberg “Bu xatti-harakat yoki ba‘zi harakatlar rejasiga rioya qilishdir [9], Garvard biznes maktabi professori A.Chandler esa, “Korxonaning asosiy, uzoq muddatli

maqsad va vazifalarini aniqlash va harakat yo'nalishini tasdiqlash, ushbu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlash [10] dir deydi.

Yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirib, "strategiya" tushunchasiga quyidagi ta'rifni berish mumkin. Strategiya - bu ma'lum vaqt ichida, resurslarni samarali taqsimlagan holda, belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan uzoq muddatli harakatlar rejasi.

"Kommunikativ strategiya" atamasi o'zining ikki komponentiga nisbatan yangi atamadir. Bu tushunchaga ayrim olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

E.S.Surovtseva tomonidan korxonalar kommunikatsiyalarini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishida, kommunikativ strategiya - bu korxonaning strategik maqsadlariga erishish va umumiy yo'nalishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy kommunikatsiyalarni rivojlantirishning batafsil kompleks rejasi sifatida ta'riflanadi [11].

Kommunikativ strategiya korxonaning keng ko'lamli maqsadlariga erishish uchun zarur vositadir. U kompaniyaning muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u orqali korxonaning missiyasi, strategik maqsadlari amalga oshiriladi, bu esa rejalashtirilgan natijalarga erishishga yordam beradi.

Kommunikativ strategiyalar asosida tashkiliy kommunikatsiyalar rivojlanadi, bu korxonalar ichidagi va tashqarisidagi barcha kommunikatsiyalarni qamrab oladi. Tashkiliy kommunikatsiyalar xodimlar, menejerlar, mijozlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Yaxshi rivojlangan kommunikatsiyalar samarali axborot almashish, tushunish va hamkorlikni ta'minlaydi.

Kommunikativ strategiya aniq va batafsil reja asosida amalga oshirilib, bu reja, qadam-baqadam chora-tadbirlarni, aniq belgilangan vaqt jadvallarini, javobgarliklarni va natijalarni o'lchash usullarini o'z ichiga oladi. Kompleks reja korxonaning kommunikativ harakatlarini izchil va samarali boshqarishga imkon beradi.

T.M.Orlova o'zining "Iqtisodiy tizimlarni boshqarishda kommunikatsiyalarni boshqarish" mavzusidagi dissertatsiyasida PR (Public Relations) amaliyotidan kommunikatsiyalarni boshqarish masalalariga to'xtalib, kommunikativ strategiyani korporativ madaniyatni o'qitish va shakllantirish vazifalari bilan bog'laydi [12].

Bizning tahlilimizga ko'ra, olim PR amaliyoti va kommunikatsiyalarni boshqarish deganda, PR amaliyoti kompaniyaning ichki va tashqi kommunikatsiyalarini samarali boshqarish vositasi ekanligini, u orqali kompaniya o'z imidjini, obro'sini va ishonchligini oshira olishini nazarda tutadi. Olim bu amaliyotni kommunikativ strategiyalar bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Olim kommunikativ strategiyani xodimlarga korporativ madaniyatni o'rgatish va uni shakllantirish vositasi sifatida ko'radi. Bu madaniyat xodimlarning qadriyatlarini, e'tiqodlari va xatti-harakatlari majmuasi sifatida kompaniyaning ichki muhitini, mehnat sharoitlarini va umuman kompaniyaning hayotini belgilashini ta'kidlaydi. Kuchli korporativ madaniyat xodimlar motivatsiyasini oshiradi, ish samaradorligini yaxshilaydi, kompaniya ichida birdamlik va hamjihatlikni ta'minlaydi.

Kommunikativ prakseologiya mutaxassisi S.A.Datsyukka ko'ra, kommunikativ strategiya - u yoki bu kommunikativ makonni, u yoki bu aloqa vositasini, ta'sirning u yoki bu turini, ma'noning kelib chiqishini u yoki bu joyini va shu bilan birga aloqa o'rnatiladigan bir yoki bir nechta diskursiv o'lchovlarni tanlash [13]. Olimning kommunikativ strategiyaga bergan ta'rifi chuqur va keng qamrovli bo'lib, muallif quyidagi asosiy g'oyalarni nazarda tutadi:

Kommunikativ makonni tanlash - aloqa qilish uchun foydalaniladigan muhit yoki platformani belgilashni anglatib, muhit an'anaviy (masalan, gazeta, televideniye) yoki raqamli (masalan, ijtimoiy media, veb-saytlar) bo'lishi mumkin. Kommunikativ makonni tanlash maqsadli auditoriyaga eng samarali tarzda yetib borish uchun muhimdir.

Kommunikativ strategiya doirasida qanday aloqa vositalari ishlatilishini oldindan belgilash muhim bo'lib, bu vositalar turli xil formatlarda bo'lishi mumkin, masalan, matnli xabarlar, video, audio, infografika va boshqalar. Vositalarni tanlashda auditoriya talablari va aloqa maqsadlari hisobga olinadi.

Shuningdek, kommunikativ strategiya doirasida qaysi usul orqali auditoriyaga ta'sir ko'rsatishni rejalashtirilayotganligini aniqlash ham muhim bo'lib, usullar informatsion (ma'lumot yetkazish), emotsional (hissiy ta'sir ko'rsatish), qo'zg'atuvchi (harakatga undash) bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, xabarning qaysi tilda va uslubda yetkazilishi ham katta ahamiyatga ega.

Diskursiv o'lchovlarni tanlash deganda muloqot olib boriladigan kontekst yoki muhit nazarda tutilib, bu o'lchovlar ijtimoiy, madaniy, siyosiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Har bir diskursiv o'lchov ma'lum bir auditoriyaga mos kelishi va ularning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Umuman olganda, S.A.Datsyukning ta'rifi kommunikativ strategiyaning murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. Kommunikativ strategiya faqatgina axborotni yetkazish bilan cheklanmaydi, balki u turli makonlar, vositalar, ta'sir turlari va kontekstlarini hisobga olgan holda, maqsadli, auditoriyaga eng samarali tarzda ta'sir ko'rsatish uchun puxta o'ylangan reja bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Bu ta'rif, kommunikativ strategiyaning har bir elementi o'zaro bog'liq va izchil ekanligini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlariga tayanib maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalariga quyidagicha ta'rif beramiz. Kommunikativ strategiya - bu maktabning strategik maqsadlariga erishish va umumiy yo'nalishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, PR amaliyotlari orqali kommunikatsiyalarni boshqarish, korporativ madaniyatni shakllantirishni o'z ichiga olgan, kommunikativ makonlar, aloqa vositalari va diskursiv o'lchovlarni tanlash orqali amalga oshiriladigan batafsil kompleks reja.

Maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalari maktabning uzoq muddatli maqsadlariga mos bo'lishi va rivojlanishini nazarda tutadi. Direktorlar strategik rejalashtirish jarayonida ichki va tashqi kommunikatsiyalarni samarali boshqarish rejasini ishlab chiqadilar. Bu reja maktabning rivojlanish dinamikasiga bo'lgan ehtiyojlarning ustuvor yo'nalishlarini qamrab olishga, kelajakdagi holati haqidagi tasavvurlarni prognozlashga, maktab missiyasi va strategiyasini amalga oshirishga, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan natijador hamkorlik aloqalarini o'rnatishga, ta'lim olish muhitini optimallashtirishga, ta'lim sifatini oshirish shuningdek, maktabning umumiy imijini ko'tarishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Direktorlar samarali kommunikatsiya tizimini yaratmoqlari lozim. Maktab kommunikatsiya tizimi - bu maktab ichidagi va tashqarisidagi barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida axborot almashinuvi va muloqot jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga qaratilgan tizim bo'lib, maktabning samarali ishlashini, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro ochiq muloqotni, fikr almashishni, muammolarni birgalikda hal qilishni, hamkorlikni o'z ichiga oladi. Yaxshi tashkil etilgan kommunikatsiya tizimi maktabning barcha faoliyatlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatishda PR muhim ahamiyat kasb etadi. PR (Public Relations) amaliyoti - bu tashkilotlar, jumladan, maktablar uchun jamoatchilik o'rtasida ijobiy munosabatlar o'rnatish va saqlash uchun mo'ljallangan muhim strategik aloqalar jarayonlari bo'lib, uning maqsadi jamoatchilik bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish, ishonchni oshirish va tashkilotning imijini yaxshilashdir.

Direktorlar kommunikativ strategiyalarini rivojlantirishda kommunikativ makonning ahamiyati katta. Kommunikativ makon (yoki kommunikativ maydon) - bu axborot almashinuvi va muloqot jarayonlari amalga oshiriladigan joy va sharoitlarni anglatib, maktabda kommunikativ makon - bu jamoaning barcha a'zolari o'rtasida axborot almashinuvi va muloqotni tashkil etish uchun yaratilgan kompleks muhitdir. Bu makon jismoniy, virtual va ijtimoiy komponentlarni o'z ichiga oladi.

Jismoniy komponentlar - bu maktab ichida o'quvchilar, o'qituvchilar o'rtasidagi bevosita muloqot uchun mo'ljallangan

infratuzilma elementlari bo'lib, sinf xonalari, kutubxona, sport maydonchasi, zallar, yig'ilish zali, ochiq maydonlar va boshqalardir.

Virtual komponentlar - bu raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladigan muloqot va axborot almashinuvi uchun mo'ljallangan vositalar va platformalar bo'lib, bular onlayn ta'lim platformalari (Google classroom, Moodle, Edmodo), ijtimoiy media (Facebook, Twitter, Instagram), elektron pochta va messendjerlar (Gmail, Outlook, WhatsApp), videokonferensiya platformalari (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet) bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy komponentlar esa maktab ichidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilib, jamoa dinamikasi va madaniy jihatlar asosida shakllangan muloqot va aloqalar tarmog'ini tashkil etadi. Bularga guruhlar va klublar, madaniy va ijtimoiy tadbirlar, muloqot tarmog'i (o'qituvchilar, ma'muriyat va ota-onalar o'rtasidagi rasmiy va norasmiy aloqalar), o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolar kiradi. Bu komponentlarning integratsiyasi maktabning umumiy kommunikativ makonini shakllantiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, maktabda kommunikativ makonning samarali tashkil etilishi umumiy ta'lim sifatini va jamoatchilik bilan aloqalarni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Maktab direktorlarining kommunikativ strategiyalarini rivojlantirishda og'zaki va yozma aloqa vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali boshqarish, jamoani birlashtirish va muammolarni tezkor hal qilish uchun muhimdir. Og'zaki aloqa tezkorlik va shaxsiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim bo'lsa, yozma aloqa rasmiylashtirish, aniq ko'rsatmalar berish va ma'lumotlarni uzoq muddatli saqlash uchun zarur. Bu vositalarni integratsiyalash orqali maktab ichidagi kommunikatsiya tizimini yanada mustahkamlash va samarali boshqarish mumkin.

Shuningdek, kontekstual, ijtimoiy-madaniy, ma'noli, ma'naviy-psixologik, pragmatik va interfaol kabi diskursiv o'lchovlar kommunikativ strategiyaning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan kompleks omillar bo'lib, ular muloqotning aniq maqsad va vaziyatga mosligini, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchanligini, mazmun va tilning tushunarligini, tinglovchilarning hissiy va psixologik ehtiyojlarini hisobga olishni, amaliy natijalarga erishishni hamda ikki tomonlama hamkorlikni ta'minlaydi. Bu esa maktabda ijobiy muhit yaratishga, barcha talim-tarbiya ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi K harfi. Davlat milliy nashriyoti. Toshkent, 528-b.
2. Философский энциклопедический словарь. Гл. Ред.: Л.Ф.Ильичев, П.Н.Федосеев, С.М.Ковалев, В.Г.Папов. М.: Сов.Энци. 1983. – 840, 269 с.
3. Философия лугати. Русча нашрдан таржима. «Ўзбекистон» нашриёти. Т.: 1976. 232-б.
4. Психологический словарь / Р.С.Немов. – М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2007. – 560. 175 с.
5. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Изд.5-е, испр. И доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. - 480. 157 с.
6. Menejment: O'quv qo'llanma/N.M.Ziyaviddinova, Y.M.O'rinov, Sh.N.Xayitov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012-yil, 312 bet. 192-b.
7. А.Свечин. Стратегия. Военный вестник. М.1927.-263. 15 с.
8. Основы менеджента: пер. с англ./М.Мескон, М.Альберт, Фр. Хедоури; общ. ред. и вступ. Ст.Л.И.Евенко; Акад. Нар. хоз-ва при Правительстве РФ, Высш. шк. междунар. Бизнеса. – Москва: Дело, 1998.- 799 с
9. Минцберг Г., Альстрэнд Б., Лэмпел Дж. Школы стратегий. — СПб.: Изво «Питер», 2000.
10. Chandler A.D. Strategy and Structure: A Chapter in the History of Industrial Enterprises. — Cambridge, Mass, MIT. Press, 1962.
11. Е.С.Суровцева. Организационно-экономический механизм эффективного управления коммуникациями предприятия: дис. канд. экон. наук
12. Е.С.Суровцева. – Краснодар, 2008. – 172 с.
13. Орлова Т.М. Коммуникационный менеджмент в управлении экономическими системами. – М.: Изд-во РАГС, 2002. – 264 с.
14. Дацок С. Коммуникативные стратегии//Центр гуманитарных технологий [Электрон, ресурс], 2006. URL: <http://gtmarkete.ru/laboratory/expertize/2006/2751>
15. Pratkanis A.R., Aronson E. Age of propaganda: The Everyday Use and Abuse of Persuasion. N. Y.: W.H. Freeman and company, 2001. 384 p

Xulosa. Maktab direktorlari boshqaruv faoliyatida aloqalar natijadorligiga erishishi va bu orqali ta'lim sifatining oshishida o'z kommunikativ strategiyalarini rivojlantirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ strategiyalarini rivojlantirishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

birinchidan, maktabning strategik maqsadlariga erishish. Ichki va tashqi auditoriyalar bilan ochiq muloqotni ta'minlash uchun aniq va moslashtirilgan aloqa kanallarini tanlash. Bu resurslarni taqsimlash, pedagogik jamoa va boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, jamoani motivatsiyalash kabilar.

ikkinchidan, PR amaliyoti orqali kommunikatsiyalarni boshqarish. Bunda ta'lim muassasasining imijini shakllantirish, auditoriyalar bilan samarali aloqa o'rnatish va strategik maqsadlarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratiladi. Bu orqali direktorlar maktabning pozitiv obro'sini yaratishlari, pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar bilan ishonchli muloqotni yo'lga qo'yishlari, shuningdek, muhim ma'lumotlarni tarqatish va ijtimoiy fikrni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

uchinchidan, korporativ madaniyatni shakllantirish. Bu jarayon ta'lim muassasasining umumiy qadriyatlarini, an'analari va me'yorlarini yaratish hamda maktab missiyasiga sodiqlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

to'rtinchidan, kommunikativ makonlarni tanlash. Bu jarayon maktabning maqsadli auditoriyalari bilan samarali aloqa o'rnatishga qaratilgan. Bu strategiya ichki (sinflar, yig'ilishlar, ichki axborot tizimlari) va tashqi (ijtimoiy media, jamoat tadbirlari, maktabning veb-sahifasi) kommunikativ makonlarni aniqlash va ulardan optimal foydalanishni o'z ichiga oladi.

beshinchidan, aloqa vositalarini tanlashga alohida e'tibor beriladi. Bu jarayon maktabning manfaatdor tomonlari bilan maqsadli aloqa o'rnatishga qaratilgan. Ushbu strategiya turli aloqa vositalarini (masalan, elektron pochta, ijtimoiy media, maktab veb-sahifasi, yig'ilishlar va xabarlar taxtalari) aniqlash va ulardan optimal foydalanishni o'z ichiga oladi.

oltinchidan, diskursiv o'lchovlarni tanlash. Bu rasmiy nutqlar, hisobotlar, maktab tadbirlari, media aloqalarini tanlashni anglatadi. Direktorlar turli maqsadli auditoriyalarga moslashtirilgan xabarlarni yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Diskursiv o'lchovlarning uyg'unligi va ularning samarali qo'llanilishi maktabning umumiy yo'nalishini mustahkamlash, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.



Nargiza O'ROQOVA,
QarDU o'qituvchisi, falsafa fanlari nomzodi
E-mail: nargizasalomovna268@gmail.com.

Falsafa fanlari doktori, dotsent B.Omonov taqrizi asosida

MA'NAVIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH YO'LLARI

Аннотация

Maqolada ma'naviyat madaniyatni yuksaltirish yo'larini, uning tarkibiy qismlari hamda sohadagi mavjud muammolar tahlili keltirilgan. Ma'naviy madaniyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, zamonaviy tendensiyalar o'rganilgan. Ommaviy madaniyat va uning inson va jamiyat hayotiga ta'siri masalasiga oid fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy madaniyat, madaniyat, ijtimoiy ong, globallashtirish, gnoseologiya, praksilogiya, aksiologiya.

WAYS TO ELEVATE SPIRITUAL CULTURE

Annotation

The article presents an analysis of the ways in which spirituality elevates culture, its components and existing problems in the field. Factors that negatively affect spiritual culture, modern trends are studied. Feedback has been provided on the issue of popular culture and its impact on human and community life.

Key words: Spirituality, spiritual culture, culture, social consciousness, globalization, gnoseology, praxylogy, axiology.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В статье духовность представлен анализ путей возвышения культуры, ее составляющих, а также существующих проблем в данной области. Изучены факторы, оказывающие негативное влияние на духовную культуру, современные тенденции. Представлены размышления по вопросу о массовой культуре и ее влиянии на жизнь человека и общества.

Ключевые слова: Духовность, духовная культура, культура, общественное сознание, глобализация, эпистемология, праксиология, аксиология.

Kirish. So'nggi yarim asr mobaynida jamiyat hayotining barcha sohalarini jadallik bilan qamrab olayotgan globallashtirish tendensiyasi milliy madaniyatlar o'rtasidagi tafovutlarni "yuvib" yubormoqda. Ma'naviy madaniyat – ma'naviyatning muhim tarkibiy qismidir. "Ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan birga "ma'naviy madaniyat" deb atalmish dunyoviy ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot – ibodat, taqvo, diniy marosimlar va hokazo, diniy adabiyot, diniy san'at kabi boshqa ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarini qamrab oladi"[1]. Ma'naviyatning har qanday tarkibiy qismida subyektiv va obyektiv tomonlar mavjud bo'lgani kabi, ma'naviy madaniyat ham o'zining obyektivlashgan va subyektivlashgan jihatlari ega. Uning obyektivlashgan tizimi "millatning o'z-o'zini anglash, o'z ruhini, irodasini va ongini, ijtimoiy amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlarining va vositalarining erishilgan darajasidir, jamiyatning madaniy saviyasidir"[1]. Ma'naviy madaniyatning subyektiv tomoni esa shaxs ma'naviy madaniyati deb yuritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shunday qilib, shaxs ma'naviy madaniyati uning fazilatlarini va xislatlarini, bilimlari va e'tiqodini, norma va qadriyatlarini, kayfiyatini, malaka va ko'nikmalarining yaxlit sistemasidir. U birmuncha murakkab xarakterga ega bo'lib, shaxsning intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa madaniyatdan tarkib topadi. O'z navbatida, ushbu tarkibiy qismlarning o'zi ham ma'lum sistemani tashkil qiladi. Jumladan, shaxs intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa madaniyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) gnoseologik aspekti (shaxsning intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik fazilatlarini, xislatlarini, bilimlari, e'tiqodini, tafakkuri, xabardorligini, ongliligini);

b) aksiologik aspekti (shaxsning intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik normalari, qadriyatlarini, kayfiyatini);

v) praksilogik aspekti (shaxsning intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa bilimlardan amalda foydalanish malakasi va ko'nikmasi, faolligi darajasi).

Shaxs ma'naviy madaniyati quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa bilimlarni sistemalashtiradi;

b) ijtimoiy voqea va hodisalar, madaniyat norma va artefaktlariga ba-ho berish imkonini yaratadi;

v) o'z vijdoni va e'tiqodiga monand yashashni ta'minlaydi;

g) o'z ustida ishlashga, dunyoqarashini shakllantirib borishga undaydi;

d) muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga turtki beradi;

ye) jamiyat, o'zga kishilar bilan munosabatlarni tartibga soladi, ular bilan uyg'unlikda yashashga odatlantiradi;

j) tashqi ma'naviy tahdidlardan himoya qiladi.

Shaxs ma'naviy madaniyatining ta'rifi, tarkibi va funksiyalari bilan bog'liq nazariy mulohazalarning o'ziyoyoq uning ommaviy madaniyat salbiy ta'sirini kamaytirishdagi ahamiyatini yorqin namoyon qiladi. Binobarin, uning tarkibiy qismlarini yuksaltirish bilan bog'liq masalalarning tahlil qilinishi, choratadbirlar majmuining belgilanishi biz tadqiq qilayotgan muammoning yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs ma'naviy madaniyati tarkibida intellektual madaniyatning o'ziga xos o'rni bor. Intellektual madaniyat shaxs aqliy faoliyati davomida qo'llaniladigan fazilat va xislatlarning shakllanganligi darajasini ifodalaydi. Mutaxassislar uning tarkibini quyidagicha tasavvur qiladilar: a) intellektual kompetentlik; b) intellektual qobiliyatlar; v) e'tiqodlar sistemasi; g) intellektual fazilatlar sistemasi [2]. Bunday madaniyatga ega bo'lgan shaxs xususiylikdagi umumiylik elementlarini ilg'ay oladi, turli tushunchalar orasidagi aloqadorlikni ko'rishga qodir bo'ladi, ilmiy kategoriyalarni obyektiv reallik bilan taqqoslay biladi, tahlil qilish va umumlashtirish malakasini o'zida mujassam etadi, mustaqil va ijodiy fikr yurita oladi, mustahkam bilim, malaka va ko'nikmalardan foydalanadi [2]. Shaxsning intellektual

madaniyati qator obyektiv shart-sharoitlar (jamiyatning ilmiy salohiyati, ilm-fanning rivojlanganligi darajasi, ta'lim tizimining samaradorligi va shu kabilar) hamda subyektiv omillar (maqsadga muvofiq tarzda yo'lga qo'yilgan tarbiya, xususan intellektual tarbiya, shaxsning o'z-o'zini tarbiyalashi va shu kabilar) ta'sirida shakllana boradi. Albatta, shaxs intellektual madaniyatining yuksalishi uchun jamiyatda unga bo'lganehtiyoj qaror topgan bo'lmog'i dardor.

O'zbekistonda keyingi yigirma yil ichida sodir bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy jarayonlar shaxs intellektual madaniyati xarakterini tubdan o'zgartirdi. Mafkuraviy yakkahokimlikning barham topishi, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, turli sinf va guruhlar orasidagi tenglikning qaror topishi, milliy madaniy merosning tiklanishi – bularning barchasi tabiiy ravishda shaxsning intellektual madaniyati elementlariga o'zgacha tus berdi. Jumladan, shaxsning intellektual kompetentligi, intellektual qobiliyatlari, e'tiqodi, intellektual fazilatlarini kommunistik qarashlarga emas, umuminsoniy norma va qadriyatlarga tayana boshladi. Biroq bundan shaxs intellektual madaniyatining shakllanishi jarayoni nihoyasiga yetdi, o'zining tugal shakliga kirdi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki, birinchidan, shaxs intellektual madaniyatining shakllanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. U turli tarixiy davrda u yoki bu shakl va mazmun kasb etishi mumkin, biroq rivojlanishi jarayonining yakuniy nuqtasiga yetishi mumkin emas. Ikkinchidan, uzoq davom etgan mustamlakachilik davri shaxs intellektual madaniyatida ham qisqa muddatda yo'qolib ketmaydigan illatlarni vujudga keltirgan (masalan, ularning biri – tafakkur provinsializmi xususida A.Erkayev o'z kitobida mufassal fikr yuritadi) [3]. Bu illatlarning bartaraf etilishi uzoq vaqt talab etadi. Shuni nazarda tutgan holda mamlakatimiz birinchi prezidenti I.Karimov: "Albatta, hammamizga ayonki, jamiyat tafakkurini butunday yangilash bir-ikki yillik ish emas, uzoq va uzluksiz davom etadigan jarayon. Qolaversa, bu yo'lda tinimsiz izlanish va mehnat qilish, hali-beri uchrab turadigan eskicha fikrlash asoratlarini yengib o'tish oson emasligini ham yaxshi tushunamiz", - deb yozgan edi [4].

Bundan tashqari, kishilik jamiyati taraqqiyotining turli davrlari turli voqealar, jarayonlarni yuzaga keltiradiki, ular shaxs intellektual madaniyatini shakllantirish masalasiga yangi rakursdan yondashishni taqazo qiladi. Yangi asr arafasiga kelib ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda tarqalishi ana shunday voqealar turkumiga kiradi. Uning salbiy elementlarining shaxs ta'sirini kamaytirish zaruriyati shaxs intellektual madaniyatiga yangi metodologik pozitsiyadan yondashishni talab qilmoqda. Ommaviy madaniyat salbiy elementlarining shaxs ta'sirini kamaytirish uning axloqiy madaniyatini shakllantirishni ham taqazo qiladi. Shaxs axloqiy madaniyati - axloqiy fazilat va xislatlarning shakllanganligi, jamiyat axloqiy tajribasi, norma va qadriyatlarining o'zlashtirilganligi darajasini ko'rsatuvchi tushunchadir. Shaxs axloqiy madaniyati axloqiy ong (axloqiy bilimlar, axloqiy iroda, axloqiy qadriyatlar va shu kabilar), axloqiy dunyoqarash (axloqiy ideallar, norma va prinsiplar, axloqiy e'tiqod va shu kabilar), axloqiy fazilatlar (insonparvarlik, halollik, kamtarlik, mehribonlik va shu kabilar), axloqiy faoliyatni (axloq norma va prinsiplariga amal qilinishi) o'z ichiga oladi. Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli bo'lgani bois uning axloqiy madaniyati ham asosan jamiyatdagi shart-sharoitlar ta'sirida shakllana boradi. Shu bilan bir qatorda shaxs axloqiy madaniyatining shakllanishida axloqiy tarbiyaning ham salmoqli o'rni bor.

Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy voqelik shaxs axloqiy madaniyatini chetlab o'tmadi, albatta. Jumladan, ijtimoiy adolat prinsiplarining tiklanishi, siyosat va axloq o'rtasidagi ziddiyatlarning bartaraf qilinishi, inson manfaatlarining ustuvor ahamiyat kasb etishi, huquqiy normalarning axloq qoidalari va jamiyat an'analariga mutanosib ravishda qaror toptirilishi, milliy axloqiy qadriyatlarning tiklanishi va bunga o'xshagan ko'plab voqea hamda jarayonlar shaxsning axloqiy madaniyatiga yangicha tus berdi. Biroq shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi voqelik shaxs axloqiy madaniyatini shakllantirish masalalariga yana va yana qaytishni talab etmoqda. Bunday zaruriyatlardan biri G'arb olamidagi axloq pozitsiyalarining jadal xemirilib borayotgani bilan bog'liq. Axloq nafaqat shaxslararo

munosabatlarda, balki madaniy artefaktlarni tayyorlashda ham muhim mezon bo'lmay qoldi. Buning oqibatida, biz avvalgi bobda ko'rsatib o'tganimizdek, ommaviy madaniyat tarkibidan joy olgan film, ko'rsatuv, qo'shiq va suratlarida axloqsizlik elementlari tobora tez-tez uchrab turmoqda. Aynan ana shu tendensiya shaxs axloqiy madaniyatini yuksaltirish masalalariga kompleks yondashishni talab etayapti. Chunki axloqiy ongi yuksak darajada shakllangan, axloqiy faoliyati milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga asoslangan shaxsning axloqiy zo'raonlikni targ'ib qiluvchi film va ko'rsatuv, qo'shiq va suratlarni inkor eta oladi, asl klassik, insonparvarlik g'oyalarni targ'ib qiluvchi artefaktlarni tanlaydi.

Binobarin, birinchidan, shaxsni axloqiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladigan tadbirlarni sistemali ravishda amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Gap shundaki, bugungi kunda davlat muassasalarida bunday tadbirlar nomuntazam, stixiyali tarzda amalga oshirilsa, nodavlat sektoriga mansub korxonalarda mutlaqo o'tkazilmaydi. Bunday vaziyatda, bizning fikrimizcha, Ma'naviyat targ'ibot markazi bo'limlari bilan nodavlat sektori korxonalari o'rtasida tuzilgan shartnomalar qo'l kelishi mumkin. Ikkinchidan, yoshlarga "Etika" fanidan tahsil berish jarayonini ham tubdan o'zgartirish zarur bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida mazkur fan uchun ajratilgan soatlar miqdori talabga javob bermaydi. 10-20 soat davomida shaxs axloqiy qarashlariga sistemaviy tus berib bo'lmaydi. Uchinchidan, film, ko'rsatuv, klip, qo'shiq, surat va shu kabilarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar pozitsiyasidan tanlashga odatlantiradigan uslubiy qo'llanmalar, bukletlar, flayerlar va boshqa poligrafik mahsulotlarning muntazam nashr qilinishiga erishishimiz lozim ko'rinadi. Ushbu tadbirlar ommaviy madaniyat salbiy elementlarining tarqalishiga to'siq bo'ladi, axloqiy buzqlik g'oyalarga qarshi tura oladigan sistemali, muntazam, intellektual jihatdan pishiq axloqiy targ'ibot mexanizmini vujudga keltiradi.

Shaxs estetik madaniyati bilan ommaviy madaniyat artefaktlarining iste'mol qilinishi o'rtasidagi aloqadorlik ayniqsa yorqin zuhur bo'ladi. Ma'lumki, "estetik madaniyat bu – ma'ayyan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilarning voqelikdagi go'zal narsa va hodisalarga nisbatan hissiy-emotsional va zavqiy munosabatda bo'lib, ularni ma'naviy-estetik qadriyat sifatida baholashning ifodasidir"[5]. Shaxs estetik madaniyati uning estetik ongi va faoliyatining integral xarakteristikasidir. Ushbu fenomen shakllanishining o'z qonuniyatlari va mantig'i mavjud, albatta. Biroq shaxs estetik madaniyatining qaror topishiga jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar, voqealar va hodisalar ham iz qoldiradi. Masalan, tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida mavjud bo'lgan mafkuraviy norma va qadriyatlar shaxs estetik madaniyatining xarakterini belgilab berishi mumkin. Sovet hokimiyati yillarida kommunizm g'oyalarning shaxs estetik bilimlari, estetik tasavvurlari, estetik norma va prinsiplari, estetik qadriyatlar, estetik faoliyatining asosiy xususiyatlariga "rang bergani" ham shundan. Bu jarayonlarni maxsus o'rgangan mutaxassislar shaxs estetik madaniyatining shakllanishi tarixiylik, ijtimoiylik, polifunksionallik, umumfalsafiylik, qadriyatlar ustuvorligi, davriylik tamoyillari asosida kechishini qayd qiladilar[5].

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmi va yigirma birinchi asr boshlarida jamiyat va shaxs estetik madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik ommaviy madaniyatning umumsayyoraviy miqyosda taraqqiy topishi kontekstida sodir bo'la boshladi. Keng ommaga mo'ljallangan va jiddiy mazmun tashuvchisi bo'lmagan film, badiiy asar, surat va shu kabilar shaxs estetik ongi va faoliyatini shakllantiruvchi muhim omilga aylandi. Mazkur jarayonlar ommaviy madaniyat bilan shaxs estetik madaniyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlik murakkab xarakterga egaligini namoyon qildi. Ommaviy madaniyatning hattoki ijobiy xarakterga ega mahsullari ham shaxs estetik qarashlari, norma va prinsiplari, didi va faoliyatini primitivlashtiradi. Uning salbiy elementlarida esa "go'zallik qonuniyatlari buziladi, turli tarixiy voqealar, ruhияt imkoniyatlari, san'at, falsafa, siyosat, din va boshqa ijtimoiy ong shakllaridan o'z maqsadlari yo'lida uddaburonlik bilan foydalaniladi, yoshlar ko'nglining eng nozik jihatlariga ta'sir o'tkaziladi, ularning jinsiy, milliy va boshqa hissiyotlari

junbushga keltiriladi va shu bilan ularning qalbiga istagancha yovuz g'oyalar singdiriladi" [5].

Ommaviy madaniyat tarkibida turli siyosiy kuchlarning maqsad va muddaolari, ehtiyoj va manfaatlarini ifodalovchi elementlarning ko'payib borayotgani shaxs siyosiy madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berishga undamoqda. Ma'lumki, "shaxs siyosiy madaniyati uning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiradi"[6]. U shaxs siyosiy tuyg'ulari, bilimlari, normalari, qadriyatlar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Biroq millatlar va davlatlar o'rtasidagi turli aloqalar jadallashib, globallashuv jarayonlari murakkablashib borayotgan hozirgi davrda shaxs siyosiy madaniyatining mazmunini uning davlat va ijtimoiy tuzumga munosabati bilan bog'lash kifoya qilmaydi. Bugungi kunda shaxs siyosiy madaniyati deganda uning jahonda sodir bo'layotgan siyosiy voqealarga munosabati, turli siyosiy kuchlarning maqsad va manfaatlaridan voqifligini ham tushunmoq zarur. Chunki jahon siyosiy maydonida yuz berayotgan jarayonlarning asl mohiyatini ilg'ab ola olmaydigan, geosiyosiy maydonda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy kuchlarning maqsadlarini bilmaydigan, zamonaviy mafkuraviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan bexabar bo'lgan shaxsni tom ma'noda siyosiy madaniyatli deb ayt olmaymiz.

"Mustaqillik yillarida shaxsning hokimiyat va siyosat, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning asosini tashkil etuvchi g'oyalar va qarashlar, normalar va prinsiplar, davlat tuzilishi hamda uning siyosiy sistemasi, davlatni boshqarishda ishtirok etishning shakllari va usullari haqidagi siyosiy bilimlari kengaydi"[6]. Kishilarning siyosiy xabardorligi darajasi oshdi, siyosiy tafakkuri yangicha xarakter kasb etdi, davlat va ijtimoiy tuzumga munosabatlari o'zgardi. Fuqarolar o'z siyosiy

faoliyatlarini mutlaqo yangi siyosiy normalar asosida tashkil qila boshladilar. Vatandarlik va millatparvarlik darajasining oshishi ham shaxs siyosiy madaniyatini yangi bosqichga ko'tardi. Ma'naviy madaniyatini barqaror rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasini yaratish lozim. Konsepsiyaning yaratilishi yoshlar ma'naviy madaniyatini haqiqatan ham mazmunan boyitish mumkin bo'lgan ko'p o'lchovli komponentlarni o'zida ifodalaydi va mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytiradi [7].

Shaxs siyosiy madaniyatining yuksalishiga qator obyektiv shart-sharoitlar zamin yaratdi, albatta. Bu shart-sharoitlar turkumiga O'zbekistonda yangi siyosiy sistemaning tarkib topishi, xususan huquqiy davlat barpo etish sari ilk odimlarning qo'yilishi, ikki palatali parlamentning qaror topishi, yangi siyosiy institutlarning shakllanishi, siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va hokazolarni kiritish mumkin. Bularning barchasi shaxsning davlat va hokimiyat, ijtimoiy tuzum va siyosiy sistema, siyosiy faoliyat va siyosiy manfaatlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi.

Xulosa. Shaxs ijtimoiy qiyofasini ommaviy madaniyatning salbiy ta'siridan himoya qilish uchun uning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyatga ega. Chunki yuksak ma'naviy madaniyatga ega shaxsgina madaniyat artefaktlarini ularning insonparvarligi, pozitiv xarakterga egaligi, oqilona elementlardan tarkib topganligi, gumanistik axloqiy, siyosiy, mafkuraviy, estetik norma va prinsiplarga mutanosibligiga qarab iste'mol qiladi. Shaxsning ma'naviy madaniyati uning intellektual, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa madaniyatidan tarkib topadi. Binobarin, shaxs ma'naviy madaniyatining aynan ana shu ko'rinishlarini yuksaltiradigan chora va tadbirlarning amalga oshirilishi, ularning gnoseologik, aksiologik va praktsiologik aspektlarining rivojlantirilishi, ijtimoiy funksiyalarining takomillashtirilishi ommaviy madaniyat salbiy ta'sirini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot.- Toshkent: Ma'naviyat, 2009.- 21-b.
2. Егорова Г.И. Воспитательный и образовательный потенциал интеллектуальной культуры специалиста. Ведущие подходы и принципы функционирования.// Ползуновский вестник.- 2005.- №3.- С.47.
3. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik.- Toshkent: Ma'naviyat, 2012.- 373-380-b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 100-101-b.
5. G'aybullayev O.M. Shaxs estetik madaniyatining shakllanish va rivojlanish muammolari. Fals.f.d. ... diss. avtoref.- Toshkent: O'zMU, 2011.- 9-b.
6. Choriyev S.A. Siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish muammolari. Fals.f.d. ... diss. avtoref.- Toshkent: O'zMU, 2005.- 34-b.
7. Boysunov J.X. Ўзбекистонда ёшлар маънавий маданиятини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Fals.f.d. ... diss. avtoref.- Buxoro: BuxDU, 2023.- 14-b.



Sherzod FAYZULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dots v.b

Pedagogika fanlari doktori K.Muradkasimova taqrizi asosida

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINING TA'LIMDAGI AHAMIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport darslarini tashkil etishda e'tibor qaratiladigan jihatlar va mazkur jihatlarining jismoniy tarbiya sifati hamda samaradorligini oshirishdagi zaruriy ahamiyati masalasiga doir fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, mashqlar, sport, mashg'ulot, tayyorgarlik, ta'lim, sifat, samaradorlik, natija, rivojlanish.

ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье представлены моменты внимания при организации занятий по физическому воспитанию и спорту в образовательных учреждениях и необходимая значимость этих аспектов в повышении качества и эффективности физического воспитания.

Ключевые слова: Тренировка, занятие спортом, тренировка, тренировка, воспитание, качество, эффективность, результат, развитие.

THE SIGNIFICANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN EDUCATION

Annotation

The article presents the points of attention in the organization of physical education and sports classes in educational institutions and the necessary importance of these aspects in improving the quality and efficiency of physical education.

Key words: Training, exercise, sport, training, training, education, quality, efficiency, result, development.

Kirish. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shartsharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidanyangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etiladi.

Materiallar va usullar. Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib kelibgina qolmay jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida organizmning shakllari va funktsiyalarini uyg'un ravishda jismonan kamol toptirish, aholining sog'ligini mustahkamlash, uzoq umr ko'rishini ta'minlaydi. Shunday ekan ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil e'tishda bir qator kamchilik va muammolarga e'tibor qaratishimiz joiz. Va o'z vaqtida shu kamchilik hamda muommalarni yechish yo'llarini ishlab chiqishimiz kerak.

Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarliklari, sog'lig'i hamda qiziqishlari ham jismoniy tarbiyani amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mashg'ulotlarga pedagogik jihatdan to'g'ri rahbarlik qilish, o'rgatish tarbiyaning maqbul uslubiyoti jismoniy mashqlarning ratsional ta'sirini belgilaydigan omildir. Shu bilan birga quyidagi omillarni ham hisobga olish zarur:

1. Shug'ullanuvchining o'ziga hos hususiyatlari (yoshi, jinsi, sog'ligi, tayyorgarlik darajasi, mehnat, o'qish, dam olish, turmush rejimi).
2. Jismoniy mashqlarning o'ziga hos hususiyatlari, ularning murakkabligi, yangiligi, yuklamasi, emotsiya berishi va boshqalar.
3. Tashqi sharoitning alohida hususiyatlari (meteorologik, mahalliy hususiyatlar, jihozlar va snaryadlarning sifati, mashg'ulot joyining gigienik holati va boshqalar).

Bundan ko'rinish turibdiki: jismoniy tarbiya va sport darslarini tashkil qilish bir tamonlama emas har tamonlama ko'pgina jihatlariga e'tibor berish kerak.

Albatta sport turlari o'zining murakkab harakatlari va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining shug'ullanuvchilarga nisbatan o'ziga xos talablari mavjud bo'lib, ularga maxsus ta'sir qilish kuchiga ega. Sport turlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, katta sport mavqeini ko'tarishga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Yildan yilga Respublikamizda xalqaro va jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalarni o'tkazish an'anaviy tadbirlar tarkibidan joy olmoqda.

Bizga ma'lumki Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarining barcha bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari I semestr davomida olib boriladi. Shu semester davomida ular jismoniy tarbiya sportning nazariy asoslari, yengil atletika (yugurish va sakrash), sport o'yinlari (futbol, voleybol, basketbol, stol tennis) va suzish kabi sport turlari bo'yicha mashg'ulotlarini tashkil qilinadi va o'tqaziladi.

Bunday ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, ya'ni o'qituvchilar, sport murabbiylari va boshqa jismoniy tarbiya harakatini tashkil etuvchi va boshqaruvchilar katta bilim, malaka va ko'nikmalar hamda amaliy tajribalarga ega bo'lishi kerak. Chunki jismoniy tarbiya va sport darslari bitta sport turidagina bo'lmay yuqorida ko'rsatilgandek bir qancha sport turidan mashg'ulotlar o'tqaziladi.

Bugungi kunda Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar aholi jismoniy madaniyatini oshirish uchun kuchli turki bo'lib xizmat qilmoqda. Mutaxassis sifatida aytishimiz mumkinki, jismoniy tarbiya va sportni aholi o'rtasida, ayniqsa, talabalar va o'quvchi yoshlar o'rtasida rivojlantirish uchun davlatimiz sarflayotgan mablag', moliyaviy – iqtisodiy va moddiy tovar boyliklari hech bir mamlakatda yo'q. Shunday ekan bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz kerak.

Natijalar. Talabalar amaliy jismoniy tayyorgarligi jarayonida ularning barcha kasb sifatleri shakllanadi. Bu esa amaliy jismoniy tayyorgarligi ishlab chiqarish bosqichida muhimdir.

Izlanishlarning ko'rsatishicha, sharqshunoslarning ruhiy, siyosiy, madaniy va jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan talab shifokor, muhandis, pedagog va boshqa qo'yilgan talablardan farq qiladi. Bu talab filolog, muhandis tarjimon, kimyogar, iqtisodchi va tarixchilar uchun o'ziga hosdir. Jismoniy madaniyat malakalari doirasidagi har taraflama keng miqyosdagi jismoniy tayyorgarlik mehnat faoliyatiga bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra talaba yoshlar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifalariga salomatlikni, jismoniy rivojlanishini yaxshilash; o'quv tarbiya jarayonini shaxsning tipologik xususiyatlarini o'rganish asosida individuallashtirish; quyi kurs talabalarini o'quv yurtiga adaptatsiyasini yengillashtrish maqsadida jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish yo'nalishini kuchaytirish; tananing tashqi muhim ta'siriga qarshiligini oshirish, charchoqni bartaraf etish kiradi.

Jismoniy mashqlarni bajarish shakllari, usullari, davomiyligi, ketma-ketligi valeologiyaning asosiy vazifalariga bevosita bog'liqdir.

Talabalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. Talabalar jismoniy tarbiyasi jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi. Umumiy vazifalar – bilim berish, jismoniy tarbiyalash va sog'lomlashtirishdan iborat bo'lib, xususiyatlari esa jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi. Xususiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvilar organizmining sog'ligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish;
- 2) turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun shu yoshga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- 3) hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo'ladiganlari bilan qurollantirish;
- 4) o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim me'yorida jismoniy madaniyatga oid yangi nazariy bilimlarni berish va ularni yildan yilga takomillashtirish;
- 5) o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga qiziqitirish va ularda qat'iy odatni shakllantirish;
- 6) o'quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib tarbiyalash va bu bilan ularda tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalash;
- 7) jismoniy tarbiyani ma'naviy tarbiyaning elementlari: ahloqiy, ruhiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan bog'lish, qadriyatlarimizga oid vazifalar bilan birgalikda o'quvchilar yoshining ulg'ayishi, jismoniy tayyorgarligining ortishini e'tiborga olib, o'qitishning ayrim bosqichlariga aniqliklar kiritish va boshqa qator vazifalar.

Bu vazifalar ma'naviy tarbiyaning elementlari xisoblangan ahloqiy ruhiy estetik va mehnat tarbiyalarining vazifalari bilan birgalikda o'quvchilarni yoshini ulg'ayishi, jismoniy tayyorgarligiga qarab o'qitishning ayrim etaplarida aniqliklar kiritiladi.

Munozara. Organizm o'sib borar ekan uning funktsional imkoniyatlarini oshib borishi ham tabiiy. Oldin egallangan harakat malakalari zaxirasi bazasida yangi, keyin egallanishi lozim bo'lgan harakat malakalari uchun poydevor yaratiladi. Bu yoshdagilarda ularning jismoniy madaniyat sohasidagi bilimlarni boyitish, sport trenirovkasi asoslari, sportchini o'z-o'zini nazorat qilishi qoidalariga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

OTMda talabalarni jismoniy tarbiyasining maqsadi:

1. Sog'lomlashtirish.
2. Xar tamonlama yetuk inson qilib tarbiyalash.
3. Vatan mudofaasiga hamda mexnatga tayyorlash.

Jismoniy tarbiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni sog'lomlashtirish, chiniqtirish, jismoniy rivojlantirish, xarakter malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari belgilanadi: Sog'liqni mustahkamlash, o'quvchilarni to'g'ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish. Tabiat omillari suv, quyosh, havo ta'sirida o'quvchilarni sog'ligini mustahkamlash, chiniqtirish hamda organizmni kasalliklarga chidamliligini orttirish maqsadida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini imkoni boricha toza havoda o'tkazish yoki sport zallarini toza havo bilan ta'minlanishini tashkil etish zarur.

Xulosa. Jismoniy tarbiya mashqlari bilan mustaqil shug'ullanish har bir talaba pedagogning topshirig'iga muvofiq tanlagan sport turi bo'yicha, uni yuqori darajada egallash uchun mustaqil shug'ullanishi kerak. Bunday mashg'ulotlar talabaning jismoniy, sport tayyorgarligini va sog'ligini hisobga olib bajariladi. Bizga ma'lumki sport bir kun yoki bir haftalik tayyorgarlik bilan biror natijaga erishib bulmaydi bunga oylab qolaversa yillab mashq qilish talab qilinadi. Shunday ekan, sport guruhidagi talabalar uchun mustaqil mashqlar sportda yuqori natijalarga erishishlari uchun tayyorlanish mashqlari bo'lib qoladi. Qolgan talabalar o'quv dasturi bo'yicha saboq olishlari kerak.

O'qishdan tashqari vaqtda talabalar gigiyenik gimnastika va atletik mashqlar bilan shug'ullanishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bularga yugurish, yurish va boshqa mashqlar kiradi. Gigiyenik gimnastika bilan sutkaning istagan vaqtda, ovqatlanishdan 1-2 soatdan so'ng va uxlashdan 2-3 soat oldin shug'ullanish tavsiya etiladi

Jismoniy tarbiyaning butun jarayoni bunday qimmatli axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Umuman olganda barcha turdagi jismoniy mashqlar, o'yin harakatlari dovyuraklik va do'stlik xislarini tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, bolalarda Vatanga muhabbat, vatanparvarlik his-tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Turganda va yurganda qomatni to'g'ri tutish ko'nikmalarini oshirish, qomatni to'g'ri shakllantirish murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir. Shunday ekan, bu soxada ijobiy natijalarga erishish uchun bola o'tirganda, tik turganda, yurganda qomatini to'g'ri tutishi haqida g'amxo'rlik qilish zarur: jismoniy mashqlarni keng qo'llash kerak: jismoniy madaniyat dasrlari mazmuniga albatta qomatni yaxshilashga oid mashqlarni, mashg'ulotlarga o'lgangimnastikani, jismoniy madaniyat vaqtlarini, badan tarbiyani kiritish, o'quvchilarga uyga tegishli vazifalar berish kerak. Jismoniy tarbiyaning maqsadi odamni bolalik davridan boshlab jismoniy kamolotini shakllantirish, salomatligini mustahkamlash, va ishchanlik kobilyatini oshirishdan iborat.

Talim tizimi jismoniy madaniyatning keyingi bosqichlarida xam o'ziga xos maqsad vazifalari belgilab berilgan bo'lib, jismoniy tarbiya uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Jismoniy madaniyatning ta'lim tizimidagi o'rni va vazifalari va uning axamiyatini nakadar muximligini anglagan xolda mavjud ta'lim tizimi davomida jamiyatda xar tomonlamia barkamol shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olingan. Shunday ekan jismoniy madaniyatni ushbu tizimning ajralmas tarkibiy kismi sifatida qarash va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jismoniy madaniyatga aloxida bir muommo sifatida qarash va uning uzviyligini ta'minlash orkali ta'lim-tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu borada talabalar jismoniy madaniyatga aloxida e'tibor qaratish va doimiy ravishda rivojlangan mamlakatlar tajribalarga asoslangan zamonaviy talablar bilan boyitib borish zarur.

ADABIYOTLAR

1. Norqobilov Muhiddin Najimovich "Jismoniy tarbiya va sport" (O'quv qo'llanma). Toshkent, 2019.
2. Ashur Nazarovich Normurodov JISMONIY TARBIYA (O'quv qo'llanma) Toshkent, 2011.
3. Холчураев Ботир Холиқович (2020). Жисмоний тарбия дарсларини ташкил этишда таълим услубларининг аҳамияти. Science and Education, 1 (3), 752-756.
4. Васильева Виктория Руслановна, & Коробейникова Елена Ивановна (2021). Применение инновационных технологий на уроках физической культуры. Наука-2020, (6 (51)), 131-136
5. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти. 2000 й. Тошкент.
6. Саломов Р.С Спорт машгулотларининг назарий асослари. Ўқув қўлланма Т.:2005.-261 б



Yulduz XAITOVA,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti dotsenti v. b, PhD
E-mail: yxaitova28@gmail.com

TDPY Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi dotsenti X.Muhammadiyeva taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni mavzularini o'rgatishning turli metodikalarini bayon qilinadi. Umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Innovatsion texnologiyalar yordamida dars mashg'ulotlarini sifatini oshirish taklif qilingan. Shuningdek, mavzu bo'yicha taklif va xulosalar berilgan. Shuningdek, maqola boshlang'ich sinf o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozimligi haqida ham fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiya, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, darsning mantiqiy strukturasi qurish.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье описаны различные методы преподавания естественных наук в начальных классах. Даны методические рекомендации по использованию инновационных технологий в преподавании предметов в начальных классах общеобразовательных школ. Предлагается повысить качество уроков с помощью инновационных технологий. Также даются предложения и выводы по теме. В статье также указывается, что учитель начальных классов должен обладать глубокими знаниями и профессиональной компетентностью, чтобы правильно управлять педагогическим процессом.

Ключевые слова: Инновационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, построение логической структуры урока.

IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY EDUCATION CLASSES

Annotation

This article describes different methods of teaching science subjects in primary grades. Methodological recommendations on the use of innovative technologies in the teaching of subjects in the primary classes of general education schools are given. It is proposed to improve the quality of lessons with the help of innovative technologies. Also, suggestions and conclusions are given on the topic. The article also points out that a primary school teacher should have in-depth knowledge and professional competence in order to properly manage the pedagogical process.

Key words: Innovative technology, information and communication technologies, building the logical structure of the lesson.

Kirish. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari quydagilar:

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi.

Boshlang'ich ta'lim fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarurdir.

Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Interfaol usullar orqali o'tilgan darslar o'quvchini ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'tiladigan darslarda an'anaviy usullardan voz kechish degani emas, balki mazmuni o'zaro faollikda hal eta olishdir. Interfaollik bu faollikdir, ya'ni o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro muloqoti asosida kechadi. Albatta, har bir ishning maqsadi bo'lgani kabi interfaol usullarni qo'llashdan maqsad bo'ladi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tishi mumkin. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilar juda o'yingaro bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rangbarang metodlarni tashkil qilish maqsadga muvofiq. Masalan, "Ko'paytirish jadvali"ni tushinishida o'quvchi

qiyinaladi. Agar bu mavzularni tushuntirishda interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o'quvchining xotirasiga ham qolishi osonroq bo'ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanimiz biz o'qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonlarini tashkil qilamiz. Oddiygina o'qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligida o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. [10, 32]

Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlar hisonlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan M.larini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qullaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu M.larni ishlab chikuvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham interfaol matod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.

Hozirgi zamon fanlarida ko'plab umumiy, xususiy ilmiy interfaol metodlar qo'llaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik interfaol metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish interfaol metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo'llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy interfaol metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir-asrorlarini ochishda yordam bermoqda.

Natija va tahlillar. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnetofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinni va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi mavjuddir.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;
- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Boshlang'ich sinf darslarida ko'p qo'llaniladigan interfaol metodlar.

1	"Klaster"
2	"Aqliy hujum"
3	"Davom ettir"
4	"Taqqimot"
5	"Muammoli vaziyat"

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim dasturlaridan xabardor bo'lish imkonini yaratadi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

«Tabiatshunoslik» fani bo'yicha barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Masalan: «O'lkamiz suv havzalari», «Ona zamin», «O'rmon va dalalar — tabiat boyligi», «Qishloq xo'jaligi sohalari», «Bizning o'lka», «Yer osti boyliklari», «O'lkamiz hududiy tuzilishi», «O'lka chorvachiligi va o'simliklari» va boshqalar. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «Teskari o'yin» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi. Boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga imkon beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerakdir;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerakdir;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozimdir. Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarurdir. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKT'dan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinfgacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin.

Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarurdir. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterining o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Umum ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida turli darslarni AKT foydalanib tashkil qilish tajribalarini tahlili shundandalolat beradiki, ya'ni to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

ta'lim jarayonini ijobiy motivatsiyalashni ta'minlaydi darslarni yuqori estetik va emotsional darajada o'tishni (slaydlar, musiqa, animatsiyalar, multimedialar);

o'qitishning yuqori darajadagi differensiyasini ta'minlaydi;

darsda bajariladigan ish hajmini 1,5– 2 baravar oshiradi; bilimni nazorat qilishni takomillashtiradi;

o'quv jarayoni ratsional tashkil qilinadi, darsning samaradorligi ortadi;

o'quvchi faoliyatida izlanish, ijod qilish ko'nikmasi shakllanadi;

elektron kutubxonalarga ,axborot resurslariga, turli-tuman ma'lumotlar tizimiga kirishga imkoniyat yaratadi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim darslarida interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining

xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iboratdir[10].

ADABIYOTLAR

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimai.-T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
2. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.–160 b.
3. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – 199 b.
4. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' as-sahih. 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. –550 b.
5. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
6. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. O'quv qo'llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.-201 b.
7. Amir Temur o'g'itlari (to'plam)Tuzuvchilar:B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro'z, 1992. – 64 b.
8. Baxramov A., Sharipov Sh., Nabiye M. Tabiatshunoslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –T.:Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019-yil. –28 b.
9. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl.asarlar.– T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
10. Omonov T.T., N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA" 2009. 106-bet.



UDK:37.013.2

Oliya XAYDAROVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM "Pedagogika va o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

E-mail: Oliyaxaydarova1963@gmail.com

QarDU Pedagogika kafedrasida mudiri, PhD O.Karaxonova taqrizi asosida

PEDAGOGNING TASHKILOTCHILIK FAOLIYATI VA UNING TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Tashkilotchilik faoliyati texnologiyasi pedagogning butun faoliyati tuzilmasida o'ziga xos o'ringa ega. Pedagogning tashkilotchilik faoliyati natijasida talabalar turli faoliyat turlariga kirishadilar. Alohida shaxsga qaratilgan tashkilotchilik faoliyati, bu butun bir guruhni birlashtirishga qaratilgan o'zaro bog'liq ta'sirlar (texnologiyalar) tizimi hisoblanishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, pedagog, yangi sifat, shakllantirish, kasbiy tayyorlash, innovatsiya muhiti, tashkilotchilik faoliyati, bo'lajak mutaxassis, o'zaro bog'liq ta'sirlar, tizim.

ОРГАНИЗАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПЕДАГОГА И ЕЁ ТЕХНОЛОГИЯ

Аннотация

Технология организационной деятельности занимает особое место в структуре всей деятельности педагога. В результате организаторской деятельности учителя учащиеся занимаются различной деятельностью. Анализируется, что организационная деятельность, направленная на личность, рассматривается как система взаимосвязанных воздействий (технологий), направленных на объединение целой группы.

Ключевые слова: Образование, педагог, новое качество, позднее, профессиональная подготовка, инновационная среда, организационная деятельность, будущий специалист, взаимосвязанные эффекты, система.

ORGANIZATIONAL ACTIVITY OF A TEACHER AND ITS TECHNOLOGY

Annotation

The technology of organizational activity occupies a special place in the structure of all teacher activities. As a result of the teacher's organizational activities, students are engaged in various activities. It is analyzed that organizational activities aimed at the individual are considered as a system of interconnected influences (technologies) aimed at uniting the whole group.

Key words: Education, teacher, new quality, later, professional training, innovative environment, organizational activity, future specialist, interrelated effects, system.

Kirish. Ta'lim jamiyatning yangi sifatini shakllantirishning muhim omili hisoblanib, uning taraqqiyotida inson ta'siri muhim ahamiyat kasb etadi. Yangiliklarning asosini – bo'lajak mutaxassisni rivojlangan zamonaviy kasbiy tayyorlash tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida "Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi" bilan tanishish davomida "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi". [1] deb ta'kidlagan edilar.

Bugungi kunda ta'limni innovatsiya orqali tashkil etish jarayoni o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabatlari optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi ko'zda tutiladi. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol ishtirokchilariga aylansinlar. Chunki yetishib kelayotgan bo'lajak mutaxassislar ma'lum bir sohani egallashlaridan tashqari, mazkur sohani rivojlantirish uchun bilim va mahoratga, hamda amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish bevosita o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Bunday hamkorlikning xususiyati pedagogning tashkilotchilik faoliyatini yuzaga chiqarish sifatiga bog'liq.

Alohida shaxsga qaratilgan tashkilotchilik faoliyati, bu butun bir guruhni birlashtirishga qaratilgan o'zaro bog'liq ta'sirlar (texnologiyalar) tizimi hisoblanadi.

Tashkilotchilik faoliyati texnologiyasi pedagogning butun faoliyati tuzilmasida o'ziga xos o'ringa ega. Pedagogning tashkilotchilik faoliyati natijasida talabalar turli faoliyat turlariga kirishadilar.

Manba va adabiyotlar tahlili. Bu masala bir qator tadqiqotlarning obyekti bo'lib xizmat qilgan. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammolari M.O.Ochilov, X.I.Ibragimov,

Davletshin M.G va boshqa bir qancha tadqiqotchilar ishlarida atroflicha o'rganilgan [2, 3, 4].

Pedagogik faoliyatning mohiyati, tuzilishi va mazmunining pedagogik ongda aks etishini. Annamuratova S.K., M.T.Gromkova, N.Saidahmedovlar tadqiq qilganlar [5,6,7].

Kasbiy mahoratning shakllanishi va pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlik, pedagoglar kasbiy tafakkurining pedagogik-psixologik asoslarini ni D.N.Arziqulov, M.Yu.Ismoilovlar o'rgandilar [8,9].

O'qituvchi faoliyatining ijodiy yo'nalishlari va bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy ishlashga tayyorlash muammolari, pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari haqida, shuningdek pedagogik texnologiya, uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi, yo'l va usullari haqida B.R.Adizov, V.P.Bespalko, B.L.Farberman va A. Sa'dullayev kabilarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan [10,11,12, 13].

Hozirgi davrda ta'limda innovatsion yondashish asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta'limga innovatsion yondashish asosida o'qitishni yo'lga qo'yish bu pedagogning tashkilotchilik faoliyatiga bog'liq. Ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarni yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol subyektlariga aylansinlar.

Natijalar. O'rganilgan hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida sifatlar spektri kengayadi va talabalarning o'z-o'zini anglashlari bir-biriga o'xshash bo'lishiga olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bir xil guruhda sifat ko'rsatkichlari tez rivojlansa, boshqa guruhda esa bu ko'rsatkichdagi o'zgarish oliy o'quv yurtini tugatganga qadar ham o'zgarishsiz qoladi.

O'z-o'zi va o'zgalarni anglash jarayonining rivojlanishini ikki yo'nalishda ko'rib o'tdik. Birinchi sinov guruhida boshlang'ich ta'lim va musiqa bo'limlaridan 20 nafar talaba

tanlab olindi. Ularga maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonda o'qituvchini kuzatib, ta'riflab berish topshirildi. Bu hodisa o'ziga xos bo'lib, umuman u qiziqarli taassurot qoldirdi. Uni baholash ham turlicha bo'ldi.

Ikkinchi sinovda I-kurs talabasi xuddi shu vazifalarni bajardi. Shu kabi ta'riflashlar talabalar tomonidan 4 marta tashkil etildi: I, II, III va IV kurslarda, o'quv yili oxirida.

Talabalarning kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorgarligini qanday yo'nalishda tashkil etishni belgilash uchun pedagoglarga xos unumli va innovatsion yondashuv asosida ishlashning ancha taraqqiy etgan shakllari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Faqat shundagina pedagogik mahoratni rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash mumkin. Shuning uchun ham innovatsion yondashuv asosida ishlaydigan o'qituvchilarning faoliyati sir-asrorlarini o'rganish zarur.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, insonni tushunish va uni ta'riflashni har bir kursda kuzatish mumkin. Bizning kuzatishimizcha o'zgalarni tavsiflashning maksimum darajasiga 2-3-kurslarda erishiladi. Bu daraja keyingi yillarda ham pasaymaydi. Insonning ruhiy holatini ta'riflash va bu jarayonni anglash ta'limning 3- va 4-o'quv yilining ikkinchi yarmida amalga oshiriladi. Kuzatishlarimiz davomida inson ichki dunyosini anglash darajasining ko'rsatkichlari birmuncha past ekanligi namoyon bo'ldi. Bu o'rinda ta'limning 1-o'quv yilidan 4-o'quv yiligacha deyarli siljishlar va o'zgarishlar ro'y bergani yo'q. Umuman, insonni anglash va uni ta'riflash ko'nikmasining rivojlanishi katta yoshlilar va yoshlarni ta'riflashda bir xil bo'ldi.

Pedagogning pedagogik jarayonni amalga oshirish bosqichidagi faoliyat texnologiyasining mazmuni shulardan iboratki, talabalar oldida faoliyat topshiriqlarini va maqsadini aniqlash; alohida talaba va talabalar jamoalarining topshiriqlarni qabul qilish faoliyatlarini uchun imkoniyatlar yaratish; pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun tanlab olingan metod, usul va vositalarni qo'llash; pedagogik faoliyat subyektlarining o'zaro ta'sir faoliyatini ta'minlash va uning samarali borishi uchun sharoit yaratish; talabalar faolligini oshirish uchun zarur usullardan foydalanish; pedagogik faoliyatning borishini ta'minlash uchun zamonaviy vositalardan foydalanish va teskari aloqani ta'minlash.

Boshqarish nazariyasida tashkilotchilik faoliyatini tor ma'noda insonlarni boshqarish tizimining eng so'nggi, yakunlovchi zvenosi sifatida qarash qabul qilingan.

Keng ma'noda uning tuzilish texnologiyasi quyidagi mustaqil bosqichlar va ularning o'zaro ta'sirlar ketma-ketligini aks ettiradi:

- topshiriqni o'zlashtirish, tashkilotchilar va qatnashchilarning topshiriq shartlariga o'zaro munosabatini o'rnatish;
- yosh tashkilotchilarni tanlab olish, qatnashchilarni hamjihatlik bilan qaror qilish uchun topshiriqlar bilan tanishtirish;
- qulay ma'lumotlarga asoslangan makon va zamon munosabatlarini rejalashtirish, mavjud vositalarni aniqlash;
- vazifalarni taqsimlash, tashkilotchilik shaklini aniqlash, yo'l-yo'riqlar ishlab chiqish;
- ichki o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish, yosh tashkilotchilar bilan ishlash, tashqi aloqalarni ta'minlash;
- topshiriqlarni bajarilish samaradorligini borishini tahlil, nazorat, qilish, hisobga olish;
- ilg'or guruhlarni aniqlash, kuchlarni, vositalarni qayta guruhlash va qayta rejalashtirish;
- topshiriqlarni bajarishni tugallash bo'yicha ishlash, ish va vositalarni topshirish, hisobot;
- individual va ruhiy topshiriqlarni bajarilish faoliyatini yakuniy tahlil qilish va baholash.

Bu tashkilotchilik faoliyati tuzilmasi keng ma'noda pedagogning tashkilotchilik faoliyatiga taalluqlidir.

Pedagogning tashkilotchilik faoliyati texnologiyasining xususiyati eng avvalo uning maqsadi asosida namoyon bo'ladi. U sezgi organlari orqali qabul qilinishi lozim bo'lgananiq fan natijalariga tayanmaydi, sababi u faoliyatning boshqa turlarini (ya'ni, o'quv, mehnat, ilmiy) samarali ta'minlashga yo'naltirilgan. Pedagogning tashkilotchilik faoliyati texnologiyasining mazmuni, shakl va metodlari har doim talabalarning u yoki bu faoliyat turiga qaratilgandir.

Tashkilotchilik faoliyati texnologiyasining yakuniy maqsadining amalga oshishi, tashkilotchi pedagogga emas, balki boshqa shaxs yoki talabalar guruhi zimmasiga yuklatiladi.

Pedagogning talabalar faoliyati texnologiyasining natijalarini tashkil etish faoliyatidan chetlashtirilishining o'ziga xosligi, mahsuldor va nomahsuldor faoliyat turlari son va sifat samaradorligini ko'rsatadi.

Pedagoglarning muvaffaqiyatli ishlashlari, bolaga ta'lim berishlari uchun texnologiya bo'lishi shart. Mana shunga ko'ra pedagogik texnologiya atamasi ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Endi esa pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya ishida to'liq va aniq qo'llash uchun uning mazmun, mohiyatini tushunib yetish lozim. Bu bir qadar vaqt talab qiladi. Avvaliga pedagogik texnologiya deganda ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash tushunildi. Keyinroq, bu tushunchani chuqurroq o'rganib chiqilgandan keyin esa pedagogik texnologiya haqida oldindan loyihalashtirilgan, natijasi kafolatlangan texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tizimli va izchil tadbir etish degan tushunchaga ega bo'lindi.

Muhokama. Oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonida bo'lajak pedagogning tashkilotchilik faoliyatini rivojlanishi uchun qanday nimalarga e'tibor qaratish kerak?

Bo'lajak o'qituvchilarni tashkilotchilik faoliyati texnologiyasiga tayyorlash oliy pedagogik ta'limni takomillashtirishning muhim yo'nalishidir.

Tashkilotchilik faoliyati o'qituvchi faoliyatida ko'pqirrali obyekt bo'lib, uni tadqiq etish nihoyatda murakkab. Bunda mutaxassisning umumiy va maxsus tayyorgarligining ma'lum bir darajasiga erishishni, zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni talab etadi.

Bu esa tashkilotchilik asosida ishlashga qiziqadigan, uni amalga oshirishga intiluvchan, ijodiy ishlaydigan shaxsni tarbiyalashni taqozo etadi. Bunda kasbni dildan sevis va unga oid motivlarning mavjudligidagina tashkilotchilik asosida ishlaydigan pedagog shaxsi shakllanishi mumkin.

Bizning tadqiqotlarimiz asosida turgan konsepsiya ham pedagogning tashkilotchilik faoliyatining shakllanishida pedagogik faoliyat motivini rivojlanishining ahamiyati kattaligidir. Innovatsion yondashuvning muhim tarkibiy qismlaridan biri ham motivlarni rivojlantirishdir.

Faoliyat motivining mavjudligi pedagogning tashkilotchilik faoliyatga erkin kirishuvi, o'quvchilar bilan tez til topa bilishi, izlanishi, faoliyatga ijodiy yondashishi, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga intilishiga yordam beradi.

Pedagoglik kasbini tanlagan talabaning unga doir ko'nikma va malakalarini egallashiga oliy o'quv yurtidagi pedagogik ta'lim jarayonini tubdan qayta qurish, uni tashkilotchilik faoliyati texnologiyalari asosida tashkil etish yordamida erishish mumkin.

Xulosa. Demak, pedagog-tashkilotchining faoliyati texnologiyasi, boshqa faoliyatlar singari qabul qilingan axborotlarni qayta ishlash asosida quriladi.

Tashkilotchilikda eng asosiysi jamoa va uning alohida a'zolari haqidagi psixologik axborot hisoblanadi. Shundan tashkilotchilik faoliyati texnologiyasining turli pedagogik va psixologik o'zaro ta'sir yo'l, usul va vositalari namoyon bo'ladi.

Pedagogning tashkilotchilik faoliyati texnologiyasi asosan quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

birinchi shakl – bu guruhlarning integratsiyalashuvi, ya'ni ichki shaxslararo birlashuvning shakllanishi. Bu shaklni amalga oshirilishi natijasida guruh ichida o'zaro aloqa, o'zaro munosabatlar, ya'ni ichki kommunikatsiya yo'lga qo'yiladi.

ikkinchi shakl – bu tashqi aloqa yo'naltirilgan mikrogruplar va yuqori tashkilotlar o'rtasida o'zaro aloqani o'rnatiladi.

uchinchi va to'rtinchi funksiyalari tashkilotchilik mohiyatini anglashdan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq holda ushbu hodisalarni keng ma'noda tushuniladi.

Pedagog faoliyatidagi bu to'rt funksiya o'zaro bog'liq holda biri ikkinchisini to'ldirish asosida natijalar namoyon bo'ladi.

Pedagogning tashkilotchilik faoliyati funksiyalarini axborot berish, rivojlantirish va moslashtirish kabi umumiy pedagogik bilimlar sifatida baholash mumkin.

Shuni ham aytish kerakki, an'anaviy pedagogik faoliyat bilan yangiliklar asosida tashkil etilgan faoliyat o'rtasida juda katta chegara mavjud emas. Bu hol, ayniqsa, pedagogik jarayonni tashkil etishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'lim jarayonini yangiliklar asosida tashkil etib ishlaydigan o'qituvchi o'z mehnatining samarasini, uning mohiyatini ochib bera oladi.

O'qitish jarayonini yangicha, innovatsion yondashuv asosida tashkil etish muammosi hozirgi zamonning eng muhim talablaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki ilmiy-texnika taraqqiyoti O'zbekistonning jahon miqyosida tan olinishi, ilg'or mamlakatlarning fan-texnika, texnologiya sohasida erishgan yutuqlarining respublikamizga kirib kelishi o'qituvchidan o'z

faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishni talab qilmoqda.

Faoliyatni innovatsion yondashuv asosida tashkil eta oladigan pedagogik kadrlar tayyorlash har doim pedagogika fanining diqqat markazida turgan muhim masalalardan bo'lgan.

Hozirgi zamon o'qituvchisi pedagogik texnologiyaning mohir ustasi bo'lib, o'quvchilarni fan asoslari bilan qurollantirishi, yuksak ma'naviy kamolot, o'z xalqi farovonligi uchun mehnat qilishga ongli ravishda intilishi, umuminsoniy va milliy taraqqiyot tamoyillariga sadoqatni shakllantira olishi lozim. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. hozirgi zamon o'qituvchisi har tomonlama yetuk, ma'naviy boy, o'z ishinin mohir ustasi, yangiliklarni tez anglab hayotga tatbiq eta oladigan bo'lmog'i lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. "Innovatsiyalarni tatbiq etish ilmiy-amaliy markazi loyihasi" haqida. Xalq so'zi. gazetasi 29 dekabr, 2018.
2. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. –T.: O'qituvchi. 2001. - 429 b.
3. Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей в педагогических училищах и колледжах. Автореф. дис. ... д-ра пед.наук. – М.: 1996. – 39 б.
4. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. -134 b.
5. Аннамуратова С.К. Художественно-эстетическое воспитание школьников Узбекистана. (ТГПИ; Под ред. Акад. С.Р.Ражабова). – Т.: Фан, 1991. - 370 с.
6. Громкова М.Т. Психология и педагогика профессиональной деятельности. Учеб. Пособие для ВУЗов. – М.: ЮНИТИ – ДАНА. 2003. - 415 с.
7. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologiyalari. Toshkent: 2000 y. - 46 b.
8. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtoreferati. – Toshkent: 2002. -22 b.
9. Исмаилова М.Ю. Система формирования профессиональной направленности учащихся педагогических колледжей (на материале русского языка) Автореф. дис... канд. пед.наук. –Ташкент: 2001. - 22 б.
10. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss... Avtoref. – T.: 2003. - 44 b
11. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. –Москва: Педагогика, 1989. - 190 б.
12. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'z.R.FA. Fan. 2000. - 128 b.
13. Aziz SA'DULLAYEV. (2024). ASPECTS OF FORMING VOLUNTARY QUALITIES IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENT WRESTLERS. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. Retrieved from
14. Narkulovna D. N. (2023). THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN SCIENCE TEACHING. SCIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH IN THE MODERN WORLD, 1(7), 76-80.



Mustafo XIDIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti doktranti, PhD
E-mail: xmt.2017@mail.ru

ISFT instituti professori R.X.Ruziyeva taqrizi asosida

PRAXEOLOGY AS A PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF HUMAN ACTIVITY

Annotation

This article focuses on praxeology and its significance as a philosophical examination of human activities. Praxeology, which investigates human actions and their outcomes, is crucial for enhancing the efficiency of these activities and for making rational decisions. Additionally, the article delves into the historical evolution of praxeology, its fundamental principles, methodologies, and practical applications through philosophical analysis.

Key words: Praxeology, human activity, idea, innovation, action, practice, philosophy, purposeful activity, thought, speech, speech act.

ПРАКСЕОЛОГИЯ КАК ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется праксиологии и ее значению как философского исследования человеческой деятельности. Праксиология, изучающая действия человека и их результаты, имеет решающее значение для повышения эффективности этой деятельности и принятия рациональных решений. Кроме того, статья углубляется в историческую эволюцию праксиологии, ее фундаментальные принципы, методологии и практическое применение посредством философского анализа.

Ключевые слова: Праксеология, человеческая деятельность, идея, новаторство, действие, практика, философия, целенаправленная деятельность, мысль, речь, речевой акт.

PRAXEOLOGIYA – INSON FAOLIYATINING FALSAFIY TAHLILI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqola prakseologiyaning mazmun-mohiyati va uning inson faoliyatining falsafiy tahlili sifatidagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Praxeologiya, inson harakatlari va ularning natijalari ustida tadqiqot olib boruvchi fan sifatida, inson faoliyatining samaradorligini oshirish va ratsional qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, prakseologiyaning tarixiy evolyutsiyasi, asosiy tamoyillari, metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi falsafiy tahlil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Praxeologiya, inson faoliyati, g'oya, yangilik, harakat, amaliyot, falsafa, maqsadli faoliyat, fikr, nutq, nutqiy faoliyat.

Kirish. Praxeologiya – inson faoliyatini o'rganadigan falsafiy ta'limot sifatida hozirgi vaqtda kontseptual yondashuv maqomiga ega bo'lib insonni faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish, o'zgartirishni falsafiy jihatdan qamrab oladi. Inson harakati doim ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Bu maqsadlarga erishish uchun moddiy yoki ma'naviy ehtiyojlar sabab bo'lishi mumkin. Har bir inson o'z ehtiyojlari va orzulariga har xil qarorlar qabul qiladi va bu qarorlar shaxsiy va subyektiv hisoblanadi. Praxeologiya oid qarashlardan asosiy maqsadi inson harakatlarini, ularning sabab va oqibatlarini tahlil qilishdir. Bu ta'limot iqtisodiy va ijtimoiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson harakatlarining mantiqiy va ratsional tamoyillarini o'rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Praxeologiyaning mustaqil falsafiy mohiyatni bildirishi hamda antik davr, o'rta asrlar, yangi davr falsafiy g'oyalarda aks etishidagi tafovutlar va umumiy jihatlarni aniqlash, yaxlit tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun antik davrdagi inson faoliyatiga aloqador dastlabki qarashlarni tahlil etish zarur. Mavzu doirasida Platon, Aristotel, Konfutsiy, Foma Akvinskiy, Albert Magnus va Duns Skot, Lyudvig fon Mizes, Tadeush Kotarbinskiy, va boshqalarning asarlariga murojaat qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Antik davrda inson faoliyatini o'rganish antik sivilizatsiyalarning xilma-xil intellektual an'analarni aks ettiruvchi turli falsafiy nuqtai nazarlardan yondashilganligi e'tiborga molik. Mana shu davrdagi inson faoliyati haqidagi tushunchani shakllantirgan yunon falsafasi, sharq falsafasidagi asosiy g'oyalarga asoslanadi. Platonning dialoglari inson faoliyatining turli tomonlarini, ko'pincha uning axloqiy va siyosiy jihatlarga e'tibor qaratadi. Masalan, "Davlat" asarida Platon adolatning tabiatini, ideal davlatdagi shaxslarning

rolini va bilim va fazilat o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqadi [1].

Inson faoliyatining falsafiy mohiyati haqidagi g'oyalarni tahlil qilishda antik davr falsafasi vakillarining qarashlari, xususan, Aristotelning insonga harakatning xosligi, nutqiy faoliyat, fikrlash tarzining shakllanishidagi inson faolligining o'rnini asoslashida namoyon bo'ladi. "Inson qalbining ba'zi o'ziga xos tomonlari uning ruhida aks etadi, fikrlash va vaqt hissi mavjudligi harakatda aks etadi. To'g'ri fikrni shakllantirish uchun inson barcha qobiliyatlaridan foydalanadi" [2]. Shuningdek, Aristotelning "Ritorika" asarida bayon etilgan nutqiy faoliyat haqidagi qarashlarini amaliy ahamiyatga ega. Asarda nutq san'ati, ta'sir ko'rsatish usullari va muloqotning falsafiy jihatlari o'rganishga oid g'oyalarga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, Epiktet, Seneka va Mark Avreliy kabi stoik faylasuflar axloqiy fazilat va ma'anviy yuksalish nuqtai nazaridan inson faoliyati haqida tushunchalar berishgan. Stoitsizm tabiatga mos ravishda yashash, qiyinchiliklarga chidamlilikni tarbiyalash, his-tuyg'ulari va istaklarini nazorat qilish muhimligini ta'kidlagi.

Sharq falsafasi vakillaridan biri Konfutsiy inson faoliyatini ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashdagi roli, axloqiy tarbiyaning inson faoliyatiga ijobiy ta'sirini alohida e'tirof etadi. Konfutsiy etikasida shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar hamkorlikka erishishni insonning oliy fazilatlaridan biri sifatida urg'u berdi. Antik davrdagi bu falsafiy tahlillar inson faoliyati, odob-axloqi va jamiyat to'g'risidagi keyingi mulohazalar uchun zamin yaratib, madaniyatlar va davrlar bo'yicha keng ko'lamlil intellektual an'analarga ta'sir ko'rsatdi. Ular inson tabiati, axloqi va go'zal hayoti haqidagi zamonaviy falsafiy munozaralarni ma'lumot berishda davom etadilar.

O'rta asrlarda inson faoliyatini o'rganishga o'sha davrning falsafiy va teologik tafakkuri chuqur ta'sir ko'rsatdi. Ushbu davrda inson faoliyati haqidagi tushunchani sxolastik

falsafiy qarashlar asosida shakllangan. Foma Akvinskiy, Albert Magnus va Duns Skot kabi olimlar teologiya va falsafani tizimli o'rganish bilan shug'ullanib, antik davr falsafasi vakillarining manbalardan ko'p foydalanadilar va ularni xristian tafakkuriga moslashtirilishga harakat qiladilar. Bu doirada inson faoliyati ko'pincha axloq va diniy axloq tamoyillarga asoslangan. Xususan, Aristotel teleologiyasi, hamma narsaning maqsadi yoki oxiri borligi haqidagi g'oya o'rta asrlar tafakkuriga, Akvinskiy asarlari orqali ta'sir ko'rsatgan. Inson faoliyati ko'pincha ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan deb qaraldi va axloqni o'rganish ushu maqsadlarni va inson harakatlarining ularga qanday mos kelishini tushunishni o'z ichiga oladi. O'rta asrlar axloqiy tafakkurida ma'lum axloqiy tamoyillar tabiatga xos va inson aql-idroki uchun qulay ekanligini ta'kidlaydigan hamda tabiiy huquq tushunchasi ham muhim rol o'ynadi. Umuman olganda, o'rta asrlarda inson faoliyatini o'rganish diniy mohiyatda insoniyat, axloq va jamiyatning mohiyatini tushunishga intiladigan falsafiy va teologik asoslar bilan bog'langan. Bu nuqta nazarlar rivojlangan shakllarda bo'lsa ham, inson tabiati va axloqiga oid zamonaviy munozaralarni shakllantirishda davom etmoqda.

Yangi asr tafakkur tarzida keng tarqalgan bir nechta bahs mavzular va istiqbollarni inson faoliyatini o'rganishga nisbatan yo'nalganligini ko'rishimiz mumkin. Davr ruhi bilan bog'liq holda ong, tana va ruhning o'zaro bog'liqligini asoslash orqali inson faoliyatini kengroq yaxlit jarayonlardan iborat ekanligi haqidagi yaxlit manzara shakllandi. Bu nuqta nazar shaxslarni o'z borlig'ining turli tomonlarini birlashtirishga va faoliyatga yaxlit yondashishga undaydi. Ko'pincha inson faoliyatining markaziy jihatlari sifatida o'z-o'zini kashf qilish, o'zini o'zi anglash va shaxsiy o'sishga qaratilgan yangi yondashuvlar o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida targ'ib qilinadi. Bu davrda ma'naviy uyg'unlash, ongni rivojlantirish va psixik tajribalar kabi ongni kengaytirishga qaratilgan amaliyotlar yuqori darajadagi xabardorlik darajasiga erishish va transformativ o'zgarishlarni osonlashtirish yo'llari sifatida qaraladi. Yangi davr tafakkuri ko'pincha inson faoliyatiga ruhiy evolyutsiya va transsendensiyaning kengroq jarayonining bir qismi sifatida qaraydi. Shaxslar ruhiy amaliyotlar va ichki o'zgarishlar orqali cheklolarni yengib o'tishga va voqelikning yuqori o'lchovlariga kirishga qodir bo'lgan rivojlanayotgan mavjudotlar sifatida ko'riladi. Yangi davr falsafasi ko'pincha inson faoliyatining ajralmas jihatlari sifatida ekologik ong va ekologik boshqaruvni targ'ib qiladi. Ushbu istiqbol barcha hayot shakllarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi va Yerni va uning ekotizimlarini hurmat qiladigan barqaror hayot amaliyotlarini himoya qiladi. Insonning ko'pincha shaxsiy erkinligi, imkoniyatlari va o'zini anglash qobiliyatini ta'kidlaydi. Inson faoliyati o'z-o'zini namoyon qilish, ijodkorlik va ongli tanlash potentsialiga singib ketgan deb qaraladi, bu esa odamlarga o'z hayotlarini o'z xohishlari va qadriyatlariga muvofiq shakllantirish imkonini beradi.

Prakseologiya Lyudvig von Mises tomonidan rivojlantirilgan bo'lib, uning asosi insonning maqsadga yo'naltirilgan harakatlariga qaratilgan [3]. Mises o'zining "Inson faoliyati" (Human Action) asarida prakseologiyaning tamoyillarini batafsil bayon etgan. Unga ko'ra, inson faoliyati ratsional va ongli ravishda ma'lum bir maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Bu jarayonda inson o'z ehtiyojlarini qondirishga intiladi. "Faollik - bu o'zgarishlarni kutish emas, bu biz dunyoda ko'rishni xohlagan o'zgarishlarni faol ravishda yaratishdir" [4] degan g'oyani ilgari suradi.

Lyudvig fon Mizesning "Nazariya va tarix: ijtimoiy va iqtisodiy evolyutsiyaning talqini" kitobida inson faoliyati haqida bir qancha asosiy tushunchalar keltirilgan. Mises inson harakatining falsafiy asoslarini tadqiq qiladi, xulq-atvorning maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. "Inson harakati - bu maqsadli hatti-harakatga asoslanishi lozim. Maqsadlarga qaratilgan inson "men"i qiziqishlarni aks ettiradi, atrof-muhit sharoitlariga mazmunli munosabatni shakllantiradi, insonning ongli harakatini ta'minlaydi, yashash imkoniyatini saqlab qolish uchun borliq qonuniyatlariga moslashib boradi" [3]. Bu Mizesning inson xatti-harakatlari anglanilgan va maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakat bilan boshqariladi, degan fikrini ta'kidlaydi. Har bir harakat muayyan maqsadlarga erishishga qaratilgan va bu maqsadli faoliyat insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadi. G'oyalar

tarixiy o'zgarishlarning asosiy omili hisoblanadi, chunki ular insonning qarorlari va harakatlariga ta'sir qiladi. Insonning ehtiyojlarini cheksiz, ammo resurslar cheklanganligi inson o'z resurslarini optimal taqsimlashga harakat qilishga undaydi. Prakseologiya inson harakatlarini ratsional va mantiqiy nuqta nazardan o'rganadi, ammo bu harakatlarning axloqiy yoki axloqsiz ekanligini baholamaydi. Etika esa inson harakatlarining axloqiy jihatlari o'rganadi va baholaydi. Shuning uchun prakseologiya va etika bir-birini to'ldiruvchi fanlar hisoblanadi.

Prakseologiya inson faoliyatini chuqurroq tushunishga yordam beruvchi muhim falsafiy ta'limotdir. U insonning maqsadga yo'naltirilgan, ratsional va subyektiv harakatlarini o'rganish orqali iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, prakseologiya nazariyasi amaliyotda ham keng qo'llanilib, turli sohalarda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda yordam beradi. Faoliyatni tashkil etishning umumiy nazariyasini taqdim etuvchi maxsus ilmiy fan sifatida prakseologiya loyihasi Kotarbinskiy tomonidan taklif qilingan. Kotarbinskiy va uning maktabi ishlanmalari bilan boshlangan prakseologiya dasturi amaliy faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan ilmiy yo'naltirilgan mehnatni tashkil etish sohasidagi ishlanmalarni sintez qilish, ularning umumiy sxemalari va metodologiyasida ishlab chiqilgan tamoyillarini o'z mazmunida izohlash uchun chaqirildi [5]. Loyiha dastlab alohida uslubiy xususiyatga ega bo'lib, uchta taqqoslanadigan tahlil darajasini nazarda tutdi:

1) analitik tavsif, amaliy harakatlarning tavsifi va tipologiyasi, shuningdek, ularning toifalarini (tushunchalar) tizimlarini qurish;

2) ko'rib chiqilayotgan masalalarni aniq tarixiy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga singdirish imkonini beruvchi samarali me'yoriy harakatlar tizimlarini ishlab chiqish, shuningdek, harakatlar samaradorligini belgilovchi umumiy qonuniyatlarni shakllantirish;

3) turli faoliyat turlarining genezisi va evolyutsiyasini ularning texnik xususiyatlari nuqta-nazaridan o'rganish va hozirgi vaqtda ushbu faoliyatda qo'llaniladigan usullarni tanqidiy tahlil qilish [6]. Kotarbinskiyning fikriga ko'ra, prakseologiyaning asosiy falsafiy asoslari sifatida avvalo pragmatizm so'ngra pozitivizmga asoslanishini asoslab beradi.

Tahlil va natijalar. Prakseologik g'oyalarning turli xil manbalari va paralleligi bilan falsafiy va mantiqiy ta'limotining maqsadlari, xususan, uning konsepsiyalari prakseologiyaning shakllanishi uchun asos bo'ldi. Prakseologiya umumiy metodologiya sifatida faoliyat usullarini amaliy xossalari nuqta nazaridan, ya'ni ularning samaradorligi nuqta nazaridan ko'rib chiqadi. Harakatning amaliy strategiyasiga yaqin bo'lib chiqadi va harakatni muayyan maqsad nuqta nazaridan ham muvofiq, deb baholash mumkin. Demak, harakat samaradorligining jihatlari orasida uning to'g'riligiga e'tibor qaratiladi. Bu esa amaldagi subyektlarning ko'p real modellarini bir-biriga moslashtirishga imkon beradigan ishlab chiqilgan va mustahkamlangan ideal model (to'plangan kundalik tajriba va ongli ravishda tanlangan strategiyalar) normalarda belgilanishi kerak.

Umuman olganda, Kotarbinskiyning fikriga ko'ra, harakat qanchalik oqilona bo'lsa, u mavjud vaziyatlarning umumiylikiga shunchalik yaxshi moslashtiriladi. Biroq, bu haqiqiy ma'noda ratsionallikdir. Ratsionallikni uslubiy ma'noda ham tushunish kerak, ya'ni "biz ma'lum bir shaxsning xatti-harakatini, agar u o'z bilimiga muvofiq harakat qilsa, ehtiyotkor yoki oqilona deb tan olganimizda tushunamiz va bilim deganda biz bu yerda barcha ma'lumotlar yig'indisini tushunamiz. Harakatning moddiy jihatdan mantiqsizligi uni amalga oshirishda ishtirok etadigan bilimlarning tabiati bilan bevosita bog'liq (ko'pincha biron bir maqsadni amalga oshirish uchun yetarli emas). Shu bilan birga, mantiqiy amaliy xatoning paradoksal holatlari (maqsadga mos kelmaydigan impulsni ishlab chiqarish yoki o'ta maqsadga muvofiq emashlik) va harakatning muvaffaqiyatli holatlari ham mavjud" [6]. Faoliyat inson borlig'ining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o'zini o'zi maqsadga muvofiq tarzda o'zgartirish usulidir. Faqatgina faoliyat natijasida inson mohiyati namoyon bo'la oladi. Faoliyat zamirida

jamiyatning va har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta'minlanishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan inson faoliyatining shakllari, insonlarning kundalik faoliyatlari, ijtimoiy munosabatga kirishishlarini turlarga ajratib beradi. Umumiy olib qaraganda esa, faoliyatni insonning yashashi, hayot kechirishi va yon atrofdagi boshqa insonlar bilan munosabatga kirishishi deb

Kalit so'zlar: Ayollar, qizlar, jinoyatchilikning oldini olish, gender omillari, tarixiy tahlil, jamiyat munosabatlari, qonunchilik asoslari, madaniy me'yorlar, jinoiy sud tizimi, jinoyatchi ayollar, gender rollari, axloqiy ustunlik, yumshoq munosabat, zamonaviylik, jamiyatdagi o'zgarishlar, gender stereotiplari, madaniy kutishlar, ayollar huquqlari.

Введение. Роль гендера в предотвращении преступности, особенно в отношении женщин и девочек, становится темой, вызывающей все больший интерес и важность как в академической, так и в практической сферах. Понимание исторического контекста того, как гендер повлиял на предотвращение преступности среди женщин и девочек, имеет важное значение для разработки эффективных стратегий решения этой проблемы в современном обществе. Целью данной статьи является исторический анализ гендерных факторов в предотвращении преступности среди женщин и девочек, проследивание эволюции общественных отношений, правовых рамок и культурных норм, которые сформировали восприятие женщин-правонарушителей и обращение с ними.

На протяжении всей истории женщины и девочки воспринимались и относились к ним иначе, чем к мужчинам, в отношении преступности. Общественные взгляды, часто коренящиеся в культурных и религиозных убеждениях, традиционно считали женщин морально выше других и с меньшей вероятностью склонны к преступному поведению. Такое восприятие повлияло на правовую базу, что привело к более мягкому обращению с женщинами и девочками в системе уголовного правосудия.

Однако по мере того, как женщины получали больше прав и свобод, их роли и ожидания менялись, что привело к

изменениям в их восприятии в отношении преступности. Появление современности привело к переоценке гендерных ролей, бросив вызов традиционным представлениям о присущей женщинам доброте и высветив сложности женской преступности.

Исследуя историческую эволюцию гендерных факторов в предотвращении преступности среди женщин и девочек, данная статья призвана способствовать более глубокому пониманию проблем, с которыми сталкиваются женщины и девочки в системе уголовного правосудия. Он также направлен на информирование стратегий более эффективной профилактики с учетом сложного взаимодействия общественных отношений, правовых рамок и культурных норм, которые продолжают формировать опыт женщин и девочек сегодня.

Литературный обзор. На протяжении всей истории предотвращение преступлений среди женщин и девочек зависело от сложного взаимодействия общественных отношений, правовых рамок и культурных норм. Во многих ранних обществах женщины часто считались морально выше мужчин и, следовательно, с меньшей вероятностью были склонны к преступному поведению. Такое восприятие коренится в культурных и религиозных верованиях, согласно которым женщинам отводилась роль опекунов и воспитателей, а мужчинам – защитникам и добытчикам. В

результате в уголовных процессах к женщинам и девочкам часто относились более снисходительно, чем к мужчинам, что отражает веру в их присущую им доброту.

Однако этот идеализированный взгляд на женщин и девочек начал меняться с появлением современности и ростом участия женщин в общественной сфере. По мере того как женщины получали больше прав и свобод, они также стали более заметными в сферах, где традиционно доминировали мужчины, включая преступность. Этот сдвиг в отношении общества к роли и возможностям женщин имел глубокие последствия для их участия в преступности и применяемых стратегий предотвращения.

Во многих обществах правовые рамки, регулирующие обращение с женщинами и девочками в системе уголовного правосудия, отражают и укрепляют эти общественные взгляды. Законы часто предусматривали более мягкое обращение с женщинами и девочками, отражая убежденность в том, что они менее виновны в своих действиях, чем мужчины. Однако эта предполагаемая снисходительность часто основывалась на стереотипах и предположениях о присущей женщинам доброте, а не на искреннем признании их индивидуальных обстоятельств.

Культурные нормы, касающиеся гендерных ролей и поведения, также сыграли важную роль в формировании предотвращения преступности среди женщин и девочек. Во многих обществах от женщин и девочек ожидалось, что они будут соответствовать строгим гендерным нормам, которые ограничивали их возможности для образования, трудоустройства и социальной мобильности. Эти ограничения часто подталкивали женщин и девочек к преступной деятельности как к средству выживания или восстания против репрессивных социальных структур.

В целом, исторические взгляды на гендерные факторы в предотвращении преступности среди женщин и девочек подчеркивают сложный и развивающийся характер общественных отношений, правовых рамок и культурных норм. Понимая исторический контекст этих факторов, мы сможем лучше понять проблемы, с которыми сталкиваются женщины и девочки в системе уголовного правосудия, и разработать более эффективные стратегии предотвращения.

Правовые рамки исторически играли важную роль в предотвращении преступности среди женщин и девочек. Эти рамки охватывают законы, политику и практику, регулирующие обращение с женщинами-правонарушителями в системе уголовного правосудия. На протяжении всей истории правовые системы отражали и укрепляли отношение общества к женщинам, что часто приводило к дифференцированному обращению по признаку пола.

Во многих ранних правовых системах женщинам предоставлялась определенная степень снисходительности по сравнению с мужчинами. Эта снисходительность часто коренилась в патерналистских представлениях о моральном превосходстве женщин и их роли как опекунов и воспитателей. В результате женщины и девочки часто считались менее виновными в своих действиях и с большей

вероятностью получали более мягкие приговоры или альтернативные формы наказания.

Однако эта предполагаемая снисходительность не всегда приносила пользу женщинам и девочкам, поскольку зачастую она основывалась на стереотипах и предположениях об их поведении. Например, к женщинам, которые нарушали традиционные гендерные роли или вели поведение, которое считалось «неженственным», правовая система часто относилась более жестко.

По мере развития правовых систем и модернизации общества происходил постепенный переход к более нейтральным с гендерной точки зрения законам и практикам. На этот сдвиг повлияло изменение отношения общества к гендерным ролям и возросшее признание прав женщин. Однако даже в современных правовых системах гендерные предубеждения и стереотипы все еще могут влиять на обращение с женщинами-правонарушителями.

В последние годы растет признание необходимости устранения гендерных предубеждений в системе уголовного правосудия. Многие юрисдикции провели реформы, направленные на сокращение различий в вынесении приговоров и улучшение обращения с женщинами-правонарушителями. Эти реформы включают разработку гендерно-ориентированной политики и программ, которые учитывают уникальные потребности и обстоятельства женщин и девочек в системе уголовного правосудия.

В целом, правовые рамки играют решающую роль в предотвращении преступности среди женщин и девочек. Решая проблему гендерных предубеждений и обеспечивая справедливость и равноправие законов и практики, правовые системы могут помочь снизить риск совершения преступлений женщинами и способствовать реабилитации и реинтеграции женщин-правонарушителей в общество.

Культурные нормы, касающиеся гендерных ролей и поведения, также повлияли на предотвращение преступлений среди женщин и девочек. Во многих обществах от женщин и девочек ожидалось, что они будут соответствовать строгим гендерным нормам, которые ограничивали их возможности для образования, трудоустройства и социальной мобильности. Эти ограничения часто подталкивали женщин и девочек к преступной деятельности как к средству выживания или восстания против репрессивных социальных структур.

Заключение. В заключение можно сказать, что на протяжении всей истории гендерные факторы играли значительную роль в формировании мер по предотвращению преступности среди женщин и девочек. Отношения общества, правовые рамки и культурные нормы – все это способствовало тому, как женщины и девочки воспринимаются и обращаются с ними в системе уголовного правосудия. Понимая исторический контекст этих факторов, мы сможем лучше устранить коренные причины участия женщин и девочек в преступности и разработать более эффективные стратегии предотвращения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Chesney-Lind, M., & Pasko, L. (2004). *The Female Offender: Girls, Women, and Crime*. Sage Publications.
2. Heidensohn, F. (1996). *Women and Crime* (2nd ed.). Macmillan.
3. Smart, C. (1977). *Women, Crime and Criminology: A Feminist Critique*. Routledge & Kegan Paul.
4. Gelsthorpe, L., & Morris, A. (eds.). (2002). *Feminist Perspectives in Criminology*. Open University Press.
5. Zedner, L. (2002). *Women, Crime, and Custody in Victorian England*. Clarendon Press.
6. Simon, R. J. (1975). *Women and Crime*. Lexington Books.
7. Daly, K., & Chesney-Lind, M. (1988). *Feminism and Criminology*. *Justice Quarterly*, 5(4), 497-538.
8. Adler, F. (1975). *Sisters in Crime: The Rise of the New Female Criminal*. McGraw-Hill.
9. Belknap, J. (2007). *The Invisible Woman: Gender, Crime, and Justice* (3rd ed.). Wadsworth Publishing.
10. Miller, S. L., & Mullins, C. W. (2006). *Gender and Community Corrections: Women's Pathways to Crime*. Prentice Hall.



Sarvinov XO'JAMBERDIYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sarvinovxojamberdiyeva908@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori (DSc) M.Shodiyeva taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING DIVERGENT TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarining divergent tafakkurini rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida o'rganilgan. Boshlang'ich sinif o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni oshirish, o'quvchilarni fikrlash doirasini kengaytirish bugungi kunda eng muhim dolzarb masala sifatida qaralib kelinmoqda. Maqolada divergent tafakkur, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, qobiliyatlari, fikrlar turlari va muammolarning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Divergent tafakkur, fikrlash turlari, pedagogik muammo, qobiliyat

РАЗВИТИЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье развитие дивергентного мышления учащихся младших классов рассматривается как педагогическая проблема. Повышение логического мышления учащихся младших классов и расширение сферы мышления учащихся является важнейшим вопросом, рассматриваемым сегодня. В статье рассматривается дивергентное мышление, логическое мышление учащихся, способности, типы мыслей и способы решения проблем.

Ключевые слова: Дивергентное мышление, типы мышления, педагогическая задача, способности.

DEVELOPMENT OF DIVERGENT THINKING OF PRIMARY CLASS STUDENTS - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

In this article, the developmt of divergt thinking of elementary school studs is studied as a pedagogical problem. Increasing the logical thinking of elementary school studs and expanding the scope of thinking of studs is the most important issue being considered today. The article discusses divergt thinking, studs' logical thinking, abilities, types of thoughts, and solutions to problems.

Key words: Divergt thinking, types of thinking, pedagogical problem, ability.

Kirish. Ma'lumki, o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish maktab ta'limining asosiy vazifalaridan biridir.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda axborotlar, ma'lumotlar ko'lamini kengaymoqda, bu nafaqat bu axborotlarni egallash, balki undan samarali foydalanish, paydo bo'lgan muammolarning standart yechimlarini topish, shu jumladan, yangi axborotlarni yaratish uchun ham zarurdir. Bunda belgilangan muammolarni hal qilish jarayonida har biri to'g'ri bo'lganko'p qirrali javoblarni topishga qaratilgan divergent fikrlashdan foydalanishga o'rgatish dolzarb va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O'quv faoliyati jarayonida kichik maktab o'quvchilarida divergent (turlicha) fikrlashni rivojlantirish muammosi ko'p qirrali va shuning uchun falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu mavzuni qamrab oladigan ilmiy ishlarni o'rganish zarurati tug'iladi.

Manba va adabiyotlar tahlili. Divergent fikrlash masalasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda bir necha marta ko'tarilgan.

Respublikamiz olimlari A.R.Aripdjanova, O.P.Aslonova, H.S.Bakiyeva, J.T.Yuldashev va boshqalar divergent tafakkurni rivojlantirish masalalarini ilmiy-pedagogik jihatdan aniqlashtirgan.

D.Guilford, D.Piaget, S.Mednik, A.M.Matyushkin, S.Tatishchev, I.V.Blauberg kabi ko'plab rus va xorijiy o'qituvchilar va psixologlar divergent fikrlashni tadqiq qilishgan.

Fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish muammosi bilan S.L.Rubinshteyn, G.P.Antonova, A.A.Lyublinskaya, N.F.Talyzina, D.B.Bogoyavlenskaya, E.Bono, L.S.Vygotskiy, V.V.Davydov, V.S.Kuzin, E.I.Kubyskina, P.Y.Ponomarev va boshqalar o'z asarlarini ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlagan.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining va salohiyatining eng yuksak shaklidir. Tafakkur shaxsning obyektiv voqeilikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog'lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan

iborat bo'lganaqliy jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida boshlanadi va takomillashadi.

Tahlil va natijalar. Fikrlash barcha insonlarga xos bo'lib, har bir shaxs bir qator o'ziga xos bilim va ko'nikmalarga ega. Boshqacha qilib aytganda, har bir inson turli xil fikrlash jarayonlarini qabul qilishi va rivojlanishi mumkin.

Boshqa tomondan, har bir fikr turi aniq vazifalarni bajarish uchun samaraliroq ekanligini ta'kidlash lozim. Muayyan bilim faoliyati fikrlashning bir yoki boshqa turlaridan ko'proq foyda keltirishi mumkin. Shunday qilib, fikrlashning har xil turlarini bilish va rivojlantirish muhimdir. Bu insonning bilim va qobiliyatlaridan to'liq foydalanish va bir necha muammolar uchun turli qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ilmiy manbalar tahlili psixologiyada inson fikrlashining quyidagi turlari mavjudligini ko'rsatdi:

Deduktiv fikrlash. Deduktiv mulohaza yuritish – bu bir qator fikrlardan xulosa chiqarishga imkon beradigan fikrlash turi. Boshqacha aytganda, bu “umumiy” dan boshlanib, “o'ziga xos” natijaga erishish uchun boshlangan aqliy jarayondir. Fikrlashning bunday turi muammoning sababi va kelib chiqishiga qaratilgan. Bu xulosalar va yechimlarni keltirib chiqarish uchun muammoni batafsil tahlil qilishni talab qiladi. Bu kundalik faoliyatda keng qo'llaniladigan fikrlash jarayoni bo'lib, xulosa chiqarish uchun kundalik muammolar va vaziyatlar tahlil qilinadi.

Tanqidiy fikrlash. Tanqidiy fikrlash – bu ifodalash, tahlil qilish, tushunish va baholashga asoslangan aqliy jarayon bo'lib, u yuqori amaliy fikr sifatida tasniflanadi. Bu orqali bilim eng samarali va asosli xulosaga kelish uchun qo'llaniladi, shu tariqa fikrlarni aniq xulosalarga olib kelish uchun tahliliy baholanadi. Ushbu xulosalar shaxsning qadriyatlarini va shaxsiy prinsiplariga asoslanadi.

Induktiv fikrlash. Induktiv fikrlash qarama-qarshi fikrlash usulini belgilaydi, shuningdek, izlanish, keng ko'lamli xulosalar

olish, vaziyatlarni umumlashtirish, dalillarni yaratish, dalillarning ehtimoligini o'chash, dalillarni o'rganish imkonini beradi.

Analitik fikrlash. Analitik fikrlash axborotni tahlil qilishdan iborat. Bu tartibli bo'lish bilan tavsiflanadi, ya'ni ta'qib qilinadigan ratsional ketma-ketlikni taqdim etadi. Shu tarzda, analitik fikrlashga asoslangan muammolarni yechish umumiylikdan boshlanib, har doim javob topishga qaratilgan, shunga muvofiq hal qiluvchi fikrlash turi hisoblanadi.

Tizimli fikrlash. Tizimli fikrlash – bu turli xil quyi tizimlar yoki o'zaro bog'liq omillardan tashkil topgan tizimda yuzaga keladigan fikrlash turi. U narsalarning to'liqroq va sodda ko'rinishini tushunishga qaratilgan yuqori darajada tuzilgan fikrlash turidan iborat.

Ijodiy fikrlash. Ijodiy tafakkur yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan bilim jarayonlarini o'z ichiga olib, ijodiy fikrlash o'ziga xosligi, egiluvchanligi va ravonligi bilan ajralib turadigan bilimlarni egallash deb ta'riflanishi mumkin.

Sintez fikrlash. Sintez fikrlash turli elementlarning tahlili bilan tavsiflanadi. Bu shaxsiy o'rganish uchun muhim bo'lgan fikrlash turi bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'lum bir mavzudagi g'oyalarni saralashdan iborat. Sintez tafakkuri elementlarni xotirada saqlashga imkon beradi, chunki ular umumlashtiruvchi jarayonga duch keladi. Bu shaxsiy jarayondan iborat bo'lib, unda har bir shaxs mavzuga doir qismlardan muhim bir butunlikni tashkil qiladi. Shu tarzda, inson konsepsiyaning bir nechta xususiyatlarini ularni umumiyroq qamrab olgan holda eslab qolishi mumkin.

So'roqli fikrlash. So'roq tafakkuri savollarga va muhim jihatlarni so'roq qilishga asoslanadi. Mavjud mavzuning o'ziga xos xususiyatlarini asta-sekin bilish uchun savoldan foydalaniladi. Shu tarzda, so'roqli fikrlash savollardan foydalanish natijasida paydo bo'ladigan fikrlash tarzini belgilaydi. Aynan shu element o'z fikrlashini rivojlantirishga va ma'lumot olishga imkon beradi. Ko'tarilgan savollar orqali yakuniy xulosa chiqarish uchun ma'lumotlar olinadi.

Divergent fikrlash. Ikki tomonlama fikrlash, shuningdek, lateral fikrlash deb ham ataladi. Bu doimo muhokama qiladigan, shubha qiladigan va alternatalarni izlaydigan fikrlashning bir turi. Bu bir nechta yechimlarni o'rganish orqali ijodiy g'oyalarni yaratishga imkon beradigan fikrlash jarayoni. Divergent tipdagi muammolar juda kam uchraydi, shu bilan birga bunday muammolarni qo'llashda ijodiy fikrlashni rivojlantirish samaradorligi juda yuqori, chunki javoblar va muammolarga yechimlarning ko'p xilma-xilligi bolaning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi.

Konvergent fikrlash. Ma'lumki, konvergent tafakkur ketma-ket, mantiqiy, bir yo'nalishli fikrlashdir. Odatda maktabda konvergent muammolar ko'rib chiqiladi, ya'ni asosan konvergent fikrlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan juda o'ziga xos shartga, qat'iy yechim algoritmitiga va yagona to'g'ri javobga ega. A.I.Savenkov ta'kidlaganidek, "tafakkurning bu turi ijodiy fikrlash bilan solishtirganda oddiyroq hisoblanadi, lekin bu bolaning o'quv qobiliyatini shakllantirishdagi ahamiyatini kamaytirmaydi.

O'z navbatida, konvergent tafakkur divergent tafakkurga qarama-qarshi fikr yuritish turidir. Darhaqiqat, divergent fikrlash miyaning o'ng yarim sharidagi jarayonlar tomonidan, konvergent fikrlash chap yarim shardagi jarayonlar tomonidan boshqariladi.

Sinvergent fikrlash. Ushbu mulohaza divergent va konvergent fikrlash o'rtasidagi kombinatsiyani anglatadi. Shunday qilib, bu konvergent tafakkurning batafsil va baholash tomonlarini o'z ichiga olgan hamda ularni divergent tafakkur bilan bog'liq bo'lgan muqobil va yangi jarayonlar bilan bog'laydigan fikrlash uslubidir. Ushbu mulohazani rivojlantirish, ijodni tahlil bilan bog'lashga imkon beradi, bir nechta sohalarida samarali yechimlarga erishish uchun yuqori imkoniyatga ega fikrlash sifatida qaraladi.

Konseptual fikrlash. Konseptual fikrlash muammolarni aks ettirish va o'z-o'zini baholashni rivojlantirishdan iborat. Bu ijodiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq va uning asosiy maqsadi aniq yechimlarni topishdir. Biroq, xilma-xil fikrlashdan farqli o'laroq, ushbu fikrlash turi ilgari mavjud bo'lgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishga qaratilgan.

Metaforik fikrlash. Metaforik tafakkur yangi aloqalarni o'rnatishga asoslangan. Bu fikrlashning ijodiy turi hisoblanib, bunda yangi elementlarni yaratishga emas, balki mavjud elementlar o'rtasidagi yangi aloqalarga e'tibor qaratiladi. Fikrlashning ushbu turi bilan hikoyalar yaratish, tasavvurni rivojlantirish va ushbu elementlar orqali farqlangan jihatlar o'rtasida yangi aloqalarni yaratish mumkin.

An'anaviy tafakkur. An'anaviy fikrlash mantiqiy jarayonlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunda yechimga e'tibor qaratiladi va uni hal qilish uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan elementlarni topishga doir real vaziyatlarni izlashga qaratiladi. U vertikal fikrlash asoslaridan birini tashkil etadi, bunda mantiq bir yo'nalishli rolgga ega bo'ladi va chiziqli hamda izchil yo'lni rivojlantiradi.

Fikrlash dizayni usuli olti bosqichdan iborat. Har bir bosqich ikki qismdan iborat: divergent (lat. *divergere* – tarqalish) – bitta muammoning ko'plab yechimlarini izlash va konvergent (lat. *sonvergere* – to'planish) – vazifani hal qilish bo'yicha yo'riqnomadan aniq foydalanish.

Divergent fikrlash haqida birinchi bo'lib J.Gilford tadqiqotlar olib bordi. Olim divergent fikrlash turli yo'nalishlarda olib boradigan fikrlash turi ekanligini ta'kidladi. Ushbu turdagi fikrlash bir savolga bir nechta javob yoki uni hal qilishning bir nechta usullarini berish imkonligini nazarda tutadi, bu ijodiy va g'ayrioddiy g'oyalarning paydo bo'lishi, shuningdek, shaxsiy o'zini namoyon qilish sharti hisoblanadi.

A.A.Lenkova divergent fikrlash deganda boshlang'ich sinf o'quvchisining kognitiv faoliyatining o'ziga xos turini tushunadi, bu o'quvchilar tomonidan to'plangan hayotiy tajribaga asoslanib, yo'naltirilgan va rag'batlantirilgan shaxsiy faoliyat orqali moslashuvchan tuzilmalarga ega turli xil yangi axborot ob'ektlarini izlash va yaratishga imkon beradi. tashqaridan [5].

N.V.Strelsovaning ta'kidlashicha, bola fikrlashining moslashuvchanligi, birinchi navbatda, vaziyat va sharoitlarni qayta qurish va qayta baholash bilan bog'liq. Fikrlashning bu xususiyati bolaning o'zi allaqachon o'zlashtirgan fikrlash vositalarida yangi xususiyatlar va munosabatlarini aniqlash qobiliyatiga, shuningdek, ilgari o'zlashtirilgan fikrlash vositalaridan yangi noodatiy sharoitlarda foydalanish qobiliyati va tayyorligiga bog'liq. [6].

E.Torrens, K.Taylor, G.Gruberlar divergent fikrlashga doir eng aniq dalillarni keltira oldilar. Ular tafakkurning bunday turi g'ayrioddiy g'oyalarni izlash, faoliyatning nostandart shakllaridan foydalanish va tadqiqotga qiziqish uyg'otishga xizmat qilishini aniqladilar. Divergent tafakkur insonga faktlarni yaxshiroq tahlil qilish va solishtirish, farazlar qilish va taxmin qilish, olingan ma'lumotlarni tasniflash imkonini beradi. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash lozimki, o'qituvchilar o'z amaliyotida bolalarning divergent tafakkurini rivojlantirishga amalda e'tibor bermaydigan jihatdir.

I.V.Xoldarovaning ta'kidlashicha, divergent tafakkur – bu muammoni tadqiq qilish uchun nostandart yondashuv qo'llaniladigan ijodiy fikrlash shakli bo'lib, ko'p imkoniyatlarni kashf etish orqali ijodiy g'oyalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan tafakkur jarayonidir. Muallif divergent tafakkur – yangi va noan'anaviy yo'llar, yangi va noan'anaviy imkoniyatlar, yangi va noan'anaviy g'oyalar va yoki yangi va noan'anaviy yechimlarni qidirish va ko'rib chiqishga undaydi deb hisoblaydi [8].

Divergent fikrlash vaziyatga turli nuqtai nazardan qarash va turli yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi. Bu yangi va original g'oyalarni yaratishga imkon beradi. Divergent fikrlash moslashuvchanlikni ta'minlaydi va bir xil vaziyatni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqishga imkon beradi va ijodiy jihatlarni qamrab oladi. Shu asosda muammolarni hal qilishda turli xil yondashuvlardan foydalanishlari mumkin, bu esa yangi va original g'oyalarni yaratishga yordam beradi. Ushbu yondashuv yashirin imkoniyatlarni ko'rishga va maqsadlarga erishishning innovatsion usullarini topishga yordam beradi. Bitta muammoga bir va undan ortiq yechimlarni topishni ta'minlaydi [7].

Bola faoliyatida divergentlik va konvergentlik bir-biri bilan uyg'unlashadi: masalan, faoliyatning ba'zi tarkibiy qismlarini konvergent usulda qurishi mumkin, boshqalari esa ushbu maqsadga erishish usullarini divergent usulda topishi

mumkin. Bundan tashqari, bola konvergent yoki divergent tarzda izlayotgan faoliyat tarkibiy komponentlarining munosabati, bola obyektini idrok etishda harakatlanishi bilan bir necha bor o'zgarishi mumkin [1].

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida divergent ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

– masalalardagi dastlabki ma'lumotlarini tahlil qilish va ularni to'g'ri talqin qila olish qobiliyati;

– turli savollarga javob topish jarayonida izlashda yo'nalishni o'zgartira olish qobiliyati;

– kutilmagan natijalarga olib keladigan muammoni hal qilishning turli usullarini ishlab chiqarish qobiliyati;

– berilgan yechimlarga muqobil yechimlarni topish qobiliyati;

– noaniqlik holatida o'z-o'zini aniqlashtira olish qobiliyati;

– muammoning yechimiga tizimli va yaxlit tarzda yondasha olish qobiliyati va boshqalar.

Amaliyot bilimlarning haqiqiylikini ko'rsatuvchi mezondir. Kuzatish, tajriba o'zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakllariga kiradi.

Kichik yoshdagi bolalarda divergent fikrlash rivojlanishining muhim ko'rsatkichi kognitiv motivatsiyaning uyg'onishi hisoblanadi. Aniq yechim topish uchun bola o'zining tadqiqot faoliyatidan foydalanishni boshlaydi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, turli xil fikrlash turini faol rivojlantirayotgan bola o'zini o'rab turgan atrofdagi hamma narsaning asl tasvirlarini ko'radi. Bunday bola hamma narsaga faol qiziqadi, o'zi taxminiy javoblarni shakllantirishi mumkin bo'lganko'plab aniq savollarni beradi. O'yin faoliyatiga kelsak, bunday bolalar roli o'yinlarni afzal ko'radilar, chunki ular syujetni mustaqil ravishda o'ylash va uni batafsilroq o'ylash yoki mavjudini diversifikatsiya qilish va o'zgartirish, shuningdek, rollar va qoidalarni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa va takliflar. Bolalikda divergent fikrlash asosan bolalarda nutqning tezroq rivojlanishida, musiqaga, rasm chizishga, qiziquvchanlikka, "nostandart", "noqulay" savollar berishga moyilligida va turli sohalarada tadqiqot faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ko'pgina tadqiqotlar va ilmiy ishlarda divergent fikrlashning yuqori darajasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: yuqori motivatsiya; tadqiqot faoliyati; ijodkorlik va zukkolikka moyillik; original va nostandart yechimlar istagi; faoliyatning turli yo'nalishlarida yuqori saviyali mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan yuqori natijalarga erishish.

Fikrlash bolalarni hayotiy qadriyatlarini tushunishga ma'no sarflashga majbur qiladi. Bu zamonaviy ko'p qutbli dunyoda o'sib borayotgan shaxsning qadriyat tanlovi sifatida insonparvarlik yo'nalishi va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishga ta'sir qiluvchi eng muhim omildir.

ADABIYOTLAR

1. Adizova N.B. Muammoli ta'lim asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent tafakkurini tarbiyalash va rivojlantirish // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № 11 (3) – 2023, 386-390-b. ISSN: 2181-1342 (Online). Sayt: : <https://scienceproblems.uz>. DOI: 10.47390/SP1342V3I11Y2023; 390-b.
2. Aslonova O.P. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur tezligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari: ped.fanl.fals.fanl.doktori diss.avtor. -T.: 2019. 64-b.
3. Yo'ldoshev J. Masalalar yechish bo'yicha praktikum (Masalalar orqali divergent tafakkurni rivojlantirish usullari) / o'quv qo'llanma / Qarshi: "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2021. 116 b.
4. Б. Карашашева, А. Н. Шевчук. – Текст: непосредственный // Молодой учёный. – 2017. – № 18.1 (152.1). – С. 30-34.
5. Elektron resurs: <http://www.emissia.org/offline/2012/1765.htm>. Lenkova A.A., D.F.Plyasov. Развитие дивергентного мышления творчески одаренных младших школьников средствами ТРИЗ технологий //
6. Стрельцова Н. В. Особенности развития и проявления дивергентного мышления у старших дошкольников: сборник трудов конференции. /
7. Н. В. Стрельцова, М. А. Брутова // Общество, педагогика, психология: актуальные исследования : материалы Всерос. науч.-практ. конф. с международным участием (Чебоксары, 1 окт. 2021 г.) / редкол.: Ж. В. Мурзина [и др.] – Чебоксары: ИД «Среда», 2021. – С. 286-290. – ISBN 978-5-907411-72-2
8. Tuxtasinova G. Elektron ta'lim ilovalarini ishlab chiqish va qo'llash orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning divergent tafakkurini rivojlantirishning usullari // "Raqqamli didaktika va madaniyat: zamonaviy tendensiyalar, yondashuvlar, yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani 2024-yil 17-aprel. 239-242-b.; 240-b.
9. Xoldarova I.V., Umarqulova M.A. Bolalarda divergent tafakkurni rivojlantirish uchun interfaol metodlar // Международный научный журнал «Научный Фокус», № 1(100), часть 1. май, 2023.; 582-b.
10. Aziz SA'DULLAYEV. (2024). ASPECTS OF FORMING VOLUNTARY QUALITIES IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENT WRESTLERS. Acta NUUZ, 1(1.4), 176-179. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.4.2035>



Kamoliddin XO'SHBOQOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: kamolxoshboqov1995@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti f.f.d A.Qodirova taqrizi ostida

THE ROLE OF CONFLICT IN INTERPERSONAL RELATIONS

Аннотация

In addition to comments aimed at explaining the meaning and essence of the concept of conflict, this article also discusses the uniqueness of conflict situations that may occur in pedagogical activities, interpersonal relationships, the causes that cause them, and the relationship to the topic.

Key words: Human, need, interest, education, attitude, problem, pedagogical conflicts, conflict, conflict, stress.

РОЛЬ КОНФЛИКТА В МЕЖПЕРСОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

Помимо комментариев, направленных на разъяснение значения и сущности понятия конфликт, в данной статье также рассматривается своеобразие конфликтных ситуаций, которые могут возникнуть в педагогической деятельности, межличностных отношениях, причины, вызывающие их, и отношение к теме.

Ключевые слова: Человек, потребность, интерес, образование, отношение, проблема, педагогические конфликты, конфликт, конфликт, стресс.

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA NIZONING O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada nizo tushunchasining mazmuni va moxiyatini tushuntirishga qaratilgan mulohazalar bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatda, shaxslararo munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgannizoli vaziyatlarning o'ziga xosligi, keltirib chiqaruvchi sabablar va mavzuga oid munosabatlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Inson, ehtiyoj, qiziqish, tarbiya, munosabat, muammo, pedagogik nizolar, ziddiyat, ixtilof, stress.

Kirish. Konflikt har bir inson hayotiga aloqador bo'lgano'ziga xos jarayon bo'lib, hech bir inson o'zini komil ishonch bilan konflikt vaziyatlardan muhofaza qilganman deb ayta olmaydi. Konfliktlar inson hayotining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki har bir inson o'z hayoti davomida konfliktlar bilan to'qnash keladi. Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konflikt bilan to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy talablaridan biridir. So'nggi vaqtlarda zamonaviy jamiyatlardagi insonga bo'lganturli ilmiy-texnik, ma'naviy, iqtisodiy ta'sirlarning haddan ziyod ortib borishi, zamonaviy jamiyatlarda yashash tarzining murakkablik tomon ortib borayotganligi odamlar to'qnash kelishi mumkin bo'lganturli konflikt vaziyatlarni ham oshiradi.

Bolalik davrida o'yinchoqlarni talashish, birovlariga hasad qilish, yoki o'g'il bolalarning janjal qilib urishganini ko'p kuzatgansiz. Mana shunday konfliktlar keyinchalik oilada, er-xotin, qaynona-kelin, aka-opalar, yaqinlar, do'stlar, ijtimoiy guruhlar, turli kompaniyalar o'rtasida, shuningdek mehnat faoliyatida ham vujudga kelishi mumkin.

Inson tug'ilibdiki, uning hayoti turli ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq holda davom etadi. Bu munosabatlar turlicha tarzda namoyon bo'lib, ular insonga qulaylik yoki noqulaylik to'g'dirishi mumkin. Ana shunday vaziyatlardan biri konfliktlar bo'lib, u ba'zida bizda noqulay munosabatlarni vujudga keltiradi. Konfliktlar nizo va ziddiyatlar tarzida hayotning bir maromda davom etishiga o'z ta'sirini ko'rsatib turadi.

Ijtimoiy munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o'zaro kelishmovchiliklarning bo'lib turishi muqarrar hisoblanadi. Shuning uchun ba'zan olimlar ziddiyat yoki nizolarning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlari ham bo'lishi mumkinligini ochiq e'tirof etadilar. Rus olimasi G. Andreeva ayrim ziddiyatlarning konstruktiv oqibatlari to'g'risida yozadi. Uning fikricha, ba'zan ikki shaxs o'rtasida kelib chiqqan nizo ularning istiqbolda to'g'ri xulosa chiqarib, shunady harakatni boshqa qaytarmaslikka, omilkorlikka, xushyorlikka undaydi. Yoki bir qarashda tanbehga assolangan shaxslararo ziddiyat shaxsni o'z ustida muttasil ishlashga, o'z xulqini o'zi tuzatishiga sabab bo'ladi. Bunday

nizolar oqibatida ko'ra konstruktiv deb ataladi. Destruktiv nizoning oqibati esa ko'pincha salbiy bo'lib, u shaxslararo antogonizmi keltirib chiqaradi, tomonlarning asablari charchaydi, ular xastalanib qolishi ham mumkin. Yoki er va xotin o'rtasida, yohud qaynona va kelin o'rtasidagi nizo oila ajrimiga sabab bo'lishi va bir butun oila buzilib ketishi mumkin.

Psixologik adabiyotlarda – konflikt, nizo yoki ziddiyat – bu ayrim alohida olingan shaxs ongida, yoki shaxslararo muloqot jarayonida, guruh doirasida yoki guruhlararo o'zaro muloqot va ta'sir paytlarida biror muammo, masala yoki qarashlar borasida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, qarama-qarshi fikr, qarash va pozitsiyalarning to'qnashuvi oqibati paydo bo'lgansalbiy hissiyotlarga to'la munosabatlar maromini bildiruvchi ijtimoiy psixologik xodisa sifatida tushuniladi.

Konfliktlar tabiiy hodisa bo'lib, konfliktga to'g'ri munosabat o'rnatish inson tarbiyasi, uning shakllanishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, nizo insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishish jarayonining o'ziga xos oqibatlari majmuidan iborat bo'lgannatijaviy hodisa va voqelikdir. Turli nizolar va ularning xususiyatlarini konfliktologiya sohasi o'rganadi. O'zbek tilining izohli lug'atida pedagogik nizo tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: "Pedagogik nizo – bu o'qituvchi va o'quvchi, ustoz va shogird, domla va talaba o'zaro kelishmovchiliklari yoki qaramaqarshilik, dushmanlik, adovat orqasida tug'ilgan holat, munosabat, ixtilof, nifoq. Konfliktologiya, yoki nizolar yechimi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy sohalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiyaning nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, nizolarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo nizolar, nizolarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi nizolar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi.

Nizoga moyillik (konfliktogenlik) deganda nizolarning yuzaga kelishini ta'minlovchi pedagogik jarayon va ijtimoiy faoliyat omillari yig'indisi tushuniladi. Mazkur sohaga doir amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda nizoga

moyillik ta'lim muhitining obyektiv qonuniyatlari bilan aloqador bo'lib, pedagogik faoliyatning murakkabligi, o'quv-tarbiya jarayoni subyektlarining intensiv nizoli vaziyatda harakatlanishi, nizoli vaziyat ishtirokchilarida intellektual komponentning buzilishiga olib keluvchi emotsionallikning ustunligi, axborotlar ko'lamining stresslarga moyillikni yuzaga keltirishi, kasbiy faoliyatning bir xil qat'iy me'yor va talablar doirasida nazorat qilinishi; axborotlar globallashuvi sharoitida o'quvchilarda addiktik xulq-atvorning kuchayib borishi, o'quv jarayonini ta'limni axborotlashirish talablari darajasida tashkil etilmasligi bilan tavsiflanishi haqidagi xulosaga kelindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxslararo nizo – bir yoki bir necha konkret shaxslarning o'zaro yoki guruh doirasidagi ziddiyatidir. Bu keng tarfalgan nizolardan biri bo'lib, bunday nizolar rasmiy jamoalarda ham norasmiy muloqotlar oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday nizolar odamlarning fe'l-atvoriga ham, konkeret vaziyatlarga ham bog'liq tarzda kelib chiqishi va vaziyatning xarakteriga bog'liq xolda turlicha kechishi mumkin. Keng tarqalgan shaxslararo nizolar biri – bu er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar hisoblanadi. Ularning tabiati ham, davom etish muddati ham, xal bo'lish yo'llari ham turlicha bo'lib, har qanday ko'rinishda ham baribir bunday nizo ikki va undan ortiq shaxslar o'rtasidagi psixologik masofani tobora uzoqlashtiradi, samimiyatning kamayishiga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlarda nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat (persektiv tizim, identifikasiya), o'z-o'zini adekvat boshkaruv, ongli "menlik" kabi ko'rinishlari haqida ko'pgina nazariy-ilmiy muloxazalar mavjud.

Gippokrat o'zining fan olamidagi ilk bor tadqiq qilingan individual farqlanishning tabiiy-ilmiy nazariyasida xar bir insonning o'ziga xos va betakror hissiy boshqaruv xususiyatlari bo'ladiki, unda xayotda odamlar bilan muloqotda va birgalikdagi faoliyat jarayonlarida unumli foydalanish zarurligini va bu ma'lum ma'nodagi nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat ekanligini uqtiradi. Buyuk mutafakkir Ibn Sinoning "Tib konunlari"da esa xar bir insonning mijoz va bu mijozga mos xarakterlar majmuasining batafsil ishlab chiqqanligini nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabatni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilish mumkin.

Beruniy o'z asarlarida tabiat va jamiyatdagi barcha ziddiyatdarga nisbatan ijtimoiy - mantiqiy fikrlay olish va mantiqiy xulosalar chiqara olish xususiyatini xar bir insonda tarkib toptirish lozim bo'lgannizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat sifatida talqin kiladi.

Darxaqiqat, Gippokrat, Ibn Sino va Beruniylarning muloxazalaridagi nazariy-ilmiy mazmun o'zining amaliy qimmatini bugungi kunda xam yuqotgan emas. Chunki, tabiatan turli-tuman yaratilgan insonning xulq-atvori, hissiy kechinmalari, qiziqish va motivlari xam bir-biriga o'xshamagan rang-barang xolatda namoyon bo'lishi mumkin. Xuddi ana shu rang-baranglikni o'rganish, bilish va rivojlantirish insondagi nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabatning azaliy muhim sharti xisoblangan.

Taniqli psixolog J.Brunerning "yangi qarashlar" g'oyasiga asosan nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat "persektiv ximoya" vositasi sifatida, ya'ni insonning inson tomonidan adekvat idrok qilinishi bilan bevosita bog'lab talqin qilinadi. Albatta, bu o'rinda insonlar o'rtasidagi muomala, muloqot va munosabat mezonlari alohida o'rin tutadi.

Pedagogning kasbiy vazifalarini bajarish sifati va maktabning nizoli muhitga moyilligining o'zaro aloqadorligini hisobga olgan holda tadqiqot doirasida o'qituvchining innovatsion salohiyat darajasi va mas'uliyatni yuqori darajada anglashi konseptual asos sifatida olindi.

Pedagogik nizolarning oldini olish, bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirishning konseptual asoslari N.Azizxodjaeva, M.Axmedova, R.Jo'raev, X.Ibragimov, N.Egamberdievalar tomonidan o'rganilgan.

Ayniqsa, so'nggi vaqtlarda psixologik tadqiqotlarda nizoga hayotimizning tabiiy "tarkibiy qismi" sifatida yondashuvning ustunligi kuzatildi (N.Grishina, S.Yemelyanov, N.Vishnyakova, E.G'oziev, G'.Shoumarov va h.k.).

Tahlil va natijalar. Zamonaviy yondashuvlar tahlili nizo motiv, nuqtai nazar, ehtiyoj, qiziqish, maqsadga qarama-qarshi yo'nalganlik, to'qnashuv tarzida talqin etilishini ko'rsatdi. Ayrim olimlar nizo tushunchasini emotsional jihat bilan bog'liqlikda salbiy emotsiyalarga moyil subyektlar o'rtasidagi qarama-qarshilikning murakkab shakli deya izohlashgan (A.Ancupov, A.Шипилов, Е.Богданов, О.Гомова, О.Щербакова, А.Вебер, Н.Вебер, G.Schwarz, P. Heigl).

O.Щербакова konfliktologik madaniyatni tahlil etish orqali shaxslararo munosabatlar jarayonida yuzaga keluvchi muammolarni ikki tomonlama foydali tarzda hal etishni ta'minlovchi shaxsning ijtimoiy zaruriy sifat va xususiyatlarini aks ettiruvchi nizoli vaziyatdagi shaxsning xulq-atvor odobi tarzida aniqlashtirgan.

P.Heigl konfliktologik madaniyatni insonning nizoli vaziyatda adekvat yo'nalganligi va konstruktiv harakatlanish qobiliyati; N.Davenport nizoli vaziyatda o'zining mas'uliyatini anglash asosida konstruktiv harakatlanishga imkon beruvchi sifatlari yig'indisi sifatida talqin etishgan.

Konfliktologik madaniyatning komponentlarini aniqlashtirishga doir turli yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, ularning mazmunida umumiy-lik kuzatildi. Jumladan, O.Щербакова konfliktologik madaniyatning komponentlari sifatida fikrlash madaniyati, emotsional madaniyat, kommunikativ madaniyat, xulq-atvor madaniyatini; N.Azizxodjaeva, A.Xoliqovlar konfliktologik madaniyatni kommunikativ qobiliyatlar, ijobiy munosabat, empatiya, nizolarni konstruktiv hal etish, vaziyatni tahlil etish qobiliyati bilan uyg'unlikda tahlil etishgan.

Biroq barcha nazariy konsepsiyalarda umumiy nuqtai nazar, ya'ni nizo murakkab tuzilish va dinamik rivojlanish tavsifiga ega ekanligi, nizo konstruktiv va destruktiv funksiyani bajarishi haqidagi xulosaga kelingan.

Zamonaviy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, A.Becker, P.Heigl, M.Kurray, L.Deyvits, A.Dezetta kabi xorij olimlari tomonidan nizoning ijtimoiy-psixologik tabiati, pedagogik nizolarning samarali profilaktik metodlari tadqiq etilgan. P.Heigl konfliktologik madaniyatni insonning nizoli vaziyatda adekvat yo'nalganligi va konstruktiv harakatlanish qobiliyati; N.Davenport nizoli vaziyatda o'zining mas'uliyatini anglash asosida konstruktiv harakatlanishga imkon beruvchi sifatlari yig'indisi sifatida talqin etishgan. L.Kozer, R.Darendorf, Z.Freyd, K.Xorni, A.Adler, N.Azizxodjaeva, R.Safarova, X.Ibragimovning turli-tuman qarashlarini tahlil etish asosida nizolarning inson hayotidagi o'rni va roli o'rganilgan.

Amerikalik tadqiqotchi Lyuis Kozer 1956 yilda nashr qilgan "Ijtimoiy konflikt funksiyalari" nomli kitobida konfliktli munosabatlarsiz ijtimoiy guruhlar mavjud bo'lmasligini hamda ijtimoiy tizimlarning amal qilishi va almashinishida konfliktlarning ijobiy amaliy ahamiyat kasb etishini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatdi. Uning fikricha, butun jamiyatning barqarorligi unda mavjud konfliktli munosabatlarning miqdoriga va ular o'rtasidagi aloqalar tipiga bog'liq.

Nemis sosiologi Ralf Darendorf jamiyatning konfliktli modeli konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning 1965 yilda chop etilgan "Sinfy tuzilma va sinfy konflikt" asarida har bir jamiyat hukmronlikka, majburlash va bo'ysunishga asoslangan deb hisoblaydi. Qarama-qarshiliklar, konfliktlarning bo'lishiga sabab, faqat odamlarning ijtimoiy notenglikka mahkumligi emas, shu bilan birga hokimiyat, shon-shuhrat, avtoritet uchun bo'lgankurash, boshqaruv munosabatlaridagi noteng mavqega ega bo'lishdir, bunda bir xil odamlar faqat buyruq berish huquqiga, boshqa odamlar bu buyruqlarni bajarishga va bo'ysunishga majburlirlar[1].

Xorij va MDX mamlakatlari olimlari hisoblangan K. Leongard, A. Bass, A.Shmelevlar pedagogik konfliktologiyani, «pedagogik faoliyatni optimallashtirishda zarur bo'lganaxborotni qo'lga kiritish jarayoni» deb ta'kidlaydilar.

Tadqiqotchi S.A.Novikova nizo va uning kelib chiqish sabablari to'g'risida fikr yuritib, shunday yozadi: "Shaxslar o'rtasidagi nizo ko'p xollarda ularning u yoki bu masalaga bo'lgannuqtai nazarlarining mos tushmasligi, raxbarlar o'rtasida resurslarni taqsimlash, xodimlar bilan raxbar o'rtasida esa ish sharoitini qoniqarsizligi kabilar yuzasidan vujudga kelishi

mumkin. Bir lavozimga ikki nomzod qo'yilganda xam shu turdagi nizolar kelib chiqishxolatlari uchrab turadi. Shaxslararo nizolar ham odatda shaxslararo to'qnashuvlar tufayli bo'lishi mumkin. Zero, xar xil toifa, fe'ldagi odamlar xamma vaqt xam bir-birlarini tushunavermaydilar. Garchi bir ko'rinishda bizga shunday tuyulsada, m shaxslararo nizolarning 75-80 foizi moddiy manfaatdorlik zamirida sodir bo'ladi". Shu o'rinda nizolar o'ziga xos mavxum munosabat sifatida, ochiq, yoki yopiq ko'rinishlarda bo'lishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. Ochiq nizolar odatda qarama-qarshi tomonlarning ko'z oldida, to'g'ridan-to'g'ri vujudga keladi. Ular to'qnashish sodir bo'lgunga qadar to'liq yetilgan bo'ladi. Bunday nizolar rahbariyat nazorati ostida turganligi sababli korxonaga uchun unchalik xavf tug'dirmaydi va ularni boshqarish oson kechadi. "Yopiq nizolar, -deb yozadi K.Xorni, -o'ta xavflidir. Bunday nizolarni asta-sekin, belgilangan fursatda portlaydigan minaga o'xshatsa bo'ladi. Agar nizo xali "yetilmagan" yoki ularni odamlar nigoxidan yashirilsa, boshqacha qilib aytganda nizo kishilar "ichida "bo'lsa, bilingki, bu nixoyat xavfli va uni boshqarish juda qiyin" jarayondir. K.Xorni ta'kidlashicha, "yopiq nizolar ko'pincha fitna, ig'vo, hiylanayrang, fisqu-fasod shaklida rivojlanish oqibatida vujudga

keladi. Ular oraga nifoq solish, buzg'unchilikka qaratilgan bo'lib, yolg'on-yashiq, uydirma, bo'xton gaplar muxoliflar uchun asosiy qurol vazifasini bajarib kelishi bildn ham hatarlidir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Nizoli vaziyatlarga to'g'ri munosabat xar bir shaxsdagi faoliyat jarayonida sodir bo'luvchi xulq-atvor belgilari muvofiqlashtiriladigan va bir-biriga yaqinlashtirib "tenglashtiriladigan" jarayonlarning kechishi bilan xam bevosita bog'liq jarayon sifatida baholanadi va bu muammo V.E.Chudnovskiy tadqiqot-larida shaxs xarakteridagi (individual va jamoa-gurux) motivasiyalarining shakl-lanishi va amalga oshirilishi, shuningdek, o'zaro xamkorlikka intilish nuqtai-nazari dan asoslab berilgan.

Shunday qilib, real hayotda nizoning kelib chiqishi, uning qanday kechishi va yechimi uni keltirib chiqargan vaziyatdan ham ko'ra, ushbu vaziyatda ishtirok etayotgan insonlarning unga nisbatan subyektiv munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har qanday nizoli, ziddiyatli xolatlarda unga aloqador bo'lganinson sifatida ayrim o'ziga hos psixologik qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi.

ADABIYOTLAR

1. Axmedova Mukarram Tursunaliyevna Pedagogik konfliktologiya (o'quv qo'llanma): 5110900 - Pedagogika va psixologiya / M.T. Axmedova; O'zbekistan Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2016. — 319 bet.
2. Андреева Г.М. Социальная психология.-М.: Аспект-Пресс, 2003.
3. Mayers D. Sosialnaya psixologiya. M., 2010
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. 2012
5. Ансупов А Я .. Шипилов А.Н. Конфликтология. М.: Реч, 2000
6. Гришина Н.В. Психология конфликта. М.: Питер, 2008



UDK:101.1

Gulsina HASHIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
E-mail: gulshina@mail.ru

Falsafa fanlari doktori, dotsent I.Siddiqov taqrizi asosida

SPECIFIC CHARACTERISTICS AND DEVELOPMENT FACTORS OF THE ORGANIZATION OF MILITARY SOCIAL WORK IN THE SYSTEM OF THE ARMED FORCES

Annotation

This article examines the organization of military social work in the Armed Forces and the main forms of military social work. Social services provided to residents of military camps and areas of military social work are revealed. Currently, the principles of development of social work with military personnel, as well as the features of modern social work with military personnel and members of their families, are being analyzed.

